

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**JO'RAEVA SOHIBJAMOL NORQOBILOVNA
YUNUSXODJAEV ZOIR SHOKIROVICH**

KASBIY PSIXOLOGIYA

o'quv qo'llanma



5111000 - Kasb ta'limi (5410200-Agronomiya) bakalavr

5111000 - - Kasb ta'limi (5430100-Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash)

5111000-Kasb ta'limi (5430200-Qishloq xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish)



TOSHKENT-2014

Mualliflar:

JO‘RAEVA S.N.

“Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi” kafedrasining dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

Z.SH.Yunusxodjaev

“Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi” kafedrasining assistenti

Taqrizchilar:

R.Abdullaeva

Toshkent iqtisodiyot kafedrasи “Iqtisodiy pedagogika” psixologiya fanlari nomzodi,
dotsent

SH.Mamarajabov

ToshDAU “Pedagogika, psixologiya va o‘qitish metodikasi” kafedrasining dotsenti

Annotatsiya

Kasb psixologiyasi insonda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni hamda ulardagi mavjud tushuncha va tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu o'quv qo'llanmada kasb psixologiyasining predmeti, maqsad, vazifalari, sharq allomalari, psixologlarning kasb tanlash, kasbga yo'naltirish, kasbga moslashish borasidagi fikrlari, kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari, kasb tushunchasi va professiografiya, kasbiy motiv va motivasiya, shaxsning kasbiy kamoloti va boshqa ilmiy nazariy ma'lumotlar joy olgan.

O'quv qo'llanmada talabalarning kasbiy psixologiya sohasida mustaqil bajaradigan ishlari va uning turlari, mazmuni, talabalarning o'z-o'zini tarbiyalashi va bilim olishida mustaqil ishlashning roli ochib beriladi. Bundan tashqari talabalarning mustaqil ish olib borish samaralari: referatlar, kasb va shaxs psixologiyasiga doir yozma ishlar, bibliografik ko'rsatkichlar, annotatsiyalar va fan bo'yicha mavzular keng qamrovli yoritilgan.

O'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlari pedagogika va psixologiya yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va sohaga qiziqqan keng kitobxonlar jamoalari foydalanishlari mumkin.

Аннотация.

Профессиональная психология служит обогащению человека знаниями по профессии, навыками, квалификацией существующих понятий и представлений.

Данное учебное пособие включает в себя предмет профессиональной психологии, ее цели и задачи, взгляды восточных мыслителей и психологов, касающиеся выбора профессии, профориентации, профессиональной адаптации;

исследовательские методы профессиональной психологии, понятия о профессии и профессиографии, профессиональный мотив и мотивацию, профессиональное совершенство личности и другие научно-теоретические знания.

В учебном пособии раскрывается роль самостоятельно выполненной работы в области профессиональной психологии, ее виды, содержание и роль в самовоспитании и получении знаний студентами.

Кроме того, широко освещены результаты самостоятельной работы студентов: рефераты, письменная работа по профессиональной и личной психологии, библиографические показатели, аннотации и темы по дисциплине.

Учебное пособие рекомендуется для студентов направления педагогики и психологии высших учебных заведений, а также для широкого круга читателей, интересующихся данной сферой науки.

Annotation

Psycologu on professios serves for entiching humans knowledge, capibilitu, skilis, for occupation their understanding end Imagcination Furthermore, this educational textbook includes the base of psychologu on professions, the lim, lastern ansestars end psuchologists views en choosing the professions, directing to the profession, directing to the profession, teseltch methods ol profession psucholodu, concept of profession ind professiograpu, professional motive ind motivation, persons professional deve lopment ind other scientific- theoretical ingormation,

Mere over it investigates students' Independent work ind tneir tuples, t's content in the field of profession psucholodu, the tole of independent wotk inspiring, the students bu themse ives ind getting knowledge.

Besides, this educational textbook explores the benefits of independent work, esslus on individuals ind profession psuchdogu, bibliograpahic showinds, annotations ind themes according to the ind. Themes accordind to the subiecct widelu.

It can be used bu the students of Higher Eduction studuing in the sphere pedagogu ind psuchologu, it wili be liso useful for relders who ire interested in this sphere.

Mundarija

So‘z boshi.....	3
Kasbiy psixologiya fanining predmeti.....	4
Kasb psixologiyasini shakllanish tarixi.....	16
Kasb psixologiyasining ilmiy tadqiqot metodlari.....	25
Sharq mutafakkirlarining kasbiy ta’lim va tarbiyaga oid falsafiy psixologik qarashlari.....	52
Kasblar va ularning klassifikatsiyasi.....	58
Chet ellarda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlari.....	78
Shaxs psixologiyasi va kasbiy shakllanish.....	84
Kasbiy motiv va motivatsiya mexnat faoliyati motivlari.....	95
Idrok va kasbga yo’llash.....	104
Xotira va kasbiy maslaxat	115
Tafakkur va kasbni egallash.....	133
Shaxsning hissiy-irodaviy soxasi va kasbga moslashish.....	138
Qobiliyatlar va shaxsning kasbiy shakllanishi.....	145
Nutq va kasb.....	158
Temperament va kasbni egallash masalalari	175
Shaxsni kasbiy kamoloti.....	184
Reorientatsiya psixologik muammo sifatida.....	198
Kasbiy psixologiyaga oid mustaqil ishlarni yo‘lga qo‘yish, uning turlari va mazmuni.....	205
Fan bo‘yicha izohli lug‘at.....	215
Foydalilanilgan adabiyotlar.....	223

Оглавление.

Введение.....	3
Предмет профессиональной психологии.....	4
Источник формирования профессиональной психологии.....	16
Научно-исследовательские методы профессиональной психологии.....	25
Философско-психологические взгляды мыслителей Востока на профессиональное образование и воспитание.....	52
Профессии и их классификация.....	58
Профориентационные работы за рубежом.....	78
Психология личности и профессиональное формирование.....	84
Профессиональный мотив и мотивация, мотивы трудовой Деятельности.....	95
Профориентация и восприятие.....	104
Профконсультация и память.....	115
Овладение профессией и мышление.....	133
Профессиональная адаптация и эмоционально-волевые качества личности	
Способности и профессиональное формирование личности.....	138
Речь и профессия.....	145
Задачи овладения профессии и темперамент.....	158
Профессиональное совершенство личности.....	184
Реориентация как психологическая проблема.....	198
Виды и содержание, организация самостоятельных работ по профессиональнй психологии.....	205
Глоссарий.....	215
Используемая литература.....	223

Contents

Introduction.....	3
Object of the subject professional psychology.....	4
History of developing professional psychology.....	16
Scientific methods of professional psychology.....	25
Philosophical psychological viewpoints of East thinkers to the professional education.....	52
Professions and their classifications.....	58
Direction works to the profession in foreign countries.....	78
Human psychology and professional development.....	84
Professional motive and motivation. Motives of labour activity.....	95
Reason and direct to profession.....	104
Memory and professional advice.....	115
Thought and possessing the profession.....	133
Human`s sensitive-determinational branch and adapting to profession.....	138
Capabilities and human`s professional development.....	145
Speech and profession.....	158
Temperament and problems of possessing profession.....	175
Human`s professional maturity.....	184
Reorientation as a psychological problem.....	198
To control professional self studies, their kinds and summary.....	205
Explanatory dictionary.....	215
Bibliography.....	223

So‘z boshi

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil IX-sessiyasida qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»dan kelib chiqgan holda, shaxsni barkamol inson qilib tayyorlashda, tarbiyalashda barcha o‘quv fanlari singari kasbiy psixologiya fanining ham o‘rni beqiyosdir.

Xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlashda bu o‘quv predmetining o‘rni muhimligi keyingi paytlarda yaqqol sezilmoqda. Ishlab chiqarishning jumladan, qishloq xo‘jaligining turli jabhalarida faoliyat ko‘rsatayotgan mutaxassislar, insonlar o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarni va mehnat samaradorligini oshirishda, bo‘lg‘usi mutaxassisning psixologiyaga oid bilimlarni mukammal o‘rganishlari kun talabiga aylanmoqda.

Kasbiy psixologiya fanini o‘rganish davomida mutaxassislar mehnat jamoalarida yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarga kirishishning psixologik mexanizmlarini anglash bilan birga umuman olganda shaxslararo munosabatlarning muammolari, mehnat jamoalarida muomala, psixologiyaning umumiyligini qonuniyatlari va uslublarini ham keng o‘rganishga erishadilar.

Kasbiy psixologiya fani o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishi lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materallar bilan ta‘minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to’siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo’llash imkoniga ega.

Shuningdek qo‘llanmada oila, ishlab chiqarish jarayonidagi nizolarning yuzaga kelish sabablari, ularni bartaraf etishning psixologik yo‘llari, kadrlar tayyorlash va ularning qo‘nimsizligini oldini olishning psixologik vosita va usullari haqida psixologik bilimlarga ham ega bo‘lishadi.

O‘quv qo‘llanma agrar universiteti kasbiy ta’lim yo‘nalish talabalarining 1-kurs talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, unda kasbiy psixologiyaga oid bilimlarni o‘zlashtirishga qaratilgandir.

Kasbiy psixologiya fani talabalar 1-kursda o‘rganadigan fanlardan biri bo‘lganligi va talabalar kasbiy psixologik bilimlarni o‘zlashtirishda bir qadar qiyinchilik tug‘diradi. Birinchidan talabalar qator ilmiy notanish terminlarga duch keladilar, ikkinchidan talabalar ilmiy adabiyot ustida ishlash metodikasini yaxshi bilmaydilar. Shu sababli kasbiy psixologiyani o‘qitish jarayonida talabalarga aqliy mehnat metodlari va usullarini o‘rgatib borishga to‘g‘ri keladi. Uchinchidan, kechagi maktab o‘quvchisi, ishchi, rassom, hunarmand, fermer va birinchi kursda talaba sifatida kamol topa boradi. O‘qituvchi talabalarda o‘qitish jarayonini shakllantirish bilan birga ularning o‘z-o‘zini tarbiyalashiga imkon yaratishi lozim.

Modomiki shunday ekan, fanni o‘qitish jarayonida talabalar oldiga tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash vazifalarini qo‘yish bilan birga bu vazifalarni hal qilish, ya’ni talabalarning mustaqil ishlashini yo‘lga qo‘yishda ularga yordam berish, bilimlarni o‘zlashtirish metodikasini, o‘z-o‘zini tarbiyalash metodikasini o‘rgatish kerak.

KASBIY PSIXOLOGIYA FANINING PREDMETI

Respublikamiz aholisining aksariyati agar xo‘jalik sohasi bilan shug‘ullanayotganligi tufayli uning tarmoqlariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning psixologik xususiyatlari, mehnat ko‘nikmalari va malakalari bilan bo‘lg‘usi ixtisos egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bo‘lg‘usi agronom-pedagogni kasbiy tayyorlash, kasb-hunar oldiga qo‘yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o‘rganilganligiga qaramay, ularning mexanizmlari, akseleratsiya hodisasi, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi, mehnatkashlarning issiq sharoitga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo‘llari, mehnat unumdarligini oshirishning samarali usullari, ekologiyaning o‘zgarishiga o‘xshash muammolar qariyb o‘rganilmagan.

Quyidagi mavzular yuqoridagi muammolarning aksariyatiga javob berishga xizmat qiladi.

Inson-tabiat munosabatini o‘zida aks ettiradi, shaxs omili va uni hozirgi davrda ishlab chiqarishda hisobga olish mehnat samaradorligini oshirish, kasb mahoratini takomillashtirish uchun negiz bo‘lib hisoblanadi. Kasb-hunar mohiyatini ochib beruvchi professiogramma, professiografiya, psixogramma asosida qishloq xo‘jalik mutaxassislarini tayyorlash uchun agrar oliv o‘quv yurtlari intilmoqlari lozim. Zero, yuksak texnologiyani boshqarishga layoqatli, ijodiy, mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga uquvli mutaxassislar etishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo‘lar edi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga fan soxasidagi psixologik tushunchalar, kasblar haqida tushuncha, tasavvular zahirasini shakllantirish. Shuningdek, kasb tanlash va kasbga yo’naltirish yuzasidan nazariy, amaliy ma'lumotlar manbaini berish.

Fanning vazifalari:

Talabalarini ilmiy ma'lumotlar bilan tanishtirish;

Kasb tanlash va shaxs xususiyatlari o’rtasidagi bog’liklikni asoslash;

Kasblar psixodiagnostikasi haqida tushuncha berish;

Shaxs psixikasining rivojlanish bosqichlarida kasbiy rivojlanish masalalarini;

“Kasb psixologiyasi” o‘quv fanini o’zlashtirish natijasida talaba:

-kasb psixologiyasi fanining mazmun va mohiyati haqida, kasbga yo’naltirishning tarkibiy qismlari, kasb psixologiyasining metodologik asoslari, kasb psixologiyasining metodlari, faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi, xronomotraj metodi, kuzatish metodi, test metodlarini bilishi kerak;

- kasb tanlash va shaxs xususiyatlari, kasbiy oz-o’zini anglashni shakllantirishi, shaxsning kasbiy xavfsizligi psixologiyasi. Kasbiy xavfsizlikning

psixologik masalalar, ish joyi. Mexnat jamoasi, psixik holat, kasbiy qobiliyatlar bo'yicha ko'nikmalariga ega bo'lishlari ta'minlanadi.

- kasb tanlashdagi inqirozlar, kasbiy qobiliyatlarini shakllanganligini diagnostika qilish, kasbiy shakllanish jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklar, ongli kasb tanlash, hamda kasbga yo'naltirishga doir malakalariga ega bo'lishi shakllantiriladi.

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega.Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, mакtabda beriladigan ta'limgartarbiya o'quvchining turli fanlarga bo'lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo'lgan qiziqishi tez seziladi, ya'ni tasviri, musiqaviy va hokazolar. O'smirlik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko'pgina o'quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma'lum bo'ladi: ular "Men shifokor bo'laman", "Bizning o'g'limiz, qizimiz, tibbiyat institutiga hujjat topshiradi. Shunday bo'lsada, kasbiy maqsadlarning aniqligi va ularni ruyobga chiqishi bo'yicha xavotirlanish holatlari sezilib turadi.Omadsizlikka uchrasa-chi? Ayrim o'quvchilar uchun to'qqizinchi sinfni bitirgach, kasbiy yo'nalishlarini tanlash - eng dolzARB masala bo'lib qoladi.

Ko'pgina maktab bitiruvchilar kelajakda kim bo'lsam ekan yoki qaysi sohani mutaxassis bo'lsam ekan? - degan savolni o'z oldilariga qo'yib, kasb tanlash muammosiga duch kelishadi.

Natijada o'quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. Hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasdan yoki kasbiy kelajagini tushunib yetmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunda kasb dunyosida o'z o'rnini qidirish o'zgacha ma'noga ega bo'ladi. Kasb hunar kollejiga kirgan yoshlar uchun kasb tanlash muammosi to'liq yechilmagan bo'ladi. Ularning bir qismi tanloving to'g'rilingiga o'qishning birinchi yilidayoq ikkilanib qolishadi, boshqalari - mustaqil kasbiy faoliyatning boshida, ayrimlari-

kasb bo'yicha 3-4 yil ishlagandan keyin, yoshlarning ayrimlari kasb maktabini bitirib, egallagan kasbi bo'yicha ish topa olmaydilar va ishsizlar qatoriga qo'shilib qoladi. Demak, ular uchun kasb tanlash muammosi yana dolzarb bo'lib qolaveradi. Psixologik toliqish, xavotirlanish, kelajakka nisbatan ishonchsizlik, bilan qarash mehnat olamida o'zini topishida ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan o'quvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo bo'ladi.

Kishilarning individual-psixologik xususiyatlarini kasb talablari bo'yicha kasbiy tayyorgarligiga mosligini aniqlash uchun qator mutaxassisliklar bo'yicha kasbiy tanlov o'tkaziladi. Uning bajarilishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi ya'ni unga ko'ra kasbning normativ tavsiflarini belgilab olish psixologik xususiyat va sifatlarini aniqlash lozim.

Bo'lajak mutaxassis shaxsida yangi a'zolari orasida, turli yoshdagi kishilar bo'lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko'nkish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O'zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Shaxs psixologik

tuzilishidagi keskin o'zgarishlar kishining hayotini ham o'zgartiradi. Oldingi – "maktab - oila -jamiyat" tizimi ornida yangi ya'ni "kasb-oila ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar" vaziyati kelib chiqadi. Endi shaxs rivojlanishida kasb-muhit omili muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Har bir kishining hayotida kasbiy rivojlanish bo'yicha o'zgartiruvchi normativ vaqtlar mavjud bo'ladi.

Masalan; kasb-hunar kollejiga kirish, uni tugatish, ishga kirish, mehnatga bo'lgan layoqatini yo'qotish, majburiy ishdan bo'shash va boshqalar. Bunday voqealarining paydo bo'lishi bexosdan yoki qandaydir sharoitlar tufayli, gohida esa mutaxassislik sababi natijasida bo'ladi. Ko'p hollarda normativ bo'limgan voqealar kasbiy istalmagan noxush voqealar, hisoblanadi.

Jamiyatimiz uchun dolzarb psixologik muammolardan biri-bu ishchining nafaqaga chiqishi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning o'zgarishi

yangi ijtimoiy vazifa - nafaqaxo'rlar uchun psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, ular psixologik ko'mak va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'ladilar. Shaxs va kasb o'rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va kasbiy rivojlanish vaziyatlarini umumlashtirgan holda quyidagilarda ko'rishimiz mumkin:

Shaxs va kasb hamkorligining psixologik xususiyatlari.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillari Kasbiy jihatdan kelib chiqadigan psixologik muammolar

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarini xilma-xilligi.

Ta'limning keyingi turini tanlash va umumiyl o'rta ta'lim mifikabini bitirgandan so'ng ishgaga joylashish.

Kasbiy ta'limning keyingi turlarini tanlash jarayonida kasbiy maslahatlar berish.

Ta'limning keyingi turlarini tanlash va o'ziga xos maxsus kollejini bitirib ishgaga joylashish.

Kasbiy ma'lumot olishga tayyorgarlik jarayonida kasbiy maslahatlar berish, kasbiy tanlov, kasbiy tekshiruvdan o'ta olmaganlarga psixologik yordam berish.

Kasbiy ma'lumot olish va tayyorgarlik, kasb xatoliklariga yo'l qo'yish, ta'lim jarayonidan qoniqmaslik va boshqalar.

O'quv-kasbiy faoliyatning mohiyatini kuchaytirish, ta'lim jarayoniga innovasion texnologiyalarini joriy etish hamda ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'zini-o'zi boshqara olish, ko'nikmalari.

Ish joyini qidirish, ishgaga joylashish, malakaviy talablar va lavozim majburiyatlarini qabul qilinishi, yangi ijtimoiy kasbiy vazifani anglab olish.

Kasbiy tanlov va kasbga yaroqlilikni (layoqatini) aniqlash.

Yosh mutaxassis tomonidan yangi ijtimoiy, kasbiy talablar va mas'uliyatlarini qabul qilinishi.

Kasbga kirib borish orqali kasbiy tajribaga ega bo'lish, hayotda yangi tartib, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga moslashish.

Kasbga ko'nikishdagi ijtimoiy qiyinchiliklar, kasbiy layoqatsizlikning yashirin shakli, kasbiy hulq-atvorni egallashdagi va yangi hayot tarziga ko'nikishdagi qiyinchiliklar.

Kasbiy faoliyatdagi yuksalish imkoniyatlari, ish haqi, kasbdan va rahbarlar bilan o'zaro munosabatlardan qoniqmaslik, kasbiy rivojlanishdagi ziddiyatlar va ularni korreksiya qilish.

Kasbiy mehnatdan shaxsiy ma'noni topish, kasbiy hayotning yangi tomonlarini qidirish, insonlar bilan bo'lgan munosabatlardagi ziddiyatlaridagi inqirozlardan chiqish va kelishmovchiliklarni hal etish hamda psixologik charchoqni bartaraf etish.

Majburiy ravishda ishdan bo'shash, yangi ish joyini qidirish, kasbini o'zgartirish. Kasbiy hayotdagi yangi yo'lni tan olish.

Mutaxassislikning destruktiv rivojlanishi, kasbiy deformasiyalar kasbiy charchoq holatida kasbning ma'nosini yo'qolishi.

Shaxsning kasbiy deformasiyalarini aniqlash va tahlil etish, uning sabablarini o'rganish, kasbga nisbatan ko'nika olmaslikni yengib o'tish.

Kasbiy faoliyatdan chetlashish (nafaqaga chiqish).

Ijtimoiy-psixologik keraksizlik tufayli kelib chiqadigan psixologik zo'riqishdan xalos etish, yangi hayot tarzi va hayotda yangi ma'noni topishga intilish.


Yuqorida sanab o'tilgan jihatlar shaxs va kasb hamkorligida uchraydi va bu murakkab, dramatik jarayon sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida bo'lib o'tadi. Shaxsning kasbga bo'lgan moslashuvida normativ bo'limgan vaziyatlarni hal etishda psixologiya muhim ahamiyatga ega. Aynan u shaxs va kasb o'rtasida optimal munosabatlarni o'rnatishda yordam berishi, kishilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirishi lozim. Shaxs va kasblarga moslashuvning ko'p aspektli psixologik fundamentlari an'anaviy tarzda mehnat psixologiyasi tomonidan tadqiq etilgan. Ammo shaxsning to'liq kasbiy shakllanish jarayoni

aniqlanmagan. XX asr bo'sag'asida paydo bo'lgan mehnat psixologiyasi kasbiy faoliyat turlarini, faoliyatning insonga, uning psixofiziologik imkoniyatlariga bo'lgan talablarini, kasbiy qobiliyat, ko'nikmalarini o'rganadi.


Mehnat psixologiyasining muhim vazifalaridan biri, mehnat sharoitlari, vositalari va mazmunini tahlil qilishdan iborat. Ishlab chiqarishdagi turli nuqsonlarni, layoqat va charchoqni diagnostika qilish orqali optimal ish tajribasini aniqlashga katta e'tibor beriladi. Ammo tadqiqotchilar diqqat markazida asosan mehnatning ijrochilik operasion aspektlari, uning psixofiziologik tavsiflari turadi. Mehnat psixologiyasining asosiy muammosi bu insonning mehnat quollariga, vositalariga, jarayon va sharoitlarga ko'nikishidir. Bunda kishining mehnat faoliyatiga moslashuvi psixologik va fiziologik usullar asosida o'rganilgan. Yuqorida fikrlardan ko'rindiki, mehnat faoliyati borasidagi psixologik tadqiqotlar insonlarda kasbiy maqsad, kasbiy o'zlikni anglash, kasbiy shakllanish, kasb tanlash va uni o'zgartirish sabablari, kasbiy rivojlanish bosqichlari haqida to'liq tasavvurni bermaydi. Ular esa o'z navbatida kasb psixologiyasining predmetini tashkil qiladi. Aynan kasb tanlash borasidagi ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, ongli kasb tanlash, kasbiy inqiroz va qiyinchiliklarni yengib o'tishda mazkur fanga doir bilimlarni bilish talab qilinadi. Shu bois, hozirgi kunda kasb psixologiyasiga doir bilimlarga zarurat sezilmoqda.

Keng tarqalgan ta'riflarga ko'ra psixologiya - psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Shuningdek, psixologiya inson faoliyati va xulq-atvorida ob'ektiv reallikning aks etishi qonuniyatlari haqidagi fan. Psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va o'rganilgan nazariy manbalar, shuningdek fanlararo o'zaro integrasiya jarayonlari psixologiya tarmog'ida ko'pgina o'z predmetiga ega bo'lgan sohalarni ajralib chiqishiga turki bo'ldi. Ular jumlasiga kasb psixologiyasini kiritishimiz mumkin. Kasb psixologiyasining predmeti - shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatlari hamda psixologik xususiyatlarini o'rganishdir.

Bundan kelib chiqqan holda kasb psixologiyasi - bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallash, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarini, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini o'rganuvchi psixologiya fanining sohalaridan biridir, - deb aytish mumkin. Kasb psixologiyasining ob'ekti - shaxsning kasb bilan hamkorligi yoki o'zaro bog'liqligidan iborat. Kasb psixologiyasi psixologiya fanining mustaqil sohasi bo'lib, u o'zining tadqiqot predmeti va ob'ektiga ega. Shu jihatdan aynan u mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarining ob'ekti va predmetidan farqlanadi.



Mehnat psixologiyasi-inson psixik faoliyatining takomillashishi va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, u mehnat jarayonida shaxsdagi jarayon, holatlar va xususiyatlarni o'rganadi. Mehnat psixologiyasi vazifalariga psixologiyaning mehnat faoliyatini psixologik muammolarini, mehnat unumdorligini orttirishning psixologik shart-sharoitlari, mehnat va dam olish rejimi, mehnat turlarini psixologik tahlil qilish, kadrlarni ularning individual psixologik xususiyatlariga qarab tanlash hamda joy-joyiga qo'yish, ishlab chiqarish avariysi va travmasining psixologik sabablari kabi masalalar kiradi. Mazkur farqlar jadvalda qo'yidagicha ifodalaniladi:



Muhandislik psixologiyasi - inson va texnik tuzilmalar o'rtaсидаги информасиян алоқа виситалари ва жаронларини органувчи психология тармог'идир. Muhandislik psixologiyasi psixologiyaning texnik moslamalar bilan uni boshqaruvchi kishilar о'rtaсидаги о'заро bog'lanish hamda о'заро ta'sirini tekshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi. Muhandislik psixologiyasining ilmiy vazifasi optimal konstruksiyalarni psixofiziologik jihatdan asoslash va mehnat unumdarligini orttiruvchi psixikani loyihalashda mutaxassis injenerlarga bevosita yordam berishdan iboratdir.

Yosh davrlar psixologiyasi - ontogenezda shaxs tug'ilganligidan to umrining oxirigacha shaxsda kechadigan psixik rivojlanish va shakllanish bosqichlarini органувчи психология тармог'i. Yosh psixologiyasi psixologiyaning turli yosh bolalik, o'smirlilik, o'spirinlik va boshqa bosqichlaridagi psixik rivojlanish qonuniyatlarini органувчи maxsus sohasi. Pedagogik psixologiya - shaxsga ta'lim-tarbiya berishning qonuniyatları va muammolarini органувчи психология sohasi. Pedagogik psixologiya psixologiyaning yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning psixologik muammolarini органувчи maxsus sohasi. Pedagogik psixologiya pedagogikaning ilmiy asoslaridan biri bo'lib, pedagogika nazariyasi va amaliyotini tashkil qilish uchun zarur bo'lgan psixologiyaga oid fakt hamda qonuniyatlarni aniqlaydi.

Mehnat psixologiyasi va kasb psixologiyasi predmetlarini farqini alohida ta'kidlash lozim. E.A.Klimov, mehnat psixologiyasiga quyidagicha tavsif beradi: mehnat psixologiyasi fan sifatida bu insonning sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishi va shakllanishi sohasidagi vazifalarni yechish usullari, yo'llari va sharoitlarini o'r ganuvchi psixologiya yo'nali shidir. Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishini o'r ganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi-mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'r ganish hamda ilmiy tahlil hilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat.

Mutaxassislikning turli ijtimoiy - madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida kasbiy hulq muhim ahamiyatga ega. Shaxsning psixomotor motivasion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan holda kasbiy yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Inson va uning kasbi o'rtasidagi, shuningdek, kasbiy vazifasi va kasblar olami tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlар tahlil qilinadi. Kasb psixologiyasi inson uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini o'r ganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlanishini, kasbiy etuklik determinantalarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning hayotga bo'lган ta'sirini o'r ganadi. Kasb psixologiyasining muhim aspektlari - bu kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'r ganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

Kasb psixologiyasining predmetining ta'rifiga asoslanib, uning quyidagi vazifalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadqiqot tamoyillarini, o'zining faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;
2. Kasb psixologiyasi predmetiga mos bo'lган tadqiqot uslullarini ishlab chiqish va o'ziga xos uslublarini tuzish;
3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik tahlil qilish, kasblarni proektlash uslublari va tamoyillarini ishlab chiqish;

4. Shaxsning kasbiy shakllanishi qonuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish. Bu jarayon dinamikasini determinantlovchi omillarni aniqlash, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarni tahlil etish;

5. Mutaxassislikning kasbiy desturuksiyalarini, ya’ni shaxsning deformasiyasi, kasbiy faoliyatga bo’lgan layoqatini pasayishi va boshqalar;

6. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish, bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda mutaxassislarni attestasiyadan o’tkazish;

7. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam hamda insonning kasbiy hayoti davomida yordam berish, qo’llab-quvvatlash;

8. Kasbiy maslahat, kasbiy ma’lumotning shaxsiy rivojlantiruvchi psixologik jihatlari, attestasiyadan o’tkazish, kasbiy rivojlanish psixotexnikasi, kasbiy korreksiya va reabilitasiya, kasbdan ketishga psixologik tayyorgarlik borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Kasb psixologiyasining metodologik asosi - bu shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiyasidir. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati shundaki, kasb tanlash jarayonida shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi ya’ni ular o’z yo’nalishini boyitib boradi, shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to’qnashuvlar, destruktiv o’zgarishlar bo’lib o’tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy holatlarga, hayotiy muhim kasbiy voqealarga bog’liq bo’ladi.


Kasbiy shakllanish - bu shaxs rivojlanishining katta bir qismini o’z ichiga olib, u kasbiy maqsadlarning tarkib topishidan boshlab, kasbiy hayotning tugallangungacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu geteroxron jarayondan optasiya, ya’ni kasbiy ta’lim va tayyorgarlik, profadaptasiya, professionalizm hamda mahorat bosqichlarini ajratish mumkin. Kasb psixologiyasining asosiy konseptual qoidalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Asosiy tushunchalar


Konseptual qoidalalar

Kasbiy shakllanish Kasbiy shakllanish - bu shaxsning kasb tanlash jarayonidagi kasbiy ta'limga tayyorlanish, shuningdek kasbiy faoliyat jarayonidagi rivojlanish hisoblanadi .

Kasbiy shakllanish bosqichlari. Kasbiy shakllanish-getroxron jarayon bo'lib, ayrim paytlarda pasayish va sakrash xususiyatiga ega. Individning shaxsiy va kasbiy rivojlanish omillarining o'zaro aloqalariga ko'ra kelishmovchilik va inqirozlar kiritiladi. Bu individual to'laqonli jarayonini ijtimoiy vaziyat va asosiy faoliyat bilan bog'liq bosqichlarga ajratish mumkin. Ular sirasiga kasbiy tayyorgarlik, kasbiy adaptasiya, birlamchi va ikkilamchi professionalizasiya va kasbiy mahoratlar kiradi.



Kasbiy shakllanish turlari



Kasbiy shakllanish yo'li va tezligi bir guruh omillar bilan belgilanadi. Ularga yosh, individual-psixologik, kasbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. Kasbiy rivojlanish Kasbiy rivojlanish - bu yo'nalish salohiyat va muhim kasbiy sifatlarning boyib borishi, mehnat faoliyati samaradorligini oshirib borish bilan belgilanadi. Kasbiy shakllanishining psixologik jihatni. Shaxsning kasbiy rivojlanish va kasbiy jihatidan o'zini topa olish uchun o'z ustida ishlashi va turli masalalarini hal qilish uchun bor kuchini sarflash, shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratish, kasbiy va shaxsiy rivojlanishdagi destruktiv an'analarni o'zlashtirishda kishilarga psixologik madad va yordam ko'rsatish. Kasbiy jihatdan o'zini anglash

Insonning kasbni psixologik imkoniyatlarini kasbiy faoliyat mazmuni va talablari bilan bo'lgan jihatlarini mustaqil anglab olishi, shuningdek ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatda bajariladigan ishidan ma'no topishi.

Kasbiy jihatdan o'zini asray olish.

Inson shaxsiga yo'naltirilgan mahsuldor kasbiy faoliyatda doimiy o'zini-o'zi o'zgartirib turishi, tayyorgarligi va kasbiy imkoniyatini o'zini ruyobga chiqarishi, kasbiy hayotini boshqara olishi, kasbiy rivojlanish va lavozimda ko'tarilishdagi destruktiv vaziyatlarni yengib o'tish bilan bog'liqdir. Professionalizasiya destruksiyalari. Professionalizasiya jarayonidagi miqdor va sifat o'zgarishlar, shaxsning rivojlanishi va deformasiyasi bilan kuzatiladi.

KASB PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANISH TARIXI

Psixologianing mustaqil sohasi sifatida kasb psixologiyasini shakllanishida bir qancha siyosiy, iqtisodiy va ilmiy-tadqiqiy sabablarning o'rni muhim hisoblanadi. Ular sirasiga quyidagi sabablarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

1. Totalitar jamiyat sharoitida kishilarning individual psixologik xususiyatlari inkor etilgan. Asosiy e'tibor ishlab chiqarish vazifalarini yechish uchun zarur bo'lgan ishchilarni tayyorlash bilan bog'liq ijtimoiy buyurtmani

bajarishga qaratilgan. Siyosiy vaziyatning o'zgarishi, mafkuraviy qarashlarning ommalashuvi natijasida mustaqil ishbilarmonlik faoliyati bilan shug'ullanish imkoniyatining paydo bo'lishi-mehnatga nisbatan ongli munosabatlarni shakllanishiga olib keladi. Bu esa ishchilarning kasbini o'zgartirishga majbur bo'lganda yangi ish joyini qidirish, o'zining raqobatbardoshligini tasdiqlash uchun xulq-atvorining o'zgarishiga olib keladi. Rossiyadagi siyosiy va mafkuraviy erkinliklar ishchilarda ikkilanish va psixik zo'riqishni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqarish munosabatlarining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, og'ir sharoitlarni o'zgarishi, ishchilarda stress holatini keltirib chiqaradi. Chunki ular birdaniga o'z kasbiy hayotlari uchun ma'sul bo'lib qoladilar. Mehnatga layoqatli aholi uchun dolzarb masalalardan biri bu kasbiy hayot ssenariysini tanlash, kasbiy rivojlanish, ishsizlik muammosi bo'lib qoldi. Ammo bu muammolarni yechimini topishning imkoniyati yo'q edi. O'z navbatida bu kishilarda bir-birini psixologik qo'llab-quvvatlash va bir-biriga ko'maklashish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Shunisi ahamiyatlici, psixologiyaning hech bir yo'nalishi bu muammolar bilan shug'ullanmaydi, bu esa o'z navbatida mazkur muammolarni o'rganish uchun yangi bir sohaga, ya'ni kasb psixologiyasining shakllanishiga olib keladi.

2. Bozor iqtisodiyotiga o'tish va undagi o'zgarishlar, ya'ni dastlabki paytlarda iqtisodiy vaziyatlar bir maromda kechayotgan edi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuqori malakali kasbiy jihatidan yetuk raqobatbardosh ishchilarga zaruriyat sezilmoqda. Bu esa kasb tanlash, kasbiy layoqatni aniqlash, kadrlar faoliyatini baholash va attestasiyadan o'tkazish, kasbiy rivojlanish yo'llarini belgilash, ishchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash masalalariga e'tiborni qaratish lozimligini anglatadi. Shuning natijasida korxona va tashkilotlarda ishchilar uchun rivojlanish bo'limlari paydo bo'ladi. Psixologiya fani doirasida shaxsning kasb bilan hamkorligi yuzasidan ko'p tomonlama tadqiqotlar olib boriladi. Asosan bu muammolar mehnat psixologiyasi, pedagogik psixologiya va yosh davrlar psixologiyasi fanlari tomonidan o'rganilgan. Bu muammolar yechimining metodologik jihatdan asoslanishi

psixologiya sohasida olib borilgan fundamental ishlarda aks etgan; o'

Faoliyatning psixologik nazariyasini yaratilishi kasbiy faoliyatga doir tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'ladi. o' Shaxs borasidagi differensial psixologik konsepsiyaning rivojlanishi, kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kasbiy moslashuv professionalizasiyaga doir muammolarni hal qilish uchun asos bo'ldi.

Mehnat psixologiyasi kasbiy layoqat, kasbiy diagnostika, kasbiy ko'nikma va malakalarning shakllanishi masalalarini o'rganadi.

Yosh davrlar psixologiyasi shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, kasbiy o'zlikni anglashdagi inqirozlarning psixologik xususiyatlari va kelishmovchiliklari masalalarini o'rganadi. Ta'kidlash mumkin-ki, insonning kasblar olami bilan hamkorligi to'planib, psixologiyaning turli sohalarida o'rganilib borilgan. Bugungi kunga kelib, bu bilimlarni bitta ilmiy yo'nalishi - kasblar psixologiyasini shakllantirish uchun sharoit yaratiladi. Shunday qilib, 1990-yillar boshida siyosiy, iqtisodiy va ilmiy sabablar tufayli psixologiyaning yangi sohasi-kasblar psixologiyasi vujudga keldi.

Kasblar psixologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishini 3-bosqichini ajratish mumkin.

1. XIX-asrning oxirida mehnatni ilmiy tashkillashtirishning psixologik masalalarini hal qiladigan psixotexnika yo'nalishini paydo bo'lishi, shuningdek, psixotexnika taraqqiyotining asosiy masalalari bu mehnat sharoitlari va shu usullarini rasionalizasiya qilish, avariya va shikastlanishni kamaytirish, ishlab chiqarish ta'limining shakllanishi masalalariga e'tiborning kuchayishdir.

2. XX-asr boshlarida mustaqil ilmiy soha mehnat psixologiyasining rivojlanishi va bu boradagi kasbiy tadqiqot masalalari, inson psixologiyasining mehnatda namoyon bo'lishi va shakllanishi shuningdek, kasbiy tanlov, kasbiy maslahat va mehnat ekspertizasi masalalariga doir bilimlarni yuzaga kelishi.

3. XX-asrning 70-yillarida inson va kasb hamkorligi muammolarining hal qiluvchi mehnat psixologiyasi va industrial psixologiyadagi vazifalarning paydo

bo'lishi, mehnat psixologiyasining bu sohasi profpsixologiya yoki kasblar psixologiyasi deb nomlana boshladi. Kasb psixologiyasi doirasida kasbiy maslahat, kasb tanlash, va kasbshunoslik bo'yicha tadqiqotlar birlashtirilgan. Mustaqil ilmiy fan sifatida kasb psixologiyasi yuzaga keldi va bu AQSHlik olimlar J. Krites va D. Super ishlarida ko'zga tashlangan. Ammo chet el tajribasi asosida to'plangan ma'lumotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. O'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy madaniy an'analar yurtimizda o'zimizga, millatimizga xos milliy kasb psixologiyasining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Kasb psixologiyasiga taxminan XX-asrdan boshlab asos solinib kelingan. Bunga ko'proq insonlarni o'z qobiliyatları, ehtiyojlari, hohish, istaklari, imkoniyatlari, individual xususiyatlari va hokazolarni hisobga olmagan tarzda kasblar olami haqidagi bilimlarga ega bo'limganliklari natijasida qaysidir ma'noda ongsiz ravishda kasb tanlashlariga sabab bo'lgan.

Biroq keyinchalik rus psixologi E. A. Klimov o'z tadqiqot ishlarida aynan shu masalaga, ya'ni "kasb tanlash", "kasbga yo'naltirish" kabi masalalarga e'tiborini qaratib, bu borada tadqiqot ishini olib borgan. Xusan, misol sifatida Differensial diagnostik so'rovnama (DDS) metodikasini ishlab chiqqan. YE.A.Klimovdan tashqari ham ko'p chet el olimlari bu masala bo'yicha ish olib borganlar. Asta-sekin jamiyatda kasb tanlashga nisbatan ongli yondoshishlar kuzatila boshlandi. Ya'ni ularning barchasi kasb psixologiyasining shakllanishiga olib keladi. Kasb psixologiyasining ajralib chiqishi hozirgi kunda shaxsning kasbiy mehnatga o'rganib ketishi emas, balki alohida kasbiy bilim, ko'nikma va malaka hamda umuman kasblar olamiga kirib borishiga asoslanadi.

Kasb psixologiyasi shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishini o'rganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi-mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy tahlil hilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat.

Mutaxassislikning turli ijtimoiy - madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarida kasbiy xulq muhim ahamiyatga ega. Shaxsning psixomotor motivasion va kognitiv sifatlariga e'tibor berilgan holda kasbiy yutuqlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Inson va uning kasbi o'rtasidagi, shuningdek, kasbiy vazifasi va kasblar olami tuzilmasi o'rtasidagi munosabatlar tahlil qilinadi. Kasb psixologiyasi inson uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini o'rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlanishini, kasbiy etuklik determinantalarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning hayotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Kasb psixologiyasining muhim aspektlari - bu kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'rganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

Xorijiy manbalarda ham insonning kasbdagi faoliyati va xulq-atvori maydoni o'ziga xos holda belgilanib, "kasb to'qimasi" yoki "mental xarita" deb atalgan. "Mental xarita" - kasbiy faoliyat maydonining mutaxassis joylashishi mumkin bo'lgan ichki olami hisoblanadi. Kasbiy faoliyat maydoni tarkibidan kasbiy sohadagi anchagina barqaror ta'lif, kasbning tavsiyanomasi, uning qo'llanish sohasi, aniq ishchi o'rniga nisbatan yashovchanligi o'rinni olgan.

K.Farrenning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, talabalar mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko'rsatkichlaridan boxabar bo'lishlari muhimdir. Uning fikricha, yashovchanlik ikki xil ko'rinishga ega bo'ladi: shaxsning yashovchanligi va kasbning yashovchanligi. Olim shaxs yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko'rsatkichlarni kiritadi:

1. SHaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash.
2. Bajarayotgan ishga qo'yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik.
3. Hayoti davomida talim olish va o'rganishga tayyorlik.
4. Madaniyligi, o'zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish.
5. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
6. Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi.

7. Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo‘lish.
8. Ishda hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmasiga egaligi.

K.Farren kasbning yashovchanlik ko‘rsatkichlariga quyidagilarni kiritadi:

1. Kasbning tashkilot maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqligi.
2. Boshqa muassasa va ishlab chiqarish sohalari bilan uyg‘unlashish imkoniyati.
3. Boshqa kasblarda o‘z kompetentliligi va qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyati.
4. SHaxsiy va moliyaviy taminlanganlik.
5. Kasb bo‘yicha shaxslar uyushmasining mavjudligi.
6. Mahoratga etaklovchi bilimga egalik.
7. Yoshidan qatiy nazar kasbiy muvaffaqiyatlarda mustaqil bo‘lish .

Shuningdek, yuqoridaq ikkita yashovchanlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda quyidagi ko‘rsatkichlarni ham keltirib o‘tish joiz: tanlangan ishlab chiqarish sohasining “yashovchanligi”, “tashkilotning yashovchanligi”, “ishchi o‘rnining yashovchanligi”.

XX asrning boshlarida Amerika va Evropa mamlakatlarida mehnat mahsulorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash jarayonida yuzaga kelgan bo‘lib, buning natijasida psixologiyaning insonparvarlik g‘oyalarini singdirish yuz berdi va natijada shaxs to‘g‘risida zamonaviy nazariyalari vujudga keldi. Bunday bog‘liqlik shaxs nazariyasi bilan kasbiy rivojlanish psixologiyasi o‘rtasida aloqa o‘rnatishga olib keldi. Oqibatda kasbiy rivojlanish muammolarini o‘rganishga turlicha yondoshadigan beshta asosiy yo‘nalishi shakllandi. Bular: 1) differensial diagnostik, 2) psichoanalitik, 3) qaror qabul qilish nazariyasi, 4) taraqqiyot nazariyasi va 5) tipologik yo‘nalishlar.

Differensial - diagnostik yo‘nalish bo‘yicha izlanishlarda shaxsning kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlash omillariga, kasbga ta’sir ko‘rsatuvchi

individual psixologik xususiyatlarga va kasbga qo‘yilgan talablarga asosiy e’tibor qaratiladi. SHuningdek, unda kasb tanlashning asosini ratsional va ongli faoliyat tashkil etish to‘g‘risidagi qarashlar o‘z aksini topgan (F.Parkinson). Bu yo‘nalishda kasbiy rivojlanishga psixotexnik yondashuvni tadbiq etilganligi diqqatga sazovordir (G.Myunstenbergning, fikricha, individual sifatlar oddiy ijrochilik operatsiyalarning yig‘indisi hisoblanadi). Leypsig maktabi psixologlari kasbiy ta’lim uchun eng muhimi individual sifatlarni tarbiyalashdir, degan g‘oyani ilgari surishdi.

Psixoanalitik yo‘nalish vakillari kasbiy rivojlanishning psixodinamik jihatlarini tahlil qilish bilan shug‘ullandilar. Ular kasb tanlash va kasbiy rivojlanish asosida tabiiy ehtiyojlardan tortib kompleks psixodinamik mexanizmlar va shaxs tuzilish instansiyalarigacha bo‘lgan turli xil ehtiyojlar yotadi, degan g‘oya bilan chiqdilar (U.Mozer, L.Zondi, E.Bordin, E.Rou).

Qaror qabul qilish nazariyasi vakillari kasb tanlash jarayonini o‘rganish uchun yo‘nalganlik ustanovkalarini tadqiq etishga e’tibor qaratdilar. Ularning qarashlariga ko‘ra, har qanday kasbni tanlash kasbiy alternativa va qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan tizimdan iborat (X.Tome, G.Ris, P.Siller, D.Tideman, O’Xar). Bu g‘oya vakillari kasb tanlashning sabablari sifatida tanlangan kasbning e’tiborliligi, kasbiy malakalarni talab qilish darajasi, shaxsning kasbga da’vogarlik darajasi, kasbiy ustanovlarning reallagini e’tirof etishadi.

Taraqqiyot nazariyasi yo‘nalishi vakillari rivojlanish nazariyasiga asoslanib ish tutishgan. Bu yo‘nalishning izlanishlari akademik psixologik xarakterga ega bo‘lib, ilk izlanishlar o‘spirinlarni kasb izlashi bilan bog‘liq xususiyatlarini asoslashga qaratilgan edi. Ushbu yo‘nalish vakillaridan D.Syuper, SH.Byuler va E.Ginsbergning ilk ishlariga tayanib, kasbiy rivojlanish bir nechta bosqichlarga ajratiladi:

- 1) vujudga kelish bosqichi (tug‘ilgandan to 14 yoshgacha), kasbiy fantaziyalarga tayanib kasb tanlanadi;

2) tadqiq etish bosqichi (15-24 yosh), shaxs o‘zining imkoniyatlariga mos kasbni tanlashni niyat qiladi;

3) konsolidatsiya bosqichi (25-44 yosh), barqaror shaxsiy pozitsiyaga mos kasbiy faoliyat maydoni o‘rnataladi;

4) saqlash bosqichi (45-64 yosh). Bu davrda shaxsning kasbiy faoliyati hech qayoqqa og‘masdan aniqlangan kasbiy faoliyat maydoni bo‘yicha kechadi;

5) pasayish bosqichi (65 yosh). Bu bosqichda yangi kasbiy faoliyat roli paydo bo‘lib, boshqalarning kasbiy faoliyatini kuzatish etakchi o‘ringa chiqadi .

Tipologik yo‘nalish vakillari kasbiy faoliyatni tipologiyalashtirishga e’tibor qaratadilar (E.SHpranger, D.Xolland). Xolland o‘z tipologiyasida shaxsning kompleks mo‘ljal olishga yo‘naltirilgan bir qator tiplarini ajratishga erishdi: 1. Realistik orientatsiya; 2.Intellektual orientatsiya; 3) Ijtimoiy orientatsiya; 4) Konvensional orientatsiya; 5) Tadbirkorlik orientatsiyasi .

Professiografiya. Insonga quyiladigan talablar nuqtai-nazaridan kasblar va uning o‘z ichiga olgan ixtisosliklarini umumlashtirib tavsiflanishi professiografiya deyiladi.

Professiografiya natijasi professiogramma bo‘lib, bir kasb doirasidagi ixtisoslarning insonga, odamlar guruhiga quyishi mumkin bo‘lgan talablar asosida tuzilgan umumlashtirilgan tavsifnomalardir.

Professiogrammaning bir qismini psixologik professiogramma, qolgan bir qismini – inson psixikasiga quyiladigan talablar, ya’ni kasb qobiliyatları ro‘yxat tashkil qiladi. Professiografiya kasblar klassifikatsiyasini ham o‘z ichiga oladi, bu turli mezonlari bilan ifodalanadi: texnologik, gigienik, psixologik va boshqalar. Har qanday kasbni o‘rganish va tavsiflash har doim ma’lum maqsadni ko‘zlaydi va shu maqsadga bo‘ysunanadi.

Professiogrammalar quyidagi vazifalarni bajarishga qaratilgan xillarda bo‘lishi mumkin: kadrlar tayyorgarligini asoslashga, gigienik sharoitlarni hisobga olish va uni sog’lomlashtirishga; kasb tanlashni asoslashga; kasbiy maslahat va kasbiy tanlovni asoslashga; mehnatga baho berish normativlarini, mehnat xavfsizligi saviyasini kutarish va boshqalar.

Kasb tanlashga yo'llash va kasb maslahatlarini uyushtirish. Kasb tanlashga yo'llash eng avvalo odam imkoniyatlari va u yashayotgan muhitning bir qancha sharoitlarini o'rganishdan boshlanadi. Bularni umumlashtirib mehnat ekspertizasi deb aytildi.

Mehnat ekspertizasi – bu odamning konkret kasb bo'yicha mehnatga yaroqlilagini ma'lum mutaxassislar tomonidan aniqlanishidir.

Odamning u yoki bu mehnat turiga yaroqliligi quyidagilarga bog'liq bo'lishi mumkin: yoshiga; tegishli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lishiga; mazkur kasb buyicha ishslashga qiziqish va iste'dodi mavjud bo'lishiga. Bundan tashqari yashayotgan sotsial muhit va jinsiga ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Mehnat ekspertizasi tashkiliy shakllaridan qat'iy nazar quyidagi umumiylasalalarni hal qilish bilan shug'ullanadi:

Odam ma'lum ishni boshlab keta oladimi?

Tegishli lavozimda ishni davom ettira oladimi?

Odamdan qaysi soha yoki vazifada foydalanish ma'qul?

Baxtsiz hodisa yuz berganda, bunga odam qay darajada aloqador, ishga qabul qilingan, tayinlanganlar –chi?

Psixodiagnostika ma'lumotlari asosida prognostik psixologik mehnat ekspertizasi kishining kelgusi mehnat faoliyatini belgilashga yordamlashadi. u talablarni har bir pedagog va ota–onalarning bilishi va amal qilishi. Ayniqsa bolaning 9–sinfni tugatish va xayot yo'lini belgilab olishi davrida juda muhimdir.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Fanning maqsad va vazifalari
2. Kasbiy tanlov va kasbga yaroqlilikni (layoqatini) aniqlash.
3. Kasb psixologiyasini shakllanish tarixi
4. Kasbiy shakllanishini ta'minlashga to'siq bo'luvchi omillar
5. K.Farrenning shaxs yashovchanlik sifatlariga
6. K.Farren kasbning yashovchanlik ko'rsatkichlarini sanang.

KASB PSIXOLOGIYASINING ILMIY TADQIQOT METODLARI

Metod so‘zi – yunoncha methodos bo‘lib tadqiqot, tekshirish degan ma’noni beradi. Nazarimizda yuqoridagilarga yana yo‘l, usul so‘zlarini ham kiritish mumkin. Metodlar tadqiqot ishlarida ham, bilim berishda ham qo‘llaniladi. Ushbu bobda bilim berish metodlari haqida emas, balki fan uchun, uning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plashdagi qo‘llaniladigan tadqiqot metodlari haqida so‘z boradi.

Tadqiqiy metodlarning 2 ta turi mavjud;

1. Longityud
2. Kesimli

Longityud metodi – ma’lum kishilar guruhi yoki aniq kishilarning bir xil belgilariga ko‘ra psixik xususiyatlarini davomli va muntazam o’rganishni nazarda tutadi. Kesimli metod – ma’lumotlarni tadqiqotda qatnashuvchilarning turli guruhlariga nisbatan taqqoslash xosdir. Bu metod orqali sinovdan o’tayotgalarning ko‘p miqdorini qisqa vaqt ichida qamrab olishi mumkin. Kesimli tadqiqotlarni o’tkazishda savol-javob usullari, testlar tajribalar keng qo‘llaniladi. Longityud metodi - kasbiy shakllanishda individual yo’lni o’rganishga yordam beradi. Mazkur metod yordamida shaxsning obro’ orttirishi uning faoliyatidagi turli xildagi tanqidiy holatlarini aniqlaydi. Psixologiyada qo‘llaniladigan tadqiqot usulari kelib chiqishiga ko‘ra umumpsixologik ko‘rinishga ega, lekin spesifik xususiyatiga ega emas. Kasb psixologiyasi yosh psixologiyasiga yondosh ekanligini hisobga olsak, bu o‘z navbatida shakllanib bo‘lgan metodlarni o’zlashtirishga olib keladi. Barcha tadqiqotlarda keng doirada metodlarni qo’llash o’ziga xos tadqiqiy metodlarni yaratilishiga olib keladi. Kasb psixologiyasi tadqiqot metodlarining tizimlanishi, ularning qo‘llanishi sohasini aniqlash shuningdek, sifat, xususiyatini ko‘rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Psixologiya fanida yagona umuman olganda, tadqiqotlar metodlarining to’liq tasnifi mavjud emas. Ko‘pincha, alohida metodlar yoki psixologiyada ma’lum muammoni hal etishga tavsiya etiladigan metodlar ro’yxati beriladi.

Psixologiyaning metodlar tizimini tahlil etgan olimlar quyidagi metodlar guruhini taklif etadi.

1. Tadqiqotni tashkillashtirish va rejalashtirish metodlari, ya'ni tashkiliy metodlar.
2. Dalillar to'plash, ilmiy ma'lumotlar olishga qaratilgan empirik metodlar(usullar).
3. Ma'lumotlarni qayta ishslash usullari
4. Interpretasion metodlar(usullar).

Boshqa bir qator psixolog-olimlar psixologiyasining quyidagi usullarini ajratishadi:

1. Sub'ektiv metodlar (o'zini o'zi kuzatish);
2. Ob'ektiv metodlar (kuzatishning xar xil turlari; eksperimental, testlar, savol-javob, so'rovnomalar).

Afsuski, bu metodlar muallifi psixologiya metodlarining tasniflanishini (klassifikasiya) taqdim etmay, faqatgina psixologiya fanidagi mavjud metodlarini sanab o'tish bilan chegaralanadilar. Bu esa o'z navbatida aniq ilmiy tasniflanishning mavjud emasligi, psixologiyada metodlarning ko'pligi hamda bir tizimga solinmaganligi bilan izohlanadi. Yosh va pedagogik psixologiyaning metodlarini tahlil etib, tadqiqiy metodlarni tasniflashning asosi sifatida muhim jihatlarini ajratib olish kerak. Bu masalalar 4 xil shaklga ega: tasvirlash, o'lchash,

tushuntirish va psixik hodisani shakllantirishdan iborat. Shunga muvofiq metodlarning 4 ta guruhi taklif etiladi: noeksperimental (klinik), diagnostik, eksperimental va shakllantiruvchi.

Shunday qilib kasb psixologiyasi oldida quyidagi tadqiqiy masalalar turibdi:

1 guruhi - shaxsning kasbiy shakllanishi bu murakkab, ba'zida esa dramatik jarayonning psixologik xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Bu jarayonni tadqiq etish uchun longitu'd, savol-javob, psixobiografiya, tanqidiy voqealar

metodlarini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Bu metodlar guruhini genetik metodlarga kiritishi mumkin.

2 guruhi - kasblarning psixologik tavsifi, kasbning psixologik mazmunini tadqiq etish, faoliyat mahsuldorligini o'rganish, mehnat metodi, hujjatlarni o'rganish, kuzatilayotganlarni savol-javob orqali o'rganish metodi, shuningdek, professiografiya yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu uslublar guruhi praksimmetrik uslublarga tegishlidir.

3 guruhi - muhim kasbiy ko'rsatkich faoliyat va shaxs belgilarini o'lchash. Bu tadqiqiy masalani hal qilish uchun maxsus qobiliyat testlari, muvaffaqiyat va ta'lim testlari qo'llaniladi. Bu psixometrik usullar guruhidir.

4 guruhi - kasbiy shakllanishning xususiyatlarini, qonuniyat va mexanizmlarini tushuntirishdan iborat. Bu vazifani bajarish usullari eksperimental usullardir: ya'ni labaratoriya, modellashtiruvchi va tabiiy eksperimentlardir.

5 guruh - usullari tadqiqiy ma'lumotlarga miqdoriy ishlov berishga yo'naltirilgan. Ularga matematik ishlov berish usullari kiradi: ya'ni korrelyasion, faktorli tahlil va boshqalar. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari umumiy tarzda quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Genetik usullar

Genetik metodlar uzoq vaqt davomida shaxs kasbiy rivojlanishining o'zgarishlarini tadqiq etish uchun mo'ljallangan. Kasb psixologiyada longevityud metod, psixobiografiya, individning kasbiy shaklanishini monografik tasvirlash usullaridan keng foydalaniladi. Longevityud metod - bir xil yoshdag'i sinaluvchilarning ularni rivojlanishi jarayonini ko'p marotabali tizimli ravishda o'rganishdan iborat. Longevityud metodi insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o'rganish maqsadida yillar davomida o'tkaziladi. Longevityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi va asosan psixik genezisi va bolalar, yoshlar psixik pragnozini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo'llanilgan. Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o'tkazilgan) davomli

longityud tadqiqotlari jarayonida dearli qo'llanilmagan. Longityud metod bir vaqtning o'zida boshqa metodlarni qo'llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya, praksimmetriya va hokazo. Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o'tkazilgandagi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog'liq bo'ladi. Longityud metodini kasb psixologiyasida qo'llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o'zgarishlarini o'rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obro'-e'tibor qozonishning yo'l-yo'riq va vositalarini aniqlash imkonini beradi. Longityudni qo'llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko'pligi va kamligida bilinadi. Keyingi muammo o'lchovlar o'rtaсидаги oraliq masofalar hisoblanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim vaqtarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig'ida o'tkazilgan. Shaxsning kasbiy shakllanishini o'rganishda tadqiqot intervali sifatida kasbiy rivojlanish fazalari va bosqichlarini ajratib olish mumkin. Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini belgilash bo'lib, bunda u 5-yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin. Klassik longityud sifatida 1928 yildan bugungi kungacha davom etib kelayotgan Kaliforniya longityudini misol sifatida keltirish mumkin. Longityud metodning kamchiligi uning davriyligidadir. Shaxsiy va kasbiy o'zgarishlar tasodifiy yoki drammatik voqealarga bog'liq bo'lishi mumkin. Yillar davomida tekshiriluvchilar sonining qisqarishi, o'rganilayotgan jarayonlarning mazmun mohiyati kengayib boradi. Longityud metodining qo'llanilishini chegaralovchi omillardan biri shaxsni o'rganish uchun ko'p vaqt ni ketishidir. Longityud metodining kamchiliklarini boshqa psixobiografik usullarni qo'llash yordamida bartaraf etish mumkin. Biografik usul - shaxs hayot yo'lini o'rganish va loyiqalashtirish usullari, hayotiy dasturlar, kasbiy rejalar, kasbiy shaxsiy shakllanishining ssenariylarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Biografik usullarga tarjimai hol, ma'lumotlarni o'rganish, kasbiy mehnatdan qoniqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Kavzometriya - YE.I.Golovaxa va A.A.Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo'lib, u shaxsning psixologik vaqt va hayotiy sub'ektiv holatlarini tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: biografik savol-javob, muhim voqealar ro'yxatini tuzish, voqealarni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir. Intervyu natijalari kavzometriya shaklida tasvirlanadi. Kavzometriya kasbiy muammo va inqirozlarni yechish uchun qo'llaniladi. Psixobiografiya -shaxslarning hayot yo'lini psixologik o'rganish metodi hisoblanadi. Avval psixobiografiya siyosatchilarining obro'-e'tiborini, kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o'rganish maqsadida qo'llanilgan. Kasb psixologiyada psixobiografiyanı qo'llash orqali shaxsning kasbiy maqsadlarining paydo bo'lishi, kasbiy shakllanishdagi inqirozlar haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Anamnez metod - bu insoning mehnat sub'ekti sifatida rivojlanish tarixi haqidagi ma'lumotlarni yig'adi. Bu usul YE.A.Klimov tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Kasbiy anamnez mehnat motivlarini o'rganish, tanqidiy voqealarni aniqlash, kasbiy faoliyatda obro'-e'tibor qozonishni oldindan tashxis qilishda qo'llaniladi. Anamneztik tadqiqot o'z ichiga suhbat tizimini olgani uchun, suhbat metodiga qo'yiladigan talablar bu usulga ham tadbiq etiladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.

Bu metod psixologiyada inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo'llaniladi. Odam chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, to'qigan narsalar, tikkan qo'g'irchoqlar, to'qib, so'zlab berilgan hikoyalar, texnik konstruksiyalar chizmasini tushunish kabilarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli, texnik ijodi yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Mazkur metoddan ijod mahsulini yaratgan jismoniy shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Tekshiriluvchi bilan tekshiruvchi o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirtdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi.

Tekshiruvchi (o'qituvchi, murabbiy, psixolog) ekspert tariqasida shaxslar ijodiyotiga baho beradi, bunda mehnat mahsulining shakli, mazmuni, sifati, originalligi, hajmi, xususiyati bilan keskin tafovut qilishi nazarda tutiladi.

Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali har xil yoshdag'i va kasbdagi odamlarning psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin. Faoliyat mahsulotlarini o'rganish inson ruhiyatini o'rganish metodlari ichida o'ziga xos o'rinni tashkil etadi. SHuni ta'kidlab o'tish joizki, inson ruhiyatini o'rganish yuqorida bayon qilingan metodlardan tashqari yana ayrim qo'shimcha metodlardan ham foydalaniadi. E'tirof etish joizki, qo'llanilayotgan har bir metodning o'ziga xos ijobiy, afzal tomonlari bilan birgalikda qiyin va salbiy tomonlari ham mavjud. SHu bois konkret shaxs ruhiyatini o'rganish vaqtida yakka metodlar natijalari bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Ruhiyatni tekshirishda atroflilik, dinamiklik, ob'ektivlik, tekshiriluvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish va boshqa tamoillarga suyanish darkor.

Faoliyat mahsulotlari va jarayonlarini tahlil etish yo'llari bo'lib, unga B.G.Ananev xronometriya, profesiografiya, bajarilgan ishlar va buyumlar bahosini izohlashlarni kiritadi. Kasb psixologiyasining bu guruhidan quyidagi usullar muhim ahamiyatga ega. Topshriqlar tahlili - bu kuzatilayotgan inson va uning yashirin kasbiy xulqining yo'nalganligini psixologik jihatlarini tadqiq qilish metoddir. Topshiriqlarni tahlil etish metod F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tasvirlash va tahlil etish maqsadida qo'llanilgan. Topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi ham muhandislik psixologiyasida keng qo'llaniladi. E.Mak-Kormik va uning kasbdoshlari metallurgiya sanoatiga xos bo'lgan 250 ta kasb turlarini tahlil etish uchun faoliyatlar ro'yxatini ishlab chiqishdi. Olingan ma'lumotlarni faktorli tahlil qilish yo'li bilan qayta ishslash orqali 14 ta omil ajratildi va bu omillar "pozision ta'lil so'rovnomasi"ni loyiqalashtirishga asos bo'ldi (RAQ). RAQ 187 elementdan iborat bo'lib, ular mehnat xulqining asosiy shakllari hamda turli jihatlarini o'z ichiga oladi. Ayrim jihatlarga tegishli misollarni keltiramiz: yozma topshiriqni ko'rsatmasiga asoslangan holda bajarish, klaviaturadan

foydalanimish, konsultasiyalarda qo'l ostidagi ishchilar miqdori va boshqalar. RAQ metodi asosida to'plangan ma'lumotlarni tahlil etishda tadqiqotchi har bir bo'limlar bo'yicha javoblarni oladi. Ta'kidlash kerakki, RAQ - topshiriqlar emas, balki bajarilgan ishlar tahlili metodi bo'lib, ishchilarni tanlash muammosini hal etishda qo'llaniladi. RAQ ishchilarni o'qitish, malaka oshirish va ma'muriy jihatdan o'zgarishlarida qo'llaniladi. Kasbiy tahlilning yana bir muammosi kritik voqealar metoddir. Uning mohiyati shunda-ki, tadqiqotchi ishchining qoniqarsiz xulqini tasvirlaydi.

Hujjatlarni o'rganish metod - mehnat jarayoni ishchilar tarkibi, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasi to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlarni yig'ish metodi hisoblanadi. Bu ma'lumotlar quyidagi hujjatlardan olinadi:

- " Ishchilar harakatlarini tasvirlovchi texnologik kartalar, ishning bajarilish usullarini sifatiga quyiladigan talablar;
- " Insonga psixofiziologik va psixologik ta'sir ko'rsatadigan asbob-uskunalarining texnik tavsifnomasi;
- " Yoshi, staji, ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, kadrlar qo'nimsizligi uning sabablari va hokazolar xaqidagi ma'lumotlar;
- " Ishlab chiqarishdagi avariylar va travmalar shuningdek, ishchilar sog'ligining holati to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat metod - bu kasbiy faoliyatni to'g'ridan-to'g'ri ish joyida o'rganishga qaratilgan tadqiqot metodidir. Kasbiy faoliyatni egallagan va bajaruvchisi sifatida psixolog ham tadqiqotchi ham ishchi sifatida faoliyat olib boradi. Har bir ish kunidan keyin standartlashgan sxema bo'yicha bayonnomaga to'ldiriladi. Ish joyida tadqiqot olib borish usullari samaraliroq hisoblanadi. Tadqiqotchi standart kuzatish chizmasi asosida ishchining faoliyatini o'rganadi. Bu usullarning afzaligi kasbiy realikka maksimal darajada yaqin bo'lishidadir.

KUZATISH – ma'lumotlarni psixik hodisalarining qayd etish yo'llari orqali to'plashdan iborat. Kuzatish ikki turda bo'ladi-formallahgan kuzatuv va erkin kuzatuv. Erkin kuzatuv tadqiqotning boshlang'ich bosqichlarida qo'llaniladi, u o'rganilayotgan masala mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi.

Formallashgan kuzatuv standart dastur asosida olib boriladi hamda kuzatilayotgan voqealar bayonnomada qayd etilgan holda alohida elementlarga bo'linadi. Tadqiqot metod sifatda kuzatishning xususiyati shunda-ki, ma'lumotlarni to'plash, turli sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi, ya'ni ko'rish, eshitish, hid bilish va hokazo. Chunki kasbiy faoliyatda hidlar, shovqinlar va shunga o'xshash holatlar tez kuzatiladi va ular sinovdagilarning psixik holatiga hamda faoliyat mahsuldorligiga, mehnatdan qoniqishiga ta'sir etadi. Kuzatilayotgan jarayonda tadqiqotchining ishtirok etish darajasiga ko'ra, kiritilgan kuzatish va tomonli kuzatishga ajratiladi. Kiritilgan kuzatuvda tadqiqotchi guruh tarkibiga kirib, shu guruhnинг barcha faoliyat turlarini bajaradi. Tomonli kuzatishda tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalardan chetda turib kino yoki videokameraga tushirgan holda psixik hodisalarni tahlil etadi. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodi sifatida kuzatish ish o'rnini tashkil etish va umuman faoliyatdagi vaziyatga baho berish, sinovdagilarning kirishimlilik xususiyatlarini tahlil qilish, uning kasbiy xulqi, kasbiy ta'limi va malakasiga baho berishda qo'llaniladi. Kuzatishning negativ holatlari olingan ma'lumotlarning yetarli darajada ishonchli emasligi chunki, tadqiqot paytida ba'zida hodisalar ko'p uchraydi va kuzatilayotgan voqealarga aralashib ketish ehtimoli mavjud bo'ladi. Kuzatish paytida sinovdagilarga tadqiqot vazifalari haqida ma'lumot berishga to'g'ri keladi, bu esa ularning kasbiy xulqi va faoliyatiga o'zgartirish kiritishlariga olib keladi. Undan tashqari, ishchilar, rahbarlar ham tadqiqot natijalari ularning ish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishidan qo'rqishadi

Psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari turkumidan muhim o'rin egallagan, diagnostik xususiyatli metodlaridan biri – **kuzatish metodidir**. Mazkur metod fanimizning eng qadimgi tadqiqot vositasi bo'lib hisoblanib, uzoq o'tmish zamonidan to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri bo'lib, keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob'ekti, ko'lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlarini

o‘rganish imkoniyati tug‘ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o‘zgarishlar yuzaga keldi.

Psixologik kuzatish olib borishdan ko‘zlangan maqsad mana bulardan iborat:

- kuzatiluvchi vaziyat, holat va ob’ektni maqsadga muvofiq tanlash, uning oqilona ekanligiga ishonch hosil qilish;

- kuzatishning dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tafbiq qilish, chizgi tarzda ifodalanishini yaratish, yig‘ilgan natijalarni chizma asosida aks ettirish.

Kuzatishning ob’ekti va predmeti quyidagi tuzilishga ega:

- kuzatishning ob’ekti – inson, guruh, jamoa va shaxslararo munosabatlar, emotsiyal – hissiy kechinmalar, hayvonot olami, shaxsning faoliyati, ijodiyoti, muomalasi kabilarni o‘rganishdan iboratdir;

- kuzatishning predmeti – insonning xilma – xil holati, jarayoni, harakatining kuchi, jadalligi, uzlusizligi, dinamikasi, o‘ziga xosligi, uning hamkorlikdagi harakati, undagi onglilik, ongsizlik, ongosti holatlarining kechishi, faoliyat va muomala kabilarni eksteriorizatsiyalashdan tashkil topgandir;

- amaliy va gnostik holatlar; nutq aktlari: ma’nosи, mazmuni, mohiyati, yo‘nalishi, chastotasi, ritmikasi, tempi, amplitudasi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi, fonetikasi, lingvistik qurilishi va boshqalar;

- noverbal nutq ifodasi: mimika, pantomimika va vokal mimikasi (musiqa ma’nosini tana a’zolari orqali ifodalash);

- vegetativ reaksiyalarning ko‘rinishi: rangning qizarishi, oqarishi, terlash, nafas olishning tezlashuvi, sekinlashuvi va qiyinlashuvi.

Kuzatishni ifodalash uslublari: tajribalarda to‘plangan ma’lumotlarni alomat, belgi va simvolika orqali aks ettirish (piktogramma, chizgi, jadval, anagramma) va turli shakl, xususiyatli bayonnomalar, qaydnomalar yuzaga keltirish.

Psixologiya fanida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin: izchil, epizodli, dala sharoitli, laboratoriyyaviy - sun'iy, tabiiy, xronologiyali, davriy, bir martali kabilar.

Kuzatish metodining bir necha xil shakllari mayjud bo'lib, vazifalariga qarab ularning har biridan foydalanish mumkin: aralashib yashirin kuzatish, kuzatiluvchining psixologik portretini yaratish, aralashib oshkora kuzatish (o'smirlarda yuqori natijalar beradi), xulq - atvor portretini tahlil qilish va hokazo.

Kuzatish natijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagi tartibda qo'llash lozim:

- olingan natijalarni foizlar bo'yicha hisoblab chiqish;
- to'plangan ma'lumotlarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish;
- son qatoridagi o'rtacha kvadrat og'ishni hisoblash (σ);
- son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash (dispersiya);
- omillar o'rtasidagi muayyan munosabatlar mavjudligini (korrelyasion) tahlil qilish;
- ma'lumotlar, metodikalarning ishonchililik darajasini aniqlash uchun Styudent mezonidan foydalanish lozim.

Rsixometrik usullar

Psixometriya-psixik voqeа va hodisalarning miqdoriy tomonining nisbati va tavsiflarini o'rGANADI. Psixometriyaning muhim belgisi psixik jarayonlarning individual farqlar, empirik dalillar dinamikasini, parametrlarini o'lchash texnologiyasining standartlashganligidir. Psixometriya ishonchliligi bilan ajralib turuvchi psixodiagnostik metodikalarini yaratishga yo'naltirilgan. Psixometrik usullar tarkibiga psixologik test ham kiradi.

Test metodi

Ilmiy psixologik manbalarda qayd qilinishiga ko'ra, intellekt-lotincha so'zdan olingan bo'lib, u odatda aql – idrok, anglash, tushunish, fahmlash degan

ma’noni anglatadi. Bizningcha, intellekt shaxsning muayyan darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlar majmuasi tuzilishidan iboratdir.

O‘z davrida AQSHlik psixolog F.Frimen intellekt oltita tarkibdan iborat, degan g‘oyani ilgari suradi va ularni quyidagicha tartibda joylashuvini ko‘rsatib o‘tadi:

- sonli operatsiyalariga nisbatan qobiliyatlilik;
- lug‘at boyligi ko‘lami;
- geometrik shakllar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqli tomonlarini ajratishga nisbatan uquvchanlik;
- shaxs nutqining tezligi yoki sur’ati;
- shaxsning fikrlashga, mulohaza yuritishga nisbatan qobiliyatliligi;
- xotiraning mahsulдорligi yoki noyob xislatliligi.

YAna bir salohiyatli psixolog L.Tyorstoun umumiy intellektning turli jabhalarini tadqiq qilib, ularni umumlashtirib «birlamchi aqliy potensiyalar» deb ataydi. Muallif etti xildagi potensiyalar o‘zaro farqlanishini ta’kidlab o‘tadi:

- insonning hisoblash qobiliyati ko‘rsatkichi;
- og‘zaki so‘zni ixcham ifodalashining ko‘rsatkichi, nutq yordami bilan tez o‘qish hadisini egallaganligi;
- og‘zaki ma’lumotlarni to‘la idrok qilish yoki idrok qilingan so‘zlarni tushunish, anglash;
- fazoviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yoki shaxsning chamalash qobiliyati (uquvchanligi);
- xotiraning mustahkamligi yoki uning barqarorligi;
- fikrlashga, munozara yuritishga qobiliyatlilik;
- shaxs idrok qilishining tezligi yoki uning sur’ati.

Fransuz psixologi T.Ribo idrok ko‘lamining kengayishi, bilimlarning ko‘payishi, diqqatni bir vaqtning o‘zida bir necha ob’ektga qarata olishi – inson intellekti taraqqiyotiga olib keladi va u uch bosqichdan iborat bo‘lishi mumkin ekanligini ta’kidlaydi:

- shaxs imitatasiyasi yoki uning tashqi taqlidi,

- inson identifikatsiyasi (o‘quvchining bilimlarini o‘ziga singdirish jarayoni, uning shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini o‘zlashtirib borish va boshqalar),
- refleksiya (inson o‘zini – o‘zi anglash hamda bo‘lg‘usi faoliyatni amalga oshirish, muayyan rejalar tuzish, ularni maqsadga muvofiq hayot va faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari tug‘ilishi kabilar).

SH.Byuler intellektual taraqqiyotni quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi shart deb hisoblaydi:

- sinkretizm (tushunchalarni bir – biridan ajrata olmaslik holati);
- agglyutinizm (maktab yoshiga yaqin bolalarda fantazianing kuchayishi, vaqtini noadekvat, noto‘g‘ri idrok qilish, har bir obrazlarni muayyan bo‘laklariga binoan bir umuiyatga yaxlitlash, birlashtirish);
- xayolot (ijodiy xayol) yordamida inson o‘zi tug‘ilib o‘sgan Vataniga biron – bir jihatdan yordam berishi;
- realiya (realizm, ya’ni atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan yaqqol tuzilmani yaratish, turmush tajribalariga mumkin qadar yaqinlashib kelishdan iborat fikrlashning ko‘rinishi singari).

Jahon psixologlari to‘plagan ilmiy materiallarni umumlashtirib, intellekt muammosini tadqiq qilishda diqqat – e’tiborni quyidagi omillarga qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- intellektning yosh davr xususiyatlariga bog‘liqligi;
- jins xususiyatiga va farzand dunyoga kelish tartibiga aloqadorligi;
- millat, etnos, elat va xalqqa taalluqliligi;
- oilaning ijtimoiy – iqtisodiy statusi bilan uyg‘unlashuvi;
- ota – onalarning ma’lumotliligi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- biologik shartlangan shaxs fazilatlari, sifatlari, xislatlari qanchalik rol o‘ynashi va hokazolar.

Uzluksiz ravishda o‘tkazilgan izlanishlar natijasida psixologiya fanida bir qator ilmiy nazariyalar (konsepsiylar) vujudga keldiki, ularning har qaysisi

intellekt muammosini o‘ziga xos tarzda tushuntirishga va talqin qilishga olib keladi:

- muammo echimi uslubi va strategiyasi;
- intellektual operatsiyalar tizimi yoki tuzilmasi;
- vaziyatlarga nisbatan alohida yondashishning samaradorligi yoki mahsuldarligi (ma’naviy, miqdoriy va mantiqiy jabhalar), uning funksional tomonlari, yo‘nalishlari;
- alohida, yakkahol yondashish, bilish jarayonining shaxsdan faollikni taqozo etish xususiyati, holati;
- kognitiv uslub shakllanishi imkoniyati va boshqalar.

SHaxsiy kuzatishlarimizga qaraganda, intellekt taraqqiyoti mana bunday omillar bilan uzviy bog‘liq ekanligi ko‘zga yaqqol tashlanadi:

- bilish, o‘qish motivlarining anglashilgan hamda yuksak regulyativ darajalarining mavjudligi, barqarorligi, puxtaligi;
- yangilikni qidirish, muammo echimini topish, muayyan vositalar tanlash hamda tadqiqiy ijodiy faollik namoyon bo‘lishi;
- mustaqil echishlarga erishish ehtimollik darajasining yuksakligi;
- ilgarilab ketib echish imkonining mavjudligi va «aytib berish», luqma tashlash jarayonida erkinlik, qo‘rinch hissining yo‘qligi;
- yuksak nafosat va ma’naviy did timsoli hamda namunasini yaratishga nisbatan qobiliyatlilik, ularni baholash va o‘lchash funksiyasining tug‘ilishi, uning boshqaruvchanligi.

Insonniyatning tarxiy rivojlanish jarayonida intellekt deb atalmish fenomenni o‘rganish borasida ko‘pgina ishlar qilingan. SHulardan biri intellektni o‘rganish testlaridir. Ko‘pgina mumtoz testlar shaxsning intellekt darajasini aniqlashda muhim rol o‘ynab kelmoqda. Bular qatoriga Stenford-Bine shkalasini keltirib o‘tish mumkin. Stenford-Bine shkalasi qiziqarli topshiriq va masalalardan tuzilgan bo‘lib, ular tekshiriluvchilarning yoshiga qarab taqsimlangandir. Biz quyida ana shu intellekt test so‘rovnomalaridan namunalar keltiramiz va ularni sharhlab berishga harakat qilamiz.

- I. 4 yoshli bolalar uchun (har bir vazifani bajarish vaqt 2 oy):
 - har xil uzunlikda kesilgan shakllar va narsalarni taqqoslash;
 - turli turdag'i shakllar o'rtasidagi farqlarni aniqlash;
 - 4ta tanga pulni sanab chiqish;
 - kvadrat chiz va uni izohlab, tushuntir;
 - berilgan savollarga to'g'ri, aniq va tushunarli qilib javob qaytarish talab etiladi, tashqaridan yordam berish man qilinadi;
 - to'rtta raqamni to'g'ri va teskari sanash, takrorlash talab qilinadi.
- II. 9 yoshli bolalar uchun (bajarish muddati 2 oy davomida):
 - bugungi kun, hafta, oy, yil nomlarini aytib chiqish, tushuntirish;
 - 5ta jism yoki predmetni guruhlarga ajratish (belgisiga qarab);
 - xariddan keyin qaytim berilishini izohlash;
 - 4ta raqamni teskarisiga takrorlash;
 - berilgan 3 ta so'zdan gap tuzish (bola, daryo, koptok);
 - uchta har xil so'zga qofiya tanlash;
 - ma'lumki, har qanday psixologik testning diagnostik ahamiyati uning bir qancha umumiyligi talablarni qoniqtirishga bog'liqidir, jumladan, standartlashtirish, ishonchlilik, validlik. Ana shu talablarga suyangan holda Stenford-Bine shkalasini ham tahlil qilib chiqamiz.

Ushbu shkala tadqiqotchilar uchun har tomonlama yaxshi, qulay va ixcham qilib tayyorlangan. U barcha uchun tushunarli bo'lgan ko'rsatmaga va miqdoriy jihatdan natijalarni ishlab chiqish, hisoblash ishlanmasiga ega. Testlarning har birida uni o'tkazish yo'llari, vaqtning taqsimlanishi, tekshiriluvchilarga beriladigan og'zaki ko'rsatma va tegishli ko'rsatmalar, savollarni izohlash usullari bat afsil aytib o'tilgan. Stenford-Bine testi kattalar hamda uncha yoshi yuqori bo'lmagan sinaluvchilar uchun ishonchilidir. Lekin bolalik davridan tortib to o'spirinlik yoshigacha o'zgarib boradi. Masalan, ikki yarim yoshdan besh yoshgacha ishonchlilik koeffitsientlari 0,33 (140-149 ball bo'lganligi uchun) dan 0,91 (60-69 ball yiqqanlar uchun) gacha; 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'quvchilarda ishonchlilik koefitsientlari 0,91 (140-149 gacha

ball to‘plaganligi uchun)dan 0,98 (60-69 ball olganligi uchun)gacha o‘zgarib turadi. SHuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Stenford-Bine testiga kiritilgan har bir savol, topshiriq testning oldindan belgilangan maqsadni ochishga yo‘naltirilgan bo‘lib, pirovard natijada mazkur savollar oldindan ko‘zlangan maqsadni darhol aniqlab bera oladi.

Inson intellektual taraqqiyotidagi tezkorlik, kutilmaganlik hodisalari nafaqat moddiy negiz xossalari bilan izohlanadi, balki idrok maydonining paydo bo‘lishi, «sun’iy» tizimning vujudga kelishi, fazoviy aloqalar, biologik va psixologik imkoniyatlardan to‘laroq foydalanish evaziga moddiy asosning ikkilanuvchi «tabiiy» va «sun’iy» manbalar bosh omil ekanligini ta’kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Endi sinaluvchilarning intellektual taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi ijobiylar salbiy omillar turkumi to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tamiz:

- bilim maskanlarida zamonaviy texnika vositalarning mavjudligi;
- turli xildagi to‘garak, seksiya, bilim uylari faoliyat ko‘rsatishi va unda zarur sharoitlarning yaratilganligi;
- oila muhitida yaratilgan moddiy va ma’naviy shart – sharoitlar hamda shaxslarni ruhan rag‘batlantirish yo‘lga qo‘yilganligi;
- shaxslar bilan o‘zaro muloqot o‘rnatishning uzluksizligi va oilada shaxslararo iliq psixologik muhitning hukm surishi;
- turli televizon bahslar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo‘yicha musobaqalar uyushtirilishi va ularda qatnashish imkoniyati yaratilganligi;
- ortiqcha axborotlar va xabarlar ko‘lamini kamaytirish (masalan, avtomat o‘yinlar, videolar);
- zararli odatlar va qiliqlar bilan shug‘ullanmaslik muammosining qo‘yilishi, uning echimi (ichish, chekish va boshqalar);
- bolalar va o‘quvchilarni ro‘zg‘or ishlari bilan band qilib qo‘yishlik va oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanganligi;

- hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzi kamayib ketayotganligi tufayli o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida o‘quv motivlariga kuchli ta’sir o‘tkazayotganligi;
- kollej va oliy o‘quv yurtlarida ta’lim – tarbiya tizimini yangicha, yangi pedagogik texnologiya asosida tubdan katta qurish zaruriyati mavjudligi,
- o‘g‘il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘ulari barqarorligini ta’minalash va ularni shakllantirishning eng qulay yo‘llarini izlab topish, loqaydlikning oldini olish,
- o‘quvchilar va talabalar o‘rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatga, isrofgarchilikka, fidoyilikka nisbatan qarashlarni keskin o‘zgartirish masalalari vujudga kelmoqda.

Bizningcha, yuqorida ba’zi bir qusurli holatlarning oldini olish uchun intellektual testlar mohiyatiga milliy va umumbashariy fazilatlar to‘g‘risidagi g‘oyalarni singdirish yuqori natijalar beradi.

TEST - psixologik diagnostika metod bo’lib, u ma’lum ma’noga ega bo’lgan standart savol va masalalardan iborat. Test intellektual va maxsus qobiliyatlarini, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishini, kasbiy layoqatni aniqlash, kasbiy ekspertiza va reabilitasiya shuningdek, kasbiy maslahatlar jarayonida qo’llaniladi.

Test o’tkazish 3 bosqichga ajratiladi:

- test, savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi);
- test o’tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko’rsatmaga muvofiq tashkil etish;
- olingan ma’lumotlarni qayta ishlash va natijalarni o’rganish.

Kasb psixologiyasida maxsus qobiliyatlarning diagnostikasi va kasbiy yutuqlar muhim ahamiyat kasb etadi. An’anaviy intellektual testlar akademik qobiliyatlarni o’rganishga qaratilgan. Vakant (bo’sh) o’rinlarga nomzodlarni kasbiy tanlovi uchun ishonchli usullarga bo’lgan ehtiyoj psixologlarni maxsus qobiliyatlarni diagnostika qilish uchun test ishlab chiqildi. Ishlab chiqarishning

turli sohalari ishchilarning oldiga o'ziga xos talablarni qo'yadi. Kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kadrlarni joylashuvi, vakant ishchi o'rinalarini to'ldirish maqsadida muhim kasbiy psixofiziologik xususiyatlar, psixologik sifatlar, kasbiy malakalarni aniqlash imkonini beruvchi testlar bo'lishi lozim. Kasbiy yutuqlar testi faoliyatning ma'lum bir turini egallash darajasini o'lchash yoki kasbiy tayyorgarlik natijalarini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Maxsus qobiliyatlar testi asosan kasbiy tanlov uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, sensor qobiliyatlar diagnostikasi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ko'pgina, kasblar sensor sohaning xususan ko'rish va eshitishning yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi. Vizual qobiliyatlar testi muhim kasbiy belgilarga bog'liq holda ko'rish o'tkirligini, ranglarni farqlay olish va ularning ichki xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqliklar darajasini aniqlaydi. Eng keng tarqalgan ko'z o'tkirligini aniqlab beruvchi test - sinovda ishtirok etayotgan sinaluvchilarga bosma harflar tasvirlangan jadval ko'rsatiladi va tadqiqotchi tomonidan ko'rsatilayotgan harflarni aniqlash kerak bo'ladi. Eshitish qobiliyatlarini aniqlashda ovoz, signal ko'p hollarda odam ovozi eshittiriladi. Chuqurroq o'rganilishi maqsadida masalan, musiqiy eshitish qobiliyatini aniqlash testlari qo'llaniladi. Harakat qobiliyatlarini diagnostika qilish-harakat reaksiyalarini tasvirlash va koordinata tezligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bunday hollarda biz sensomotor diagnostikasini nazarda tutishimiz kerak, chunki aksariyat hollarda bu ko'rish orqali bajariladi. Chet elda barmoqlar mahoratini, buyumlarni o'ynata olish tezligi, qo'l mustahkamligi, reaksiya vaqt, qo'l harakatining tezligini tahlil etuvchi testlar keng tarqalgan. Motor testiga misol keltiramiz. Bunda tadqiqotda ishtirok etayotganlarning oldiga ikki seriyadan iborat bo'lgan to'g'ri burchakli taxta qo'yiladi. har qaysi seriyasida 48 tadan teshik bo'lib, seriyalardan biridagi teshiklar silindrli sterjenlar bilan to'ldirilgan. Sinaluvchilarga imkon qadar sterjinlarni boshqa seriyalardagi teshiklarga olib o'tish taklif qilinadi. Bunday tadqiqotda ishtirok etayotgan kishi ma'lum vaqt davomida ishning qancha qismini bajara olgani hisobga olinadi. Shuningdek, ishchilar kasbiy tanlovida texnik qobiliyatlar testi muhim o'rinni egallaydi. Texnik

qobiliyatlar deganda - murakkab intellektual qobiliyatlar tushuniladi. Bu qibiliyatlar o'z ichiga keng tasavvurlar, texnik salohiyat va sensomotor malakalarini qamrab oladi. Texnik qobiliyatlar testi - injenerlar, mexaniklarni kasbiy tanlovida keng doirada qo'llaniladi. Bu borada A.A.Beknet va Minnesotski testlari keng tarqalgan. Maxsus qobiliyatlarning so'nggi guruhiga A.Anastazi kasbiylashgan qobiliyatlarni kiritadi. Ularni o'lchash uchun tuzilgan testlar faoliyatning ma'lum kasb sohasida shakllantiriladi. AQSHda Minnesota shtatida konselariya testi keng ommalashgan bo'lib, tartibni qabul qilish tezligi, ishbilarmonlik atamalar ro'yxatini bilishi, eshitishi, xabardorlik, savodxonlik chiroqli nutqqa egalik kabi qobiliyatlarni aniqlab beradi. Kasbiylashgan qobiliyatlarga shuningdek, badiiy, musiqaviy, tadqiqiy konstruktorlik, ishbilarmonlik, ijtimoiy va ijrochilik qobiliyatlari kiradi. Yutuqlar testi sinovdagilarning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarini egallanganlik darajasini

aniqlab beradi. Iqtidor testlaridan farqli ravishda ular maxsus ta'lim dasturlarining kasbiy tayyorgarlikning ma'lum samaradorligiga, kasb egallahsha bo'lgan ta'sirini o'lchaydi. Boshqacha qilib aytganda, yutuqlar testi asosan individning ta'lim yakunidagi so'nggi muvaffaqiyatlarini baholashga yo'naltirilgan. Insonlarda yutuqlar testining 3 ta shaklini qo'llashadi: harakat testlari, yozma va og'zaki testlar. Bu testlarda aniq kasbiy faoliyatda eng muhim bo'lgan bir qator topshiriqlarni bajarish talab etiladi. Harakat testlari idoraviy kasblarda (texnik kotiba, mashinistka, stenografist va hokazolarda) keng qo'llaniladi. Yutuqlarning yozma testlari maxsus bilimlar ya'ni, savodxonlik uchun muhim bo'lgan kasblarda

ishlatiladi. Mazkur testlar asosiy tushunchalar, mavzulardagi sinfiy belgilari, texnik tavsiflar, formulalarni o'rganilganligini o'lchashga yo'naltirgan. Standartlashgan baholash shakli ob'ektiv harakatga ega bo'lib, guruhiy ishslashga imkon beradi va ko'p vaqtni talab etmaydi. Kasbiy yutuqlarning og'zaki testlari - maxsus kasbiy bilimlarga tegishli bo'lgan standartlashgan savollar seriyasidan iborat. Savollar kasbiy faoliyatni tahlil etish, malakali

ishchilarni kuzatish va har qaysi savolning muhimliligi asosida tanlanadi. Yutuqlar testlarini kasbiy salohiyatni baholash maqsadida qo'llanishi AQSHda psixologlar attestasiyasi tajribasidan ko'rish mumkin. Psixologlikka imtihon topshirish uchun nomzodlar universitetning psixolog ma'lumotga ega bo'lishlari va diplomli psixolog sifatida 2 yil ishlagan bo'lishlari shart. Imtihon ikki qisimdan iborat. Ettita faoliyat sohasi bo'yicha 100 ta topshiriqni bajarish: klinik psixologik, rivojlanish psixologiyasi, umumiyl eksperimental psixologiya, test va statistik tahlil, ijtimoiy psixologiya va psixologik konsultasiya. Beshta savolga tasviriy javoblar berish, ulardan bittasi - tadqiqot metodologiyasi bo'yicha va 4 tasi sanab o'tilgan 7 ta faoliyat sohalarining 2 tasi bo'yicha hamda bu sohalardan qaysi biridan topshirishini nomzodning o'zi tanlaydi. Har qaysi shtatda psixolog unvonini va amaliy faoliyatga linsenziya berishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Ammo ularning hammasi o'zlarni psixolog deb nomlovchi salohiyatsiz psixologlardan jamiyatni chegaralash maqsadiga qaratilgan. Yutuqlar testining keng tarqalishi ular mutaxassislarga, ishchi kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda shaxsda kasbiy tanlashni kuzatish va kasbiy yutuqlarni bashorat qilish imkonini beradi.

Eksperiment-tajriba sinov usullari

Eksperiment **usuli** - psixologik reallik mexanizmi va qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha asosiy metod hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan. Eksperimentning asosiy nomutaxassislik vazifasi - sabab-natija aloqalarini o'rganish va psixologik jaryonlar va hodisalarini tushuntirishdan iborat. Eksperiment o'tkazishda farq va rozilik qoidasini qo'llaydilar (J.S.Mill) A. B guruh voqealar guruhi ketidan D voqeasi kelsa ammo B, V ketidan A kelmasa, unda A, a, ning sababidir. Ikkala voqealar guruhidan birinchisi eksperimental sifatida ko'rib chiqiladi, ikkinchisi - nazorat guruhi deb ko'rildi. Ularni yagona farqlovchi voqea mustaqil o'zgaruvchi deyiladi va u jarayonning davomida turli o'zgarishlarga duch kelish mumkin. Eng tarqalgan eksperiment modeli quyidagi jadvalda ko'rsatilgan bo'lib, unda tadqiqotchi tahlil natijalarida sub'ektiv

baholardan foydalangan holda, ya’ni x_2 x_1 dan katta, u_2 esa u_1 katta degan xulosani ta’kidlab qolmasdan balki, hech bo’lmaganda umumiyligi hollarda qaydarajada kattaligini aniqlashi kerak bo’ladi. Aks holda, eksperiment va nazorat guruhlaridagi o’zgarishlarni tasdiqlashning o’zi bo’lmaydi.

Eksperimental tadqiqotni kasbiy tanlov misolida ko’rib chiqamiz. Korxonada mutaxassislar murakkab mexanik agregatlarni qabul qilishda ishlab turgan muhandislar ko’p deffektlarni o’tkazib yuborganliklari sabab, ishchilar orasidan nazoratchilarni tanlash zaruriyati kelib chiqadi. Eksperimentning mazmuni shundan iborat-ki nazoratchi uchun muhim bo’lgan qobiliyatlarini tashxis qilib beruvchi (diqqatni jamlay olish, mustaqillik, sensor farqlash darajasi, keng fikrlash) test loyiqlashtiriladi. Test tanlovchilar orqali nazoratchilarning eksperimental guruhi tuzildi. Eksperimental va nazorat guruhi ishlarini korreksion tahlil qilish asosida tasdiqlash, testning samaraliliginini va nazoratchilarni tanlash va tayyorlash metodikasini aniqlash imkonini beradi. Psixologik tadqiqotlarda eksperiment natijalarini miqdoriy ifoda qilish masalasi eng qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun miqdoriy ma’lumotlar, odatda, absolyut emas, balki nisbiy ahamiyatga ega. Ular ikki guruh darajasini tasdiqlash imkonini beradi, ammo har qaysining absolyut tavsifini aniqlay olmaydi. Shunday bo’lsa-da, psixologiya fani real o’quv-kasbiy faoliyatida o’zgarishlarni kutmaydigan, imkoniyatlar beruvchi vaziyatlar yaratish orqali shaxsdagi o’zgarishlarni o’lchash uchun turli xil shakllarni yaratadi. Eksperimentni o’tkazishda o’rganilayotgan jarayon o’tadigan sharoitlarni keng miqiyosda o’zgartiriladi, o’zgaruvchan omillar ta’sirini ajratish, ularning o’zaro aloqasini aniqlash va shu tariqa psixik hodisalarining qonuniyatlarini va mexanizmlarni o’rgatish mumkin. Eksperiment metodining muhim sifati shundaki-o’rganilayotgan jarayoniga to’g’ri baho berish,

Ma’lumotlarning miqdoriy hisobini olish imkonini beradi, bu esa tadqiqot natijalariga ishlov berish muhim statistik xulosa chiqarishga imkon beradi. Eksperimental usulning 3 turi mavjud: tabiiy, modellashtiruvchi va labaratoriya eksperimentlaridir. Tabiiy eksperiment psixik hodisalarini odatiy tabiiy

sharoitlarda o'rganishni nazarda tutadi (darsda, mehnat topshiriqini bajarish jarayonida va hokazo). Tabiiy eksperimentning afzalligi - tadqiqot maqsadlarining nisbatan yashirinligi, jarayonning norasmiy muhitda o'tishi va sinovdagilarning hayoti va faoliyatiga bevosita kirib borishi bilan belgilanadi. Modellashtiruvchi eksperiment ayrim mehnat jarayonlarining nazariy dinamikasi va murakkabligi tufayli real texnik moslamalarni odatiy ish tartibidagi usullarni o'rganib bo'limganligi tufayli qo'llaniladi. Bu jarayonlar anglanilgan holda o'rganilayotgan mehnat jarayonida ishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi uning tarkibiy qismlariga ajratiladi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi va shu tariqa modellashtirilgan sharoitlarda murakkab mehnat jarayoni o'rganiladi. Modellashtiruvchi eksperiment shaxsning kasbiy shakllanish jarayonidagi muhim kasbiy sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Labaratoriya eksperiment tadqiqotlarni maxsus asbob-uskunalarini bilan jihozlangan psixologik labaratoriyada o'tkazishni nazarda tutadi. Eksperimentning bu turi odatda elementar psixik funksiyalarni o'rganish maqsadida qo'llaniladi ya'ni, sensor va motor reaksiyalari tanlov reaksiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Insonning ish-harakatlarini o'rganish borasida oxirgi 20 yil mobaynida videotexnika va turli antik mexanik moslamalar rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilgan. Bu bir tomondan videoga tushirish,

streskopik tushirish kabi usullarni keng qo'llashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan tayyorlov ishlari ya'ni, eksperimentni o'tkazish va materiallarni tahlil etish kabi ishlarni yengillashtirishga xizmat qiladi. Videofotoregistrasiya metodining universalligiga qaramay tadqiqotlarda EHM va boshqa maxsus texnikaning qo'llanilishi bugungi kunda murakkab muammo bo'lib kelmoqda. Shakllantiruvchi eksperiment - bu usulning asosiy belgisi V.V Davidovning "psixikaning u yoki bu empirik shakllarining xususiyatlarini oddiygina ta'kidlab emas, balki ularni faol modellashtirib maxsus sharoitlarda namoyon etib, ular mohiyatini ochib berishi" kerak degan fikri bilan belgilanadi. Shakllantiruvchi eksperiment usullarini qo'llash o'quv-kasbiy jarayonlarning ma'lum tavsiflarini

o'zgartirish va shu o'zgarishning ta'lif oluvchilarning yosh, intellektual xususiyatlariga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq. Mohiyatiga ko'ra, bu usul keng tadqiqot o'tkazish vositasi sifatida boshqa usullarni qo'llash orqali o'tkaziladi. Shakllantiruvchi eksperiment V.V.Davidov bergan tavsifiga ko'ra - birinchidan, ko'p sonli ya'ni, statistik muhim; ikkinchidan, u yoki bu konsepsiyani yuritish uchun amalga oshiriladigan; uchinchidan uzoh davomli va nihoyat pedagogik-nazariyotchi diagnostik metodistlarni o'zaro hamjihatligini ta'minlab beruvchi eksperimentdir. Shakllantiruvchi eksperiment kasbiy ta'lifning optimal texnologiyalarida, korxonada kasbiy tayyorgarlikning samarali metodikasida, malaka oshirish tizimiga innavasion usullarni qo'llash jarayonida foydalaniladi.

Matematik ishlov berish usullari

Miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berish usullariga tadqiqot xulosalarini chiqarishning statistik usullari hamda ular o'rtaqidagi ma'lum aloqalarini aniqlash, ilgari suralgan gipotezaning haqqoniyligini tekshirish kabilar hisoblanadi. Natijalarga matematik ishlov berish, tadqiqotlarning isbotlanganligini (reprezentatligi) tanlab beradi.

Sifat ko'rsatkichlarining miqdoriy ishlov berilganlik bilan bir qatorda psixologik tadqiqotning ob'ektligi sezgilarini darajada oshiriladi. Tadqiqot usullarining to'g'riliqi nafaqat qo'llanilgan matematik apparatning takomillashganligiga balki, o'rganayotgan hodisa va ob'ektlarni real miqdoriy tavsiflarini qay darajada aks etishiga bog'liq. Bu talablarga rioya etmaslik, matematik o'lchovni oddiy formulalar o'yiniga aylantiradi.

Ta'lif yoki tarbiyaning u yoki bu amallarini yoki tomonlarini baholash uchun miqdoriy belgilarni topish - matematik muammo hisoblanmaydi. Bu vazifani tadqiqotchi psixologlar hal etishi kerak. Ammo bu masalani hal etish uchun o'lchov usullarining qo'llash chegaralari va sharoitlarini hisobga olib, psixologik hodisalarini to'g'ri o'lchash kerak bo'ladi. O'lchov – ma'lum qoidalarga muvofiq voqealar va ob'ektlarga raqamlarni qo'yib, yozish raqamli tavsiflarni, narsa - buyum va hodisalarga qo'shilib yozilishining eng oddiy metod - ularni qayd etishdir. Qayd etishning mohiyati shundaki - qandaydir

belgini ajratib kuzatish va eksperimentda shu belgisi bo'lgan predmet yoki hodisa paydo bo'lsa shu holat muntazam qayd etib boriladi. Masalan, o'qish sabablarini o'rganishda so'rovnoma asosida javobning u yoki bu variantini tanlangan talabalar sonini aniqlashadi qayd etish natijalariga statistik ishlov berish o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan ayrim muhim umumlashgan va xulosalarni qilish imkonini beradi. Qayd etishning muhim xususiyati shundaki, u psixologik - pedagogik tadqiqotlarda ko'p uchraydigan qol bo'lib, ya'ni o'rganilayotgan xodisalarning belgilarini aniqlash, imkon bo'limgan hollarda ham miqdoriy jihatlarini tahlil qiladi. Masalan talabalarning bilim va malakalari darajasini, u yoki bu ma'naviy sifatlarining rivojlanishi bu ta'lim metodining samarali darajasini to'g'ri o'lchash qiyin. Ammo shunga tegishli voqealarni - xatolar, o'zini tutishi va hokazolarni qayd etib, bu sifatlarining ma'lum miqdoriy tavsifini olish mumkin. Demak, ular paydo bo'lishining qonuniyatlarini o'rganish mumkin. Ma'lumotlarga miqdoriy tavsif berishning keyingi metodi - tartibga solish operasiyasidir. Uning mohiyati shundaki, o'rganilayotgan hodisalar ma'lum belgi hajmining o'sish yoki pasayish tartibida joylashadi. Keyin ob'ektlarning har qaysi guruhiга o'sish yoki pasayish qatoridagi bir guruh o'rniga tegishli bo'lgan son bo'ladi. Bu ob'ektlarda o'rganilayotgan sifatning tartibini ko'rsatib beruvchi sondir. Ma'lumotlarni tartibga solgandan keyin ularni guruhlashadi. Buning uchun o'rganilayotgan sifat ma'nosini ma'lum intervali o'lchov belgisi deb qabul qilinadi. O'rganilayotgan hodisalarda belgi ma'nosи necha marta shu o'lchov birligi kuzatilayotgan ob'ektda namoyon etilishi son bilan belgilanadi. Ma'lum sabablarga ko'ra, matematik apparatni qo'llashda va o'lchovda qiyinchiliklar kelib chiqadi. O'lchov natijasida olingan miqdoriy sifatlar matematik statistika usullari yordamida ishlab chiqiladi va bu empirik natijalarni umumlashtirishga "Tasodify" natijalar sababini tushuntirishga unga ma'lum ishonarli izoh berishga imkon beradi. Amaliy psixologiyada miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berishning eng keng tarqalgan usullari - dispersion, korrelyasion va faktorli tahlil usullaridir. Dispersion tahlil - o'rganilayotgan o'zgaruvchiga turli omillarning ta'sirini tahlil etish imkonini

beruvchi statistik usuldir. Dispersion tahlilning mohiyati shundaki o'rganilayotgan sifat mustaqil tarkibiy qismlarga bo'linib ketadi, bu qismlarning har biri u yoki bu omilning yoki o'zaro aloqaning ta'sirini tavsiflab beradi. Korrelyasion tahlil - o'rganilayotgan sifatlar yoki omillar aloqasining shakli, belgisi yoki zichligini baholash statistik metoddir. Faktorli tahlil - ko'p o'lchovli matematik statistika metod bo'lib, bu usul statistik jixatdan bog'liq sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Bu usul ilmiy tadqiqotlarning boshlang'ich bosqichlarida sermahsul hisoblanadi, chunki bu paytda o'rganilayotgan sohadagi qonuniyatlarni ajratish kerak bo'ladi. Tadqiqotlarga matematik ishlov berishning boshqa metod ham mavjud. Biz eng ko'p tarqalgan usullarini ko'rib chiqdik. Tadqiqot tajribasi shuni ko'rsatadiki, matematik ishlov berish ko'pgina muhim psixologik tavsiflarni, ularning aloqalari, munosabatlari, qonuniyatlarini o'rnatish va tasvirlashning samarali vositasi hisoblanadi. Tadqiqot usullarini tavsiflash xulosalarida shuni ta'kidlash kerakki, ayrim usullarni boshqalariga qarama-qarshi qo'yish yoki qaysilarinidir imkoniyatlarini absolyutlashtirib bo'lmaydi. U yoki bu usulni tanlash tadqiqot predmeti va vazifalari bilan belgilanadi. har qaysi psixologik tadqiqotlarda o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va haqqoni xulosalar chiqarish imkonini beruvchi usullar kompleksi qo'llaniladi.

Biografiya (tarjimai hol) metodi

Inson psixikasini-ruhiyatini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risidagi og'zaki va yozma ma'lumotlar odamlarning tarjimai holi, kundaliklari, xatlari, esdaliklari muhim ahamiyatiga ega.

SHu bilan birga o'zgalar tomonidan to'plangan tarjimai holga aloqador materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli filmlar, videokamera tasviri, taqrizlar, tanbehlar ham o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Hatto shifokorning kasallik tarixi hujjati ham bolaning tug'ilganidan, to boshlang'ich ma'lumot olgunicha bo'lgan davr orlig'ida salomatlik darajasi qanday

bo‘lganligi to‘g‘risidagi omillar bilan tanishish imkonini beradigan material hisoblanadi.

Tarjimai hol metodi inson psixikasini suhbat va tajriba metodlari vositasida o‘rganib bo‘lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Mazkur metod orqali, masalan, ijodiy xayol bilan bog‘liq jarayonlar: she’riyat, musiqa, nafosat, tasviriy san’at, texnik ijodiyotning nozik turlari va shaxsning ma’naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste’dod, salohiyat kabi fazilatlari kuzatiladi. Inson ongingin namoyon bo‘lishi, rivojlanishi, o‘ziga xos individual va ijtimoiy xususiyatlari, atoqli shaxslar bildirgan mulohazalarida, asarlarida o‘z ifodasini topadi. Allomalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta’rifu – tavsiflari orqali avloddan – avlodga o‘tadi. Xuddi shu ijtimoiy uzlucksizlik natijasida ajdodlar bilan avlodlar o‘rtasida vorislik hodisasi ijtimoiy psixologik voqelik vujudga keladi va ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning uyg‘unligini ta’minlaydi.

Anketa metodi.

Umumiyligi psixologiyada keng qo‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, unda odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari o‘rganiladi.

Anketa odatda 3 xil bo‘lib, birinchi xilida anglashilgan motivlarni aniqlashga mo‘ljallangan savollardan iborat bo‘ladi, ikkinchi xilida esa faqat bittagina javob tanlash sharti bilan har bir savolga bir nechtadan tayyor javoblar ham beriladi. Uchinchi xil anketa sinaluvchiga havola qilinganda kamida to‘rt-besh to‘g‘ri javoblari ballar yordamida baholanadi. Anketa metodidan odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari qobiliyatlarini, o‘ziga, tengdoshlariga katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalilaniladi. Anketa orqali shaxslarning xarakter xislatlari, xulq-atvorlarini tekshirish, sirtdan turib baholash mumkin.

Tarqatilgan anketalar yig‘ib olinib, elektron hisoblash mashinalari dasturiga muvofiqlashtirib atroflicha amaliy xulosalar chiqariladi. Anketa

metodi inson psixikasining ayrim tomonlarini o'rganish uchun boy material to'plash imkonini beradi, lekin unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi to'g'ri va qarshi savollarni puxta ishlab chiqish kerak.

Sotsiometriya metodi.

Bu tadqiqot metodiga AQSHlik Djon Moreno asos solgan bo'lib, kichik (birlamchi) guruh a'zolari o'rtasida emotsional, hissiy munosabatlarni bevosita o'rganish va darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun uning faoliyatda kim bilan ishtirok etishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matriksa, grafik, chizma, jadval, diagramma shaklida ifodalanadi. Ulardagi miqdor ko'rsatkichlari guruhdagi odamlarning shaxslararo munosabatlari mazmuni yuzasidan ma'lum bir xulosa qiladi. Biroq ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi xolos. Uni takomillashtirish maqsadida hozirgi vaqtida psixolog olimlar YA.L.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning kichik guruhlar psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan variantlari, ko'rinishlari ishlab chiqilganki, ular orqali shaxslarning bir-birini tanlash motivlarini aniqlash mumkin. Ayniqsa sotsiometriyaning YA.L.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan varianti bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar to'g'risida to'la axborot berishga yordam beradi.

Odatda o'quvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: «Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?», «Mashg'ulotlarga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?», «Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?» sinaluvchi har uchta javobdan bittasini «eng ma'qul» deb tanlashi lozim. Unga «avval, hammadan ko'ra ko'proq kim bilan birga bo'lishni xohlasang, o'shaning familiyasini yoz», «agar sen istagan shaxs to'g'ri kelmasa, yana kim bilan birga bo'lishni istasang, shuning familiyasini yoz», «aytilgan

shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz» deb uqtirish maqsadga muvofiq.

Guruhiy tabaqalanishni ko‘rsatish uchun sotsiogramma to‘rtta «maydon»ga ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o‘g‘il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to‘g‘ri keladi. Guruh a’zolarining o‘zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog‘langanida o‘z ifodasini topadi. Eng ko‘p munosabatga ega bo‘lgan sinaluvchi doiraning markazidan o‘rin oladi. U guruh a’zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. SHaxslar bilan aloqa o‘rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi «maydon»larga o‘rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. SHu yo‘l bilan birinchidan shaxslararo munosabatning darjasini va ko‘lamini aniqlanadi, ikkinchidan qizlar bilan o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlar taqqoslanadi. Natijalariga qarab guruhdagi munosabatlar va ularning o‘ziga xosligi, psixologik mexanizmlari, barqarorligi, puxtaligi, o‘zaro bir-birini taqozo etuvchanligi haqida xulosalar chiqariladi. SHu bilan birga nazariy va metodologik ahamiyatga molik g‘oyalari, qonuniyatlar ilgari suriladi, amaliy ko‘rsatmalar beriladi, aniq tavsiyalar bildiriladi, mavzuning tadqiqot istiqboli to‘g‘risida mulohazalar yuritiladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Psixologiya fanining empirik (amaliy) metodlari
2. Kuzatish metodi
3. Kuzatish metodining texnologiyasi
4. Test metodini izohlang?
5. Stenford-Bine shkalasini izohlang?
6. Biografiya (tarjimai hol) metodini gapiring?
7. Anketa metodi.
8. Sotsiometriya metodi.
9. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.

SHarq mutafakkirlarining kasbiy ta’lim va tarbiyaga oid falsafiy psixologik qarashlari

Buyuk ajdodlarimiz kasb – hunar to‘g‘risida.

Kasb-hunar egalari qadimdan e’zozlanib kelingan. Bizning davlatimizda ularga nisbatan hurmat-ehtirom o‘zligimizni anglash tufayli yanada jamiyatimizda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, yuqori malakali, ma’naviyatli, mohir kasb egalari tobora ko‘proq talab qilinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining +aror va Nizomlarida mutaxassis kadrlar tayyorlash masalasiga katta ahamiyat berilmoqda va ular haqida alohida g‘amho‘rlik qilinmoqda. SHu bilan birga, tor sohadagi kasbdan asta-sekin keng qamrovli universal kasbga o‘tish muammosi, g‘oyasi ilgari surilmoqda. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko‘rsatib o‘tilganidek, mehnat va kasbiy tayyorgarlik sifatini yanada yaxshilash, uzlusiz ta’limning faol metodlarini qo‘llash, yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tadbiq etish, ta’lim va tarbiya birligi tamoyilini sobitqadamlik bilan amalga oshirish lozim.

Sharq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma’naviy boylikning har bir satrini oolib tahlil qilganimizda ularning inson kamolati, ma’naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb – hunarga o‘rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mulohazalar olsa bo‘ladi. To hozirgacha saqlanib kelayotgan qator me’moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy sa’nati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me’morchilik) arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari, bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb – hunar o‘rganishga, yuksak iste’dod va qobiliyat sohibi bo‘lishiga oid bebahо materiallar qoldirganliklarini mujassamlashtiradi.

Tariximizga nazar soladigan bo‘lsak, hozirgi o‘zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar avval o‘ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishganiga guvoh bo‘lamiz. Masalan, ajdodlarimizning yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid qarashlari, o‘gitlari haqidagi qimmatli ma’lumotlariga ega bo‘lishimizda eng qadimgi yozma yodgorligimiz

“Avesto” ning o‘rni beqiyosdir. Eng umumiy ravishda “Avesto”da inson mehnati bilan barcha yovuzliklardan qutulishi mumkin, degan ulug‘ g‘oya ilgari suriladi.

“Avesto”da yoshlarni kasb-hunarga o‘rgatishga, halol mehnat qilib to‘q farovon hayot kechirishga da’vat etiladi. Bundan ko‘rinadiki, eng qadimgi davrlardanoq xalqimiz farzand tarbiyasiga, uni kasb-hunarli bo‘lib farovon turmush kechirishini ta’minlashga katta e’tibor bilan qaragan.

Mamlakatimizda etishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimiz, qomusiy olimlarimiz yoshlarga ta’lim-tarbiya berish va ularni kasb-hunarga o‘rgatish masalalari bo‘yicha o‘zlarining buyuk asarlarida qimmatli fikr mulohazalarni bildirib, bu borada nimalarga e’tibor berish kerakligi haqida yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatganlar.

Buyuk qomusiy olim **Abu Nasr Forobi** kasb-hunar to‘g‘risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta’lim so‘z va ko‘nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarni o‘rganishga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo‘lishini aytgan. Bu mulohazalardan anglanib turibdiki, alloma kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo‘lib kelganini tan olgan.

Forobi ta’lim-tarbiya ta’limotining asosi komil insonni shakllantirish, bunda yoshlarga o‘z vaqtida o‘rinli ta’lim va tarbiya berish, ularni kasb-hunarga yo‘llash orqali baxt-saodatga erishtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga yordam berish g‘oyasidan iborat.

SHarqda birinchi bo‘lib Er va Osmon globusini yasagan **Abu Rayxon Beruniy** ilm fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sish bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiyani amalga oshirish usullari, metodlarini ham ko‘rsatib o‘tgan. Eng muhim mutafakkir inson kamolotida, mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasining mehnatiga qarab turlarga bo‘ladi. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand va fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli olimlar mehnatiga alohida

e’tibor berish, hayrixoh bo‘lishga chaqiradi, ularni ma’rifat tarqatuvchilar, jamiyat ravnaqiga hissa qo‘shuvchilar deb biladi.

Olim bolalarni mehnatga o‘rgatish metodlari, yo‘llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga o‘rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasida o‘sha davr an’anasiga ko‘ra vorislikka katta ahamiyat beradi. Beruniyning “Mineralogiya” asarida hunarmandchilikka oid, shogird tayyorlash jarayoni, ustalarning hunar o‘rgatish metodlari haqida ham qimmatli fikrlar bayon etilgan. Bunda shaxsiy namuna metodidan foydalanilgan. Ish jarayoni bevosita ham nazariy, ham amaliy jihatdan ustaxonaning o‘zida bajarilganligi shogirdlarning malakali usta bo‘lib etishishida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Beruniy inson har tomonlama kamolga etishishi uchun u ilmli bo‘lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo‘lishi ham kerak deydi.

Beruniyning pedagogik ijodida inson va uning baxti-saodati, ta’lim-tarbiysi, kasb hunar egallashi va kamolati bosh masala bo‘lgan. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiatni va jamiyat ilmini o‘rganishda “o‘zim tekshirib ko‘rmaguncha ishonmayman” degan shiorga butun umr amal qiladi. Umuman olganda Abu Rayhon Beruniyning pedagogik – psixologik qarashlari asosan, oilada bola tarbiysi, aqliy ta’lim, ahloqiy va jismoniy ta’lim, mehnat va insonparvarlik tarbiyalaridan iborat bo‘lgan.

SHarqning ulug‘ allomalaridan biri “SHayx-ar- Rais” nomi bilan mashhur bo‘lgan **Abu Ali Ibn Sinodir**. Mutafakkirning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo‘lib, u bolaning fe’l-atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g‘oyalari qo‘llanishini ta’kidlagan hamda murabbiy, ota-onalarga bolani qattiq tan jazosidan ko‘ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga etkazish ma’qulligini ko‘rsatadi .

Mutafakkirning “Donishnama”, “Risolai ishq”, ”Uy xo‘jaligi”, “Tib qonunlari” asarlari xalqimiz odob axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi.

Ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart, deydi.

YOsh yigit biror hunarni o‘rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar orqali oilani ta’minlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi. O‘spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Hunar egallahash orqali o‘spirinlarda sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda kasb tanlashga alohida e’tibor berish kerakligini ta’kidlashi uning yoshlarni kasb-hunarga yo‘llash masalalariga alohida e’tibor bilan yondashganini ko‘rsatadi. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlarga gagina egadir, unga o‘xshagan insonlar kamdan-kam bo‘ladi.

Hozirgi davrda ham allomaning falsafiy-psixologik qarashlari, ijtimoiy hayotimizda o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Uning tarbiya va mijoz xususidagi fikrlari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, shaxslararo munosabatlar etikasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Olimning falsafa, mantiq, psixologiya, siyosiy - ijtimoiy fanlar bo‘yicha bizga meros bo‘lib qoldirgan asarlari bashariyat uchun dasturilamal sifatida xizmat qiladi.

XI asrning buyuk mutafakkiri YUsuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida (1069 y) inson va uning hayotiga oid qarashlarini bayon etgan. Asar turkiy halqlarning qadimgi tahlim va tarbiya usullarihaqidagi ilk ma’lumotlarni saqlagani bilan juda ahamiyatlidir. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi va uning kelajakda qanday odam bo‘lib voyaga etishi ajdodi va kelib chiqishiga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib: “Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi”, deb hisoblaydi. YUsuf Xos Hojib insonga bilim nechog‘lik zarur bo‘lsa, kasb-hunar egallahash ham shunchalik muhimligini asarida alohida ta’kidlaydi. Alloma jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim o‘ringa ega bo‘lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar haqida ham muhim fikrlarni bayon etadi. Zero, u kasb- hunar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining o‘lchov birligi sanalishini

etarlicha anglagan. Yana allomaning fikricha, insonning ulug‘ligi aql-idroki, so‘zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, kasb-hunarga egaligidadir-deyiladi.

Mutafakkir ilm-fan, aql-zakovatga ega bo‘lishga inson ma’naviy kamolotining eng muhim va birinchi mezoni sifatida qaraganki, uning bu fikrlari hozirgi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Kaykovusning “Qobusnomasi” asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr mulohazalar keltiriladi: “Ey farzand ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf etkurmas. Bilursangi, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdir. Hunarsiz kishi ham tikanli buta yanglig‘ na o‘ziga na o‘zgaga foyda berur”. Mutafakkirning farzandlar kasb-hunar egallamasa, hayotda o‘z o‘rnini topa olmasligi haqidagi fikri ayniqsa e’tiborga loyiq.

Bu holatning izohini quyidagi fikr mulohazalardan yana bir bor ko‘rish mumkin.

“Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo‘lsa-yu, ammo hunar bo‘lmasa, u xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo‘lur. Agar kishida ham nasab gavhari va ham hunar ziynati bo‘lmasa, undan battarroqdur. Jahd qilg‘il agar gavharning har nechakim asl bo‘lsa, unga g‘arra bo‘lmag‘il, nedinkim tan gavhari hunur zevari bila ziynatlangan bo‘lmasa, u hech narsaga arzimagusidir. Andog‘kim debdurlar: “Ulug‘lik aql va bilim biladur, gavhar va nasab bila bo‘lmas”.

Halqning oz hunarini ko‘p ko‘rgil, haqqin yaxshi bilg‘al. Behunarmandlikdan, bexiradlikdan yaxshi ot va yaxshi taom qo‘lg‘a keltura olsang, behunar, bexirad bo‘lg‘il, yo‘q ersa hunar o‘rgang‘il. O‘rganmak, eshitmakdin nomus qilmag‘il, to xijolat va pushaymonlig‘din qutulg‘aysan.

Xaloyiqning aybi va hunariga boqqil, ularning naf va zarari na chog‘liqdur. Buning foyda va ziyonlari qaysi erga qadar borur, undan so‘ng o‘z manfaatingni talab qil. Ko‘rg‘il, qaysi narsa xalqni manfaatg‘a yaqin qilur. O‘zing ana shundog‘ aql va hunarni o‘rganmoq bila ko‘tarilursan. Bu ish senga ikki narsa bila hosil bo‘lur: yo bilg‘on hunarga yarasha ish qilmoq bila yo bilmag‘on hunarni o‘rganmoq bila-deyiladi.

Amir Temur “Temur tuzuklari” asarida “Sultanat ishlarini murosa-yu madora, muruvvat va va sabr-toqat bilan yurgizdim”... “Tajribamdan ko‘rilgankim, ishbilarmon odam, mard va shijoat sohibi, azmi (qatiy) tadbirkor va sergak bir kishi, ming-minglab tadbirsiz, sog‘lom kishilardan yaxshidir”- deyiladi.

A.Navoiy o‘zining “Xamsa”, “Mahbubul-qulub” kabi yirik ta’limiy-ahloqiy asarlarida, shuningdek “Munojot”, “Vaqfiya”, “Majolisun-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarlarida ta’lim-tarbiya va bolani kamolga etkazishda kasb-hunar o‘rgatishning ahamiyati haqida namunalar bilan izohlaydi.

”Sa’diy bilim olish bilan birga hunarning ham inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. CHunki “Hunar qaynar buloq, tunganmas davlat, - deydi u, agar hunarmand molidan mahrum bo‘lsa qayg‘usi yo‘qdir. Hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to‘ridan joy oladi. Hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi”.

SHarq mutafakkirlaridan qolgan qimmatli ma’naviy boylikning har bir satrini ochib tahlil qilganimizda ularning inson kamoloti, ma’naviyati va mehnatsevarlik xislatlariga, bolalar va yoshlarni barkamol insonlar qilib shakllantirish va kasb – hunarga o‘rgatishga taalluqli ibratli, qimmatli mushohadalar olsa bo‘ladi. To hozirgacha, saqlanib kelayotgan qator me’moriy inshootlar, buyuk tarixiy obidalar, xalq amaliy san’ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me’morchilik) arxeologik qazilma va izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlarining barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o‘rgatishga, yuksak iste’dod va qobiliyat sohibi bo‘lishiga oid bebahо materiallar qoldirganliklarini mujassamlashtiradi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Farobiy kasb-hunar to‘g‘risida
2. XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Hojib kasb-hunar to‘g‘risida
3. Ibn Sino kasb-hunar to‘g‘risida

4. XX asrning etuk ma'rifatparvari Abdulla Avloniyning kasb-hunar haqidagi fikrlari
 5. "Avesto"da yoshlarni kasb-hunarga o'rgatishga
 6. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida
 7. Kaykovusning "Qobusnama" asarida kasb-hunar haqida

KASBLAR VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu taddiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyanı shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati – "kasblar tasviri" umuman olganda professiografiyanı o'rganish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi. Professiografiyada ma'lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob'ektlar belgilari, mehnat sub'ekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari o'rganiladi. Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rganishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati professiografiyaning aniq amaliy masalalarini yechishga bo'y sunishidir. Masalan, kasbiy konsultasiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko'ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rganish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, profesiografiyaning differensial tamoyili kasbning o'rganish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'llanilish sohasi ya'ni professiografiya o'tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari quyidagi faoliyat sohalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin:

- 1) Ishchilar attestasiyasi.
- 2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish.

- 3) Optantlar profkonsultasiyasi va mutaxassislar tanlovi.
- 4) Kasbiy ta'lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomillashtirish.
- 5) Shaxs kasbiy rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

Professiografiya natijalari professiogrammada aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatları, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'lig'iga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - psixogramma bo'lib, u mutaxassisning motivasion, iroda va emosional sohasining tavsifi hisoblanadi. Psixogramma - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi. Professiografik tadqiqot metodlari. Kasbning ilmiy ta'siri, mehnatning (mehnat xulqi) tashqi ya'ni psixik jarayonlar ko'rishini ya'ni, mehnat sub'ektining ichki vositalariga bo'lgan integral psixologik tuzilmalarini nazarda tutadi.

Professiografiyada ko'pgina turli-tuman usullar qo'llanadi:

- 1) Ijtimoiy (so'rovnomalari, savollar kiritilgan kuzatuv);
- 2) Psixologik (suhbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervyu, shaxsiy so'rovnomalari testlar, tajribalar, psixobiografiyalar, faoliyat mahsulini o'rganish metodi);
- 3) Fiziologik (EKG. KER qonda arterial bosimni o'lchash antopometrik va texnik ma'lumotlar);
- 4) Texnologik jarayonlar ta'siri va boshqa usullar xilma - xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimalligi bilan professiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim. Usullar kompleksini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil tadqiqot maqsadi muhim rol o'ynaydi. Psixografiyalarni kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiyligi professiografik va ijtimoiy-psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mehnat sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq o'rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu shaxsning qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baholashdir.

Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. qolgan tadqiqotlar o'quv - kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilarni o'qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo'lgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular ham muhim hisoblanadi, chunki aniq majburiyatlarni va mehnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yo'naltirish, kasbiy yo'nalganligini tashkillashtirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bo'lmaydi.

Professiografik tadqiqotlarning keyingi yo'nalishi - toliqish monotoniya boshqa yomon holatlarni oldini olish, travmatizm bilan ko'zning ko'rish kasalligi va uning pasayishi maqsadida mehnat sharoitlari va tartibini o'rganishdir. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi - mehnat sharoitlar va tartibini o'rganishi va shu bilan birga normal va patologik holatlar, shuningdek, shaxsning kasbiy muhim va faoliyatiga bo'lgan reaksiyasini tashxis qiladi. Bu kompleksga professiografik usullardan gigienik, tabiiy, psixologik va fiziologik usullar kiradi. Usullarni tanlashda kasbning to'liq o'rganilishi nazarda tutilishi kerak. Bunda professiografik tadqiqotlar yo'nalishlarida quyidagi professiografiya chizmasidan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) Ishlab chiqarish jarayoni bilan umumiylashtirish, tanishuv uning o'rganish va tasviri.
- 2) Ish o'rinalarini tasvirlash, ish o'midagilarning faoliyatini psixologik qo'llash.
- 3) Ish-harakatlarining psixologik, fiziologik va antropometrik tahlili.
- 4) Mehnat jarayonining tahlili.
- 5) Ish kunining sur'ati xronometraj.
- 6) Faoliyatning individualligini o'rganish.
- 7) Xatoli harakatlar tahlili.
- 8) Sanitariya - gigienik mehnat sharoitlarini baholash.
- 9) Bir smena, hafta, uzoq davr manbaida ish qobiliyatini dinamikasi.

Professigrafiyalar turli mazmuniga ega. Bu ular nima maqsadlarda tuzilganligiga bog'liq. Professiografik adabiyotlarni o'rganib va tizimli tahlil tamoyiliga tayangan holda umumlashgan profesiogramma chizmasi ishlab chiqilgan.

Formalashgan profesiogramma sxemasi:

Kasbning ijtimoiy va kasbiy tavsifi.

- 1) Kasb yoki mutaxassislikning rasmiy qabul qilingan nomenklaturasi bo'yicha nomi.
- 2) Taksanomik ma'lumotlar: shakli, turi, sinfi, guruhi, mutaxassisligi.
- 3) Ish joyi nomi.
- 4) Kasbning shu soha bo'yicha kasbiy guruhidagi o'rni.
- 5) Lavozim bo'yicha ish haqqi va uni baholash.
- 6) Asosiy malaka va lavozim majburiyatları.
- 7) Zaruriy ma'lumot.
- 8) Malaka diapazoni (razryadlar, sinflar va hokazo) shuningdek, ma'muriy, kasbiy, ilmiy rivojlanish istiqbollari.
- 9) Muammolarning asosiy xususiyatlari: doimiy yoki keng yoki tor doira ishlarini bilan muammoli turi (tor kasbiy taklif buyuruvchilar, mijozlar bilan odamlarga xizmat ko'rsatish sharoitiga va qo'l ostidagilarning rahbarlarga nisbatan va hokazo)
- 10) Kasbiy layoqat tufayli diskvalifikasiya hollarini aloqida kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat davridagi tavsifi.
- 11) Mehnat faoliyati asosiy xususiyatlarining qisqacha tavsifi (yosh jihatdan cheklash va boshqa holatlar)

Psixogramma

A) Umumiy mehnat tavsifi:

1. Ish kuni va sur'ati.
2. Mehnat dinamik omillarining tasviri va baholashi (ishga layoqat, toliqish, ishonchlilik, xatosizlik va boshqalar).
3. Mehnat sharoitlarini ish jarayonining dinamik jarayonlariga ta'siri.

4. Ish joyi va mehnat harakatlarining psixologik tavsifi.

5. Xato harakatlarining psixologik tahlili.

B) Psixik jarayonlarga qo'yiladigan talablar:

1. Psixomotorika

1. Ishning turi, statik va dinamik yuklamalar.

2. Ishchi harakatlar, gnostik, moslashuv, bajaruvchi va boshqalar.

3. Asosiy texnologik operasiyalarning vaqtincha va psixofiziologik tavsifi.

4. Psixomotorikaga qo'yiladigan maxsus talablar.

2. Sensor va perceptiv sohalar:

1. Turli sensor modalliklarning sezgirligi.

2. Kasbiy muhim signallarni qabul qilish turlari, vaqt, harakat, tezlikni qabul qilish.

3. Sensor va perceptiv sohalarga qo'yiladigan maxsus talablar.

3. Anglash jarayonlarining kasbiy xususiyatlari:

1. Mehnat faoliyatining ishonchliligi va samarasiga tasavvurlarning ta'siri.

2. Ijodiy faoliyatga bo'lgan talablar.

3. Ustun fikrlash turlari.

4. Ish bajarilayotganda qaror qabul qilish xususiyatlari, mustaqillik mas'uliyati, o'zini - o'zi nazorat qila olish, stressga bardosh berish talablari.

5. Ustun keluvchi xotira turi. Xotiraga qo'yiladigan talablar.

6. Nutqqa qo'yiladigan talablar. Nutq xususiyatlari.

7. Diqqat va uning xususiyatlari.

V) Emosional - iroda sohasiga qo'yiladigan talablar:

1. Ustun keluvchi emosional holatlar tavsifi.

2. Mehnat asab - psixik zo'riqishning o'ziga xos darajasi.

3. Maxsus talablar.

4. Iroda va uning xususiyatlari.

G) Mehnat jarayonida tipik psixologik jarayonlar:

1. Monotaniya va toliqish.
2. Mehnat jarayonida somatik psixologik holatlar.
3. Shu kasbga xos bo'lgan shuningdek e'tiborli e'tiborsiz holatlar.

D) Muhim kasblar ansambli (asosiy sifatlar):

1. Shaxsning umumiy va spesifik yo'nalishi tuzilmasi, kengligi, faolligi, bardoshliligi.
2. Ijtimoiy kasbiy mas'uliyat.
3. Optimizm.
4. Shaxsning istalmagan yoki istalgan xususiyati sifatida ishontirish xususiyati.
5. Shaxsning ma'naviy psixologik bardoshliligi.
6. Xarakter xususiyatlari (ijtimoiy faollik, prinsiplilik, qat'iyatlilik, mustaqillik,

rostgo'ylik, mardlik, tashabbuskorlik, tartiblilik, jamoatchilik, optimizm, pessimizm).

E) Chegaralash va qarshi ko'rsatmalar:

1. Xatolar oqibati va mehnat xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.
2. Kasbga layoqatsizlik tavsifi.
3. Jinsi, yoshi jihatdan chegaralash.
4. Kasbiy zararlar va imtiyozlar.
5. Shaxsning kasbiy deformasiyalari.

E.M.Ianova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi: ma'lumotli, diagnostik, prognostik va metodik. Informasion (ma'lumotli) professiografiya oktantlar, ya'ni, kasb tanlash zaruriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslahat ishlari uchun mo'ljallangan. Ular qatoriga o'quvchilar, kasb bilim yurtlari bitiruvchilar, ishsizlar va kasblarni almashtirmoqchi bo'lganlar kirishi mumkin. Informasion professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni tahliliy va hujjalarni o'rGANISH orqali amalga oshiriladi.

Diagnostik professiografiyalash mehnat samaradorligining pastligi mahsulot sifatining pastligi, avariya holati, travmatizm, kadrlar qo'nimsizligi sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Diagnostik professiografiyalash quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

1. Faoliyat mazmuni:

- 1) Mehnat predmeti va masalalari.
- 2) Ish natijalari sifatiga qo'yiladigan talablar.

2. Mehnat qurollari:

- 1) Ish turi va tartibi.
- 2) Boshqarish organlari.
- 3) Ish joyini tashkil etish.

3. Mehnat sub'ektining faoliyati:

- 1) Harakat turlari va ularning tavsifi.
- 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.
- 3) Kasb faoliyatiga xalaqit beruvchi omillar.
- 4) Mehnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi.

4. Mehnat sub'ektining faoliyati:

- 1) Ishchilarining o'zaro aloqalari tuzilmasi.
- 2) Ishni rejalashtirish va nazorat.

5. Kasbning mehnat sub'ekti shaxsiy psixologik va psixofiziologik sifatlariga qo'yiladigan talablar.

6. Mehnat sub'ekti faoliyatining past samaradorligi sabablarini tashxisi.

7. Kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha amaliy - eksperimental tekshiruv.

Diagnostik professiografiyalash empirik ma'lumotlarni yig'ish usullari orqali amalga oshiriladi. Prognostik professiografiyalash kasbiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha asoslangan tavsiyalarni berish maqsadida qo'llaniladi.

1. Kasbning umumiy tavsifi:

- 1) Kasb rivojlanishi tarixi va istiqbollari.
- 2) Kasbiy faoliyatni bajarilishining ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari.

3) Kasbiy muhit.

2. Kasbiy dala va mazmuni va jihat:

1) Kasbiy dala tavsifi.

2) Kasbiy bilimni aniqlovchi omillar.

3) Kasbiy bilimni rivojlanishi prognozi.

3. Kasbiy ta'lim malaka oshirish:

1) Kasbiy ta'lim darjasи.

2) Kasbiy tayyorgarlik.

3) Malaka oshirish.

4. Ishchining kasbiy moyilliги:

1) Mutaxassislik sohasining kengligi.

2) Asosiy malakalar darjasи.

3) Mutaxassislik va kasbni o'zgartirish imkoniyati.

5. Kasb istiqbolini baholash:

1) Shaxsning kasbiy - psixologik potensiali.

2) Ishchining kasbiy faolligi.

3) Kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish karera.

Pragnostik professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellashtiruvchi eksperimentlarni qo'llaydi. Metodik professiografiyalash psixologga mehnat sub'ektining holati va muhim kasbiy sifatlarni o'rGANISH usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga ko'ra metodik professiografiyalash sxemasi ham o'zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va hordiq tartibi, kasbiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo'lgan ta'sirini o'rGANISHda shunday sxema qo'llaniladi.

1. Mehnat sub'ekti faoliyatining mazmuni:

1) Haraktlar turi va ularning tavsifi.

2) Ishni rejulashtirish va bajarish xarakteri.

3) Emosional ko'rinishlar.

4) Ish joyidagi noqulaylik turlari.

5) Faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan xatolar, brak travma turlari.

2. Mehnat sharoitlari:

- 1) Sanitariya - gigienik muhit (havo darajasi, chang, namgarlik va boshqa).
- 2) Jismoniy muhitning yoritilganligi, shovqin.
- 3) Ish tartibi.
- 4) Haq to'lash va rag'bat shakli.

Mutaxassisning kasbiy mahoratini o'rganishda professiografiyalashning quyidagi sxemasi qo'llaniladi.

1. Faoliyat mazmuni:

- 1) Ishchilar malakasiga qo'yiladigan talablar (kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, shuningdek, sifatlar va qobiliyatlar).
- 2) Ishchilarning huquq va majburiyatları.

2. Mehnatni tashkillashtirish:

- 1) Malaka oshirish.
- 2) Kasbiy psixologik potensial.
- 3) Ijodiy qobiliyatlar.

3. Mehnat sub'ekti faoliyati:

- 1) Harakatlar turi va ularning tavsifi.
- 2) Ishni rejalashtirish va uni nazorat qilish.
- 3) Faoliyat individualligining xususiyatlari.

Professiografiya deganda kasblar va ularning bir – biridan farqlanuvchi ixtisoslar tomonidan inson oldiga qo'yiladigan talablarni bayon qilish majmuasi tushuniladi.

Kasb-kor (hunar) oldiga qo'yiladigan talablarni asoslash va ularni bayon qilish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, quyidagi umumiy hamda xususiy jabhalarni o'zida aks ettiradi;

- 1.Kasb va uni ixtisosliklarining psixologik tavsifi;
- 2.Kasb-korning (hunarning) mamlakat iqtisodiyati uchun ahamiyati;
- 3.Kasb va ixtisoslikning ijtimoiy tavsifi;

4.Kasbning ijtimoiy psixologik ahamiyati va tavsifi; yoshlarda uning ijtimoiy mavqeい (nufuzi), jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari, vertikal va gorizontal bo‘yicha shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari;

5.Kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli egallash uchun zarur bilimlar va ko‘nikmalar ko‘laming pedagogik tavsifi (maxsus mezonlar orqali kasbiy mahorat aniqlanadi);

6.Pedagogik jarayonni takomillashtirish yuzasidan takliflar, tayyorgarlik muddatlari, tadbir – choralarning umumiy tavsifi;

7.Mehnat sharoitining gigienik tavsifnomasi;

8.Kasb bo‘yicha mehnat qilishga tibbiy jihatdan ta’qiqlanuvchi omillar izchilligi;

9.Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlik;

10.O‘zini o‘zi faollashtirish va identifikatsiyalash.

Kasbning inson oldiga qo‘yadigan talablari majmuasi psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy, texnikaviy va pedagogik jabhalarni qamrab oladi. Kasb va ixtisos asoslarini egallovchi yoshlar shu fanlarning barcha talabalariga moslashishi orqali mutaxassislik layoqatini rivojlantira boradi.

Kasb tanlashga yo‘naltirish davlatning tadbir – choralari tizimidan iborat bo‘lib inson tomonidan tanlanadi, o‘z hayot yo‘lining ilmiy asoslanganligini ta’minlashga xizmat qiladi, u turmushda o‘z o‘rnini aniqlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- 1) mактабда kasbiy ma’лумотлар бериш;
- 2) kasb – hunar maорifi bilan shug‘ullanish;
- 3) radio, televидение, kino, matbuotda tashвиqot qilish;
- 4) kasb yuzasidan maslahatlar;
- 5) kasbga saralash (qobiliyatiga binoan);
- 6) kasbga moslashish (adaptatsiyalash).

Mazkur sohada psixologik izlanishlar olib borgan K.K.Platonov muayyan sxema ishlab chiqqan bo‘lib, u «Kasb tanlashga yo‘naltirish uchburchagi» deb nomlanib, o‘zining ixchamligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Xuddi shu bois

kasb tanlashga yo'llashda, reorientatsiyalashda undan unumli foydalanish mumkin.

Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagining muhim bir tomoni – bu har xil kasb – hunar egasiga nisbatan qo'yiladigan talablar yuzasidan muayyan bilimning mavjudligidir. Uning ikkinchi bir xususiyatli tomoni shuki, u yoki bu mutaxassislikka nisbatan jamiyat (viloyat, shahar, tuman)ning mehnat imkoniyatiga ehtiyoji bo'yicha bilimlar mujassamlashganlidir. Yana bir o'ziga xos tomoni shundan iboratki, kasbga yo'naltiruvchining quinti, qobiliyati, shaxsiy xususiyatlari bo'yicha bilimlar umumlashtirilgan bo'lib kasbga tanlashga oid barcha jihatlar majmua holiga keltirilgandir.

Kasb tanlashga yo'naltirilgan uchburchak shaxsning qiziqishi, mayli, xohishi, o'zini o'zi baholashi, nufuzi kabilarga oid materiallarni o'zida mujassamlashtiradi.

E.A.Klimov qarashlariga binoan professiogramma bu:

1)sensor kanallarni yuklamalash, ustivor signallarning turlari faoliyat jarayonidagi axborotlar ko'lami va umumiylar xususiyati (ko'rish, eshitish va boshqalar);

2)axborotlarni saqlash va qayta ishslash bilan bog'liq aqliy faoliyatning xususiyati;

3)xotira, tafakkur va nutqning qatnashuvi va ayrim harakatlarning tavsifi;

4)ishda, mehnat faoliyatida asab – psixologik zo'riqish, tanglikning mavjudligi;

5)diqqatni boshqarish zarurati;

6)ishda muvaffaqiyatga eltuvchi shaxs sifatlari, fazilatlari;

7) mehnat faoliyati tuzilishini tavsiflovchi integral psixofiziologik ko'rsatkichlar.

Bizningcha, yuqorida mulohazalardan tashqari professiogramma oldiga quyidagi talablarni qo'yish maqsadga muvofiq:

1.Ishning qanday nomlanishi va uning nimalardan tuzilishi (ishning nomi, mutaxassislik, kasb – hunar, lavozim, ishchi o‘rni imkoniyati, mehnatning turdosh xususiyatlari va uning muhim tavsiyalarining bayoni);

1. Ishning maqsadi, samaradorligi xususida ma’lumotlar;
2. Mehnat quroli sifatida nimalar qo’llanilishi;
3. Mehnat predmetining tarkiblari va ularning o‘ziga xos jahhalari;
4. Mehnat faoliyati qaysi usullar yordami bilan bajarilishi;
5. Nimalarning negizida ish (mehnat, faoliyat; amalga oshirilishi);
6. Mehnat mahsullarini baholash mezonlari;
7. Ishning qanday ixtisoslik talab qilishi xususiyatlari.
8. Ish qanday vositalar yordami bilan bajarilish imkoniyati va uning motivirovkasi.
9. Ishning bajarilish shart va sharoitlari;
10. Mehnatni (faoliyatni) tashkil qilish shakllari;
11. Mehnatning kooperatsiyasi (Kim?, Nima?, Kim bilan hamkorlikda?);
12. Mehnatning jadalligi (intensivligi) to‘g‘risida ma’lumotlar;
13. Mehnat faoliyatida mas’uliyatning va xavf – xatarning qaysi daqiqalari (holatlari) uchrashi;
14. Mehnat uning sub’ektiga qanday foyda, naf keltirishi (ish haqi, mukofot, ma’naviy ozuqa, imtiyoz, ijtimoiy moyillik, altruizm xislati, maqtov, jamoatchilik bahosi va boshqalar);

17.Ish yoki faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlariga ko‘ra qanday talablarga va cheklanishlarga ega ekanligi.

Har bir shaxs farovonlikda va yaxshi ta’minlangan sharoitda yashashni istaydi. SHu sababli ham insonlar farovon turmushni ta’minlashga xizmat qiluvchi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga intiladilar va moddiy boyliklarni o‘zlashtirishga imkon yaratuvchi kasb-hunar sohalari va mutaxassisliklarni egallahsga harakat qiladilar. Ba’zi holatlarda ma’lum bir kasbni tanlash va uni egallahda shaxsning imkoniyati etarli bo‘lmaydi. Insonning qiziqishlariga va

psixologik imkoniyatlariga to‘g‘ri kelmaydigan kasbning tanlanishi, tabiiyki, uning shaxs sifatida kamol topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. SHu nuqtai nazardan shaxsning ichki intilish va imkoniyatlariga u tanlagan kasbi bilan shaxsi orasidagi munosabati o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Biz quyida shu masala bo‘yicha psixolog olimlarning qarashlarini, o‘tkazgan tadqiqotlarini tahlil qilamiz.

Ma’lumki, shaxsning kasbiy shakllanishi to‘rt asosiy bosqichdan iborat bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin: a) kasbiy intilishlarning shakllanishi; b) kasbiy ta’lim; v) kasbiy moslashish; g) shaxsning kasbiy faoliyatda qisman va to‘liq o‘zini-o‘zi bag‘ishlashi. Mazkur bosqichlarga mos holda kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni ham sodir bo‘ladi. Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayoni psixologik adabiyotlarda etarli darajada chuqur yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, psixologlar kasbiy intilishning shakllanishi va kasb tanlash bosqichlariga alohida e’tibor qaratganlar.

Kasb-hunar ta’limi jarayonida professiogramma quyidagi tuzilishga ega bo‘lishi lozim.

I. Maxsus fazilatlar:

- psixologik barqarorlik
- jismoniy zo‘riqishlarga chidamlilik
- ish joyida diqqatni tez taqsimlashlik
- ko‘rvu idrokiga tezkor javob qaytarishlik
- operativ tafakkurga moyillik
- vaqtini idrok qilishga qobiliyatlilik
- obrazli xotiraga egalik
- teri-tuyushga sezgirlik
- harakatni muvaffaqiyatlashtirishga uquvchanlik.

II. Kasbiy bilimlarga zehnlilik:

- ishlab chiqarish ta’limi jarayoni mohiyatini komil insonni shakllantirishning tarkibi ekanligini tushunishlik

- ishlab chiqarish ta’limi metodikasi va nazariyasi asoslarini egallaganlik
- yosh va jins xususiyatlari,tayyorgalik darajasini hisobga olgan holda mashg‘ulotlar o‘tkazish
- ishlab chiqarish ta’limida o‘quvchilarning psixologik, pedagogik, fiziologik xususiyatlari rivojini inobatga olishlik
- psixologiya fanining ilmiy asoslari bilan qurollanganlik
- o‘quv mashg‘ulotlarida psixologik va fiziologik qonuniyatlar mohiyatini tushunganlik
- ota-onalarga va jamoatchilikka psixologik ta’sir o‘tkazish mexanizmini bilishlik
- o‘quvchilar bilan kasbga oid sinfdan tashqari mashg‘ulotlar uyushtirish metodikasini o‘zlashtirganlik
- yangi ta’limiy texnologiya ta’sirchanligini uqishlik.

III. SHaxsiy psixologik va pedagogik salohiyat:

- ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlari uchun zarur materiallarni ajrata bilishlik
- o‘quvchilarning kuchiga, yoshiga, jinsiga binoan mashg‘ulotlarni rejalashtirishlik
- o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari va shaxsiy sifatlari rivojlanishining istiqol rejasini tuza olishlik
- mashg‘ulotlar sifatini ko‘tarish uchun o‘quvchilarni o‘zini-o‘zi tayyorlashga o‘rgatishlik
- shaxsga ta’sir o‘tkazishni rejalashtirishga uquvchanlik
- o‘quvchilar jamoasiga rahbarlik qilishda shaxsiy faoliyatini idora qilishni uddalashlik
- ishlab chiqarish ta’limiga kasb-hunar o‘quv yurtlari jamoasini tortishga qobiliyatlilik.

IV. Tashkilotchilik qobiliyatlari:

- Mehnat ta’limi mashg‘ulotlarida o‘quvchilar jamoasini tashkil qilishlik va uni har xil vaziyatlarda boshqarishlik
- Sinf va sinfdan tashqari ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlarini tashkillashtirishlik
- Mashg‘ulotlar davomida kurs faollarini aniqlash va ularni uyushtirishlik
- O‘quvchilar bo‘sh vaqtini o‘tkazishni tashkil qilish va ular o‘rtasida tanlovlardan, ko‘rniklar joriy qilishlik
- Faollarning tashkilotchilik faoliyatini amalga oshirishda ko‘maklashishlik
- Layoqatli, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan individual mashg‘ulot o‘tkazishlik.

V. Kommunikativ (muomalaviy) xislatlar:

- o‘quvchilar diliga yo‘l topa olishlik
- o‘quvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqat o‘rnatishiga qobillik
- o‘quvchilar (talabalar) jamoasida va jamoalararo munosabatlarni boshqarishga uquvchanlik
- ishlab chiqarish ta’limi bo‘yicha boshqa o‘quv yurtlari bilan tashqi aloqa o‘rnatishga qobiliyatatlilik.

VI. Gnostik (bilishga oid) fazilatlar:

- o‘quvchilarning kasbiy layoqati, tayyorgarlik ko‘rsatkichi darajasini aniqlashga (tashxis qilishga) qobillik
- o‘z faoliyati (natijalari mahsullarini) ni tanqidiy tahlil qilishga moyillik
- nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga zehnlilik
- kasb-hunarga oid psixologik manbalardan foydalanishga uquvchanlik
- ijodiy izlanish va o‘zgalarni ilhomlantirish imkoniyatiga egalik.

VII. Kasbiy sifatlar:

- ishlab chiqarish ta’limi mashg‘ulotlari mazmunini puxta egallaganlik va faol uslublardan foydalana olishlik
- barqaror e’tiqotlilik
- psixologik taktga (odobga, nazokatga) egalik

- muomala va hulq maromini o‘zlashtirganlik
- adolatlilik
- topqirlilik
- muammolarni omilkorlik bilan echishlik
- mashg‘ulotlar o‘tkazish texnologiyasi va texnikasini uddalashlik
- chidamlilik
- o‘zini-o‘zi qo‘lga olishlik
- kuzatuvchanlik
- hissiyotni boshqaruvchanlik.

VIII. SHaxs sifatlari:

- o‘quvchilarga mehr-oqibatlilik
- mehnatsevarlik
- amaliy aql-zakovatda ustuvorlik
- xarakterda barqarorlik (qat-’iyatlilik)
- kuyinchaklik
- tirishqoqlik
- kamtarlik
- humor hissiga egalik
- mustaqillikka intiluvchanlik.

IX. Ijodiy (kreativ) xislatlar:

- kasbiy mahoratini takomillashtirishga intiluvchanlik
- har bir o‘quvchida amaliy malakalar shakllantirish dasturini yaratishga chanqoqlik
- empatiya tuyg‘usini egallaganlik
- inversiyaga qobililik, tarbiyalanuvchi shaxsiga oid oldingi omillarga yangicha yondoshishlik
- O‘quvchilarga psixologik ta’sir o‘tkazish natijalarni oldindan payqash
- Innovatsiya (yangilik), prognoz (bashorat), diagoz (tashxis) qilishga ishtiyoqlilik.

Kasbiy faoliyatni taxlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika muammolarini hal qilish mumkin emas, chunki professiogramma mohiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur. Faoliyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun testlarni saralash, asoslash, tatbiq qilinadigan mezonlarni aniqlash joiz. Professiogramma natijalarini umumlashtirish asosida kasblarni tasniflash (klassifikatsiyalash) imkonи vujudga keladi.

Respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy – iqtisodiy islohotlar aholidan yuksak madaniyatni, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni talab etadi. SHu nuqtai nazardan kasbiy faoliyatning ikki xil jihat psixologik va pedagogik jihatlari farqlanadi. Kasbiy faoliyatning psixologik jihatlari xodimlarning kelajakda o‘z burch va majburiyatlarini samarali bajarishlari uchun ularga zarur bo‘lgan psixologik – pedagogik tamoymlar, kategoriylar va tushunchalarni singdirish hamda kasb madaniyati va etikasi talablariga muvofiq hatti – harakatlarini izohlash, xizmat vazifalarini to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish, o‘z kasbiga mehr – muhabbat, insonga hurmat bilan qarashni tarbiyalashda namoyon bo‘ladi .

Kasbiy faoliyatning pedagogik jihatlari esa xodimlar xulqidagi mavjud axloqiy – siyosiy xususiyatlarda aks etib, axloqiy prinsiplar va me’yorlarning shaxs ongida qanday hosil bo‘lishi bilan belgilanadi. Axloqning shakllanishida atrofdagi turli xulq – atvordagi kishilar, shaxsiy tajriba, muayyan tiplar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ommaviy axborot vositalarida yoritilayotgan faktlar katta ahamiyatga ega .

Buning uchun bugungi muhandis ham o‘z kasb sirlarini, ham shu kasb maxoratini yoshlarga bera olishi lozim. U umumiу psixologiyani, yosh psixologiyasini, pedagogik psixologiyani, kasb-ta’limi va uning psixologiyasini bilishi talab kilinadi.

Kasb-hunar ta’limi kollejlari o‘quvchilariga texnikaning konstruktiv xususiyatlarini, muhandislik psixologik talablarini xisobga olishni, eng muximi kullanadigan texnika inson imkoniyatlarini kay darajada xisobga olganligini, ya’ni, tex-nikaning gumanizatsiyalashuvini xisobga olishini bilib ishga

yondoshuvi masalalarini aniq tasavvur qilishi bilan bog‘liq. Bu muammo muhandislik psixologiyasida urganiladigan markaziy bosh mavzu odam – mashinaga tizimi OMT— (ruscha SCHM – «sistema chelovek-mashina») xisoblanadi. Odam-mashina tizimi va uning asosiy muammolari kasb ta’limi o‘qituvchisi va kasb ta’limi ustasi maxoratining nazariy, pedagogik-psixologik tayyorligining asosini tashkil kiladi.

Kasbiy psixologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardir:

1. Odam funksiyasini «odam-mashina» tizimida taxlil qilish, operator faoliyati strukturasi klassifi-katsiyasini o’rganish;
2. Odam-operator axborotlar almashinish jarayonlarini o’rganish (odamning axborotlarni kayta ishlash jarayonining asosiy 4 bosqichini o‘z ichiga oladi: axborotni kabul qilish, kayta ishlash, karor kabul qilish, boshqarish ta’sirini amalga oshirish);
3. Operator ish o’rinlarini tashkil qilish prinsiplarini ishlab chiqish;
4. «Odam-mashina» tizimi samaradorligiga psixologik omillarning ta’sirini o’rganish;
5. «Jamoa-mashina» tizimida operatorlarni tanlash va tayyorlash prinsip va metodlarini ishlab chiqish. (Kasb tayyorligi kuyidagilarni o‘z ichiga oladi: kasb ta’limi, jamoani shaqlantirish, trenirovka –mashk qilish);
6. «Jamoa–odam–mashina» tizimini muhandislik – psixologik loyihalash va baholash;
7. Muhandislik – psixologik ishlamalarining iqtisodiy samarasini aniqlash; kasb tanlashga yo’llash. Kasb ta’limi psixologiyasining asosiy muammosi – shaxsning kasbga yaroqliliginini aniqlash, uni tayyorlash, mehnat faoliyatiga yo’llash masalalaridir. Bular professiografiyadan boshlanadi.



Kasbiy ta'larning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo'lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi: mustaqil o'rganish (qo'shimcha ta'limgan yoki mustaqil ta'limgan) va maxsus kasbiy ta'limgan muassasalarida ta'limgan olish orqali. Kasbiy ta'larning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim psixologik jarayon "ma'lum bir kasbga tayyorgarlik" holati hisoblanadi. Bu holat emotsional va motivatsion tayyorgarlikni ham nazarda tutadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o'z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma'lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo'ladi. Kasb tanlash ma'lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov sub'ekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob'ekti) munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi: tanlov sub'ekti va tanlov ob'ekti o'rta sidagi munosabatlar xarakteristikasini o'rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash qisqa vaqtida hal etiladigan ish bo'lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub'ektining individual xususiyatlariga bog'liq holda kechadi.

Kasbiy jihatdan o'z o'zini aniqlash katta maktab yoshiga kelib inson uchun dolzarb mazmun kasb etadi va bir qancha bosqichlarni o'z ichiga qamrab oladi. Biz quyida shu bosqichlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Bundan ko'zlangan

maqsad shundaki, biz ko‘rib chiqayotgan mavzuni, ya’ni shaxsning kasb tanlashi, kasbiy shakllanishi va kasbiy faoliyati muammolarini chuqurroq yoritish orqali shaxsni aynan kasbiy o‘z o‘zini aniqlash jarayonini bosqichma bosqich ko‘rib chiqishimiz zarur bo‘ladi. SHunday qilib, kasbiy o‘z o‘zini aniqlash beshta bosqichni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Kasbni ilk tanlash bosqichi. Bu bosqichda bola kasblar olami haqida etarlicha tasavvurga ega bo‘ladi, o‘z ichki imkoniyatlari haqida kam biladi, uning kasbiy intilishi hali sust darajada bo‘ladi. Bu bosqich kichik maktab yoshiga taalluqli bo‘lib, unda kasbning mazmuni va ish sharoitlari haqida bolada savollar tug‘ilmaydi.

2. Kasbiy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash bosqichi katta maktab yoshiga to‘g‘ri keladi (15-17 yoshlar). Bu bosqichda ilk professional intilishlar paydo bo‘ladi va rivojlanadi hamda mehnatning turli xil sohalari ichidan o‘ziga ma’qulini tanlash jarayoni kuzatiladi.

3. Kasbiy ta’lim bosqichida tanlangan kasbni o‘zlashtirish jarayoni sodir bo‘ladi.

4. Kasbiy moslashish bosqichi kasbiy faoliyatning individual uslubining paydo bo‘lishi hamda kishining ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog‘lanishi bilan xarakterlanadi.

5. Mehnatda o‘zini ko‘rsatish bosqichi (qisman yoki butunlay) kasbiy mehnatga taalluqli bo‘lgan talablarning (kutilmalarning) bajarilishi yoki bajarilmasligi bilan bog‘liq holda kechadi .

SHunday qilib, kasbiy jihatdan o‘z o‘zini aniqlash - shaxs kasbiy faoliyatining barcha davrlarini, ya’ni kasbiy intilishning paydo bo‘lishidan tortib to mehnat faoliyatidan butunlay ozod bo‘lgungacha bo‘lgan davrlarni o‘zida mujassamlashtirgan jarayondir. Aytish mumkinki, u insonning butun hayot yo‘lini qamrab oladi. Albatta, bu jarayonning eng muhim bosqichlaridan biri kasb tanlash amalga oshiriladiganbosqichdir. To‘g‘ri tanlangan kasb, bir tomonidan, shaxsning ichki imkoniyatlariga mos tushadi va uning insoniy baxti

hamda kamolotini belgilaydi, ikkinchi tomondan esa yaxshi kasb egasining samarali mehnati ta'sirida jamiyat rivoji jadallahadi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Kasbga psixologik nomutanosiblik, yoki kasbiy yaroqsizlikni tushuntiring?
2. Kasbning inson oldiga qo'yadigan talablari majmuasiga izoh bering?
3. Kasb tanlashga yo'naltirish uchburchagini tushuntiring?
4. Professiogrammaga qo'yiladigan maxsus fazilatlarni sanang?
5. Kasbiy bilimlarga zehnlilikka nimalar kiradi?
6. SHaxsiy psixologik va pedagogik salohiyatga aniqlik kirititing?
7. Kommunikativ (muomalaviy) xislatlarga nimalar kiradi?
8. Gnostik (blishga oid) fazilatlarga nimalar kiradi?
9. Ijodiy (kreativ) xislatlarga nimalar kiradi?

5. CHET ELLARDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH ISHLARI

O'zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tmoqda. Ta'lim texnologiyalari jahon andozalariga mos keladimi, ilg'or tajribalar ta'lim texnologiyalariga kirib bormoqdam? - degan savol hammamiz uchun o'ta muhimdir.

Biz foydalanadigan ta'lim texnologiyalari shaxsni rivojlanishiga, mustaqil ishslashga o'rgatishi zarur. CHet el tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerak. Bu borada bir qator chet el tajribalari, xususan Isroil davlati tajribalari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Isroil davlatida ta'lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi):

- a) boshlang'ich ta'lim (1-4 sinflar),
- b) o'rta ta'lim (5-9 sinflar),

Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo'yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo'lib o'tadi. Natijalari asosida o'quvchilar o'zi tanlagan muktab yoki texnologik maktablarda o'qishni davom ettiradi.

v) texnologik ta’lim (10-12 sinflar).

O‘quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini beruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. (Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir.) Har yili 12-sinfni tugatgan o‘quvchilarning o‘rtacha 20-40 % attestat oladilar.

Shundan keyingi barcha toifadagi ta’lim xizmatlari pullik.

O’n sakiz yoshga kirgan o‘g‘il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi.

Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli hammasi universitetga o‘qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o‘qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo‘yicha ishlashi mumkin.

Attestati yo‘qlar texnologik maktablarning 13-14 sinflarida o‘qiydi, lekin istagan sinfdan so‘ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o‘qishni yakunlashi mumkin. 15-16 sinflarda o‘qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo‘ladi. Bunday sinflarga ega bo‘lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el univesitetlari bilan shartnomaga ega bo‘lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi.

Ta’limdagi ustuvor yo‘nalishlar va moddiy-texnik ta’midot

Isroil davlatida texnologik (kasb-hunar) ta’limga juda katta etibor qaratilgan va turli -tuman ko‘rinishdagi o‘quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga texnologik maktablar, kollejlar, pedagogik markazlar va boshqalar kiradi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish yoki firmalar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, mutaxassislik yo‘nalishlariga ega. Masalan: elektronika, kompyuter, ekologiya, qishloq xo‘jaligi, kimyo, grajdan dengiz floti va boshqalar.

Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta’lim texnologiyasi ko‘ra sinflarda o‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasiga qarab tabaqalarga ajratib o‘qitiladi. Ta’lim barcha fanlar bo‘yicha hayot va tabiat bilan bog‘lagan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog‘lanishi doimo ko‘zga tashlanib turdi.

Oliy ta’lim tizimi uch bosqichli:

1. Bakalavriatura - 4 yil,
2. Magistratura - 2 yil,
3. Doktorantura - 3 yil.

Bakalavr va magistr uchun o‘qish Isroilda, doktorantura asosan Evropa va AQSH da amalga oshiriladi.

Isroil davlatida malaka oshirishga asosan ikki guruh omillar ta’sir qiladi:

1. Ijtimoiy-madaniy omillar:
 - a) jamiyatni ko‘p madaniyatligi (turli davlatlardan kelgan repatriantlar o‘ziga xos madaniyatga ega);
 - b) turli din vakillarining yirik qatlamlarining borligi (iudeylar, musulmonlar, xristianlar va ularning turli oqimlari);
 - v) turli yillardagi repatriantlarning katta oqimi (50-, 70-, va 90- yillar).
2. Pedagogik omillar:
 - a) texnologik ta’limga o‘tish;
 - b) o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga yo‘naltirilgan ta’lim (ayniqsa o‘rta va texnologik ta’limda);
 - v) o‘quv yurtlarini kompyuterlashtirish davlat dasturi va uning juda yuqori suratlarda amalga oshirilishi;
 - g) mutaxassislarni tayyorlashdagi ko‘p bosqichlilik.

Ushbu faktorlar malaka oshirishning mazmunini tashkil etadi va uning samaradorligini, malaka oshirish kelajagini aniqlashda hisobga olinadi. Bu dastur Vazirlik va munitsipialitetlar darajasida boshqariladi.

Pedagogik faoliyatning tashkil etilishi

Mutaxassis (bakalavr, magistr, doktor) istagan ko‘rinishdagi o‘quv yurtida pedagog sifatida ishlashi uchun albatta bir yil o‘qib pedagogik faoliyat ko‘rsatish huquqini olishi kerak. Bu o‘qish universitetlarning pedagogik fakultetlarida, pedagogik kollej va markazlarda amalga oshiriladi.

Pedagoglarning malaka oshirishi ikki toifaga bo‘linadi.

1. Pedagogik ish og‘ir hisoblanganligi uchun tayyorlov sinfi pedagoglaridan tortib universitet professorlarigacha olti yil ishlagandan so‘ng dam olish, o‘zining professional va pedagogik malakasini oshirish va birorta xobbi bilan shug‘illanish uchun bir yil to‘liq ish xaqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi, ya’ni sabatiklga chiqadi (AQSH sistemasi). Bu vaqtida u boshqa joyda ishlashga haqqi yo‘q. Pedagog sabatikl davrida albatta malakasini oshirish uchun kurslar eshitadi, individual va guruhlarda maslahatlar oladi, kutubxanalarda va Internet to‘rida mustaqil ravishda malakasini oshiradi.

2. Universitet professorlaridan tashqari barcha toifadagi o‘quv yurtlarining pedagoglari joriy malaka oshirishlardan o‘tib turishi kerak. Buning uchun xafta metodik kun beriladi. Metodik kunda malaka oshirish uchun 2 soatga ekvivalent qo‘sishimcha xaq to‘lanadi. Bu kunda u o‘zining professional va pedagogik malakasini oshirish uchun kurslarga qatnashi kerak. Kurslarga har xafta yoki soatlar (mablag‘) yig‘ilganda birdaniga qatnashi mumkin. Kurslar natijasida pedagog kredit to‘playdi. Minimal kredit yoki kredit birligi 112 soatga teng. Pedagog 112 soatlik kreditlardan ikkitasini yiqqandan so‘ng malaka oshirgan hisoblanib, maoshiga 1,6 % qo‘shiladi. Bu jarayon o‘suvchi koeffitsient bilan uzlusiz davom etadi va maoshni 30 % gacha oshishiga imkon beradi.

Malaka oshirish uchun imkoniyatlar juda katta bo‘lib, u malakali mutaxassislar, texnika resurslari va moliyaviy jihatdan ta’minlangan.

Ta’limga, ajratilgan mablag‘lar juda katta bo‘lib, davlat byudjetining 11 % va munitsipialitetlarning 40% gacha byudjetini tashkil qiladi. Bundan tashqari chet ellardagi homiyalar

CHet el ta’lim texnologiyalarini o‘rganish, ularni tanqidiy tahlil qilish va ular bilan o‘z tajribalarimizni boyitish «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonunni va «Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dastur»ni amalga oshirishda o‘ta muhimdir.

Jahonning etakchi mamlakatlarida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish doimiy tadbir sifatida e’tirof etiladi va maxsus fan sifatida o‘quv yurtlarida o‘qitiladi. Lekin kasbiy faoliyatga yo‘llash tizimi hozircha etarli darajada samara berayotgani yo‘q. Buning asosiy sababi tizim tarkibidagi nuqsonlar bo‘lmay,

balki o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy determinizatsiyasidir. Masalan, Fransiyada asli kelib chiqishi ziyoli bo‘lgan shaxslar odatda farzandlarining umumiy ta’lim litseyida ta’lim olishini ma’qul deb bilishadi, ishchi yoki xizmatchilarning farzandlari esa texnologik va kasbiy yo‘nalishdagi litseylarda ta’lim oladilar.

Dunyodagi mavjud maktablarda kasbiy yo‘naltirishni tashkil etishda yangi ijtimoiy voqeliklar inobatga olinadi, o‘quvchi shaxsining samarali rivojlanishini ta’minlovchi yo‘llar izlanadi. Kasbga yo‘naltirish jarayonida nafaqat o‘quvchilar bilimni boyitish, balki eng avvalo mushohada qila olish qobiliyati va tanqidiy qarashlarga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirishga alohida ahamiyat berilishi lozimligi e’tirof etilmoqda. Kasbga yo‘naltirish jarayonida ommaviy axborot vositalari faol ishtirok etmoqdalar. Ular vositasida o‘quvchilarga doimiy ravishda kasblar va ularning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida materiallar etkazib beriladi. Tadbirkorlar ham o‘quvchilarni kasbga yo‘llashga katta qiziqish bilan qaraydilar va xususiy tadbirkorlar muktab o‘quvchilarini turli xil faoliyatlariga yo‘llash ishida ta’lim muassasalariga o‘zlaricha yordam beradilar. Masalan, AQSHda «Ish yuzasidan hamkorlik», «Maktabni o‘z qaramog‘iga olish» nomli dasturlar g‘oyalariga ko‘ra, ishbilarmonlar o‘quvchilarga muayyan kasbiy faoliyat yo‘nalishini tanlashda yordam beradilar, bir qator maktablarda faoliyat olib boruvchi kasb faoliyatiga yo‘naltiruvchi mutaxassislarga mablag‘ ajratadilar, o‘quvchilarning ishlab chiqarish korxonalariga sayohatlarini tashkil etib, ularni ma’lum kasb yoki faoliyat mazmuni bilan tanishtiradilar. Italiyalik ishbilarmonlarning vakillari ham bu borada ijobiy ishlarni amalga oshirmoqdalar. Masalan, «Lombardiyaning omonat kassalari» 14-15 yoshli o‘quvchilar uchun iqtisodiy o‘yinlar tashkil etadi. O‘yinlar ishtirokchilari ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish, byudjetni yaratish, kredit, marketing qilishni o‘rganadilar. Natijada ular ishlab chiqarishning zamonaviy sohalari bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladilar. O‘yin g‘oliblariga qimmatbaho sovg‘alar topshiriladi.

Angliyada maktab va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlikka 1987 yilda «London Kompekt» loyihasi g‘oyasiga ko‘ra asos solingan. Loyihaning maqsadi o‘quvchilarga ularning imkoniyat va qobiliyatlariga mos mutaxassislik asoslarini o‘zlashtirish hamda ularning ish o‘rinlari bilan ta’minlanishlariga ko‘maklashishdan iboratdir. Ushbu loyiha asosida tashkil etiladigan ta’lim jarayonida 14-16 yoshli o‘quvchilardan o‘quv fanlari va mutaxassislik asoslarini qoniqarli o‘zlashtirish va ikki haftalik amaliyotni o‘tish talab etiladi. O‘quvchilar ma’lumotlarni yig‘adilar. Masalan, Yaponiya zavodlari qoshida tashkil etilgan sifat to‘garaklarining faoliyati ushbu fikrni tasdiqlaydi. To‘garaklarda o‘rta maktab bitiruvchilari ishlaydilar, ularning kasbga to‘g‘ri yo‘naltirilganligi ishlab chiqarish sifatini yuqori darajaga ko‘tarish uchun xizmat qiladi.

AQSHda kasbga yo‘naltirish o‘quvchilarning kasblari bo‘yicha axborotlarga ega bo‘lishni ta’minalash, kelajakda maqbul kasbni tanlab, ishga kirishlariga yordam berishdan iboratdir. O‘quvchilar turli mutaxassisliklar mazmuni bilan tanishib, mehnat o‘qituvchilaridan maslahat oladilar. Kasbga yo‘naltirishda «Gaydens» psixologik – pedagogik xizmatining yo‘lga qo‘yilishi muhim o‘rin tutadi.

Xizmat tarkibiga sotsiolog, psixolog, o‘qituvchi, huquqshunos, shifokor va maktabning boshqa xodimlari kiradi. Ushbu xizmat o‘quvchilarning atrofdagi ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini egallashlariga ko‘maklashadi. «Gaydens» xizmati o‘quvchilarda qanday sifatlarni rag‘batlantirish va rivojlantirish kerak, nimalarni yaxshilash kerakligini aniqlash uchun har bir o‘quvchining shaxsi haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi shart. Bunday ma’lumotlar «Gaydens»ga o‘quvchilar uchun maslahatlar berish imkonini beradi.

Kanadada xalq xo‘jaligining 22 tarmog‘i bo‘yicha 315 kasb guruhlariga jamlangan mutaxassisliklar yuzasidan dastur mavjud bo‘lib, shu asosida yoshlar kasb tanlaydilar.

Rossiyada yoshlarni kasbga yo‘llash ishlari mehnat va xalq ta’limi tizimiga bo‘ysinadi.

Angliya maktablarida kasbga yo‘naltirish o‘quv jarayonining maxsus qismidir. O‘rtalarda o‘quv muassasalarida asosiy ishni kasbga yo‘naltiruvchi mutaxassislar bajaradilar. Ular o‘quvchilarga o‘z qobiliyatları va qiziqishlariga mos ta’lim yo‘nalishini tanlash ishida yordam beradi. Kasbga yo‘naltiruvchi xizmatlari bilan mustahkam aloqada bo‘ladilar. Ular biror kasb egasiga qo‘yiladigan talablarni guruhlashlari va maktab bitiruvchilarining kasbiy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashlari kerak. Kasbga yo‘naltiruvchi o‘qituvchilardan o‘quvchilarga individual yondashuv talab etiladi. Bunday yondashuvni ta’minalash uchun o‘qituvchilar har bir o‘quvchi uchun shaxsiy ma’lumotnomalar yuritadilar, unga doimiy ravishda o‘quvchining o‘zlashtirishi, umumiyligi va jismoniy rivojlanish sharoitlari haqidagi ma’lumotlar kiritib boriladi. Bundan tashqari ma’lumotnomada anketa, test, suhbat natijalari ham o‘z ifodasini topadi. O‘quvchilar shaxsini o‘rganishda mustaqil tavsiyalar metodi, ya’ni o‘smir va uning hayot borasidagi o‘y-fikrlariga tayaniлади.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Chet ellarda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini gapiring?
2. Isroil davlatida ta’lim tizimi qanday?
3. Aqshda «Ish yuzasidan hamkorlik», «Maktabni o‘z qaramog‘iga olish» nomli dasturlarni izohlang?
4. Angliyada maktab va ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi hamkorlik va «London kompekt» loyihasini izohlang?
5. Rossiyada yoshlarni kasbga yo‘llash ishlari mehnat va xalq ta’limi tizimi qanday?

SHAXS PSIXOLOGIYASI VA KASBIY SHAKLLANISH

SH a x s - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsulii, ongli faoliyatning sub’ekti bo‘lmish individdir. SHaxsga taaluqli bo‘lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob’ekt, ham sub’ekt bo‘lishlikdir.

SHaxsga taalluqli bo‘lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta’sirlarni o‘z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob’ektni), so‘ngra shu ta’sirlarning sub’ekti sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanok «mening hayotim», «bizning dunyo» degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o‘sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, huquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an’analar, udumlar, turli xil tillar olami bo‘lib, undagi ko‘plab qoidalarga ko‘pchilik mutloq qo‘shiladi, ba’zilar qisman qo‘shiladi. Bu shunday qoidalalar va normalar olamiki, ularga bo‘ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta’qiblanadi. SHulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub’ekt bo‘lsa, *jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning madaniyatning mufassal ko‘rinishidir*.

SHaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta’sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma’naviy, axloqiy va boshqalar. Bu ta’sirotlar mohiyatan aslida jamiyat a’zolari bo‘lmish shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning ayrim alohida yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlariga o‘tayotgan O‘zbekiston sharoitini oladigan bo‘lsak, yangicha iqtisodiy o‘zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o‘xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy boyliklar va ularga bo‘lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs

Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriysi, u jamiyatning o‘z a’zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko‘pchilik tomonidan e’tirof etilgan harakatlar talablaridir.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o‘zida qator qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniksa, yoshlari o‘zgaruvchan sharoitlarga tezroq moslashish

uchun ba'zan bir-biriga zid xislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshligi, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq-atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning axloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. SHaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - «Men» - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va reallikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy *ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini* hisobga olish darkor. Aks holda umumiyl xususiyatli yo'llanma, ko'rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o'ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib tub maqsadga erishib bo'lmaydi.

Kasbiy saralashda pedagoglar, psixologlar, fiziologlar, tibbiyot xodimlari va ishlab chiqarish xodimlarning ishtiroki. Turli kasblarning konkret shaxs oldiga qo'yadigan talablari. Haydovchi, muhandis, chilangar, qishloq xo'jalik xodimi, temirchi, kosib va boshqa kasblarning shaxs ruhiyatiga qo'yadigan talablari. Kasbiy saralashda shaxslarning anotomik xususiyatlarini hisobga olish. Ruhiy sifatlarni e'tiborda tutish haqida ma'lumot berish. Bosh miya asab

tolalarining qo‘zg‘aluvchanligi va tormozlanuvchanligi haqida tushunchalar berish. Kasbga saralashda shaxs xarakteri, temperamenti va boshqa shaxsiy sifatlarning tutgan o‘rni. Kasbga saralashda kasbning shaxsiyatga hamda shaxsiy sifatlarning kasb mohiyatiga ta’siri masalalari.

Bilimlarga mayl va qiziqishlar turlicha namoyon bo‘ladi: faol, sust, chuqur, tor, astoydil, yuzaki. Mayl va qiziqishlar kasb tanlashda juda muhim, ammo yoshlarning mayl va qiziqishlari kasb-hunarlar kabi shu darajada ko‘p va turfaki, ularni tanlayotgan kasbga qanchalik o‘yg‘unligi haqidagi savolga birdaniga javob berish qiyin. Umumiylar tarzda yoshlarning nazariy sohalar, amaliy faoliyat, ijtimoiy tashkilotchilik ishlari, sport, turli ko‘ngilxushliklarga bo‘lgan qiziqish va mayllarni ko‘rsatish mumkin. Tabiiyki, bolalarda qanday qiziqish va mayllarni o‘rganish va shakllantirish kerak degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob topish uchun mavjud kasb-hunarlarning, aniqrog‘i, har bir bolani qiziqtirgan kasbning kishilardan talab qiladigan jahatlarini yaxshi bilish kerak. Bu talablar mehnat qurollari, turi, maqsadi, faoliyatning shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Jamiyatdagi insoniyat olamida kasb-hunar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularni mehnat qurollari, ob’ektlariga ko‘ra, besh turga turkumlash mumkin (muqovalarga qarang):

1. Odamlar bilan ishlash ektakchi bo‘lgan sohalar – bu turni biz shartli ravishda «Inson+inson» deb belgilaymiz. Bu turdagilarning faoliyatida odamlar asosan insonlar bilan muloqatda bo‘ladi, ya’ni ularning faoliyatida odamlar asosiy o‘rinda turadi. Aslida hamma narsa inson uchun qilinadi. Ammo odamlar insoniyatga turli yo‘l bilan bevosita va bilvosita xizmat qiladilar. Birinchi turdagilarning kasblari bevosita xizmat turiga kiradi.

2. Texnik jihozlar, asbob-uskunalar bilan mehnat qilinadigan kasblar «Inson + texnika». Bu turdagilarning kasblarga qiziqqan yoshlari fizika, ximiya, elekrotexnika sohalari bo‘yicha laboratoriya amaliyotlarini o‘tkazishni xush ko‘radilar. Har xil modellar tuzish, loyihalash, oilada maishiy texnika asboblarini ta’mirlashga ishqiboz bo‘ladilar.

3. O'smirlar va hayvonot dunyosi bilan bog'liq sohalar. «Inson + tabiat». Bu turdag'i kasblarga qiziqqan bolalar tabiat bag'rida bo'lishni sevishadi. Turli jonivorlar boqishni, ekinlarni parvarish qilishni yoqtirishadilar. Botanika, biologiya, zoologiya fanlarini havas bilan o'rganishadi.

4. Belgilar tizimi, turli ramzlar bilan bog'liq sohalar. «Inson + ramzlar». Bu turdag'i kasblar ishqibozlari turli hisoblash ishlari, chizmalar chizish, kartografiklar tuzish, obrazlar, ramzlar vositasida mulohaza qilish maylida bo'lishadi. Atrofni ko'zatishni sevishadi, turli tarqoq ma'lumotlarni bir tartibga keltirishga intilishadi.

5. Badiiy obrazlar bilan ish ko'radigan sohalar. «Inson + badiiy obrazlar». Badiiy obrazlar bilan ish ko'radigan soha ishqibozlari xayolparastroq bo'lishadi. Rasm chizish, turli jihozlash ishlari, raqsni yaxshi ko'radilar.

Kasbiy ma'rifat ta'limi tizimida mehnat qilayotgan pedagoglar bolalarda ana shu besh turdan qaysi biriga qiziqish yoki mayllari borligini aniqlab, ularni rivojlantirib borishlari kerak. Mayl va qiziqishlarni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlar, muzeylar, hayvonot bog'i, botanika bog'i, korxonalarga, tabiat bag'riga sayohatlar uyushtirish ham samarali natijalar beradi. O'quvchilarda kasb-hunarga mayl va qiziqish uyg'otish, ularni shakllantirish hamda o'stirish ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Shaxsning mutaxassis sifatida shakllanish jarayoni xususida mualliflik qarashlari keltirilgan. Ilgari ishlab chiqilgan shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishi yosh xususiyati va ish stajiga bog'liq degan qarashlardan farqli ravishda muallif tomonidan shaxsning kasbiy mahorati bu parametrlarning funksiyasi hisoblanmasligi, aksincha individning kasbiy shakllanishining qaysi bosqichida ekanligiga qarab aniqlanishini ko'rsatib bergan. Kasbiy faoliyatni turli darajada o'zlashtirgan mutaxassislar haqidagi tasavvurlar, qolaversa, kasbiy shakllanish mezonlarining tavsifi keltirib o'tilgan. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz ravishda rivojlantirish ehtiyoji va turli ishlab chiqarish sohalarida ko'p yillik ish staji bilan faoliyat yuritayotgan shaxsning o'z

imkoniyatlarini to'liq amalga oshirmsligi shaxsni har tomonlama kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilishi muammosini yuzaga keltirdi. Bu muammolarni hal qilmasdan turib kelgusi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatli sifatli ta'limni va rejalashtirishni amalga oshirish mumkin emas. Bu muammoning amaliy ahamiyati uni turli fan doiralar qatorida psixologiya doirasida ham o'rganishni muhimligini ko'rsatib berdi. Kasbiy shakllanish jarayonini o'rganishdagi qiyinchiliklar qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarning ishni bajarishning muayyan bir usuliga asoslangan normativ faoliyatga yo'naltirilganlidadir. Shuning uchun ham kasbiy yetuklik darajasi ajratib ko'rsatilmaydi, balki faqatgina yosh xususiyati va mutaxassis sifatida yuritilayotgan vaqt inobatga olinadi. Shaxsning kasbiy shakllanishi masalasi ko'pgina mualliflar tomonidan tadqiq qilingan. Bu inson taraqqiyotida tez-tez uchraydigan jarayondir. Ko'pincha mutaxassis shaxsining to'la taqlil qilish tushib qoladi, shaxsning kasbiy shakllanish bosqichi esa hayot yo'li bosqichi bilan muvofiq tarzda ko'rib chiqiladi. Shuning uchun vaqt doirasida qatiy chegaralanib qoladi. Ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchi shaxsning kasbiy shakllanishini o'rganishda insonning imkoniyatlarini to'liq ochib beruvchi sub'ekt va ijtimoiy muhit orasidagi turli ijtimoiy aloqalar tipiga ahamiyat berish muhimdir. Har bir ijtimoiy aloqalarning yana odamovilik va muloqotchanlik kabi kichik tiplarga bo'linishi biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi tipda sub'ekt o'zini "topgan", o'zida va faoliyatida o'zini o'zgartirishni hoxlamasligi bilan tavsiflanadi. Ikkinci tip esa sub'ektning o'zini o'zi "qidirishi" bilan izohlanadi. Bu o'tish, oraliq holat hisoblanadi. Individ (yoki jamiyat) bir shaklni tark etib jamiyatning boshqa yuqori darajasiga erishadi. Garmonik aloqalar uchun sub'ekt yaxlit shaxs sifatida namoyon bo'ladi, u sub'ekt-predmet tartibi - rolli niqob sharti bilan belgilanadi. Bu yerda inson "taraqqiyotning absolyut harakati holatida" bo'ladi. Keyinchalik shaxsni kasbiy shakllanishi borasidagi qarashlarga S.L.Rubinshteyn ishlari asos bo'lib xizmat qildi. S.L.Rubinshteyn insonning hayotga munosabatini ifodalovchi ikki usulni ajratib ko'rsatgan. Birinchi usul - bu insondagi barcha munosabatlar to'liq emas,

balki alohida hodisalariga munosabat doirasiga kiruvchi hayotdir. Bunday munosabatda inson hayot sub'ekti hisoblanmaydi, shu bilan birga undan alohida ham bo'lmaydi. Bu yerda hayotning o'zi "tabiiy jarayon sifatida" namoyon bo'ladi, inson hayot tarzi bilan uni to'ldiradi. Ijtimoiy hayot insonni o'rniga sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Bu yerda axloq, beayblik, yomonlik qilmaslik, tabiiylik, insonning tabiiy holati sifatida namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda bu yerda yaxshilik va yomonlik o'zaro bog'liqdir. Bu usul insonning hayoti o'zidan o'zi kechadigan hayot-avtomat aloqalariga kiruvchi xususiyat sifatida tavsiflanadi. Ikkinci usul ichki refleksiyani namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, u "hayotning bu uzlucksiz jarayonini to'xtatib qo'yishi, uzib qo'yishi mumkin va insonning g'oyalar dunyosidan chiqarib yuboradi. Inson g'oyalar dunyosidan tashqaridagi pozisiyani egallaydi. "Bunday refleksianing namoyon bo'lishi hayotiy qadriyatlar tizimini aniqlash bilan bog'liqdir. S.L.Rubinshteyn aynan shu holat bilan voqelikning yangi usuliga o'tish imkoniyatini bog'laydi. Bevosita aloqalarni uzish va ularni yangi negizlar asosida tiklash ikkinchi usulga o'tish bilan yakunlanadi. Shu vaqtadan boshlab "ruhiy bo'shliqqa, axloqiy skeptizmga, axloqiy beqarorlikka yoki boshqa - yangi anglangan sharoitda axloqiy inson hayotini qurishga yo'l ochila boshlaydi". Sanab o'tilgan fenomenlar yangi usulning mayjudligini tavsiflamaydi, balki, shaxs ilgarigidek yashash imkoniyati yo'q bo'lgan vaziyatda qolganda o'zining beqaror "Men" tizimini buzilishlardan saqlab qola olmasligini anglatadi. Bu vaziyat ba'zida "o'zini safarbar etish" holati deb nomlanadi. Biroq bu holatni o'zining namoyon bo'lishiga ko'ra o'zini o'zi safarbar etish deb nomlab bo'lmaydi: tabiatdan, boshqalardan alohida tarzda anglanmagan voqelikni yo'qotish mumkin emas. Shunchaki, birinchi usulda turmush tarzining hayot-avtomatdan ajratilmaganligi hech qachon axloqiy beqarorlikni keltirib chiqarmaydi. Hayotiy faoliyat modusi - bu insonning tashqi dunyo bilan o'zaro hamkorligini, inson turmush tarzi qanday tuzilganligini aniqlab beruvchi ko'pgina munosabatlarning o'zaro bog'liqligini to'liq xarakteridir. hayotiy faoliyat modusi faqatgina inson turmush tarzini turli voqeliklarga munosabatini

ifodalab qolmasdan, balki individning turli individual qobiliyatlarini ham faollashtiradi. Uning ta'sir ostida shaxs qadriyatlari, ehtiyojlari sohasi va boshqalar shakllanib boradi. Turli hayotiy faoliyat moduslaridagi munosabatlar tizimi haqidagi tushunchalarning mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan.

Turli hayotiy faoliyat moduslaridagi shaxs munosabatlari tizimi
Shaxs munosabatlari Egalik qilish modusi Ijtimoiy intilishlar
modusi Xizmat qilish modusi O'ziga munosabat

Boshqalarga munosabat Ishga munosabat Jangari, ‘changalzor
qonunlari” asosida yashovchi. Ishbilarmon: “sen-menga, men-senga”.

Tartibli. Muqitga bog'liqlik, “qurbon” tamoyili. Qizqanchiqlik,
raqobat, antognizm. “Ko'z bo'yamachilik”. Taqdir va yaratganning
irodasi.

Muhabbat. Mas'uliyat, ijodkorlik. Egalik qilish modusida predmet yoki
boshqa insonlarga egalik qilish nazarda tutiladi. Bu tip ehtiyojlari muayyan bir
davr ehtiyojlari bilan hamohangdir. Ular kamchilik, yetishmovchilik sifatida
yuzaga keladi. Nimagadir yoki kimgadir egalik qilish ehtiyoji inson
ehtiyojlarining begonalashgan shaklidir. Bu modusda individga tegishli
bo'limgan barcha narsalar ular tomonidan vosita darajasigacha ko'tariladi.
Kasbiy faoliyat san'at darajasigacha ko'tariladi va shaxsning zaruriy ishtiroki
natijasiga ko'ra predmetli yoki to'liq predmetli ko'rinishlarga ajratiladi. Shunga
muvofig tarzda, hech qanday faoliyat motivga ega emas, chunki hech qanday
motivning o'zi yo'q, faqatgina muayyan faoliyatga egalik qila olinsa bo'ldi. Bu
bosqichda ham boshqalar singari ikkita chiziqni ajratib ko'rsatish mumkin,
ulardan biri kasbni endi o'zlashtirayotgan insonlarga xosdir. Bu shunday holatki,
bunda shaxs muayyan bir bosqichni bosib o'tgan, lekin yuqoriroq darajaga
erishmagan. Birinchi chiziq o'zining natijasiga ko'ra ikkita imkoniyatga ega.
Ulardan biri - bu keyingi bosqichga (ijtimoiy intilishlar modusiga) o'tish.
Ikkinchisi - bu bosqichda izlanish va ‘to'xtab qolish”dan bosh tortishdir.
Shaxsning kasbiy shakllanishini boshqa vektori inson allaqachon o'zini
“topganligi”, uning o'zini va o'z faoliyatini o'zgartirishni istamasligi bilan

yakunlanadi. Shaxs faoliyatga nisbatan o‘z ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida qaraydi.

Kasbiy saralash jarayonida amalga oshiriladigan ishlar

O‘quvchilarni ongli va to‘g‘ri kasb tanlashga tayyorlash, ya’ni kasbiy saralash o‘zaro bog‘liq va birgalikda amalga oshiriladigan quyidagi choralardan iborat:

a) kasbiy maorif- o‘quvchilarga mahalliy sharoitlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olib, u yoki bu kasb egalariga, mutaxassislarga bo‘lgan ehtiyojlarni, turli kasblardagi professional mehnatning mazmunini, kasbning insonga qo‘yadigan talablarini, mehnat sharoitlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish sharoitlarini, kasbni egallash mumkin bo‘lgan o‘quv muassasalari turlarini ma’lum qilish, ya’ni bunda o‘quvchilar turli kasblar va ixtisosliklarning xarakteri va o‘ziga xosliklari bilan tanishadilar.

b) kasbiy konsultatsiya- individual xarakterga ega bo‘lib, ayrim o‘quvchilarga ular egallamoqchi bo‘lgan kasbning xususiyatlari va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashga ko‘maklashishini nazarda tutadi.

v) kasbiy diagnostika- o‘quvchilarda kasb tanlash sub’ekti shaxsini uning ma’lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nazarda tutiladi.

g) kasbiy tanlash (saralash)- muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o‘z oldiga qo‘ygan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori saviyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir. Kasbiy bilimlar, shakllangan ma’lum ko‘nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish me’zonlariga suyanib, omilkorlik bilan oqilona saralash o‘tkaziladi.

Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlari va qiziqishlariga borib taqaladi.

Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatsak bo‘ladi:

1) Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish nazarda tutiladi.

2) Iqtisodiy fuksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.

3) Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma’lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

4) Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog‘liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi .

SHunday qilib kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayonininng muhim komponentlaridan biri hisoblangan - kasbiy yo‘nalganlikni hisobga olmaslik insonning noto‘g‘ri, o‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlashga olib kelishi mumkin. Bundan shaxsning o‘zi ham, jamiyat ham manfaatdor emas.

Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi)va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog‘lom inson uchun imkon darajasida bo‘lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi).

Kasbiy saralashda shaxslarning anotomik xususiyatlarini hisobga olish.

Kasb tanlashda o‘quvchilar qobiliyatlaridan tashqari salomatlik holatini ham hisobga olishlari zarur, chunki kasb tanlovchilarning barchasi ham sog‘liklarini e’tiborga olgan holda kasbni to‘g‘ri tanlaydi deb bo‘lmaydi.

To‘g‘ri, batafsil tavsiyalarni tegishli tekshiruvlardan so‘ng vrach beradi, lekin dastlabki cheklovlarni (agar ular mavjud bo‘lsa) tanlovchining o‘zi belgilashi lozim. Bu undan qandaydir maxsus bilimlarni talab qilmaydi, chunki,

ko‘pchilik asosiy qarshi ko‘rsatgichlar organizm anomaliyasining (normadan chetga chiqish) to‘rt guruhi bilan belgilanadi:

A. Skelet mushak apparati anomaliyalari-skelet, bo‘g‘imlar, umurtqanening jarohatlanishi yoki kasalligi, muskullar kamchiligi bor bo‘lgan o‘quvchilar uchun quyidagi kasblarni tanlashlari tavsiya etilmaydi

Ko‘plab jismoniy energiyani, uzoq vaqt oyoqda turishni, tez-tez engashib turishni talab qiladigan kasblar (yukchi, g‘isht teruvchi, stanokchi, temirchi, metallurgiya ishlab chiqarishdagi bir qator kasblar va boshqalar)

B. Sezgi organlari (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish) da kamchiligi bor o‘quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi.

Xaydovchilik mutaxassisligining barcha turlari, mayda detallar bilan ishslash, oziq-ovqat, parfyumeriya sanoatining qator kasblari, oshpaz, degustator (mazasiga qarab ta’m bilish) va boshqalar

V. Asab tizimining buzilishi – bosh aylanishi, qo‘lning qaltirashi kabi kasalliklarga chalingan o‘quvchilar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi.

Balandlikda (montajchi, minorali kran mashinisti, va h.k.z.) transportda ishslash bilan bog‘liq kasblar (yig‘uvchi, soatsoz, zargar, va boshqalar) tavsiya etilmaydi

G. Ichki organlar-yurak-tomir va nafas tizimi kasalliklariga chalinganlar uchun quyidagi kasblar tavsiya etilmaydi:

CHanglangan, gazlangan muhitda, havoning siyrakligi muhitida yoki uning teskarisi bo‘lgan yuqori atmosfera bosimi ostida, yoki yuqori harorat sharoitlari bilan bog‘liq kasblar va boshqalar.

SHunday qilib, kasb tanlashda yana bir qadam-bu o‘zining qobiliyatları va sog‘lig‘iga baho berishdir. Bunda ushbu baholashning zarur, lekin etarli bo‘limgan muolaja ekanligini inobatga olish lozim.

Har qanday kasb jamiyat uchun muhim, ishlayotgan kishilar uchun sharaflı bo‘lib, ularning mehnatga talabini qanoatlantirishi mumkin. Ularga bo‘lgan munosabatlardagi farqlar jamiyat bahosi, ularning obro‘yi, yoshlarning shaxsiy manfaati, istagi va mayli bilan izohlanadi. Bularning barchasi esa

ijtimoiy muhit va o‘z qobiliyatiga o‘zi baho berish natijasida vujudga keladi. U yoki bu kasbga bo‘lgan iste’dodlarini, orzu, mayl va istaklarini o‘quvchilarda oldindan uyg‘otish va har tomonlama rag‘batlantirish zarur. Umumiy ma’lumot darajasiga qiziqishni uyg‘otish bilangina chegaralanmaslik kerak.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs?
2. SHaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga nimalar kiradi?
3. Kasbiy saralashda shaxslarning anotomik xususiyatlarini hisobga olish ?
4. Kasbiy saralash jarayonida amalga oshiriladigan ishlarga nimalar kiradi?
5. Kasb tanlash yo‘nalishlarini gapiring?
6. Kasbiy tayyorgarlik haqida tushuncha bering?

KASBIY MOTIV VA MOTIVATSIYA MEHNAT FAOLIYATI MOTIVLARI

Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida YE.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Shaxsning ish faoliyati bilan bog’liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi - kasb tanlash motivlari va uchinchisi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya’ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo’lib, ular o’ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg’onishi bilan bog’liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustavokanining zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinci guruh omillari o’zi va oilasi uchun moddiy mablag’ning orttirilishi, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga o’zini o’zi

faollashtirish, rivojlantirish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab o'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiyligi motivlari yuqorida aytib o'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, o'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, o'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxona, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transpot aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni o'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtida ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy o'sish, tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

- 1) Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi).
- 2) Vaziyat bilan bog'liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart sharoitlarni ro'yobga chiqarish).

- 3) Komformist.
- 4) Kasbiy motivasiyalar (o'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlarini, do'st va tanishlarining maslahatlari bilan).

Kasbga yo'naltirishda hal qiluvchi davr o'smirning o'z istagi yoki zaruratiga ko'ra, tanlagan va uning mehnat yo'lini belgilaydigan kasbga kirishish davridir. Bu davr shuning uchun ham hal qiluvchiki, kishining mehnat yo'li bo'lishi, bu yo'lida u qanchalik uzoq vaqt muvaffaqiyatli bora olishi ishlab chiqarishni xodimlar o'rtasidagi muomalani endi o'quvchi emas, balki boshqa rolni malakali xodim rolini qanchalik oson yoki qiyin, tez yoki sekin o'zlashtirishiga bog'liq.

Kasbiy moslashuv – bu yosh insonning asta-sekin kasbiy mehnat sharoitiga kirish vazifasiga ko'ra emas, balki uning psixik xususiyatiga ko'ra talaba o'quvchilikdan malakali xodimga aylanishidir.

Organizmning ishlab chiqarish muhiti va mehnat rejimiga moslashish tarzida biologik ko'nikish elementlarini ham o'z ichiga olgan holda kasbga ko'nikish bir butunlikda ijtimoiy ko'nikishning asosiy turi hisoblanadi. Kasbiy moslashuv davri odatda uchta o'ziga xos bosqich bo'yicha boradiki, ularning har biri kasbiy ta'lim pedagoglari uchun juda muhim xususiyatga ega.

1. Kasbiy moslashishning birinchi bosqichi tanishtirish bo'lib, o'zining atrof muhitidagi yangi rolini anglashidan iborat. U tanlangan kasb bo'yicha muayyan malaka olishga qaror qilgandan boshlanadi va ishlab chiqarish ta'limiga dastlabki nazariy tayyorgarlik davrida, o'quv qobiliyatları kasb-hunar kolleji tayanch korxona bilan tanishishdan boshlanadi. Kasbiy moslashishning bu birinchi bosqichida qabul qilingan qarorning to'g'riliğini o'smir o'zi baholaydi. Kasbga, ishlab chiqarish mehnati guruhlariga va o'qituvchilariga, kasb-hunar kelleji va korxonaga munosabati vujudga keladi. O'smir o'z kelajagiga nazar tashlaydi hamda tanlagan kasbida qanday jozibali va qandaydir kamchilik tomonlarini ko'radi.

Sohalar haqidagi o'y- xayollar barbod bo'ladi. Hamda yangi umid va intilishlar paydo bo'ladi. Ta'sirchan o'smirlar ongida sabablarning qattiq kurashi

ketadi. Bu kurash oqibati boshqa bir mashg‘ulotga bo‘lgan oldingi intilishlar engadimi yoki yangi egallash mavqega muvofiq yangi intilishlar tug‘iladimi, bularning hammasi birinchi mashg‘ulot: muallim va yaqin kelajakda o‘qish va ishga to‘g‘ri keladigan kasb hunar kolleji va korxonalarining tuzilishi, ulardagi umumiy sharoitlar uyg‘otadigan taassurotga bog‘liq bo‘ladi.

2. Kasbiy moslashishning ikkinchi tayyorlov bosqichi – ijtimoiy umumiyligi texnika va maxsus predmetlar hamda o‘quv xonalarida ishlab chiqarish ta’limini asosli o‘rganishdan iborat bo‘lib, bu kasb o‘rganishdir. Bu erda ham tanlangan mehnat yo‘lini baholash davom etadi. Atrof muhitga, ta’limiga va o‘zlashtirilayotgan mehnatga munosabat o‘zgaradi. Biroq hal qiluvchi narsa taassurot emas, balki o‘quv mehnatidagi yutuq va kamchiliklar bo‘ladi. Kasbiy moslashishning ancha uzoq va ma’suliyatli bo‘lgan bu bosqichida kasbini o‘zlashtirayotgan malakali xodim shaxsining daslabki shakllanishi yuz beradi. Bu shakllanishning muvaffaqiyati o‘zining o‘quv mehnati natijasidan qanoatlanishi va qanoatlanmasligiga bog‘liq yutuqlar quvontiradi va ilhom beradi, yanada kattaroq muvaffaqiyatlarga undaydi, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik yanada ko‘proq kuchni safarbar qilishni talab qiladi. Ammo bunday holat tez-tez bo‘lib tursa, doimiy muvaffaqiyatsizlik esa ishdan, o‘qishdan va kasbdan ixlosini qaytaradi. O‘quv predmeti va ishlab chiqarish mashqlariga bo‘lgan qiziqishning paydo bo‘lishi, kuchayishi yoxud yo‘qolishini hamda kasbni yoqtirmay qolishi ana shu yutuq va muvaffaqiyatsizliklarga bog‘liq bo‘ladi. Bularning hammasi avvalo pedagoglarga o‘quvchilarning yutug‘i va muvaffaqiyatsizligi o‘quvchining ruhiy holatiga ko‘ra qanchalik e’tibor berishlariga hamda ularning qanchalik mohirlik bilan boshqara bilishiga bog‘liq.

3. Kasbiy moslashishning uchinchi asosiy bosqichi yosh insonning korxona xodimlari muhitiga singishidir. Bu bosqich o‘quvchi-talaba o‘zini o‘rab olgan o‘sha jamoaning a’zosi sifatida his qiladigan ammo ular darajasida malaka orttirmagan mehnat unumдорлиги va mahsuloti sifatini ta’minlay olmaydigan, ba’zan xato va beparvoliklarga yo‘l qo‘yadigan, ishlab chiqarish amaliyoti davrida boshlanadi. Rasmiy jihatdan o‘zining tengligi va atrofdagi kishilar

bilan ishlab chiqarish malakasida tez emasligi hamda ularning yosh xodimiga «temir qanot qushcha» deb munosabatda bo‘lishini anglash uning bu bosqichdagi kasbiy moslashish jarayonini favqulodda murakkablashtirib qo‘yadi. Buni ijobiy hal qilish esa amaliyotda korxona xodimlari bilan o‘zaro munosabati qanday bo‘lishi kasb-hunar kollejini tugatgach ular bilan birgalikda qiladigan mehnatga bog‘liq bo‘ladi.

Har qanday faoliyat asosida mehnat yotadi. Mehnat esa muayyan kasb-hunar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Mehnatning ana shunday xususiyatlaridan biri yoshlarning kasb-hunarga moslashish shartidir. Mazkur pedagogik omil bir nechta bosqichlardan iborat. U o‘z imkoniyatlariga mos mehnat jamoasini tanlash, undagi vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, to‘plangan amaliy tajriba va bilimlarni ish faoliyatiga joriy etish, mustaqil ko‘nikma hosil qilish kabi bir qancha shartlarni o‘z ichiga olgan ushbu jarayonni umumiy mezon bilan baholash mumkin. Bunday mezon mehnatning hayotiy qadriyat ekanini tushunib etish, kasb-hunarga nisbatan o‘z salohiyatini baholay olish, mehnat faoliyati va jamoadagi sharoitdan qoniqish, kasbga qiziqish, mehnat faoliyatiga oid ko‘nikmaning shakllanishi asosida aniqlanadi. Bu esa kasb-hunarga moslashishga yordam beruvchi yoki to‘sinqinlik qiluvchi ob’ektiv va sub’ektiv sabablarni tahlil etishda qo‘llaniladi.

Endi ana shu omillarga to‘xtaladigan bo‘lsak, vujudga kelgan ijtimoiy munosabatlar, mehnat sharoiti, rag‘batlantirish tizimi, ishxonadagi ma’naviy muhit moslashuv jarayoniga yordam beradi. Sub’ektiv omillar ko‘p hollarda yoshlarning shaxsiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘ladi. Ular yoshlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarining qanoatlantirilishi, haqiqiy vaziyat va istakning muvozanatini ifodalaydi. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarda kelgusi hayot haqida turli-tuman rejalar mavjud bo‘ladi. Lekin ularning aksariyati real voqelikka asoslanmagani bois, orzuligicha qolib ketadi. SHu bois, o‘smir yoshlarning reja va istaklarini inobatga olgan holda ularning aqliy qobiliyati va muayyan kasb-hunarga qiziqishini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda maxsus so‘rovnomalar o‘tkazish usuli

yaxshi samara beradi. Kasb-hunarga qiziqish unga moslashishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy xususiyat hisoblanadi. U shaxsning doimiy xislatini ifoda etadi va o'smir yoshlarning bajaradigan ishiga nisbatan munosabatini belgilaydi. Lekin u o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi, aksincha, o'quv jarayoni va muhit ta'sirida shakllanadi.

Kasb-hunarga moslashish sharoiti bir nechta ta'sir etuvchi omillar natijasida yuzaga keladi. Ularning birinchisi tashqi ta'sir omillari bo'lib, kichik yoshdagi maktab o'quvchilariga mo'ljallangan ma'naviy-tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-tarbiyaviy mehnat, oilaviy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarmoqlardan iborat. Maktabdagi va atrofdagi muhit, ota-onaning kasbi-kori, shaxsning ichki va tashqi tabiat, oilaviy kasb-hunar an'analaridan tashkil topgan ijtimoiy pedagogik omillar ikkinchi guruh hisoblanadi. Uchinchi guruhga kasb-hunarni to'g'ri tanlay olish, unga nisbatan qiziqish, malaka, ish sharoiti, mehnat faoliyatining samaradorligi kabi o'ziga xos omillar kiradi. Ana shu omillarni uyg'unlashtirish kasbga moslashuv jarayoniga ijobiy ta'sir etish barobarida ta'lim – tarbiya tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni va ish tajribalarini joriy qilishni taqozo etadi. Bunday pedagogik tadqiqotlar yoshlarning muayyan kasb-hunarni mukammal va tez fursatda egallahiga yordam beradi. Bu hol o'z navbatida shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustavokka va uni o'zgartirish muammozi

Amerikalik olim G. Ollport ijtimoiy ustavokkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent - ustavokka ob'ektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent - ustavokka ob'ektiga nisbatan sub'ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotSIONAL munosabatlar);

V. Harakat komponenti - sub'ektning ob'ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo'lish).

Bu uch xil komponentlar o'zaro bir-birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga

qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo‘lishi mumkin. SHuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo‘lsalar ham, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. «Tasodifan dars qoldirish», «jamoatchilik joylarida tartibni buzish» kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg‘unlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu bir qarashda so‘z va ish birligi tamoyilining turli shaxslarda turlicha namoyon bo‘lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqka zid harakat qilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o‘rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. SHuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo‘lmasligiga yoshlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

2. Motiv tasnifi.

Jahon psixologiya fanning nazariy mushohadalariga va o‘zimizning shaxsiy ma’lumotlarimizga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratishni lozim topdik.

I. SHaxsnинг ijtimoiy ehtiyojlari bilan uyg‘unlashgan, ularning mohiyati mezoni orqali o‘lchanuvchi motivlar:

- 1) dunyoqarashga taalluqli, aloqador bo‘lgan g‘oyaviy motivlar;
- 2) ichki va tashqi siyosatga nisbatan munosabatni aks ettiruvchi, shaxsiy pozitsiyani ifodalovchi siyosiy motivlar;
- 3) jamiyatning axloqiy me’yorlari, prinsiplari, turmush tarzi, etnopsixologik xususiyatlariga asoslanuvchi axloqiy motivlar;
- 4) borliq go‘zalligiga nisbatan ehtiyojlarda in’ikos etuvchi nafosat (estetik) motivlari.

II. Vujudga kelishi, shartlanganlik manbai bo‘yicha umumiylikka ega bo‘lgan, boshqaruv va boshqariluv xususiyatlari motivlar:

- 1) keng qamrovli ijtimoiy motivlar (vatanparvarlik, fidoiylik, altruistik);
- 2) guruhiy, jamoaviy, hududiy, umumbashariy motivlar;

3) faoliyat tuzilishi, mohiyati va tuzimiga yo‘naltirilgan protsessual motivlar;

4) faoliyat mahsulini baholashga, maqsadga erishuvga mo‘ljallangan rag‘batlanuv, mukofot motivlari.

III. Faoliyat turlari mohiyatini o‘zida aks ettiruvchi motivlar:

1) ijtimoiy – siyosiy voqeliklarni mujassamlashtiruvchi motivlar;

2) kasbiy tayyorgarlik va mahoratni o‘zida namoyon etuvchi motivlar;

3) o‘qishga, bilishga (kognitiv), ijodga (kreativ) oid motivlar.

IV. Paydo bo‘lish xususiyati, muddati, muhlati, barqarorligi bilan umumiylizka ega bo‘lgan motivlar:

1) doimiy, uzlucksiz, longityud xususiyatli motivlar;

2) qisqa muddatli, bir lahzali, bir zumlik va soniyalik motivlar;

3) uzoq muddatli, vaqt taqchilligidan ozod, xotirjam xatti-harakatlarni talab etuvchi motivlar.

V. Vujudga kelishi, kechish sur’ati bioquvvat bilan o‘lchanuvchi motivlar:

1) kuchli, qudratli, ta’sir doirasidagi shijoatli motivlar;

2) paydo bo‘lishi, kechishi o‘rta sur’atli motivlar;

3) yuzaga kelishi, kechishi sust sur’atli motivlar.

VI. Faoliyatda, muomalada va xatti-harakatda vujudga kelish xususiyati, xislati hamda sifatini aks ettiruvchi motivlar:

1) aniq, yaqqol, voqe bo‘luvchi real motivlar;

2) zarurat, yuksak talab va ehtiyojlarda ifodalanuvchi dolzarb motivlar;

3) imkoniyat (potensiya), zahira (rezerv), yashirin (latent) xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi motivlar.

VII. Aks ettirish darajasi, sifati nuqtai nazardan ierarxiya vujudga keltiruvchi motivlar:

1) biologik motivlar;

2) psixologik motivlar;

3) yuksak psixologik motivlar.

Motivlar va ularning mutaxassislar tayyorlashga ta’siri.

Bu o‘rinda ustanovkalar ham alohida ahamiyatga ega. O‘qish-bilim olish faoliyati shaxs kamolotida katta rol o‘ynaydi va chuqur muammo kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko‘nikmalar o‘zlashtriladi.

Foliyat turlari o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. SHaxsnинг jamiatdagи ijtimoiy xulqi va o‘zini qanday tutishi, egallangan mavqeи ham sababsiz, o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. eaoliyatni amalga oshirish va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada «Motiv» va «Motivatsiya» tushunchalari ishlataladi.

«Motivatsiya» tushunchasi «Motiv» tushunchasidan kengroq ma’noga ega. Motivatsiya-inson xulq-atvori, uning bog‘lanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini, ya’ni «nega?», «nima uchun?», «nima maqsadda?», «qanday manfaat yo‘lida?» degan savollarga javob qidirish – motivatsiyani qidirish demakdir.

Haxsning jamiatda odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutish sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihatni farqlanadi.

1. Ichki sabablar, ya’ni xatti – harakat egasining sub’ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo‘ljallar, istaklar, qiziqishlar va h.k.).

2. Tashqi sabablar – faoliyatning tashqi shart – sharoitlari va holatlar. YA’ni, bular ayni konkret holatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Kasbiy motiv va motivatsiya
2. Mexnat faoliyati motivlari
3. Kasbiy moslashuv
4. «Motivatsiya» tushunchasi «Motiv» tushunchasi

IDROK VA KASBGA YO'LLASH

Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni *figura va fonda* idrok qiladi. Figura - shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. Fon esa aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa bo'lib, aniq ob'ektni ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan taqdirda ham o'z ismimizni birov aytib chaqirsa, darrov o'sha tarafga qaraymiz. Ism - figura bo'lsa, bozordagi shovqin - fon rolini o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Masalan, gul bozorida aynan qip-qizil atirgul sizga yoqib qolib, o'shani harid qilasiz, qolgan gullar fonday ongingiz aktiviga o'tmaydi.

SHunday qilib, *idrok - bu bilishimizning shunday shakli, u borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'ektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta'minlaydi*. YA'ni, idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, xidini, mazasini, rangini sezamiz, ya'ni alohida-alohida xossalalar ongimizda aks etadi. Bu - sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzdagi birlashuvi, degan fikrga mutloq qarshilar. CHunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu ob'ektga shaxsiy munosabati va idrokdag'i faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buni isboti uchun ko'pincha **Rubin figurasi** tavsiya etiladi. Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab, «Bu - vaza» deb atasa, boshqalar uni bir-biriga qarab turgan ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. SHunisi xarakterlik, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini *tushunishga* harakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmay turadi. Agar shu idrok darajasi qolsa, ya'ni yana nimanidir ko'rishni xoxlamasa, u ikkinchi figurani ko'rmasligi

ham mumkin.

Idrok qilish qonunlari

SHaxs idrok qilishi jarayonlariga xos bo‘lgan bir nechta qonuniyatlar psixolog olimlarning yozgan ilmiy adabiyotlarda keltirilgan, biz ularning ayrimlarini belgilaymiz:

A. Figura va fonning ilgarigi harakatga bog‘liqligi qonuni. Bu qonunning ma’nosи: odam ilgarigi tajribasida bo‘lgan, bevosita to‘qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo‘ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo‘lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo‘lgan bo‘lsa, tabiiy, fonday qabul qiladi. Bu qonunning hayotdagi o‘rni chet davlatlarda borgan turistlar tajribasiga tayanib tushuntirilishi mumkin. O‘zbekistonliklar Er kurrasining qaysi burchagida bo‘lmасин, o‘zbek duppisi yoki atlas ko‘ylakni juda tez ilg‘ab oladilar va suyunib ketadilar ham. YOnidagi sheriklari o‘zbek bo‘lsa ham, aynan do‘ppili o‘zbekni ko‘rib, ko‘zлari yashnab ketadi. Boshqa millat vakillari, masalan, nigeriyalik ham milliy kuylagida yurgan bo‘lishi mumkin, lekin o‘zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi ham.

B. Idrokning konstantliligi qonuni. Bu qonun ma’lum ma’noda oldingisiga bog‘liq. YA’ni bunda ham ilgarigi tajriba katta rol o‘ynaydi. Ma’nosи: odam o‘ziga tanish bo‘lgan narsalarni o‘sha xossa va xususiyatlar bilan o‘zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o‘tirib erga qaraganmisiz? Avtomobil yo‘llari, ularda harakat qilayotgan mashinalar kichkina ko‘rinadi, lekin biz ularni hozir kichrayib qolgan, deb idrok qilmaymiz-ku? Aslida ko‘z korachig‘imizdagи aks kichkina bo‘lsa-da, ularni o‘zimiz «to‘g‘rilab» alohida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

Bu o‘rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatishi haqida misol keltirish joizdir. U kunlarning birida pigmeylar deb ataluvchi qabila vakillaridan biri bilan quyuq o‘rmondan chiqqan (bu qabilaning umri kalin o‘rmonda o‘tadi). Ro‘parada yaylovda sonsiz mollar podasi o‘tlab yurgan bo‘lgan. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, pigmey esa ularni chumolilarga

o‘xshatib, ularning ko‘pligi va kichikligidan hayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo‘lgan bo‘lsa, uning sherigida uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idrokimizning konstantligi, ya’ni ilgarigi tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o‘zgartirmay, turg‘un xolda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to‘g‘ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta’minlaydi. Konstantlik - «constanta» so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zgarmas, doimiy degan ma’noni bildiradi.

V. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta’siri. Ko‘pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga bog‘liq bo‘lib qoladi. Biz o‘zimiz kutgandan ham ko‘p paytlarda o‘zimiz ko‘rgimiz kelgan narsalarni ko‘ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida paydo bo‘lgan V harfi uzoqdan albatta 13 soniday idrok qilinadi, yoki aksincha harflar orasidagi 13 «V» ga juda o‘xshaydi. Kechasi yolg‘iz qolib kimnidir kutayotgan bo‘lsangiz, har qanday juda sekin sharpa ham oyoq tovushlariga o‘xshayveradi. Sog‘ingan do‘stingizga biror jihat bilan o‘xhash bo‘lgan odamni ko‘rsangizchi?

SHunday qilib, inson idroki shaxsiy ma’no va ahamiyat kasb etgan ma’lumot vositasida ongdagi bo‘shliqni to‘ldirishga harakat qiladi. Birovning orqadan chaqirishini kutayotgan bo‘lsangiz, negadir albatta, bosh harfi to‘g‘ri kelgan ismni aytsa ham tezginada o‘sha tomonga o‘girilib qaraysiz. Aynan shunday hodisalar ba’zan idrokdagagi xatoliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik Dj. Begbi degan olim stereoskop orqali amerikalik va meksikalik bolalarga shakli unchalik aniq bo‘lmagan slaydlarni birin-ketin ko‘rsatgan. Amerikalik bolalar ularni beysbol o‘yini, oq sochli qiz ifodalangan desalar, meksikalik bolalar ularni buqalar jangi, qora sochli qiz, deb ta’riflaganlar. Ko‘pchilik bolalar esa ko‘rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko‘rganini e’tirof etganlar. Demak, bizning idrokimiz, uning mazmuni madaniy va ma’naviy muhitga ham bog‘liq bo‘lib, bu kutishlar tizimidan kelib chiqarkan.

G. O‘zgarmas ma’lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Bu qonunning

mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, o'tirganingizda soatning tikqilashini eshitganmisiz? Ha, tovush eshitiladi, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng u yo'q bo'lib qolganday - eshitilmaydi. YOki eksperiment sharoitida yolg'iz bitta nuqtadagi yorug'lik manbai ko'zga ta'sir etilib, ko'z ham shu nuqta bilan bir vaqtida harakatga keltirib turilganda, 1-3 sekunddan so'ng odam yorug'lik manbaini ko'rmay qo'ygandek. SHunga o'xhash eksperimentlar barcha idrok turlarida ham sinalgan. Past ohangli kuy ham ma'lum vaqtdan keyin eshitmaganday hisni keltirib chiqarishini sinab ko'rishingiz mumkin.

Nutq vositasida hadeb bir xil so'zлarni qaytaraverish psixoterapevtik praktikada gipnotik holatni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ishlatiladi. CHunki bir xil so'zlar hadeb qaytarilaversa, ular o'zining ma'no - mohiyatini ham yo'qotadi. Masalan, ko'chalarda yuradigan «folbinlar»ni ko'rganmisiz? Ular avtomatik tarzda aytadigan so'zлari aslida ularning o'zлari uchun umuman ma'nosini yo'qotgan («baxtingdan ochaymi, taxtingdan ochaymi?» va hakozo shunga o'xhash so'zlar). Har qanday harakat hadeb qaytarilaversa, «psixologik to'yinish» hodisasi ro'y beradi va harakatlar avtomatlashib, uning ayrim detallari umuman ong nazoratidan chiqadi. Masalan, mahoratli raqqosa har qanday raqsga ham chiroyli, jozibali harakatlar bilan o'yin tushib ketaveradi.

D. Anglanganlik qonuni. Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma'nosи katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma'nosiz, tushunarsiz, noaniq bo'lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy tilini bilmaydigan odam shu tilda so'zlashuvchilar orasiga tushib qolsa, psixologik jihatdan juda qiynaladi. YA'ni, *bizga barcha narsalarda biror ma'no va mazmun kerak*. Odam odatda tushunadigan narsasinigina idrok qiladi. Hattoki, ma'ruzachining bugun tushuntirayotgan ma'ruzasidagi faktlar sizning tushunchalariningiz va bilim doirangizdan uzoq bo'lsa, professorga qarab o'tirgan bo'lsangiz ham uning gaplari qulog'ingizga kirmaydi. SHunday paytlarda «Nima deyapti o'zi?» deb qo'shnimizdan so'rab qo'yamiz ham, zero ma'ruzasi

o'sha biz uchun qadrdon bo'lgan o'zbek tilida gapiRAYotgan bo'lsa ham. Sinab ko'rish uchun o'rtog'ingizga bir nechta so'zlardan iborat qatorni bering. Ular orasida mazmunan bir-biriga bog'liq bo'lMagan so'zlar, hattoki ma'nosiz (teskarisiga yozilgan so'zlar) bo'lsin. Oraga 2-4 ta tanish o'zbek tilidagi so'zlardan aralashtiring. Bir daqiqa mobaynida qarab, eslab qolganini qaytarishni so'rasangiz, o'sha 2-4 ta so'zlardan boshqalarni deyarli «ko'rmaganining» guvohi bo'lasiz.

E. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Biz idrok jarayonida ilgarigi tajribaga tayanganimiz bilan ko'pincha adashamiz, ba'zan esa o'zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgarigi tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo'lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma'lumotlarning ko'lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, *idrok - tashqi muhit to'g'risidagi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir*. Biz bevosita idrokimiz «tagiga etolmayotgan», «tushunmayotgan» narsalarni bevosita his qilgimiz, qo'limiz bilan ushlab ko'rgimiz, ular bilan ishlagimiz keladi. YA'ni, idrok qilinayotgan narsada noaniqlik, sir paydo bo'lsa, biz «Bu nima bo'ldi?» degan savol asosida taxmin qila boshlaymiz va uni tekshirish uchun harakat qilamiz. Aynan harakatlar, amaliy ishlar idrokimiz imkoniyatlari va chegaralari kengaytiradi va anglashga yordam beradi.

Qishloq xo'jalik kasblariga yo'naltirish o'quvchilar o'rtasida mexanizatorlik kasbiga qiziqtirish ishlarini olib borar ekanlar unga nomzodlarni tanlashda quyidagilarga amal qilishlari kerak: qishloq xo'jalik texnikasiga barqaror qiziqish; ijodiy mehnat qilishga intilish; o'smirlarning mashinalar, agregatlar, qurilmalarda mustaqil ishlash istagi, o'zi harakat qiluvchi mashinalarni boshqarishga qiziqish; erga, jonajon o'lkaga va qishloq mehnat ahliga hurmat.

Qishloq xo'jalik kasblarini tashlashga yo'llash ishlarida o'quv-tajriba uchastkalari (dala, sabzavot, rezavor meva, issiqxonalar, kolleksiya) muhim rol o'ynaydi.

O‘quvchilar agrotexnika, chorvachilik asoslari, qishloq xo‘jalik mashinalari va mashina-traktor texnologiyasiga doir mashg‘ulotlarda nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar, mexanizatorlik kasbini egallaydilar. O‘quvchilar qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish moddiy boyliklarning ijodkorlari bo‘lgan mehnat ahlining o‘y va tashvishlariga kirib boradilar.

Birgina traktorga doir mehnat politexnika amaliyoti bir qator ishchi kasblari bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Ular orasida traktorchi mashinist, paxta terish mashinalarining haydovchilari, sholi ekish va sholi yig‘ish texnikasi haydovchilari, mexaniklar, qishloq xo‘jalik texnikasini remont qiluvchi slesar, g‘alla yig‘uvchi kombayn haydovchisi, chorvachilik fermalari uskunalarini ta’mirlovchi va montaj qiluvchi slesar, haydovchi, chorvador-mexanizator va hokazolar.

Transport va texnologiya mashinalarini boshqarish va ishlatishni muvaffaqtyatli egallash yoshlarga xalq xo‘jaligining boshqa sohalari – sanoat korxonalari, qurilish, transportda, aloqa muassasalarida, yog‘och tayyorlash sanoatida, geologik razvedka, vodoprovod, magistral quvurlari qurilishida foydalilaniladigan shunga o‘xshash texnikani uncha qiyalmasdan o‘rganib olishlariga imkon beradi. Qishloq xo‘jalik agregatlari haydovchilari uchun, mehnat faoliyatida mustaqillik va o‘z-o‘zini nazorat qilish elementlari tarbiyalanadi. Mashina – traktor agregatlarini ishga tushirish va sozlash, uning ishidagi kamchiliklarini aniqlash va yo‘qotish, mashinaga texnik xizmat ko‘rsatish o‘quvchilarning yangi kasb - qishloq xo‘jalik texnikasida sozlovchi master kasbi bilan tanishtirishlariga yordam beradi.

«CHorvachilik asoslari» ni amaliy o‘rganishda o‘quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti mazmuniga sigirlarni elektrotexnik tartibda sog‘ishga asoslangan sut sog‘adigan qurilmalarni ishga tayyorlash, sut sog‘uvchi apparatlarni ishlatish, bir sog‘im sutni hisoblash va uning yog‘lilik drajasini aniqlash, em-xashak tayyorlovchi va em-xashak beruvchi mashinalarni oddiy tuzatish hamda mexanizatsiyalashgan suv taqsimlovchi vositalar (nasos stansiyasi, suv quvuri, avtosug‘orish) ning texnik xizmati, binolar va o‘tloq

maydonlardan go‘ngni yig‘ib olishga oid mexanizmlarni ishga tayyorlash va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish topshiriqlari amalga oshiriladi.

Texnikaviy ijod o‘quvchilarining qishloq xo‘jalik kasblariga qiziqishini rivojlantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarini faol texnika ijodkorligi ishlariga jalb qilish ularning qishloq xo‘jalik texnikasini ishlatish va ta’mirlashda (dala ishlari jarayonida ham, xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash davrida ham) bevosa ishtirok etishni talab etadi.

O‘quvchi yoki talabalar bevosa amaliy ishlarga jalb qilinishi orqali qishloq xo‘jalik va iqtisodiy bilim asoslarini egallaydilar. O‘quvchilarining iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirib olishlari ularga ongli ravishda mehnat unumdarligini oshirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini yaxshilash va uning tannarxini kamaytirish imkonini beradi. O‘rmon xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilar serunum mehnat qiladilar. O‘rmon ko‘chatlari ularning ixtiyorida bo‘lib, bunda ular yosh ko‘chatlarni ekish va parvarish qilishga doir barcha ish jarayonini bajaradilar.

Kasb tanlash yo‘nalishlari

Kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Ulardan birinchisi kasbiy ma’rifat hisoblanadi. Kasbiy ma’rifat deb tanlanadigan kasb haqida, uning ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlari haqida bilimlarni uzatishga aytildi. SHuning uchun ma’lum kasbni tanlash jarayonida shu kasb haqida, uning talablari va imkoniyatlari haqida qancha ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lishlik shu kasbni tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Darhaqiqat kasbni tanlash jarayonida kasblar olami haqidagi bilimlar, qanday qilib tanlash haqidagi bilimlari har qanday endigina hayot yo‘lining boshida turgan o‘spirin uchun juda foydali hisoblanadi.

Keyingi yo‘nalish –kasbiy maslahat hisoblanadi. Kasbiy maslahat quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

A) Lug‘aviy- ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Bu ma’lumotlar ishga joylashish kanallari, ishga kirishga qo‘yiladigan talablar, turli xil kasblarni

egallash imkoniyatlari, kasbiy o'sishning kelajakdagi yo'nalishlari haqida ish axtaruvchiga xabar beradi.

B) Diagnostik vazifani bajaradi. Bunda kasb tanlash sub'ekti shaxsini uning ma'lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nuqtai-nazardan o'rghanish haqida gap ketadi. Biz o'z tadqiqotimizda ham mazkur masalaga etiborimizni qaratganmiz.

V) Korreksion vazifani bajaradi. Kasb tanlash sub'ektining imkoniyatlariga uning qiziqishlarini mos keltirishga qarab o'zgartirish korreksiya deb ataladi

Kasbiy yo'nalganlik bu talabaning o'z bilim, tajriba va qobiliyatini tanlagan kasbi sohasida qo'llash uchun shaxsiy intilishidir. SHaxsnинг kasbiy yo'nalganligi kasbga nisbatan ijobjiy munosabat, unga qiziqish va layoqat, shaxsiy tayyorgarlikni takomillashtirish istagi, o'z kasbi sohasida mehnat qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishini o'z ichiga oladi. SHuningdek, kasbiy yo'nalganlik kasbiy faoliyat maqsad va vazifalarini tushunishni hamda qabul qilishni nazarda tutadi.

Talabalarda kasbiy yo'nalganlikni shakllantirish uchun kasbni egallash imkoniyatlariga ishontirish, bo'lg'usi ishning kelajagiga ishonch hosil qilish, mehnat an'analarini targ'ib qilish, kasbning ishlab chiqarish va estetik tomonlarini, uning ijodiy xarakterini ko'rsatish zarur.

SHaxsnинг kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagи shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. SHunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir. "Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabrog' jarayon. CHunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallahga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi.

Kasbiy ta’limning muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo‘lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi: mustaqil o‘rganish (qo‘sishimcha ta’lim yoki mustaqil ta’lim) va maxsus kasbiy ta’lim muassasalarida ta’lim olish orqali. Kasbiy ta’limning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim psixologik jarayon “ma’lum bir kasbga tayyorgarlik” holati hisoblanadi. Bu holat emotsional va motivatsion tayyorgarlikni ham nazarda tutadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o‘z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma’lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo‘ladi. Kasb tanlash ma’lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov sub’ekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob’ekti) munosabatlarini o‘zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi: Tanlov sub’ekti va tanlov ob’ekti o‘rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o‘rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash qisqa vaqtida hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub’ektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish davomida bugungi kunda mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf qilish choralarini belgilab olishimiz lozim. Bu muammolarga quyidagilar kiradi:

- kasb – hunarga yo‘naltirish ishlarining mazmun va mohiyatini keng jamoatchilik, ayniqla, ota-onalar o‘rtasida keng targ‘ibot qilish ishlarini kuchaytirish;
- ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining ilmiy, o‘quv-metodik, me’yoriy bazalarini yaratish;
- kasb-hunarga yo‘naltirishning zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga izchil tatbiq etish;

- kasb-hunarga yo‘naltirishning uzluksizligini ta’minlaydigan va yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradigan noan’anaviy texnologiyalarni yaratish;
- kasbiy axborot va maslahatlarning elektron tashuvchi vositalarini yaratish;
- xorijiy mamlakatlarning kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarida ilg‘or tajribalarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish;
- hududiy tashxis Markazlari mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish.

O‘spirinlarning kasbiy o‘zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma’lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta’lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta’siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Mazkur o‘zaro ta’sir jarayonlaridagi dialektik bog‘liqlikning o‘ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o‘zining bir qator bosqichlari mavjud:

- a) kasbiy ma’lumot bosqichida shaxs o‘zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta’lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma’lumotlar oladi .
- b) diagnostik bosqichda shaxsning o‘z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o‘rganiladi
- v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o‘quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og‘ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi
- g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o‘z tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi

Turli kasblar insonga qo‘yadigan talablarini yaxshi bilish masalaning bir tomonidir. Bu talablarni ko‘pincha turli xil kasblarga tibbiy va psixologik jihatdan zid deb ta’riflash juda oson bo‘ladi. Uning ikkinchi tomoni – ehtimol tutilgan mehnat bozorini jamiyatning u yoki bu mutaxassisga bo‘lgan ehtiyojini bilishdir. Bu mohiyatiga ko‘ra, iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo‘lib, usiz kasb tanlashga yo‘llash mumkin emas.

Kasbga yo‘naltirishning uchinchi tomoni va bunga oid barcha ishlarning asosi shaxs xususiyatlarini va eng avvalo yo‘naltirilayotgan shaxsning qobiliyati va istagini bilishdan iborat.

Kasb mehnat bozori haqidagi ishlar tutashgan burchakda kasbga yo‘naltirishning kasbiy oqartuv deb ataluvchi shakl joylashgan. U kasb tashviqotini jamiyat va davlat uchun zarur bo‘lgan kasbga yoshlar e’tiborini jalg etishni ham o‘z ichiga oladi. YOshlarni kasblarga yo‘naltirishda asosan muhitning: ota-onalar, tanishlar, o‘rtoqlar, maktab, mahalla va ko‘chadagi do‘srlarning stixiyali ta’sirida amalga oshiriladi. Ularning kasbga beradigan bahosi o‘smirga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlarga ta’sir etish ahamiyatiga ko‘ra, badiiy adabiyotlar, kinofilmlar hamda televizion eshittirishlar ikkinchi o‘rinni egallaydi. Ular o‘smirlarda katta taassurot va hayajon uyg‘otadi. Aksariyat o‘g‘il bolalar dengizchi, uchuvchi, milliy xavfsizlik va ichki ishlar xodimi, qizlar esa san’atkor, shifokor, oshpaz, tikuvchi bo‘lishni orzu qiladilar.

O‘quvchilarga o‘zlarining kelajakdagi kasblarini tanlashda o‘rta maktab ta’limi bir muncha kamroq ta’sir etadi, holbuki aynan u o‘quvchilarni ishlab chiqarishning barcha sohalarida katta ehtiyoj sezayotgan kasbga tanlash uchun yo‘naltirishi kerak.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Idrok qilish qonunlari sanang?
2. Figura va fonning ilgarigi harakatga bog‘liqligi qonuni tushuntiring?
3. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta’sirini ayting?
4. O‘zgarmas ma’lumotning idrok qilinmasligi qonunini gapiring?
5. Anglanganlik qonunini izohlang?

6. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish qonuni nima?
7. Kasb tanlash yo‘nalishlarini izohlang?

XOTIRA VA KASBIY MASLAXAT .

Xotira va shaxs tajribasining boyligi

Odam ko‘rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma’lum bo‘lishicha, bir vaqtning o‘zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo‘lgan ma’lumotning qolishi qiyin ekan ekan. Bu ettita so‘z, son, belgi, narsaning shakli bo‘lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo‘lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo‘larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma’lumotlarni saralab, terib ishlatishi yana bir psixik jarayonni - xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi.

X o t i r a - bu tajribamizga aloqador har qanday ma’lumotni eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish bilan bog‘liq murakkab jarayondir. Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma’lumotlarning ongimizdagi aksidir.

Inson his qilgan barcha narsa va hodisalar izsiz yo‘qolmaydi. Ular ma’ulm miqdorda xotirada saqlab qolinadi, mustahkamlashib va kerak bo‘lganda qayta esga tushiriladi. Esda olib qolish, esga tushirish va unitishda namoyon bo‘ladigan aqliy faoliyat xotira deyiladi.

Xotirani tajriba asosida psixologiya fanida tadqiq etish **XIX asrning 80-yillariga** to‘g‘ri keladi. **1885** yilda nemis psixologik **Ebbingaus** xotirlab qolish jarayonlari haqida kitobni yaratadi.

Xotira jarayonining asoslari uch yo‘nalishda o‘rganilgan: psixologik, neyrofiziologik, bioximik.

Xotira jarayonlariga esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unitish jarayonlari kiradi. Esda olib qolish- qabul qilinayotgan predmet va hodisalarni tasavvurlar sifatida qabul qilishdir. Esda olib qolish – xotira, materiali bo‘lib, qayta esga tushirish xotira mazmunidir. Esda olib qolish mexanik va mantiqiy, ixtiyorli va ixtiyorsiz bo‘ladi.

Mexanik esda olib qolish tashqi bog‘lanishlar orqali xotirlab qolish bilan bog‘liqdir.

Mantiqiy esda olib qolish ichki ma’noga ega bo‘lgan bog‘lanishlarni xotiralashdir.

Ihtiyorsiz xotira oldindan maqsad qo‘yilmagan, material tanlanmagan holda yuz beradi.

Ixtiyoriy xotira maqsad qo‘yilib, material tanlangan holda amalga oshiriladi.

Maxsus usullar- bu aktiv (qayta gavdalantirish) va passiv (bitta mateialni qayta idrok etish).

Xotira jarayonida vaqtning ahamiyati katta. U uzluksiz va taqsimlangan bo‘ladi. Vaqtning taqsimlanishi **M.N. SHardakovning** tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Xotirada materialni taqsimlash ham katta ahamiyatga ega. Kichik material yaxlitligicha, katta material esa bo‘lingan holda xotirada olib qolinishi yoki unda qo‘shma usulni qo‘llash samaralidir (o‘qish, anglash, qismlarga bo‘lib yodlash).

Esda olib qolinayotgan materialga shaxsiy munosabat – bu shaxsiy yo‘llanma bo‘lib, har bir odamda o‘ziga xos holda namoyon bo‘ladi. Esda olib qolningan materialni saqlash – xotira jarayoni bo‘lib, unda ong harakati yuzaga keladi. Xotirada inson tomonidan qabul qilingan barcha narsa qoladi va ma’lum miqdori esdan chiqadi.

Qayta esga tushirish – esda olib qolningan materialni aktuallashtirish bo‘lib, u uzoq muddatli xotiradan operativ xotiraga o‘tadi. Esga tushirish tanish yoki xotiralash, ixtiyoriy yoki ihtiyorsiz bo‘lishi mumkin.

Tanish- bu qayta ko‘rganda esga tushirish bo‘lib, u qayta ob’ektni idrok etish natijasida yuzaga keladi.

Xotiralash – qayta idrok etishsiz esga tushirishdir. Esdan chiqarish- qayta esga tushirishdagi qiyinchiliklar bo‘ilb, u ta’sir izlarni yo‘qotish natijasida yuz beradi.

Esdan chiqarish to‘la. Qisman, uzoq muddatli va qisqa muddatli bo‘adi. Esdan chiqarishda tormozlanish yuzaga kelishi mumkin.

Tormozlanish ikki hilda: retroaktiv (qayta ta’sir etuvchi) – vaqt bog‘liqligini yuzaga kelishi tufayli xotirada tormozlanish yuzaga keladi. (masalan, tarix darsidan so‘ng adabiyot darst ta’sirida)

Proaktiv tormozlanish – oldingi faoliyatni keyingi yod olish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi.

Xotira turlari. Psixik faollikga ko‘ra xotira ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo‘lishi mumkin.

Faoliyat maqsadiga ko‘ra – harakat, emotsiyonal, obraz va so‘z –mantiq xotiraga ajratiladi.

Muddatiga ko‘ra uzoq muddatli, qisqa muddatli va operativ xotira turlariga bo‘linadi.

Ixtiyorsiz xotira esda olib qolish va esda saqlash oralig‘ida biror bir maqsadsiz yuz berishi bog‘liq xotiradir.

Ixtiyorsiz xotira- maqsad quyiladi, material tanlanadi va maxsus usullar asosida xotirada saqlanib qolinadi.

Harakat xotira – esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirishlar harakat bilan bog‘liq bo‘ladi. “**Oltin qo‘llar**” yaxshi xotira misolidir.

Emotsional xotira- his tuyg‘uga asoslangan xotiradir. (**Masalan**, u ma’ruza qilayotganda undash, qo‘rquv, ishonchszilikni eslab qoladi.)

Obraz xotira – tasavvurlar, tabiat hayotiga bog‘langan xotira. **Masalan**, rus rassomi N.N. Ge Petr 1 ning saroyiga borib, bir ko‘rishdayoq xonaning barcha ko‘rinishlarini esda saqlab qolgan.

Eydetik xotiraga (**yunon. Eidos** –obraz, tur)ega bo‘lgan kishilar kam uchraydi. Bu xotira turida idrok qilingan obrazlar aniq va ravshan bo‘lib saqlanadi.

So‘z mantiq xotira – xotira asosida fikrlar, so‘zlar, tushunchalar yotadi. (pedagogik faoliyatning asosiy xotira turi).

Qisqa muddatli xotira – juda qisqa esga olib qolish va esga tushirish bilan bog‘liq xotira.

Uzoq muddatli xotira turli ma’lumotlarni inson tomonidan uzoq muddatga saqlanishida ifodalanadi. U juda ko‘p qaytarish va esga tushirish evaziga yuzaga keladi.

Operativ xotira- uzoq muddat xotirada saqlanib zarur vaqtida esga tushirish bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turidir. (masalan, matematik misollarni echishda, operativ xotiraning roli juda katta)

Genetik xotira turi mavjud bo‘lib, u genotip bilan shartlashgan bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tadi.

Xotiraning individual xususiyatlari

Psixologiyada xotiraning quyidagi individual turlari ajratiladi – ko‘rish, eshitish, motor va aralash.

- 1) ko‘rish turi – ko‘rish orqali materialni tez eslab qolish.
- 2) Eshitish turi- eshitish orqali materialni yaxshi esda olib qolish.
- 3) Motor turi- odamni qayta takrorlash yoki yozib orqali esda olib qolishidir.
- 4) Aralash turi – bunda ko‘rish eshitish, ko‘rish-motor, eshitish motor turlari haqida gapirish mumkin.

Xayol –ong faoliyati bo‘lib, mavjud tasavvurlar orqali yangi, hayotida mavjud bo‘lmagan obrazlar, ob’ektlarni yaratishdir.

Xayolning funksiyasi – o‘tgan tajriba natijalarni qaytma ishlashdir. Hech narsasiz xayol mavjud bo‘lishi va yaratilishi mumkin emas, ushbu tasavvurlar xotira tasavvurlaridan farq qiladi va xayol tasavvurlari deb ataladi.

Agglyutinatsiya – bir necha predmetlarni qismlarini alohida bir yagona obrazda birlashtirish (yopishtirish)dir. Akksentrlashtirish – u yoki bu xususiyatlarga urg‘u berish orqali yangi obrazlarni yaratish. Masalan, Bahodirlar, lilinutlar, Gulliver obrazlari bunga misol bo‘la oladi.

Sxemalashtirish –biror bir obrazlarni tasvirlashda umumiyl bosh xususiyatlarga to‘xtalish.

Tushlar- uyquga yuzaga keladigan ixtiyorsiz obrazlar bo‘lib, ular tez unutilishi yoki uzoq muddati saqlanishi mumkin. Reeproaktiv hayolda aniq real vazifani amalga oshirish maqsad qilib quyiladi, unda fantaziya elementlari mavjud bo‘ladi. Bunday hayol xotira yoki idrokka o‘xshab ketadi. **Masalan**, Amir Temur yurishlari, badiiy adabiyotda tabiat manzaralarning ifodalanishi shular jumlasiga kiradi. Produktiv (ijodiy) xayol- bizning tajribamizda mavjud bo‘lmagan obraz va ob’ektlarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan hayol turidir. **Masalan**, ixtirochi, yozuvsi yangi narsa yaratadi.

Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o‘qituvchi mahorati masalalari

O‘qituvchi kasbi sharafli va o‘ziga xos murakkab bo‘lib, pedagogik mahorat fani esa ilg‘or o‘qituvchilar va olimlarning amaliy va nazariy bilimlarining yig‘indisidir. SHarq pedagogikasi va pedagogik mahorati ming yillik tarixga ega bo‘lib, nazm mulkining sulton A.Navoiy, A.Jomiy, Koshifiy va boshqalarning asarlarida nutq, notiqlik sa’nati, madaniyati haqida, so‘z va uning inson ruhiyatiga ta’siri haqida juda ko‘p, qimmatli, durdona fikrlari mavjud. Pedagogik mahorat fanining predmeti shu sohaga oid bo‘lgan nazariy, amaliy bilimlar majmuasini o‘rganishdan iborat.

Inson xotirasining yaxshi bo‘lishi, ya’ni his-kechinmalarimiz, ko‘rgan - kechirganlarimizning mazmuni to‘laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog‘liq:

-esda saqlab qolish bilan bog‘liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga;

-shaxsning o‘zi shug‘ullanayotgan ishga nechog‘lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga;

-shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga;

-shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga;

-irodaviy kuchi va intilishlariga.

Umuman, *xotiraning samaradorligi eslаб qolishning ko‘lами va tezligi*,

esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi.

Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra ham farqlanadilar:

- materialni tezda eslab qoladiganlar;
- materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar;
- istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug'ma deb atashadi. To'g'ri, oliy nerv tizimi, uning o'ziga xos ishlash xususiyatlari xotiraning o'ziga xos individual uslubini belgilashi mumkin.

Xotiraning qonunlari

SHaxs o'z xotirasini yaxshilash istagi bo'lsa, u xolda xotiraning sakqiz qonunini eslab kuyishni taqlif etamiz:

1. Anglanganlik qonuni. Oddiy, lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustahkam xotirada muhrlagan bo'lamicha.

2. Qiziqish qonuni. Anatol Frans: «Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak» deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz, va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

3. Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi.

4. Eslab qolishga tayyorlik qonuni. Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lgusi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz.

5. Assotsiatsiyalar qonuni. Bu qonun haqida eramizdan avval Arastu ham yozgan edi. Qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtida shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi.

6. Birin - ketinlik qonuni. Harflarni alfavitdagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ham ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

7. Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi

birinchi taassurot qanchalik kuchli bo‘lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo‘ladi.

8. Tormozlanish qonuni. Har qanday muayyan ma’lumot o‘zidan oldingi ma’lumotni tormozlaydi.

Kasb – hunar to‘g‘risida har xil munosabatlar hosil bo‘lishining asosiy sabablaridan biri – bu maktab o‘quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo‘lishidir. Motivlar o‘rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo‘ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo‘lish ob’ektiv va qat’iy qarorni keltirib chiqaradi.

V.A.Krutetskiy o‘spirinlarda uchrashi mumkin bo‘lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta’kidlab o‘tadi: 1) biror o‘quv faniga nisbatan o‘spiringning qiziqishi, 2) vatanga foyda keltirish istagi (o‘zlarining individual – psixologik xususiyatini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda), 3) shaxsiy qobiliyatini ro‘kach qilib ko‘rsatish, 4) oilaviy an’analarga rioya qilishi (vorislik), 5) do‘stlari va o‘rtoqlaridan o‘rnak olganligi, 6) ish joyining va o‘quv yurtining uyga yaqinligi, 7) moddiy ta’minlanganlik, 8) o‘quv yurti ko‘rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

Mazkur holatni tadqiq etgan yirik psixolog E.A.Klimov o‘spirinlar kasb tanlash kezida; birinchidan, biror kasbning «nufuzli ekanligiga» bahs borishdagi dogmalarga asoslanish, ikkinchidan, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, uchinchidan, biror kasb egasi bo‘lmish kishiga nisbatan ijobjiy yoki salbiy munosabatda bo‘lishni tegishli kasbga ko‘chirish, to‘rtinchidan, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar – pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga mahliyo bo‘lish, beshinchidan, o‘rtoqlarining ta’siri ostida «kompaniya uchun» kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta’kidlab o‘tadi.

O‘spirinlar kasb tanlash to‘g‘risida yaqqol tasavvuriga ega bo‘limganliklari boisdan ko‘proq xatoga yo‘l qo‘yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo‘lgan kasb undan qanday shaxsiy fazilatlarini talab qilishini tushunib etmaydilar. Ular o‘z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi etmaganligi uchun u yoki bu kasbni

egallanganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishligini, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. SHuning uchun yuqorida bayon qilib o‘tilgan xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik – psixologik va ijtimoiy xususiyatlari umumiyligi tomonlarga alohida e’tibor berish maqsadga muvofiq:

1. Kasblarni o‘rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo‘nda qilib ifodalash.
2. O‘qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borishi, o‘quvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar – maslahatlar uyushtirish, o‘siprin va uning ota – onasi bilan kasbga yo‘naltirish metodikasini birgalikda ko‘zdan kechirish;
3. O‘siprinlarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish; muayyan kasb oldiga qo‘yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlari hamda kasb o‘rganishning yo‘llari bilan tanishtirishni tashkil qilish;
4. Mehnat ta’limi darslarida o‘quvchilarda dastlabki kasbiy tayyoragarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr – muhabbat uyg‘otish;
5. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyatga tatbiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish;
6. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash;
7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o‘siprinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilari.

Hozirgi davrda tadqiqotchilar, tashxis Markazi xodimlari va amaliyotchilar tomonidan kasb tanlashning metodlari va metodikalari ishlab chiqilgan. Kasblarning xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni ma’lum tartibga solib, tizimli ravishda tavsiflashga erishilgan. Ayniqsa, E.A.Klimovning yaratgan sxemasi bu o‘rinda alohida ahamiyat kasb etadi. U quyidagi kasb turlarini tavsiya qiladi6

1. Polizchi, chorvador, asallarichi, zootexnik, agronom, o'rmon barpo etuvchi – bionik mutaxassisligi «inson - tabiat»;
2. Slesar, tokar, montyor, konstruktor, radiotexnik, injener – texnika mutaxassisligi «inson - texnika»;
3. Ofitsiant, sotuvchi, hamshira, o'qituvchi, tarbiyachi, muhandis tashkilotchi – sotsionomik mutaxassisligi «inson - inson»;
4. Bo'yoqchi, nusxa ko'chiruvchi, musiqachi, badiiy bezovchi yoki pardozlovchi, kompozitor, yozuvchi rassom – artonomik mutaxassisligi «inson – badiiy obraz».

E.A.Klimov insonning tabiat bilan munosabatga kirishishga moslashgan kasblarni bionik mutaxassisligi, insonning texnika bilan munosabatda bo'lishi natijasida yuzaga keluvchi kasblarni texnika mutaxassisligi, insonning inson bilan muomalasi orqali vujudga kelgan kasb – hunarlarni sotsionomik mutaxassisligi va nihoyat insonni badiiy obrazlar yaratishga undovchi kasblarni artonomik mutaxassisligi deb ataydi.

Oddiyroq tilda ifodalaganda: a) insonni tabiatga xizmat qildirishga mo'ljallangan kasblar; b) insonni texnikaga xizmat qildiruvchi kasblar; v) insonni inson xizmatiga moslashtirilgan kasblar; g) insonni badiiy obrazlar ustida ishslashga undovchi kasblar singari turlarga ajratish mumkin. Lekin mazkur kasblar tasnifi mavjud barcha kasblarni birma – bir sanab o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaganligi sababli, ularning ko'pchiligi o'z ifodasini topmagan.

Kasb tanlashga yo'llanma berishning va uni tashviqot qilishning usullaridan biri – ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmalarga qo'yishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiyalar uyuştirish orqali u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish mumkin. O'spirinlarda hosil bo'ladigan praksik (lazzatlanish, rohatlanish) hislar kasbga mehrini oshiradi va unga nisbatan mustahkamlaydi.

Psixolog M.G.Davletshin kasb tanlashni uch bosqichdan kelib chiqqan holda (kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbga yo‘naltirish) shaxsning kasb – hunarga yaroqliligi (layoqati)ning ichki tomonlarini ochishga harakat qiladi: a) kadr tanlash davrida shaxsning umumiy yaroqliligi (layoqati); b) kasb – hunar tanlashda uning qaysi kasb turiga loyiqligi; v)kasbga o‘rgatishda shaxs sifatlarini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi haqidagi savollarga javob olishga intiladi. Muallifning fikricha, o‘spirinning kasbga yaroqliliginini aniqlaganda uch muhim narsaga e’tibor qilish maqsadga muvofiqdir: kasbga munosabat, qobiliyat, ko‘nikma va malakalar. Odamning kasbga yaroqliliginini aniqlashda uning qiziqishi, irodasi, qobiliyati, maxsus bilimi, ko‘nikmalarining jips aloqasini ifodalagan holda olib qarash oqilona yo‘ldir.

YUritilgan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, kasb – hunar to‘g‘risida axborot, kasb haqida maslahat vositalari ongli kasb tanlash uchun etarli emas. SHuning uchun o‘spirin o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil bilim olishga o‘rgatish kasb tanlashda o‘z kuchini muayyan faoliyatda sinab ko‘rishga imkoniyat yaratadi. Lekin bu bilan kifoyalanish, qanoat hosil qilish shart emas, balki boshqa yo‘l va vositalarni qidirish, izlash darkor.

Kasbiy saralashda pedagoglar, psixologlar, fiziologlar, tibbiyot xodimlari va ishlab chiqarish xodimlarning ishtiroti. Turli kasblarning konkret shaxs oldiga qo‘yadigan talablari. Haydovchi, muhandis, chilangar, qishloq xo‘jalik xodimi, temirchi, kosib va boshqa kasblarning shaxs ruhiyatiga qo‘yadigan talablari. Kasbiy saralashda shaxslarning anotomik xususiyatlarini hisobga olish. Ruhiy sifatlarni e’tiborda tutish haqida ma’lumot berish. Bosh miya asab tolalarining qo‘zg‘aluvchanligi va tormozlanuvchanligi haqida tushunchalar berish. Kasbga saralashda shaxs xarakteri, temperamenti va boshqa shaxsiy sifatlarning tutgan o‘rni. Kasbga saralashda kasbning shaxsiyatga hamda shaxsiy sifatlarning kasb mohiyatiga ta’siri masalalari.

Bolalardagi maylni aniqlashda ularning mashg‘ulotlari davomiyligi, qancha vaqt barqaror bo‘lishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. CHunki, ayrim bolalar bir yilda o‘z niyatlarini bir necha marta o‘zgartiradilar. Qiziqishni - psixologlar

nimagadir ehtiyoj tufayli biror predmetga yoki faoliyatga yo‘nalish sifatida izohlashadi.

Bilimlarga mayl va qiziqishlar turlicha namoyon bo‘ladi: faol, sust, chuqur, tor, astoydil, yuzaki. Mayl va qiziqishlar kasb tanlashda juda muhim, ammo yoshlarning mayl va qiziqishlari kasb-hunarlar kabi shu darajada ko‘p va turfaki, ularni tanlayotgan kasbga qanchalik o‘yg‘unligi haqidagi savolga birdaniga javob berish qiyin. Umumiy tarzda yoshlarning nazariy sohalar, amaliy faoliyat, ijtimoiy tashkilotchilik ishlari, sport, turli ko‘ngilxushliklarga bo‘lgan qiziqish va mayllarni ko‘rsatish mumkin. Tabiiyki, bolalarda qanday qiziqish va mayllarni o‘rganish va shakllantirish kerak degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob topish uchun mavjud kasb-hunarlarning, aniqrog‘i, har bir bolani qiziqtirgan kasbning kishilardan talab qiladigan jahatlarini yaxshi bilish kerak. Bu talablar mehnat qurollari, turi, maqsadi, faoliyatning shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Jamiyatdagi insoniyat olamida kasb-hunar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularni mehnat qurollari, ob’ektlariga ko‘ra, besh turga turkumlash mumkin (muqovalarga qarang):

1. Odamlar bilan ishlash ektakchi bo‘lgan sohalar – bu turni biz shartli ravishda «Inson+inson» deb belgilaymiz. Bu turdagi kasb egalari asosan insonlar bilan muloqatda bo‘ladi, ya’ni ularning faoliyatida odamlar asosiy o‘rinda turadi. Aslida hamma narsa inson uchun qilinadi. Ammo odamlar insoniyatga turli yo‘l bilan bevosita va bilvosita xizmat qiladilar. Birinchi turdagи kasblar bevosita xizmat turiga kiradi.

2. Texnik jihozlar, asbob-uskunalar bilan mehnat qilinadigan kasblar «Inson Q texnika». Bu turdagи kasblarga qiziqqan yoshlar fizika, ximiya, elekrotexnika sohalari bo‘yicha laboratoriya amaliyotlarini o‘tkazishni xush ko‘radilar. Har xil modellar tuzish, loyihalash, oilada maishiy texnika asboblariini ta’mirlashga ishqiboz bo‘ladilar.

3. O‘smlilar va hayvonot dunyosi bilan bog‘liq sohalar. «Inson + tabiat». Bu turdagи kasblarga qiziqqan bolalar tabiat bag‘rida bo‘lishni sevishadi. Turli

jonivorlar boqishni, ekinlarni parvarish qilishni yoqtirishadilar. Botanika, biologiya, zoologiya fanlarini havas bilan o‘rganishadi.

4. Belgilar tizimi, turli ramzlar bilan bog‘liq sohalar. «Inson + ramzlar». Bu turdagи kasblar ishqibozlari turli hisoblash ishlari, chizmalar chizish, kartografiklar tuzish, obrazlar, ramzlar vositasida mulohaza qilish maylida bo‘lishadi. Atrofni ko‘zatishni sevishadi, turli tarqoq ma’lumotlarni bir tartibga keltirishga intilishadi.

5. Badiiy obrazlar bilan ish ko‘radigan sohalar. «Inson + badiiy obrazlar». Badiiy obrazlar bilan ish ko‘radigan soha ishqibozlari xayolparastroq bo‘lishadi. Rasm chizish, turli jihozlash ishlari, raqsni yaxshi ko‘radilar.

Kasbiy ma’rifat ta’limi tizimida mehnat qilayotgan pedagoglar bolalarda ana shu besh turdan qaysi biriga qiziqish yoki mayllari borligini aniqlab, ularni rivojlantirib borishlari kerak. Mayl va qiziqishlarni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlar, muzeylar, hayvonot bog‘i, botanika bog‘i, korxonalarga, tabiat bag‘riga sayohatlar uyushtirish ham samarali natijalar beradi. O‘quvchilarda kasb-hunarga mayl va qiziqish uyg‘otish, ularni shakllantirish hamda o‘stirish ota-onalar bilan hamkorlikda olib borilsa kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Kasbiy saralash jarayonida amalga oshiriladigan ishlar

O‘quvchilarni ongli va to‘g‘ri kasb tanlashga tayyorlash, ya’ni kasbiy saralash o‘zaro bog‘liq va birgalikda amalga oshiriladigan quyidagi chorallardan iborat:

a) kasbiy maorif- o‘quvchilarga mahalliy sharoitlarning ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olib, u yoki bu kasb egalariga, mutaxassislariga bo‘lgan ehtiyojlarni, turli kasblardagi professional mehnatning mazmunini, kasbning insonga qo‘yadigan talablarini, mehnat sharoitlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish sharoitlarini, kasbni egallash mumkin bo‘lgan o‘quv muassasalari turlarini ma’lum qilish, ya’ni bunda o‘quvchilar turli kasblar va ixtisosliklarning xarakteri va o‘ziga xosliklari bilan tanishadilar.

b) kasbiy konsultatsiya- individual xarakterga ega bo‘lib, ayrim o‘quvchilarga ular egallamoqchi bo‘lgan kasbning xususiyatlari va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri anglashga ko‘maklashishini nazarda tutadi.

v) kasbiy diagnostika- o‘quvchilarda kasb tanlash sub’ekti shaxsini uning ma’lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nazarda tutiladi.

g) kasbiy tanlash (saralash)- muayyan kasbni muvaffaqiyatli ravishda egallab, o‘z oldiga qo‘ygan fuqarolik (xususiy) burchini yuqori saviyada ado eta biladigan shaxslarni ajrata olishdan iborat jarayondir. Kasbiy bilimlar, shakllangan ma’lum ko‘nikmalar, malakalarga asoslangan holda tekshirish me’zonlariga suyanib, omilkorlik bilan oqilona saralash o‘tkaziladi.

Kasbiy yo‘nalganlik inson shaxsi yo‘nalganligining bir ko‘rinishi hisoblanib, bu holat uning chuqur shaxs tuzulmalarigacha kirib boradi. Kasbiy yo‘nalganlik insonning individual-psixologik va individual-tipologik xususiyatlarigacha, uning qadriyatlar tizimiga, steriotiplariga, qobiliyatlar va qiziqishlariga borib taqaladi.

Kasbiy yo‘nalganlik tizimining quyidagi funksiyalarini ajratib ko‘rsatsak bo‘ladi:

5) Ijtimoiy funksiyasi deganda jamiyatning to‘laqonli va teng huquqli a’zosi sifatida ijtimoiy kasbiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini beradigan qadriyatlar, normalar va bilimlarning ma’lum tizimini o‘zlashtirish nazarda tutiladi.

6) Iqtisodiy fuksiyasi deganda xodimlarning sifat tarkibini takomillashtirish, kasbiy faollikni yuksaltirish, ishlab chiqarish unumdorligini va malakasini oshirish tushuniladi.

7) Psixolog-pedagogik funksiyasi deganda ma’lum kasbni tanlagan kishining individual xususiyatlarini aniqlash, shakllantirish va inobatga olishni tushunish mumkin.

8) Tibbiy fiziologik funksiyasi deganda sog‘liqqa va alohida fiziologik xususiyatlarga nisbatan u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirishda zarur bo‘ladigan talablarni hisobga olish nazarda tutiladi .

SHunday qilib kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlash jarayonininng muhim komponentlaridan biri hisoblangan - kasbiy yo‘nalganlikni hisobga olmaslik insonning noto‘g‘ri, o‘ziga mos bo‘lmagan kasbni tanlashga olib kelishi mumkin. Bundan shaxsning o‘zi ham, jamiyat ham manfaatdor emas.

Kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlashning muhim elementlaridan biri insonning kasbiy yaroqliligidir. Ma’lumki, inson, masalan uchuvchi bo‘lishga qiziqishi mumkin. Boringki, uning kasbiy yo‘nalganligi ham to‘g‘ri kelishi mumkin. Biroq u kasbiy jihatdan yaroqsiz bo‘lsa, tabiiyki bu kasbni tanlay olmaydi. Demak, kasbiy yaroqlilik ham insonning kasbiy o‘zini-o‘zi aniqlashida muhim o‘rin tutadi.

Kasbiy yaroqlilikning ikki xil turi farqlanadi: mutloq kasbiy yaroqlilik (bunda insondan maxsus qobiliyat talab qilinadigan kasblar uchun yaroqlilik nazarda tutiladi) va nisbiy kasbiy yaroqlilik (bunda har qanday sog‘lom inson uchun imkon darajasida bo‘lgan kasblarga yaroqlilik nazarda tutiladi).

Kasb tanlash yo‘nalishlari

Kasb tanlash bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Ulardan birinchisi kasbiy ma’rifat hisoblanadi. Kasbiy ma’rifat deb tanlanadigan kasb haqida, uning ijtimoiy-psixologik va boshqa jihatlari haqida bilimlarni uzatishga aytildi. SHuning uchun ma’lum kasbni tanlash jarayonida shu kasb haqida, uning talablari va imkoniyatlari haqida qancha ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘lishlik shu kasbni tanlashda to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Darhaqiqat kasbni tanlash jarayonida kasblar olami haqidagi bilimlar, qanday qilib tanlash haqidagi bilimlari har qanday endigina hayot yo‘lining boshida turgan o‘spirin uchun juda foydali hisoblanadi.

Keyingi yo‘nalish –kasbiy maslahat hisoblanadi. Kasbiy maslahat quyidagi vazifalarni bajarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi:

A) Lug‘aviy- ma’lumot berish vazifasini bajaradi. Bu ma’lumotlar ishga joylashish kanallari, ishga kirishga qo‘yiladigan talablar, turli xil kasblarni egallash imkoniyatlari, kasbiy o‘sishning kelajakdagi yo‘nalishlari haqida ish axtaruvchiga xabar beradi.

B) Diagnostik vazifani bajaradi. Bunda kasb tanlash sub'ekti shaxsini uning ma'lum shaxs xususiyatlari tanlayotgan kasb talablariga mosligi nuqtai-nazardan o'rghanish haqida gap ketadi. Biz o'z tadqiqotimizda ham mazkur masalaga etiborimizni qaratganmiz.

V) Korreksion vazifani bajaradi. Kasb tanlash sub'ektining imkoniyatlariga uning qiziqishlarini mos keltirishga qarab o'zgartirish korreksiya deb ataladi

Kasbiy yo'nalghanlik bu talabaning o'z bilim, tajriba va qobiliyatini tanlagan kasbi sohasida qo'llash uchun shaxsiy intilishidir. SHaxsnинг kasbiy yo'nalghanligi kasbga nisbatan ijobjiy munosabat, unga qiziqish va layoqat, shaxsiy tayyorgarlikni takomillashtirish istagi, o'z kasbi sohasida mehnat qilib, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondirishini o'z ichiga oladi. SHuningdek, kasbiy yo'nalghanlik kasbiy faoliyat maqsad va vazifalarini tushunishni hamda qabul qilishni nazarda tutadi.

Talabalarda kasbiy yo'nalghanlikni shakllantirish uchun kasbni egallash imkoniyatlariga ishontirish, bo'lg'usi ishning kelajagiga ishonch hosil qilish, mehnat an'analarini targ'ib qilish, kasbning ishlab chiqarish va estetik tomonlarini, uning ijodiy xarakterini ko'rsatish zarur.

SHaxsnинг kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi. SHunga ko'ra, quyidagi mulohazaga e'tibor qaratish ancha muhimdir. "Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalghanlikka nisbatan bir mucha murakkabrog' jarayon. CHunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallahsha tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi.

Kasbiy ta'limming muhim vazifalaridan biri kasbiy tayyorgarlik bo'lib, bunda tayyorgarlik ikki xil ko'rinishda amalga oshiriladi: mustaqil o'rghanish (qo'shimcha ta'lim yoki mustaqil ta'lim) va maxsus kasbiy ta'lim

muassasalarida ta’lim olish orqali. Kasbiy ta’limning muvaffaqiyatini belgilaydigan muhim psixologik jarayon “ma’lum bir kasbga tayyorgarlik” holati hisoblanadi. Bu holat emotsional va motivatsion tayyorgarlikni ham nazarda tutadi. Kasb tanlash inson hayotidagi muhim bir bosqich hisoblanib, bunda inson hayoti uchun muhim qaror qabul qiladi va u jamiyatda o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaradi. Bu jarayon inson tomonidan o‘z ichki imkoniyatlari tahlil qilish natijasida ma’lum kasbning talablariga uning imkoniyatlarining mos kelishiga qarab sodir bo‘ladi. Kasb tanlash ma’lum bir kasbni tanlayotgan inson (tanlov sub’ekti) bilan tanlanayotgan kasb (tanlov ob’ekti) munosabatlarini o‘zida aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi:. Tanlov sub’ekti va tanlov ob’ekti o‘rtasidagi munosabatlar xarakteristikasini o‘rganish davrimizning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kasb tanlash qisqa vaqtda hal etiladigan ish bo‘lmasdan, balki qator bosqichlardan iborat jarayondir. Bu bosqichlarning davoimiyligi tashqi omillarga va kasb tanlash sub’ektining individual xususiyatlariga bog‘liq holda kechadi.

Belgilangan vazifalarni amalga oshirish davomida bugungi kunda mavjud bo‘lgan muammolarni bartaraf qilish choralarini belgilab olishimiz lozim. Bu muammolarga quyidagilar kiradi:

- kasb – hunarga yo‘naltirish ishlarining mazmun va mohiyatini keng jamoatchilik, ayniqla, ota-onalar o‘rtasida keng targ‘ibot qilish ishlarini kuchaytirish;
- ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining ilmiy, o‘quv-metodik, me’yoriy bazalarini yaratish;
- kasb-hunarga yo‘naltirishning zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga izchil tatbiq etish;
- kasb-hunarga yo‘naltirishning uzluksizligini ta’minlaydigan va yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradigan noan’anaviy texnologiyalarni yaratish;
- kasbiy axborot va maslahatlarning elektron tashuvchi vositalarini yaratish;

- xorijiy mamlakatlarning kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarida ilg‘or tajribalarini o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish;

- hududiy tashxis Markazlari mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini shakllantirish va takomillashtirish.

O‘spirinlarning kasbiy o‘zlikni anglashi borasidagi holatlari tahlil qilinganda, ularning kasblar to‘g‘risidagi tushunchalarida sayozlik mavjudligi ko‘zga tashlandi. Bundan tashqari, kasbiy o‘zligini anglash bilan ma’lum kasbni tanlash jarayoni o‘rtasida ta’lim-tarbiya muhiti va atrofdagilarning ta’siri omillarini nazardan chetda tutmasligimiz lozim bo‘ladi. Mazkur o‘zaro ta’sir jarayonlaridagi dialektik bog‘liqlikning o‘ziyoq ushbu masalaning naqadar murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, birgina kasbiy maslahatni tashkil etishning o‘zining bir qator bosqichlari mavjud:

a) kasbiy ma’lumot bosqichida shaxs o‘zi uchun mehnatni tashkil etish, ishga qabul qilish talablari, turli kasblarni egallashi, ularni tayyorlash bosqichlari va ta’lim olish muddati, mehnat haqi va kasbning istiqboli xususida ma’lumotlar oladi .

b) diagnostik bosqichda shaxsning o‘z tanlagan kasbiga nisbatan qiziqishlari, layoqati, qobiliyati va maqsadlarining mosligi o‘rganiladi

v) shakllantiruvchi bosqichda kasb tanlagan o‘quvchi yoki shaxsga rahbarlik qilinadi, kasb tanlashdagi og‘ishlarning oldi olinadi va tuzatishlar kiritiladi

g) tibbiy jihatdan salomatligining kasbga mos kelishini aniqlash va psixologik bosqichda shaxs sifatlarining o‘z tanlagan kasbiga muvofiqligi masalalari muhokama qilinadi

Turli kasblar insonga qo‘yadigan talablarini yaxshi bilish masalaning bir tomonidir. Bu talablarni ko‘pincha turli xil kasblarga tibbiy va psixologik jihatdan zid deb ta’riflash juda oson bo‘ladi. Uning ikkinchi tomoni – ehtimol tutilgan mehnat bozorini jamiyatning u yoki bu mutaxassisga bo‘lgan ehtiyojini bilishdir. Bu mohiyatiga ko‘ra, iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo‘lib, usiz kasb tanlashga yo‘llash mumkin emas.

Kasbga yo‘naltirishning uchinchi tomoni va bunga oid barcha ishlarning asosi shaxs xususiyatlarini va eng avvalo yo‘naltirilayotgan shaxsning qobiliyati va istagini bilishdan iborat.

Kasb mehnat bozori haqidagi ishlar tutashgan burchakda kasbga yo‘naltirishning kasbiy oqartuv deb ataluvchi shakl joylashgan. U kasb tashviqotini jamiyat va davlat uchun zarur bo‘lgan kasbga yoshlar e’tiborini jalg etishni ham o‘z ichiga oladi. YOshlarni kasblarga yo‘naltirishda asosan muhitning: ota-onalar, tanishlar, o‘rtoqlar, maktab, mahalla va ko‘chadagi do‘stlarning stixiyali ta’sirida amalga oshiriladi. Ularning kasbga beradigan bahosi o‘smirga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. O‘smirlarga ta’sir etish ahamiyatiga ko‘ra, badiiy adabiyotlar, kinofilmlar hamda televizion eshittirishlar ikkinchi o‘rinni egallaydi. Ular o‘smirlarda katta taassurot va hayajon uyg‘otadi. Aksariyat o‘g‘il bolalar dengizchi, uchuvchi, milliy xavfsizlik va ichki ishlar xodimi, qizlar esa san’atkor, shifokor, oshpaz, tikuvchi bo‘lishni orzu qiladilar.

Har qanday kasb jamiyat uchun muhim, ishlayotgan kishilar uchun sharaflı bo‘lib, ularning mehnatga talabini qanoatlantirishi mumkin. Ularga bo‘lgan munosabatlardagi farqlar jamiyat bahosi, ularning obro‘yi, yoshlarning shaxsiy manfaati, istagi va mayli bilan izohlanadi. Bularning barchasi esa ijtimoiy muhit va o‘z qobiliyatiga o‘zi baho berish natijasida vujudga keladi. U yoki bu kasbga bo‘lgan iste’dodlarini, orzu, mayl va istaklarini o‘quvchilarda oldindan uyg‘otish va har tomonlama rag‘batlantirish zarur. Umumiy ma’lumot darajasiga qiziqishni uyg‘otish bilangina chegaralanmaslik kerak.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Xotira va shaxs tajribasining boyligi deganda nimani tushunasiz?
2. Xotiraning individual xususiyatlarini ayting?
3. Xotiraning qonunlarini gapiring?
4. E.A.Klimovning yaratgan sxemasini izohlang?
5. Kasbiy saralash jarayonida amalga oshiriladigan ishlarni gapiring?
6. Kasb tanlash yo‘nalishlarini sanang?

TAFAKKUR VA KASBNI EGALLASH

Tafakkur insonning aqliy faoliyatining yuqori shakli real olamni aks ettirishning umumlashgan va bevosita usuli bo‘lib, ob’ektlar orasidagi bog‘liqlik, bilan jarayon., bilimlarni ochish, ijodiy, muammoli masalalarni echishga qaratilgan jarayondir.

Tafakkurning o‘ziga xos xususiyatlari uni til bilan bevosita bog‘liqligidir. Tafakkur nutqda namoyon bo‘ladi. Tafakkur inson hayoti tajribasida sezgi, idrok va tasavvurlar asosida yuzaga keladi, va rivojlanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok asosida olamni aks ettirish yanada aniq va to‘g‘ri bo‘ladi. Tafakkur borliqni umumlashgan holda aks etishdir.

Tafakkur yordamida biz predmetlar orasidagi bog‘liqlik va munosabatlarni yana ham chuqurroq anglaymiz va ochib beramiz.

Tafakkur biz bevosita kuzatmagan narsalarni ham bilishimizniga imkon yaratadi.

Bixevoirizmda tafakkur predmet va reksiyalar orasidagi murakkab bog‘liqlikni shakllanishi, masalalarni echimi bilan bog‘liq amaliy ko‘nikma va malakalarni yuzaga kelish jarayoni sifatida nomoyon bo‘ladi.

Geshtaltpsixologiyada tafakkurni masalani intuntiv oldindan eish usuli sifatida qabul qiladilar.

Psixoanalitiklar ham tafakkur muammosini hal etishda o‘z xissalarini qo‘sghanlar. Ular diqqatni tafakkurning ongsiz turlariga qaratganlar va tafakkurini motivlar va ehtiyojlar bilan bog‘liqligini aniqlaganlar. A.N.Leontev o‘zining tafakkur konsepsiyasida tashqi va ichki faoliyat tizimlari orasidagi analogik munosabatlar mavjudligiga, nazariy faoliyatiga tashqi amlaiy hattiharakatlarni va aksincha amaliy faoliyatga ichki tafakkur operatsiyalarini kiritgan.

Tafakkur operatsiyalari. Tafakkur jarayoni maxsus aqliy operatsiyalar ko‘rishishida yuzaga keladi. Ular asosida bunga yangi fikrlar, tushunchalar, xulosalar paydo bo‘ladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Taqqoslash. Bu fikrlash operatsiyasi bo‘lib, predmet va xodisalar orasida o‘xshashlik va farqlar, tenglik va tengsizliklar, qarama-qarshiliklarni nomoyon bo‘lishida ko‘rinadi.

2. Analiz (taxlil)- yaxlit predmetlarni qismlarga bo‘lish va ularni alohida xususiyatlari va elementlarini ajratish.

3. Sakrash haqida o‘ylar ekanmiz xayolan uni biz –yugurish, itarilish, uchish fazasiz, erga tushish kabi qismlarga ajratib analiz (tahlil) qilamiz.

4. Sintez – analiz (tahlilga) qarama-qarshi operatsiya bo‘lib, unda analiz jarayonida ajratilgan bo‘laklar asosida predmet yaxlitlanadi.

5. Masalan yugurish, itarilish, uchish fazasi, erga tushish kabi qismlarning yaxlitlanishida sakrash yuzaga keladi.

6. Mavhumlashtirish – ob’ektdan biror-bir xususiyatni aqliy ajratishda nomoyon bo‘ladigan fikrlash operatsiyasidir. Masalan, doskaning qoraligi, hamda harakatlanish haqida fikrlash.

7. Umumlashtirish – o‘xshash, bog‘liq xususiyatlarni bir tushunchaga jamlash, ya’ni bir turdan predmetlarni fikran birlashtirish. Masalan, olma, olxo‘ri, uzum, nok-mev: dararaxt, gul, o‘t-o‘simpliklar.

8. Ammo umumlashtirish va mavxumlashtirish konkretlashtirish kabi ularga qarama-qarshi operatsiyani yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Masalan, umumlashgan “uy hayvonlari” tushunchasi, “ot, “qo‘y”, “mushuk”kabi tushunchalarda konkretlanadi. Konkretlashtirish mavjud bo‘lmasligi o‘quvchi bilimida formalizmni yuzaga keltiradi.

Klassifikatsiya umumiyl, o‘zlash xususiyatli predmet va narsalarni guruhlarga bo‘lish.

Masalan, kutubxonada kitoblarni joylashtirish, fanlar klassifikatsiyasi.

Sistemalashtirish umumiyl qonuniyatlarga asosan fikran guruhlarga bo‘ligan predmetlarni tartibga keltirish, sistemalashtirish belgilari-xronologik, fazoliy, mantiqiydir.

Tafakkurning mantiqiy shaklli tafakkur jarayonida alohida fikrlash operatsiyalari asosida bilan alohida fikrlar xukm sifatida yuzaga keladi.

Hukm – tugallangan fikrdir. Xukm –predmet yoki xususiyatni tasdiqlash yoki nikon etish bilan bog‘liq fikrdir.

Masalan, “Toshkent – O‘zbekiston poytaxti”, “Tosh suvda suzmaydi”.

Hukmning quyidagi turlari mavjud: birlamchi (yagona predmet haqida), xususiy yoki qismiy (predmet yoki xodisa qismiga xos), umumiy (umuman predmet haqida).

Xulosa – tafakkurning mantiqiy shakli bo‘lib, bir necha ma’lum xukmdan yagona xulosa qilinadi. Xulosalar – induktiv, deduktiv, analogiya turlariga bo‘linadi.

1. Induktiv xulosa –bir necha birlamchi xukmlardan yagona xulosa qilishdir. Masalan, “Daraxt qizdirilganda kengayadi”, “Temir qizdirilganda kengayadi”, “Suv istilganda kenayadi”, xulosa “barcha jismlar qizdirilganda kengayadi”.

Deduktiv xulosa – umumiylardan birlamchi xukmga xulosa qilinadi. “Barcha metallar elektr tokini yaxshi o‘tkazadi: Alyuminiy metall”. Demak “alyuminiy – yaxshi elektr o‘tkazuvchidir”.

Tushuncha. Tafakkur jarayonida tushunchalar paydo bo‘ladi, ular o‘zaro bog‘liqlik va munosabatlarni yanada aniqroq, chuqurroq anglashga imkon beradi. Biror bir predmet yoki xodisaning tushunchasini bilish – bu bir necha xukmga ega bo‘lishidir.

Tushuncha – miyaning oliy mahsuli, aqliy obrazi umumlashgan shaklidir.

Tafakkur jarayon sifatida. Tafakkur murakab jarayondir. U nimadan boshlanadi? Tafakkur murakkab muammoli vaziyat yuzaga kelishidan boshlanadi. U yangi maqsadlar yuzaga kelganda, eski vositalar va usullar etarli bo‘lmaganda paydo bo‘ladi. Bunday vaziyatlar muammoli vaziyat deb ataladi.

Muammoli vaziyat bu inson uchun tushunarsiz, ilgari uchramagan, uni xovotirga solluvchi vaziyatdir. Muammoli echish bu hatolar usuli hamda “vazifani echish strategiyasini” echib chiqishdir. Bunda inson unga tanish va notanish barcha usullarni qo‘llab to‘satdan muammoni echish mumkin.

Intuitsiya murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish olish, to‘g‘ri echimni topish, xodisa yo‘nalishi va echimini oldindan ko‘ra olishi.

Aql-farosat – bu borliqni nazariy nazariy egallashning oliy formasi bo‘lib, u insoning fikrlash qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Intellekt – umumiy bilim qobiliyati bo‘lib, insonni bilimni egallashga tayyorgarligi va bunda aqliy hatti-harakatlarni nomoyon qilishda ifodalanadi.

Tafakkur turlari.

Inson tafakkuri quyidagi turlarga bo‘linadi.

Murakkabligiga qarab u – oddiy (javob darhol tayyor) va murakkab (javobni izlash, uni echish, undan so‘ng esa javobdir).

Aslligiga qarab – ixtiyoriy (savol quyiladi, javob esa irodaga zo‘r berish orqali beriladi

Va ixtiyorsiz xuddi Arximed qonuni yoki Mendeleev tablitsasining topilishi (ochilishi).

Umumlashtirish darajasiga ko‘ra – konkret predmetli harakat, predmetli – ko‘rgazmali – obrazli turlarga bo‘linadi.

Tafakkur nazariy bo‘lishi mumkin, bunda “Bu nima?”, “”

Nega u ro‘y berayapti? Degan savollarga javob berishga qaratilgan.

Amaliy tafakkur “Bu hodisani qanday o‘zgartirishi mumkin?”, “Bu maqsadga erishish uchun nima qilish kerak?” degan savollarga javob topishda namoyon bo‘ladi.

Va nihoyat, tafakkur reproduktiv va ijodiy bo‘lish mumkin.

Reproduktiv tafakkur – bu standart tafakkur bo‘lib, unda qayta mashqlar asosida egallangan usullardan masalani echishda foydalaniladi.

Ijodiy – yangilikni ochish bilan bog‘liqdir. Produktiv, ijodiy tafakkurni o‘rganuvchi fan evristika fani deb ataladi.

Fikrlashn bilish – bu insoning aqlidir.

Aqlning quyidagi sifatlarini ajratish mumkin:

1. Mazmundorlik (boyligi, chuqurligi, xukmga boyligi).

2. Fikrlash kengligi (keng va tor) fikrlashning kengligi va chuqurligi nazariya va amaliyotning uzviyiliga bog‘liqdir. Amaliyot, xukmning to‘g‘riligi mezonidir.

3. Fikrlashning mustaqbilligi – umumi tajribani qo‘llay olish, shaxsiy fikrga ega bo‘lishi, tajribaga munosabat bildirish

4. Aqliy tashabbuskorligi.

5. Aqliy egiluvchanligi, vazifani standart echishdan qochish.

6. Aqlning tanqidiyligi, o‘z ishini aniq baholay olish, uni o‘lchash.

7. Aqlining mahsuldorligi.

8. Fikrning ketma-ketligi.

9. Tafakkurning tezligi.

Aql haqida ayrim olimlar va arboblarning fikrlarini keltiramiz.

“Urg‘u aql egalari o‘z oldilariga maqadga qo‘yadilar, qolgan odamlar o‘z istaklari ortidan ergashadilar” (Vashington Irving).

“Aql – bu yaxshi tashkil etilgan bilimlar tizimidir”

Kasb tanlash jarayoni ijtimoiy ahamiyat kasb etsa-da, lekin uning ortida jismoniy individual (yakkahol) shaxs turadi. Holbuki shunday ekan, har bir kasb tanlovchi shaxsiyatiga individual munosabatni amalga oshirish zarur. Buning uchun kasb tanlovchining yosh va jins xususiyatlariga binoan kasb maorifini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bunda birinchi navbatda shaxsning kasbiy *ehtiyoji, motivi, layoqati, qiziqishi va qobiliyatini* hisobga olish darkor. Aks holda umumi xususiyatli yo‘llanma, ko‘rsatma ijobiy natijaga olib kelmaydi, chunki individuallik o‘ziga xos talablarni taqozo etadi. Hatto oddiy kasb maorifi ham turlicha yondashuvni talab qiladi, binobarin, uni qondirmasdan turib tub maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Kasbga yo‘llash umum davlat ahamiyatiga ega muammo hisoblanib, uni bosqichma – bosqich amalga oshirish «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da alohida o‘rin egallaydi. YUqorida aytib o‘tilgan kasb tanlashga yo‘llash omillari faoliyatini hamkorlikka aylantirish yuksak samaralar sari etaklaydi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Tafakkur va kasbni egallash deganda nima tushiniladi?
2. Tafakkur turlarini gapiring?
3. Tafakkur operatsiyalarini sanang?
4. Reproduktiv tafakkur nima?
5. Mantiqiy tafakkur nima?
6. Intiusiyani izohlang?

SHAXSNING HISSIY-IRODAVIY SOXASI VA KASBGA MOSLASHISH

Hissiyot bamisoli insonning kiyimidir. Insonning hissiyotiga ko‘ra, uning holati haqida fikr yuritish mumkin.

His-tuyg‘ular – kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg‘ularning kechishi sub’ekt alohida his etayotgan ruhiy holat sifatida gavdalanadi. Bunda biron-bir narsani idrok etish va tushunib etish, biror narsa to‘g‘risida bilib olish idrok etilayotgan, tushunib olinayotgan, ma’lum yoki noma’lum narsalarga nisbatan shaxsiy munosabati bilan birgalikda ro‘y beradi. SHu hollarning barchasida his-tuyg‘ularning boshdan kechirilishi xususida, kishining alohida hissiy holati xususida so‘z yuritiladi.

His-tuyg‘uni boshdan kechirishning turli shakllari: emotsiya-hissiyot, affekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress holati) kiradi. Emotsiyalar – ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan ma’noni anglatadi (qo‘rquvdan titrash va h.k.). kishini tez chulg‘ab oladigan va shiddat bilan o‘tib ketadigan jarayonlar affektlar (hissiy portlashlar) deb ataladi. Ular ongning anchagina darajada o‘zgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning o‘z-o‘zini idrok qila olmasligi bilan ajralib turadi.

Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishni ifoda etsa, u holda affekt bo‘rondir. Kuchli zo‘riqish (ko‘z yosh to‘kish, kulish) natijasida mayda sa’i-harakatlar barbod bo‘ladi. Induktiv tormozlanish yarim sharlar qobig‘ini tobora ko‘proq darajada egallay boshlaydi, bu tafakkurning izdan chiqishiga olib keladi, qobiq osti yo‘llarida qo‘zg‘alish kuchaya boshlaydi.

Kayfiyatlar – ancha vaqt davomida kishining butun xatti- harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifodalaydi. U shodlik, qayg‘u, jizzakilik yoki muloyimlik tarzida bo‘ladi. Kayfiyatlar odatda o‘ziga-o‘zi hisob bermasligi va sust namoyon bo‘lishi bilan belgilanadi. Asosiy hissiyotlar stress holati – inglizcha stress – tazyiq ko‘rsatish, zo‘riqish degan so‘zdan olingan qiziqish (emotsiya tarzida) – malaka va ko‘nikmalarning rivojlanishiga, ta’lim olishiga moyillik tug‘diradigan bilimlarni egallahsga yordam beradigan hissiy holatdir.

Quvonch - qiziqish, hayratlanish, iztirob chekish, g‘azablanish, nafratlanish, jirkanish, qo‘rquv, uyalish – bular hissiyotning asosiy belgi va ko‘rinishlaridir. Kishining fikrlari va xatti-harakatlari yo‘nalishini belgilaydigan barqaror, chuqur va kuchli his-tuyg‘u ehtiros deb ataladi.

Muhabbat – hissiy ijobiy munosabatning ob’ektini boshqalarga qaraganda ajratib ko‘rsatadigan, hamda uni sub’ektining barqaror hayotiy ehtiyojlari va qiziqlislari markaziga qo‘yadigan yuksak darajasidir.

Ta’lim berish jarayonida talabalarda intellektual tuyg‘ularni shakllantirish, bilishga qiziqish va ishtiyooq uyg‘otish masalasi hamisha dolzarb hisoblangan. Ma’lumki, agar talaba ta’lim olishida bilimga ishtiyooq ustunlik qilmasa, agar u doimo yangi narsani bilib olayotganidan shodlik va baxtiyorlikni his etib turmasa, u holda talaba o‘qishda va mehnatda yuksak natijaga erisha olmaydi.

Iroda – bu kishining oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishida qiyinchiliklarni engib o‘tishga qaratilgan faoliyati va hulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o‘z-o‘zini boshqarishi demakdir. Iroda – bu shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning inson tomonidan qo‘yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir. Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o‘z ehtiyojlariga ko‘ra o‘zgartirish

imkoniyatiga ega bo‘ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo‘ladi. Ioda o‘zaro bog‘liq ikkita vazifaning undovchi va tormozlash (to‘xtatuvchi) vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi va ularda o‘zini namoyon qiladi.

Kishining o‘z faoliyati natijalari uchun mas’uliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd qilib qo‘yish yoki aksincha ularni shaxsiy kuch-g‘ayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar nazoratni lokallashtirish deyildi. (lotincha lotus –o‘rnashgan joy va fransuzchada controle-tekshirish).

SHaxsning irodaviy fazilatlaridan biri **tavakkalchilik** bo‘lib, – bu sub’ekt uchun uning cheki noma’lum va muvaffaqiyatsizlikka duch kelganda mumkin bo‘ladigan noqulay oqibatlar (jazolash, jarohat, obro‘ni yo‘qotish va b.) haqidagi taxminlar mavjudligi sharoitidagi faoliyatning tavsifidir. Tavakkalchilik paytida kutilayotgan noxushlik bunday holatdagi muvaffaqiyatsizlik ehtimoli va noqulay oqibatlar darajasining uyg‘unlashtirilishi bilan belgilanadi. Tavakkalchilikning ikki turi farqlanadi: oqlangan va oqlanmagan.

SHaxsning irodaviy fazilatlariga yana bir nechta faoliyat motivlari ham kiradi. Ular:

Intilish - hali etarli darajada anglanmagan ehtiyojdan iborat faoliyat motividir.

Istak - faoliyatning motivi sifatida ehtiyojning etarli darajada tushunib etilganligi bilan tavsiflanadi. Bunda faqat ehtiyoj ob’ekti emas, balki uni qondirishning mumkin bo‘lgan yo‘llari ham tushunib etiladi. Iordaning kuchliligi va kuchsizligi shaxsning individual xususiyatlariga kiradi.

Hissiyotning buzilishlari ikki xil ko‘rinishda bo‘lib, ulardan birinchisi:

Abuliya – bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo‘qligi, harakat qilish yoki uni bajarish uchun qaror qabul qilish zarurligini tushungan holda bunday qila olmaslikdir.

Ikkinchisi: **Apraksiya** – miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Bu jarayon irodaviy harakatning bajarilishini qiyinlashtiradi. Abuliya va apraksiya –

psixikasi (ruhiyati) og‘ir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kam uchraydigan hodisadir.

SHaxs ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida uning xulq-atvorini boshqarib turadigan axloq mezonlari shu his-tuyg‘ularning tevarak atrofdagilardan ob’ektiv ravishda olib turadigan baholashning asosi hisoblanadi. Ayniqsa, ma’naviy his-tuyg‘ularni tarbiyalash pedagogik faoliyatda muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Amerikalik olim G. Ollport ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent - ustanovka ob’ektiga aloqador bilimlar, g‘oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent - ustnovka ob’ektiga nisbatan sub’ekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emotsional munosabatlar);

V. Harakat komponenti - sub’ektning ob’ektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo‘lish).

Bu uch xil komponentlar o‘zaro bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo‘lishi mumkin. SHuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo‘lsalar ham, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. «Tasodifan dars qoldirish», «jamoatchilik joylarida tartibni buzish» kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg‘unlik yo‘qligini ko‘rsatadi. Bu bir qarashda so‘z va ish birligi tamoyilining turli shaxslarda turlicha namoyon bo‘lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqka zid harakat qilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o‘rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. SHuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama-qarshilik va tafovut bo‘lmasligiga yoshlarni o‘rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosa ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbga yo‘naltirishda hal qiluvchi davr o‘smirning o‘z istagi yoki zaruratiga ko‘ra, tanlagan va uning mehnat yo‘lini belgilaydigan kasbga kirishish davridir. Bu davr shuning uchun ham hal qiluvchiki, kishining mehnat yo‘li bo‘lishi, bu yo‘lda u qanchalik uzoq vaqt muvaffaqiyatli bora olishi ishlab chiqarishni xodimlar o‘rtasidagi muomalani endi o‘quvchi emas, balki boshqa rolni malakali xodim rolini qanchalik oson yoki qiyin, tez yoki sekin o‘zlashtirishiga bog‘liq.

Kasbiy moslashuv – bu yosh insonning asta-sekin kasbiy mehnat sharoitiga kirish vazifasiga ko‘ra emas, balki uning psixik xususiyatiga ko‘ra talaba o‘quvchilikdan malakali xodimga aylanishidir.

Organizmning ishlab chiqarish muhiti va mehnat rejimiga moslashish tarzida biologik ko‘nikish elementlarini ham o‘z ichiga olgan holda kasbga ko‘nikish bir butunlikda ijtimoiy ko‘nikishning asosiy turi hisoblanadi. Kasbiy moslashuv davri odatda uchta o‘ziga xos bosqich bo‘yicha boradiki, ularning har biri kasbiy ta’lim pedagoglari uchun juda muhim xususiyatga ega.

1. Kasbiy moslashishning birinchi bosqichi tanishtirish bo‘lib, o‘zining atrof muhitidagi yangi rolini anglashidan iborat. U tanlangan kasb bo‘yicha muayyan malaka olishga qaror qilgandan boshlanadi va ishlab chiqarish ta’limiga dastlabki nazariy tayyorgarlik davrida, o‘quv qobiliyatlari kasb-hunar kolleji tayanch korxona bilan tanishishdan boshlanadi. Kasbiy moslashishning bu birinchi bosqichida qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini o‘smir o‘zi baholaydi. Kasbga, ishlab chiqarish mehnati guruhlariga va o‘qituvchilariga, kasb-hunar kelleji va korxonaga munosabati vujudga keladi. O‘smir o‘z kelajagiga nazar tashlaydi hamda tanlangan kasbida qanday jozibali va qandaydir kamchilik tomonlarini ko‘radi. Bolalikda uyg‘ongan, qiziqtirgan sohalar haqidagi o‘y- xayollar barbod bo‘ladi. Hamda yangi umid va intilishlar paydo bo‘ladi. Ta’sirchan o‘smirlar ongida sabablarning qattiq kurashi ketadi. Bu kurash oqibati boshqa bir mashg‘ulotga bo‘lgan oldingi intilishlar engadimi yoki yangi egallash mavqega muvofiq yangi intilishlar tug‘iladimi, bularning hammasi birinchi mashg‘ulot: muallim va yaqin kelajakda o‘qish va ishga

to‘g‘ri keladigan kasb hunar kolleji va korxonalarining tuzilishi, ulardagi umumiylar uyg‘otadigan taassurotga bog‘liq bo‘ladi.

2. Kasbiy moslashishning ikkinchi tayyorlov bosqichi – ijtimoiy umumiylar texnika va maxsus predmetlar hamda o‘quv xonalarida ishlab chiqarish ta’limini asosli o‘rganishdan iborat bo‘lib, bu kasb o‘rganishdir. Bu erda ham tanlangan mehnat yo‘lini baholash davom etadi. Atrof muhitga, ta’limga va o‘zlashtirilayotgan mehnatga munosabat o‘zgaradi. Biroq hal qiluvchi narsa taassurot emas, balki o‘quv mehnatidagi yutuq va kamchiliklar bo‘ladi. Kasbiy moslashishning ancha uzoq va ma’suliyatli bo‘lgan bu bosqichida kasbini o‘zlashtirayotgan malakali xodim shaxsining daslabki shakllanishi yuz beradi. Bu shakllanishning muvaffaqiyati o‘zining o‘quv mehnati natijasidan qanoatlanishi va qanoatlanmasligiga bog‘liq yutuqlar quvontiradi va ilhom beradi, yanada kattaroq muvaffaqiyatlarga undaydi, tasodifiy muvaffaqiyatsizlik yanada ko‘proq kuchni safarbar qilishni talab qiladi. Ammo bunday holat tez-tez bo‘lib tursa, doimiy muvaffaqiyatsizlik esa ishdan, o‘qishdan va kasbdan ixlosini qaytaradi. O‘quv predmeti va ishlab chiqarish mashqlariga bo‘lgan qiziqishning paydo bo‘lishi, kuchayishi yoxud yo‘qolishini hamda kasbni yoqtirmay qolishi ana shu yutuq va muvaffaqiyatsizliklarga bog‘liq bo‘ladi. Bularning hammasi avvalo pedagoglarga o‘quvchilarining yutug‘i va muvaffaqiyatsizligi o‘quvchining ruhiy holatiga ko‘ra qanchalik e’tibor berishlariga hamda ularning qanchalik mohirlik bilan boshqara bilishiga bog‘liq.

3. Kasbiy moslashishning uchinchi asosiy bosqichi yosh insonning korxona xodimlari muhitiga singishidir. Bu bosqich o‘quvchi-talaba o‘zini o‘rab olgan o‘sha jamoaning a’zosi sifatida his qiladigan ammo ular darajasida malaka orttirmagan mehnat unumдорligi va mahsuloti sifatini ta’minlay olmaydigan, ba’zan xato va beparvoliklarga yo‘l qo‘yadigan, ishlab chiqarish amaliyoti davrida boshlanadi. Rasmiy jihatdan o‘zining tengligi va atrofdagi kishilar bilan ishlab chiqarish malakasida tez emasligi hamda ularning yosh xodimga «temir qanot qushcha» deb munosabatda bo‘lishini anglash uning bu bosqichdagi kasbiy moslashish jarayonini favqulodda murakkablashtirib

qo‘yadi. Buni ijobiy hal qilish esa amaliyotda korxona xodimlari bilan o‘zaro munosabati qanday bo‘lishi kasb-hunar kollejini tugatgach ular bilan birgalikda qiladigan mehnatga bog‘liq bo‘ladi.

Har qanday faoliyat asosida mehnat yotadi. Mehnat esa muayyan kasb-hunar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xos murakkab jarayon hisoblanadi. Mehnatning ana shunday xususiyatlaridan biri yoshlarning kasb-hunarga moslashish shartidir. Mazkur pedagogik omil bir nechta bosqichlardan iborat. U o‘z imkoniyatlariga mos mehnat jamoasini tanlash, undagi vaziyatni to‘g‘ri baholay olish, to‘plangan amaliy tajriba va bilimlarni ish faoliyatiga joriy etish, mustaqil ko‘nikma hosil qilish kabi bir qancha shartlarni o‘z ichiga olgan ushbu jarayonni umumiy mezon bilan baholash mumkin. Bunday mezon mehnatning hayotiy qadriyat ekanini tushunib etish, kasb-hunarga nisbatan o‘z salohiyatini baholay olish, mehnat faoliyati va jamoadagi sharoitdan qoniqish, kasbga qiziqish, mehnat faoliyatiga oid ko‘nikmaning shakllanishi asosida aniqlanadi. Bu esa kasb-hunarga moslashishga yordam beruvchi yoki to‘sinqinlik qiluvchi ob’ektiv va sub’ektiv sabablarni tahlil etishda qo‘llaniladi.

Kasb-hunarga moslashish sharoiti bir nechta ta’sir etuvchi omillar natijasida yuzaga keladi. Ularning birinchisi tashqi ta’sir omillari bo‘lib, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan ma’naviy-tarbiyaviy ishlar, ijtimoiy-tarbiyaviy mehnat, oilaviy tarbiya, jamoatchilik tarbiyasi kabi tarmoqlardan iborat. Maktabdagi va atrofdagi muhit, ota-onaning kasbi-kori, shaxsning ichki va tashqi tabiat, oilaviy kasb-hunar an’analaridan tashkil topgan ijtimoiy pedagogik omillar ikkinchi guruh hisoblanadi. Uchinchi guruhga kasb-hunarni to‘g‘ri tanlay olish, unga nisbatan qiziqish, malaka, ish sharoiti, mehnat faoliyatining samaradorligi kabi o‘ziga xos omillar kiradi. Ana shu omillarni uyg‘unlashtirish kasbga moslashuv jarayoniga ijobiy ta’sir etish barobarida ta’lim – tarbiya tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni va ish tajribalarini joriy qilishni taqozo etadi. Bunday pedagogik tadqiqotlar yoshlarning muayyan kasb-hunarni mukammal va tez fursatda egallahiga yordam beradi. Bu hol o‘z navbatida shaxs va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Shaxsning hissiy-irodaviy sohasi va kasbga moslashish jarayonlarini izohlang?
2. His-tuyg‘ular va ularning turlarini tushuntiring?
3. Ollportning uch komponentli tizimini tushuntiring?
4. Kasbiy moslashuv bosqichlarini gapiring?
5. Abuliya nima?
6. Apraksiya nima?

QOBILIYATLAR VA SHAXSNING KASBIY SHAKLLANISHI

SHaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi

Odamlarning o‘quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o‘ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. CHunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o‘sha insonning o‘zi ham qilgan har bir harakatidan o‘zi uchun naf ko‘radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko‘nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog‘liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo‘lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo‘lib etishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko‘proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rganiladi. Har bir normal odam o‘zining aqlli bo‘lishini xohlaydi, «Men aqlliman» demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. «Aqlsiz, nodon» degan sifat esa har qanday odamni, hattoki, yosh bolani ham hafa qiladi. YAna shu narsa xarakterlik, ayniqsa, bizning sharq halqlarida biror kimsaga nisbatan «o‘ta aqlli» yoki «o‘ta nodon» iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o‘rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz: «Falonchining o‘g‘li anchagina aqlli bo‘libdi, nariginining farzandi esa biroz nodon bo‘lib, ota-onasini ko‘ydirayotgan emish» degan iboralar aslida «aqllilik» kategoriyasi insonning

yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'ekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), mikdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va hayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

CH. Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj. Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavxumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rghanishni taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. CHunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb atash mumkin. Intellektual potensial esa bir tomondan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan - shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarini oldindan bashorat qilishga imkon beradi. SHu o'rinda «intellekt» so'zining lug'aviy ma'nosini tushunib olaylik. Intellekt - lotincha so'z - intellectus - tushunish, bilish va intellectum - aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'ladi. Bu - intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Darhaqiqat, qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi. Buni biz bugungi kunimiz misolida ham ko'rib, his qilib turibmiz. YAngi avlod vakillari - kelajagini XX1 asr bilan bog'lagan o'g'il-qizlarning intellekt darajasi ularning ota -

bobolarinikidan ancha yuqori. Hozirgi bolalar kompyuter texnikasidan tortib, texnikaning barcha turlari juda tez o'zlashtirib olmoqda, jaxon tillaridan bir nechta bilish ko'pchilik uchun muammo bo'lmay qoldi, minglab topshiriqlardan iborat testlarni ham yoshlар o'zlashtirishda qiyalmayaptilar. Qolaversa, oila muhitining aql o'sishiga ta'sirini hamma bilsa kerak. Agar bola oilada ilk yoshligidan ma'rifiy muhitda tarbiyalansa, uning dunyoqarashi keng, xoxlagan soha predmetlaridan beriladigan materiallarni juda tez va qiyinchiliksiz o'zlashtira oladi. Hattoki, bunday bolaga oliy o'quv yurtida beriladigan ayrim predmetlar mazmuni ham o'ta tushunarli, ular yanada murakkabroq masalalarni echishni xohlaydi.

Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan.

Talant (yunoncha qimmatbaho, noyob narsa, irsiy, tabiiy xislat degan ma'noni anglatadi) muayyan faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta'minlaydigan qobiliyat hamda iste'dodlar yig'indisidan iborat individual xususiyatdir. Talantning asosiy belgilari:

- Muvaffaqiyatni ta'minlash;
- Faoliyatni mustaqil bajarish;
- Originallikning mavjudligi;
- Qobiliyat va iste'dodlar yig'indisidan iborat ekanligi;
- Individual-psixologik xislat ekanligi;
- Ijtimoiy turmushni o'zgartiruvchi yaratuvchi imkoniyatligi.

Talant qobiliyatlar yig'indisi yoki ularning yig'indisidan iborat bo'lishiga qaramay, alohida olingan yakka qobiliyatni, hatto u taraqqiyotning yuksak bosqichiga erishgan, yorqin ifodalansa ham u bilan tenglashtirish mumkin emas.

Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlar *layoqatlar* deb

yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdag'i tug'ma xususiyatlardan - oliv nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoklarning biologik va fizilogik sifatlari, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari - ko'z, qulq, burun, teri kabilarning xususiyatlardan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug'ilishi bilan uni o'rigan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-onada tomonidan yaratiladi)dir. Layoqatlilik belgisi - bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xoxlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xoxlashi mumkin. Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Orttirilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. SHuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u

atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko‘rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o‘z vaqtida to‘g‘ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi.

SHuning uchun ham har bir ongli inson o‘zidagi qobiliyat va zexnni ilk yoshlikdan bilib, o‘sha o‘zi yaxshi ko‘rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug‘ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o‘sirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni *iqtidorli* deymiz. Iqtidor - insonning o‘z hatti - harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub’ektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo‘lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o‘z-o‘zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlarga ega bo‘lib, o‘zlar shug‘ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba’zi o‘ta iste’dodli, lekin kamharakat kishilardan ko‘ra jamiyatga ko‘proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste’dod sohibi bo‘lish imkoniyati bor, zero *iste’dod* - har tomonlama rivojlangan, nixoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. Utinimsiz mehnat, o‘z qobiliyatini takomillashtirib borish yo‘lida barcha qiyinchiliklarni engish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo‘lga kiritiladi.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi

Qobiliyatlar avvalom bor *umumiyl* va *maxsus* turlarga bo‘linadi va har birining o‘z psixologik tizimi va tuzilishi bo‘ladi. SHaxsning umumiyl qobiliyatları undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliv o‘quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o‘zlashtira oladi. Bunda unga umumiyl bilimdonlik, nutq qobiliyatları, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma’lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko‘rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo‘yicha ishlayotgan ikki kishida

o‘ziga xos maxsus qobiliyatlar bo‘lmasa bo‘lmaydi.

Umumiy qobiliyatlarni maxsus qobiliyatlarga zid tarzda talqin qilish mumkin emas. SHaxsnинг umumiy qobiliyatları ularni hosil qiluvchi omillar yaqqol psixologik hodisa yoki voqelikdir. Maxsus qobiliyatlar ko‘lam jihatdan torroq bo‘lishiga qaramay, chuqurroq mohiyatni o‘zlarida mujassamlashtiradi. I.P.Pavlov o‘z ta’limotida “badiiy”, “fikrlovchi”, “o‘rta” tiplarga ajratilgan shaxslarning tavsifini beradi .

■ “Badiiy tip” uchun bevosita taassurotlar, jonli tasavvur, yorqin idrok va emotsiyalar natijasida vujudga keladigan obrazlarning yorqinligi hos.

■ “Fikrlovchilar” uchun esa mavhum mantiqiy, nazariy, metodologik mulohazalarning ustunligi xos.

■ “O‘rta” tipdagilarda esa har ikkala toifa xususiyatlarining xos ekanligi ko‘rinadi.

Har bir qobiliyat o‘zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo‘lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavxum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko‘rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa - pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o‘zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalalar kiradi. Xuddi shunga o‘xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi

Amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalaridan biri layoqat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko‘ra shaxs qobiliyatları yo‘nalishini ochib berishdir. SHuning uchun ham hozirda ko‘plab intellekt testlari va qobiliyatlarni diagnostika qilish usullari ishlab chiqilgan va ular muvaffaqiyatli tarzda amaliyotda qo‘llanmoqda.

Qobiliyatlarni o‘lchash muammosi XIX asrning oxiri - XX asrning

boshlariga kelib izchil hal qilina boshlandi. Xorijda bunday ishlar Spirmen, Bine, Ayzenk va boshqalar tomonidan o'rganildi. Ular qobiliyatlar va iqtidorni o'rganish uchun maxsus testlardan foydalandilar. Bu testlarning umumiyligi shundaki, ularda topshiriqlar tizimi tobora qiyinlashib boruvchi testlar-topshiriqlar batareyasidan iborat bo'ladi. Masalan, Ayzenkning mashxur intellekt testi 40 ta topshiriqdan iborat bo'lib, u intellektual jarayonlarning kechishi tezligini o'lchaydi. Bu erda vaqt mezoni muhim hisoblanadi. Boshqa mualliflar sekin ishslash - qobiliyatsizlik belgisi emas deb, boshqacharok usullarni o'ylab topganlar. Ko'pchilik olimlar uchun, masalan, rus olimlari uchun qobiliyatni o'lchashning ishonchli mezoni - bu shaxs yutuqlarini va uning qobiliyatidagi o'zgarishlarni bevosita faoliyat jarayonida qayd etishdir. Rus olimi E.A. Klimov yoshlar iqtidorining yo'nalishini aniqlash maqsadida faoliyat va kasb - xunar sohalarini asos qilib olib, metodika yaratdi va uning «Professional - diagnostik so'rovnama» deb atadi. SHunday qilib, u barcha kasblarni ularning yo'naltirilgan sohasiga ko'ra 5 toifaga bo'ldi:

- P(T) - tabiat (usimlik, hayvonlar, mikroorganizmlar);
- T - texnika (mashina, materiallar, energiyaning turlari) ;
- CH(O)- odam (odamlar guruhi, jamoalar);
- Z (B)- belgilar (turli ma'lumotlar, belgili simvollar);
- X (I)- badiiy, ijodiy obrazlar (tasviriy san'at, musiqa).

Barkamol shaxsni tarbiyalash jamiyatning ezgu maqsadi hisoblanib, u ma'naviyatning uzviy bir qismi va taraqqiyotni ta'minlovchi muhim omildir. Buning uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida amalga oshirilishiga shubha yo'q. CHunki, uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxsning shakllanishi va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Kasb-hunar kollejlari uzluksiz ta'limning muhim bo'g'inidir. Qishloq xo'jalik kasb-hunar kollejlari boshqa sohalar uchun kichik mutaxassislar tayyorlaydigan kollejlardan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Bu eng avvalo, qishloq xo'jaligining mavsumiyligiga bog'liq bo'lib, qishloq

xo‘jalik kollejlarida tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Biz hozirgacha kasb tanlashga yo‘llash ishlarini umumiy tarzda ko‘rib chiqdik. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarni qishloq xo‘jalik kasblariga yo‘naltirish o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Biz shu bo‘limda qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining sanoatga nisbatan ajralib turuvchi xususiyatlari haqida ma’lumot berishga harakat qilamiz. Bu xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Mashina texnikasi jonli tabiat bilan bevosita aloqada ishtirok etadi.
2. Texnika muammolari, biologiya muammolari jonli tabiat haqidagi fan bilan qo‘shilib ketadi.
3. Rang-barang tuproq iqlim omillariga agrotexnikadan foydalanishga differensial yondashishni talab etadi.
4. Agregatlashgan mashinalar (qurollar) kompleksining o‘zgarib turishi, ishlarning mavsumiyligi mehnatni ustalik bilan tashkil etishni talab qiladi.

Qishloq maktablarining asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni qishloq xo‘jalik kasblariga qiziqtirish va yo‘naltirishdan iboratdir. YAshash sharoiti va zamonaviy texnikalardan foydalangan holda qishloq maktablarining imkoniyatlari juda kattadir. Qishloq maktabi o‘quvchilarda qishloq xo‘jalik mehnatiga – paxtakor, g‘allakor va hokazo kasblarga qiziqish o‘yg‘otishga da’vat etilgan.

Hozirgi zamondagi yuksak mexanizatsiyalashgan qishloq xo‘jaligi, qishloq maktablari va kasb –hunar kollejlaridagi mehnat va ishlab chiqarish ta’limini rivojlantirish imkoniga ega bo‘lgan yagona baza bo‘lib xizmat qiladi. U o‘quvchilar va talabalarda qishloq xo‘jalik kasblarini egallahsga qiziqish uyg‘otadi.

Yigit va qizlar qishloq xo‘jalik mehnati jarayonida qishloq xo‘jalik texnikasi va agrotexnika asoslarini bilib oladilar, umumiy mehnat malaka va ko‘nikmalarini egallaydilar. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga taalluqli yuqorida ta’kidlangan xususiyatlar qishloq xo‘jalik maktablarida, kasb-hunar

kollejlarida kasb tanlashga yo'llash ishlarini olib borishda hisobga olinishi kerak.

Bular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin: oiladagi mehnatga hayotidagi avvalgi tajribalarning ijobiliy ta'sir ko'rsatishi; ota-onalarga ekin maydonlarida muntazam yordam berish; qishloq xo'jaligida mehnat qilishga ancha oldindan odatlanish; ta'lim vaqtlarida ekish mavsumida va hosilni yig'ib olishda yordamlashish; qishloq xo'jalik kasblarini egallahsga intilish.

O'quvchilarda qishloq xo'jalik mehnatiga qiziqishni aniqlash, rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qishloq maktablarining to'plagan tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu ish o'quvchilarga turli darajada ta'sir etadigan kasb tanlashga yo'llash va kasblar haqidagi tushuntirish ishlarini olib borishning rang-barang shakl va metodlaridan foydalanishni talab etadi.

Demak, ishlab chiqarish ta'limalda vujudga kelgan tajriba o'quvchilarining qo'lidan keladigan qishloq xo'jalik mehnatida ishtirok etishi, o'quvchilarni ishlab chiqarish jamoalaridagi mehnatda tarbiyalash, qishloq xo'jalik kasblarini ongli ravishda tanlashiga va ularni qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga tortishga qaratilgan. Qishloq xo'jalik kasblariga yo'naltirishda qishloq xo'jalik texnikasini o'rganish uchun sharoit yaratish zarurligi ko'rsatilgan, mexanizatorlik kasbini egallahning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Qishloq maktablarida kasb tanlashga yo'llash ishlari yangicha, sifatlari mazmun kasb etmoqda va u respublikamiz qishloq xo'jaligi rivojlanishiga katta hissa qo'shadigan kasb egalarini tayyorlashga qaratilgan. Mexanizatorlik qishloq mehnatkashlarining asosiy kasbidir. Uning asoslarini egallah va traktorni o'rganish qishloq xo'jaligining barcha mutaxassislari uchun majburiy hisoblanadi. Bu tashabbus ayniqlsa, qishloq aholisi ichida keng profilli xodimlarni tayyorlash uchun imkoniyatlar ochib beradi va bu xodimlarni ishlab chiqarishning har qanday uchastkasida ishlashiga imkoniyat yaratadi.

Qishloq xo'jalik kasblariga yo'naltirish o'quvchilar o'rtaida mexanizatorlik kasbiga qiziqtirish ishlarini olib borar ekanlar unga nomzodlarni tanlashda quyidagilarga amal qilishlari kerak: qishloq xo'jalik texnikasiga

barqaror qiziqish; ijodiy mehnat qilishga intilish; o'smirlarning mashinalar, agregatlar, qurilmalarda mustaqil ishlash istagi, o'zi harakat qiluvchi mashinalarni boshqarishga qiziqish; erga, jonajon o'lkaza va qishloq mehnat ahliga hurmat.

Qishloq xo'jalik kasblarini tashlashga yo'llash ishlarida o'quv-tajriba uchastkalari (dala, sabzavot, rezavor meva, issiqxonalar, kolleksiya) muhim rol o'yndaydi.

O'quvchilar agrotexnika, chorvachilik asoslari, qishloq xo'jalik mashinalari va mashina-traktor texnologiyasiga doir mashg'ulotlarda nazariy ma'lumotlarni o'zlashtiradilar, mexanizatorlik kasbini egallaydilar. O'quvchilar qishloq xo'jalik ishlab chiqarish moddiy boyliklarning ijodkorlari bo'lgan mehnat ahlining o'y va tashvishlariga kirib boradilar.

Birgina traktorga doir mehnat politexnika amaliyoti bir qator ishchi kasblari bilan tanishtirish imkoniyatini beradi. Ular orasida traktorchi mashinist, paxta terish mashinalarining haydovchilari, sholi ekish va sholi yig'ish texnikasi haydovchilari, mexaniklar, qishloq xo'jalik texnikasini remont qiluvchi slesar, g'alla yig'uvchi kombayn haydovchisi, chorvachilik fermalari uskunalarini ta'mirlovchi va montaj qiluvchi slesar, haydovchi, chorvador-mexanizator va hokazolar.

Transport va texnologiya mashinalarini boshqarish va ishlatishni muvaffaqtyatli egallash yoshlarga xalq xo'jaligining boshqa sohalari – sanoat korxonalari, qurilish, transportda, aloqa muassasalarida, yog'och tayyorlash sanoatida, geologik razvedka, vodoprovod, magistral quvurlari qurilishida foydalilaniladigan shunga o'xshash texnikani uncha qiyalmasdan o'rganib olishlariga imkon beradi. Qishloq xo'jalik agregatlari haydovchilari uchun, mehnat faoliyatida mustaqillik va o'z-o'zini nazorat qilish elementlari tarbiyalanadi. Mashina – traktor agregatlarini ishga tushirish va sozlash, uning ishidagi kamchiliklarini aniqlash va yo'qotish, mashinaga texnik xizmat ko'rsatish o'quvchilarning yangi kasb - qishloq xo'jalik texnikasida sozlovchi master kasbi bilan tanishtirishlariga yordam beradi.

«CHorvachilik asoslari» ni amaliy o‘rganishda o‘quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti mazmuniga sigirlarni elektrotexnik tartibda sog‘ishga asoslangan sut sog‘adigan qurilmalarni ishga tayyorlash, sut sog‘uvchi apparatlarni ishlatish, bir sog‘im sutni hisoblash va uning yog‘lilik drajasini aniqlash, em-xashak tayyorlovchi va em-xashak beruvchi mashinalarni oddiy tuzatish hamda mexanizatsiyalashgan suv taqsimlovchi vositalar (nasos stansiyasi, suv quvuri, avtosug‘orish) ning texnik xizmati, binolar va o‘tloq maydonlardan go‘ngni yig‘ib olishga oid mexanizmlarni ishga tayyorlash va boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish topshiriqlari amalga oshiriladi.

Texnikaviy ijod o‘quvchilarning qishloq xo‘jalik kasblariga qiziqishini rivojlantirishga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarni faol texnika ijodkorligi ishlariga jalb qilish ularning qishloq xo‘jalik texnikasini ishlatish va ta’mirlashda (dala ishlari jarayonida ham, xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash davrida ham) bevosita ishtirok etishni talab etadi.

O‘quvchi yoki talabalar bevosita amaliy ishlarga jalb qilinishi orqali qishloq xo‘jalik va iqtisodiy bilim asoslarini egallaydilar. O‘quvchilarning iqtisodiy bilimlarni o‘zlashtirib olishlari ularga ongli ravishda mehnat unumdarligini oshirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarining sifatini yaxshilash va uning tannarxini kamaytirish imkonini beradi. O‘rmon xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi o‘quvchilar serunum mehnat qiladilar. O‘rmon ko‘chatlari ularning ixtiyorida bo‘lib, bunda ular yosh ko‘chatlarni ekish va parvarish qilishga doir barcha ish jarayonini bajaradilar.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan agrar sohaga, fermer xo‘jalik sohalariga shu bilan birga yoshlarni qishloq xo‘jalik kasblariga yo‘naltirishda mehnat ta’limi uchun zarur bo‘lgan er, traktor, qishloq xo‘jalik mashinalari, ta’mirlash ustaxonalari bilan ta’minlamoqdalar, ularga zarur asbob-uskunalar va ko‘rsatma qurollari uchun mablag‘lar ajratmoqdalar.

O‘quvchi talabalarni ishlab chiqarish amaliyoti davrida ulardagi qiziqishlarni rivojlantirish va qishloq xo‘jaligining agronom, agronom-sabzavotkor, agronom-bog‘bon, agronom-agroximik, zootexnik, injener-

mexanik kabi kasblarga doir kasbiy mahoratni egallashlari uchun yaxshi sharoit yaratib berilmoqda. O‘quvchilarining ongli ravishda kasb tanlashlariga yordam beradigan o‘quv amaliyotlarining samarali turlaridan biri o‘quvchilarining tajriba ishlari davridagi ishlab chiqarish faoliyatidir. O‘quvchilarda agronom, sabzavotkor, bog‘bon va boshqa kasblar mehnatiga qiziqish va ijodiy yondashishni tarkib toptirishda tajriba ishlari etakchi o‘rin egallaydi.

Kasb-hunar kollejlarida mutaxassislar tayyorlashda o‘quv amaliyotining ahamiyati katta. CHunki, ularda tashkil etiladigan o‘quv amaliyotlari: laboratoriya amaliy mashg‘ulotlari; ishlab chiqarish ta’limi; ishlab chiqarish amaliyoti shaklida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

O‘quv amaliyotini amalga oshirishda kollejlarning o‘quv xo‘jaliklari muhim ahamiyatga ega. Ularning asosiy vazifasi o‘quvchilarining nazariy bilimlarini mustahkamlash, xo‘jalikni maqbul yuritish, ishlab chiqarishni zamonaviy yangi texnika va texnologiyalar asosida joriy etish, bozor iqtisodiyoti talablariga mushtarak tadbirkorlik ishlarini amalga oshirish, shuningdek, o‘quv ishlab chiqarish amaliyotlarini samarali o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish va eng muhim kasbiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Mavjud o‘quv xo‘jaligidan foydalanish, undagi ishlarni tashkil etib o‘tkazish ham muhimdir. Fikrimizcha, kasb-hunar kollejlari o‘qituvchilarida kasbiy ish harakat usullarini maqbul shakllantirish shart-sharoitlari quyidagilardan iborat: nazariy bilimlarga tayanish; ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish; aniq kasbiy ish harakat usullari nima maqsadda egallanishi zarurligini o‘quvchilar anglab etishi; bajarilayotgan mashqlarni muntazam bajarish va asta-sekin murakkablashib borishi; mashqlarning mustaqil bajarilishi va o‘zini o‘zi nazorat qilish imkoniyatining mavjudligi; mashqlarni bajarish uchun nazariy bilimlarga ega bo‘lib, puxta tayyorgarlik ko‘rish lozimligi; xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, yo‘l qo‘yilgan hollarda ularni zudlik bilan bartaraf etish tadbirlarini ko‘rish.

Kasbiy ko‘nikma va malakalarining o‘quvchilarda shakllanganligi mezonlari: texnik va texnologik, agrotexnik ish harakat usullari iqtisodiy hayot xavfsizligi qoidalariga amal qilib o‘z vaqtida sifatli bajarilishi; xattiharakatlarning bajarilishida mustaqillik, vaziyatni va shart-sharoitlarini hisobga olgan holda to‘g‘ri qaror qabul qilinganligi.

O‘quv xo‘jaliklariga ajratilgan er maydonlarining dastlabki paytlardagi unumdarligi, meliorativ holatini yaxshilash, yangi texnika, urug‘lik, yoqilg‘i moylash materiallari, ehtiyyot qismlarini sotib olishda homiy va vasiy tashkilotlarning beg‘araz yordamlari hamda xalqimizda asrlardan beri qo‘llanilayotgan «hashar» tadbirlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘quvchilar mutaxassis agronom va olimlar, ilmiy tekshirish muassasalarining topshiriqlari bo‘yicha katta ishlab chiqarish maydonlarida o‘tkaziladigan tajribalari muhim vazifalarni hal etishga qaratiladi va bu o‘quvchilarda qishloq xo‘jalik kasblariga bo‘lgan iziqishlarini rivojlantiradi.

Tajriba ishlari vazifasiga quyidagilar kiradi:

- a) Biologiya va qishloq xo‘jalik tajribalarini o‘tkazish orqali o‘quvchilarning bilim doirasini kengaytirish;
- b) ilmiy tekshirish ishlarini olib borishda ularni malakalar bilan qurollantirish;
- v) nazariy bilimlarni qishloqdagi fermer xo‘jaliklar amaliyoti bilan aloqasini amalga oshirish;
- g) qishloq xo‘jaligiga va qishloq xo‘jalik kasblariga muhabbat uyg‘otish.

Tajriba ishlari ishlab chiqarish mehnati bilan qo‘sib olib borilganda o‘quvchilar o‘z mehnatlari samaralarini ko‘rganlarida ulardagi qishloq xo‘jaligi mehnatiga bo‘lgan kasbiy qiziqish faol rivojlanib boradi. Hatto eng oddiy qishloq xo‘jalik tajribalari ham o‘smirning ong-bilim darajasini boyitadi. O‘quvchilarning tadqiq qilinayotgan masalada sabab-oqibat bog‘lanishlarini ochib berishga yordam beradi, tanqidiy fikrlashga, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Tekshirish va izlanishlar ishni qiziqarli qiladi va ma’lum maqsadga qaratadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida zikr etilganlar kasbiy tayyorgarlik tizimi hayotiyligini ta'minlaydi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, psixologik-pedagogik qonunlarni hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. SHaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasini izohlang?
2. Tug‘ma va orttirilgan qobiliyatlar haqida gapiring?
3. Qobiliyatlarning psixologik strukturasini izohlang?
4. O‘quvchilarda qishloq xo‘jalik mehnatiga qiziqishni aniqlash deganda nimani tushunasiz?
5. Tajriba ishlari vazifasiga nimalar kiradi?
6. Talant va uning belgilarini tasvirlang?

NUTQ VA KASB

Insoniyat taraqqiyoti tarixida til tufayli aks ettirishning imkoniyatlari qayta quriladi, olam odam miyasida yanada aniq, ravshan in’ikos ettiriladigan bo‘ladi. Tilning paydo bo‘lish munosabati bilan har bir alohida shaxs jamiyatining ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotida, jarayonida to‘plagan tajribalaridan foydalanish imkoniyati tug‘iladi. Til yordami bilan har bir inson shaxsan o‘zi hech qachon duch kelmagan, notanish hodisalar, holatlar, vaziyatlar, sharoitlar yuzasidan bilim olishga erishadi. Xuddi shu boisda til odamga ko‘pchilik hissiy va intellektual ta’sirlar hamda taassurotlar to‘g‘risida o‘ziga o‘zi hisobot berish imkoniyatini yaratadi. Inson til yordami bilan boshqa odamlarga o‘tmish, hozirgi zamon va kelajakka rid narsalar, voqelik yuzasidan axborot, xabar, ma’lumot berishi ularga ijtimoiy tajriba mohiyati ko‘nikma hamda malakalarni o‘tkazishi, uzatishi mumkin.

Odamdagи shaxsiy individual tajribaning umuminsoniy tajriba bilan bog‘liqligi kishilarda tilning mavjudligi bilan izohlanadi. Til oddiy qilib tushuntirilganda so‘z va belgilar sistemasi hamda majmuasidan iboratdir. Inson

tomonidan u yoki bu faoliyatning bajarilishi belgilar, alomatlar xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, uning mahsuldorligi, muvaffaqiyati til tarkiblarining ahamiyatiga bevosita aloqadordir. Masalan, haydovchi uchun ko'cha qoidalari, matematik uchun formulalar, operator uchun signallar (semiotika – sema-yunon. "belgi") belgilar, simvollar, alomatlar vazifasini bajarib, faoliyat uchun regulyator sifatida xizmat qiladi.

Shuning uchun belgilar va ularning ahamiyati insonning yuksak psixik funksiyalari (ya'ni idrok, xotira, tafakkur, xayol)ning vositasidir. Odatda belgilar turli-tuman bo'lishidan qat'i nazar ularning eng muhimi – bu so'zdir. Har bir so'z ma'lumot, xabar, axborot vazifasini bajaradi va muayyan mazmunni o'zida aks ettiradi (masalan: mashg'ulot, daftar, yomg'ir va boshqalar).

Tilning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- a) til yashashning vositasi, ijtimoiy tajribani avloddan avlodga uzatish, berish va o'zlashtirish quroli tarzida vujudga keladi (avlodlar ota-onalar, o'qituvchilar va murabbiylar);
- b) til vosita yoki kommunikatsiya usuli, hatto odamlarning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qurol sifatida namoyon bo'ladi (masalan: "Leksiya bo'lmaydi", "Bugun bayram" – ta'sir qilishdan, ta'sir o'tkazishdan iboratdir);
- v) tilning muhim funksiyalaridan yana bittasi – intellektual faoliyatning quroli sifatida xizmat qilishdir (muammoli vaziyat mohiyatini tushunish, echishni rejalashtirish, ijro etish, maqsad bilan solishtirish).

Odam hayvonot olamidan farqli o'laroq o'zi xoh amaliy, xoh aqliy harakat bo'lishidan qat'i nazar uni rejalashtira oladi. Faoliyatni bunday rejalashtirish echimi uchun vosita qidirishning va umumiyl fikriy masalalarini halqilishning asosiy quroli tildir. Psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tilning eng asosiy funksiyasi – bu kommunikatsiyadir.

Nutq faoliyati – odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtiri, avlodlarga berish (uzatish) yoki kommunikatsiya o'rnatish, o'z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayonidir.

Nutq axborot, xabar, ma'lumot va yangi bilim berish aqliy topshiriqlarni echish faoliyatidan iboratdir. Agarda til aloqa vositasi (quroli) bo'lsa, nutq esa aynan o'sha jarayonining o'zidir.

Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlari

1. Nutqni idrok qilish oddiy reflektor faoliyatining qonunlari asosida sodir bo'lishi mumkin. chunki uni yuzaga keltiruvchi stimullar birinchi signallar tipidagi qo'zg'atuvchilardan iboratdir (masalan: "Marsh", "Salom").

2. Nutqni yuzaga kelishi va idrok qilinishidan inson "signallarni - signali" (I.P.Pavlov) tarzdagi so'zlardan foydalanishi mumkin. mazkur jarayon bosh miya katta yarim sharlarining po'stida amalga oshadi.

3. P.Broka (1861 y.) miya po'stining ma'lum qismi (miya chap yarim shari peshona qismining pastki tomonidagi burmalarning orqa qismi) shikastlansa, bemorlarda nutq artikulyasiyasining buzilishini kasb etgan va "so'z obrazlarini harakatlantiruvchi markaz" deb atagan.

4. K.Vernike (1874 y.) bosh miya yarim sharları peshona qismining tepe tomonida "so'zlarning sensor obrazlari" joylashgan deb dalillashga harakat qiladi.

5. P.K.Anoxin – nutq jarayonini ta'minlashda juda ham sodda elementar "stimul-reaksiya" tipidagi fiziologik mexanizm ham, nutq faoliyatining yuksak formalari uchun nutq vositasi bilan fikr bayon qilishning ichlan programmalashtirish mexanizmlari uchun xarakterli va ierarxik tuzilishiga ega bo'lgan maxsus mexanizmlar ham qatnashadilar.

1. Nutq vujudga kelishining nazariyalari

Psixologiya, psixofiziologiya, psixolingvistika fanlarida to'plangan nazariy va amaliy materiallar tahliliga ko'ra, akustik nutq signallari murakkab muvofiqlashgan harakatlarning natijasida namoyon bo'luvchi majmuaviy holatlarning birlashuvi nutq apparati deb ataladi.

Odatda o'pka va nafas olish tana a'zolarning muskul harakatlari bosimning oshishini va havo oqimlarining (ichki va tashqi) nutq aktida artikulyatorlar qatnashishini uzluksiz ravishda ta'minlab turadi.

Nutqni vujudga keltiruvchi umumiy apparat sxemasi uchta jihatni o‘zida aks ettiradi.

I. Nutqning anatomik tasviri:

1. Ko‘krak qafasi.
2. O‘pka.
3. Traxeya.
4. Ovoz paychalari (aloqalari).
5. Tomoq trubkasi.
6. Halqum bo‘shlig‘i.
7. Tanglay pardasi.
8. Og‘iz bo‘shlig‘i.
9. Burun bo‘shlig‘i.

II. Nutqning funksional elementlari:

1. Nafas olish tomirlari, muskullarining kuchi.
 2. O‘pka sig‘imi.
 3. Traxeya harakati.
 4. Ovoz paychalari tebranishi yoki harakati.
 5. Tomoq trubkasining funksiyasi.
 6. Halqum bo‘shlig‘ining organik vazifasi.
 7. Tanglay pardasining holati (torayishi, kengayishi, shilimshiqligi).
 8. Og‘iz bo‘shlig‘i (uning tarkiblari, a’zolari: tish, havo harakati, kuchaytirgich, susaytirgichlar va hokazo).
 9. Burun bo‘shlig‘i va uning tarkibiy a’zolari (kataklari, tuklari, namligi, quruqligi).
 10. Og‘izdan nuri (yorug‘likni) kirib kelishi, ya’ni nurlanishi.
 11. Burundan nurni kirib kelishi.
 12. Og‘iz va burundan havo oqimining kirishi.
 13. Ichki tana a’zolaridan havo oqimining chiqib ketishi.
- Akustik tebranishning qo‘zg‘atuvchi mexanizmlari tomoq faoliyati, shovqin va impulsiv, ya’ni ixtiyororsiz qo‘zg‘atish, tovushlarining paydo bo‘lishi,

havo oqimining (massasining) tor oralig‘idan o‘tishi, nutq aktining ayrim o‘rinlari bilan uzviy aloqadordirlar. Akustika yunoncha “acustika”, ya’ni eshituv, tovush nazariyasi demakdir. CHastotali filtratsiya akustika manbasi bo‘lib hisoblanadi.

III. nutqning xususiyatlari.

1. Matn – ma’no – fikr bildirish.
2. Ma’lumot (xabar, axborot) bayoni.
3. Og‘zaki nutqda axborotning muayyan darajada yo‘qolishi.

IV. Nutqning fonetik elementi.

V. Nutqni idrok qilish nazariyasi:

1. SHkalalashtirish.

2. Unitish.

3. Halaqit beruvchi vaziyat va sharoitda idrok qilish:

- a) akustik, b) vizual, v) taktil...

VI. Dinamik spektogramma:

- a) undosh,

- b) unli.

VII. Nutq faoliyati:

1. Anglash

2. Anglash (tushunish)

3. Qayd qilish (fiksatsiya):

- a) nazariy va amaliy axborotlar,

- b) takroriy fikrlar,

- v) diqqatni yo‘naltirish (soxta diqqat),

g) inson shaxsiyatini (shaxs, motiv, motivatsiya, emotsiya, hissiyot, iroda: emotsional-motivatsion, shaxsiy, irodaviy, kognitiv, regulyativ va boshqalar).

3. Nutq turlarining psixologik tavsifi

Psixologiya fanida nutqqa va nutq faoliyatiga bag‘ishlangan bir talay ilmiy tadqiqot natijalari mavjud bo‘lsa-da, lekin bu borada umumiylilik, tariflar

birligi, uning evolyusion va ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotiga oid qarashlarda mohiyat hamda shakl jihatdan o‘xshashlik yo‘q. Nutqning neyropsixologik asoslari, mexanizmlari, artikulyasion va fonetik apparatlari, psixolingvistik tuzilishi (fonema, fleksiya) to‘g‘risida ilmiy-amaliy xususiyatli umumlashmalar hamda umumlashmalar umumlashmasi ishlab chiqilmagan. Xuddi shu boisdan nutqning genezisi, uning filogenetik va ontogenetik xususiyatlari, paydo bo‘lishi, o‘sishi, o‘ziga xos tavsiflanishi, bosqichlari, fazalari, patologiyasi bo‘yicha xilma-xil yondashuvlar mavjuddir.

Psixologlar tomonidan nutq psixologik muammo sifatida o‘rganilishi ham o‘ziga xoslik, uning qirralari, hakliy tuzilishi, mantiqan izchilligi, tasniflanishi, mavjud bo‘lib, ilmiy talqinining tub mohiyati, bayoniyligi bilan o‘zaro tafovutlanadi. YOndashuvlar tahliliga to‘xtalishdan oldin, nutqning psixologik tavsiflari yuzasidan mulohaza yuritish, uning tatbiqi jihatni qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Bizningcha, nutqning muayyan asoslarga suyangan holda noan’anaviy tasnifini berish uning qiymatini yanada oshiradi, inson – texnika munosabatini amaliy jihatdan namoyish qilgan bo‘ladi (odatda og‘zaki va yozma turkumga ajratilar edi): verbal va noverbal.

Genetik kelib chiqish jihatidan noverbal nutq birlamchi hisoblanadi, chunki insonning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davrida dastavval tovushsiz, so‘zsiz nutq turlarini paydo bo‘lgan bo‘lib, u o‘z ichiga shaxs kamolotining yirik sanasini qamrab olgandir. Insoniyatda nutqning hozirgi zamon avlodiga xos artikulyasion apparati paydobo‘lgunga qadar, imo-ishora negiziga qurilgan. Ma’lumki, qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo‘lsa, o‘sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma’lumotlar ko‘lami torbo‘lganligi tufayli insonlar noverbal nutqdan ko‘p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar. Avlodlar tarbiyasi ma’lumotlar uzatish noverbal nutq orqali amalga oshirilgan, ijtimoiy va xususiy (shaxsiy) fikr uzatish hamda qabul qilish ana shu tariqa namoyon bo‘lgan, tobora takomillashib borgan.

Noverbal nutq turini shartli ravishda quyidagi ko‘rinishlarga ajratish mumkin:

Imo-ishora,

Mimika,

Pantomimika,

Exologik, ya’ni aks sado,

Signifikatsiya,

Daktilogik (barmoq nutqi).

Inson er yuzasidan hayot va faoliyat ko‘rsatish davrining dastlabki pallasida asosiy nutq turi sifatida imo-ishora alohida ahamiyat kasb etgan. SHuning uchun etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma’lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma’noli, mazmunli nutq turi imo-ishorali nutq deyiladi. Masalan, o‘zbeklarda fikrni tasdiqlash old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma’noni bulg‘orlarda boshni sarak-sarak qilish anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi. Aksariyat hollarda imo-ishora his-tuyg‘usiz namoyon bo‘ladi va shaxslararo munosabatning tub ma’nodagi ham quroli, ham vositasi funksiyasini bajarib kelgan. Lekin uni his-tuyg‘usiz deb nomlash ham ilmiy-amaliy qiymatini pasayishiga olib keladi, bu holat uning ijtimoiy funksiyani o‘zida aks ettiradi, shaxslararo munosabat mag‘zini tashkil etib kelgan, ba’zida hozirgi zamonda ham undan keng ko‘lamda foydalilanadi.

YUz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o‘zgalar fikriga javob qaytarish, tana a’zolari rangining o‘zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo‘luvchi noverbal nutqturiga mimika deyiladi. Tabassum, jilmayish, miyig‘ida kulish, lab qisish va cho‘chaytirish, til chiqarish, qosh uchirish va suzish, xullas turli psixologik holatlarni, ayniqsa hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perceptiv xususiyatli nutq turi mimika bo‘lib hisoblanadi. Mimika yordami bilan haqgo‘ylik, quvlik, yoqtirish va yoqtirmaslik, samimiylilik va ikkiyuzlamachilik,

hasad, quvonch, qayg‘u, baxtiyorlik singari yuksak tuyg‘ular namoyish etiladi. Xush yoki noxush kechinmalar aks etilayotganligidan kelib chiqqan holda muomala jarayoni yoki qisqa muddatli, uzoq muddatli vaqt mezonini namoyon qiladi, ayanch, baxt hislarini ifodalab keladi. U mono vaziyatni, diada, triada, poliada ko‘rinishidagi shaxslararo munosabat shakllarini yaqqol aks ettiradi, fikrni uzatish, qabul qilish, ta’sirlanish, ruhlanish kabi funksiyani bajaradi. Hayotiy tajribaning ko‘payishi bilan ichki kechinmalarni (interiorizatsiyalash) tashqi voqeа hodisalarga almashtirish(eksteriorizatsiyalash) bilan yakunlanadi, ko‘pincha individual va ijtimoiy tarbiya vazifasini bajaradi.

YUz harakatlari, tana a’zolari, qaddi-qomat yordami bilan fikrlarni uzatish, syujetli qoidali, ma’noli, dramatik kechinmali noverbal nutq turiga pantomimika deb ataladi. O‘z mohiyati ko‘lamni bilan mimikadan ustuvor xususiyatga ega bo‘lib, axborotlar, intim holatlar, murakkab kechinmalar yuzasidan o‘zgalarga ma’lumot uzatish tarzida hukm suradi. Insonda turmush tajribasi ortib borishi, kasbiy faoliyat mazmunini rollarga va syujetga asoslangan holda ssenariysini yaratish, vaziyatga qarab qisqa va uzoq muddatli informativ funksiya bajaradi. Pantomimika humor hissini, qo‘rqinch tuyg‘usini, zahmat obrazini, dahshat kechinmasini o‘zida aks ettirib, ko‘pincha kommunikativ funksiyani ijro qiladi, hissiy aloqa o‘rnatish orqali taassurotlar mukammalligi ta’minlanadi.

Tashqi ta’sirlanish va uning teskari aloqasi kulgida, ko‘z yoshlarida (xoh quvonchli, xoh qayg‘uli bo‘lishidan qat’i nazar) ifodalanib, assotsiatsiyalarni jonlantiradi va ko‘lamini kengaytiradi. Pantomimika sahna harakatiga nisbatan qobil, iste’dodli, iqtidorli, salohiyat namunasini namoyish etib, maxsus qobiliyatli shaxslar tomonidan maqsadga muvofiq ravishda ijroqilinadi, lekin istisno tariqasida o‘qituvchilik faoliyatida ham unumli foydalaniladi. YAqqol ruhiy hodisalar, holatlar, xususiyatlar, shaxsning fazilatlari, pantomimika ijrosi davomida faoliyat sub’ekti tomonidan bajariladi.

Ayrim his-hayajonli shartli tovushlarda mujassamlashgan axborot uzatish va qabul qilish maqsadini amalga oshiruvchi, tabiiy to‘siqlarga urilib qaytuvchi

aloqa vositasiga exologik yoki sado nutqi deyiladi. Exologik yoki aks sado nutq turi bir tomonlama aloqa (tog‘-inson, inson-jism) negizida vujudga keladi, ko‘pincha individual tovush harakati javob, masofa funksiyasini ijro etadi. Lekin aks sadoorqali tog‘larda, qalin o‘rmonlarda ikki yoki undan ortiq kishilar o‘rtasida aloqa quroli sifatida muayyan ahamiyat qozonadi. Fazoviy tasavvur qonuniyati asosida shaxslararo munosabat o‘rnataladi, ma’lum shartli belgilari o‘zaro bilvosita muloqot vositasi rolini ijro qiladi. Ekstremal favquloddagi hodisalar yuz berishi jarayonida shartli tovushlardan tuzilgan aloqa usulidan foydalilanadi. Tovushlarning qaytishi fazoviy chamalash, muayyan mo‘ljal olish uchun xizmat qiladi, qo‘rqinch, hayajon, umid, ishonch tuyg‘ularining aloqaga kirituvchi shaxslar ruhiy dunyosida mujassamlashishini ta’minlaydi.

Noverbal turkumga kiruvchi signifikatsiya boshqalardan o‘z tuzilishi, mazmuni, shakli bilan keskin ajralib turadi. Aniq shartli alomatlar orqali muayyan mantiqiy yuklamani o‘zida aks ettiruvchi kommunikativ xususiyatlari noverbal nutq turi signifikatsiya deyiladi. U shartli belgilar, signallar, modellar shaklida ifodalanishi mumkin. Uzoq masofalarga xabar yoki ma’lumot uzatish va qabul qilish vositasi sifatida Morze alifbosi va shunga o‘xshash “sun’iy til” nomi bilan mashhur kommunikativ manbalari faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Har bir “signal” o‘z ko‘lami, takrorlanish sur’ati, tembri, chastotasi bilan muayyan ma’lumot uzatish yoki qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, shartli alomatlar negizida mazmun yoki mohiyat yotadi (“doza”, “porsiya” deb nomlanadi). Morze alifbosi va shunga o‘xshash hozirgi zamon aloqa qurilmalari qo‘l yordami bilan (asbobni bosish orqali) xabar uzatishga yoki qabul qilishga mo‘ljallangan. Hozirgi zamon ratsiyalari ham xuddi shunga o‘xshash kommunikatsiya quroli vazifasini bajaradi.

Noverbal nutqning yana bir turi daktiologik (barmoq) nutq deb ataladi. Inson tana a’zolari, imo-ishoralar, mimika, xullas hissiyot yordami bilan muomala o‘rnatishga qaratilgan aloqa vositasi daktiologik nutq deyiladi. So‘z orqali ifodalanuvchi nutq mazmuni ma’noli qo‘l, yuz harakatlariga, ayrim hayajonli sadoga, qahr-g‘azab, iliq tabassum, qahqahaga ko‘chiriladi.

Harakatning takrorlanishi axborot mazmunini boyitadi, kuchaytiradi, ma'lumotlar uzlusizligini ta'minlab turadi. Umumbashariy xususiyatlari nutq vositasi daktiologiya fani nomi bilan yuritiladi va maxsus o'qitish, o'rgatish orqali undan foydalanish ko'nikmasi hamda malakasi soqov yoki kar-soqov odamlarda shakllantiriladi. Hatto ularda savod chiqarish ham xuddi shu tamoyil negizada quriladi. Tabiat va jamiyatga nisbatan munosabat, shaxslararo muomala, ma'lumot almashish shu nutq yordami bilan ifodalanadi.

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika, v) pantomimika, g) daktiologik; 2) tovushli: a) exologik (aks sado), b) signifikatsiya(shartli belgilar, signallar, modellar).

Verbal nutq turkumini shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) og'zaki, 2) yozma, 3) monologik, 4) poliologik, 5) tashqi, 6) ichki, 7) ekspressiv, 8) impressiv, 9) lakonik (qatra, yig'iq), 10) epik (yoqiq), 11) affektiv (jahl holatidagi).

Insonning ijtimoiy- tarixiy taraqqiyoti davri tahlil qilinganda genetik kelib chiqish jihatidan birlamchi qatorida og'zaki nutqni keltirish joiz. Og'zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo'lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko'rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, poliologik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig'iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Pauza, mantiqiy urg'u, temp, tembr, chastota, ritmika va boshqa tashkiliy qismlar hamda mexanizmlarni o'zida mujassamlashtirgan, tilning barcha qoidalari, qonunlari, shartli belgilar sifatida xizmat qilishga asoslanuvchi nutq turi og'zaki nutq deb ataladi.

Noverbal nutq o'zining asosiy funksiyasini bajarib bo'lganidan so'ng (uning ma'lum tarkiblari faoliyat ko'rsatishda davom etib kelmoqda) axborot uzatish, tajribalarni egallah, insonni kamol toptirish va shunga o'xshagan vazifalar tabiiy ravishda og'zaki nutq zimmasiga yuklangan. Jarangli, jarangsiz faol, sust, his-hayajonli, monoton, yuksak sur'atli, shivirlash ko'rinishidagi

og‘zaki nutq xususiyatlari va qonuniyatlarini o‘zida mukammallashtirgan holda aloqa quroli, vositasi tariqasida muomala tarkiblarini aks ettiradi. Kommunikativ xususiyatli axborotlar oddiy xabar, so‘rov, undov ma’nosini anglatuvchi ma’lumotlar og‘zaki nutqning murakkab hamda rang-barang tuzilishiga ega ekanligidan dalolat beradi. Og‘zaki nutq shaxslararo munosabatning puxta negizini tashkil etib, maqsadga yo‘naltirilgan yoki tasodifiy vaziyatlar mohiyatidan kelib chiqib uzoq ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davrida o‘z ustuvorligini saqlab kelmoqda. Tilning takomillashuvi bevosita og‘zaki (jonli tilda) nutqda namoyon bo‘ladi, iste’molda eskirgan so‘zlar eski (arxe) tushunchalar, atamalarga aylanib boradi. Xuddi shu bois millatga xoslik mavjudbo‘lsa-da, lekin shaxslarni o‘zaro katta tarixiy davr a

jratib tursa, u holda bir-birlarini to‘liq tushunish qiyinlashadi. Xuddi shunday holatni geografik muhit, xududiy farq, lahjalarga oidlik, shevalar, etnik alohidilikni keltirib chiqaradi, ammo axborotlarni idrok qilish va tushunishdagi bunday qiyinchiliklarni adabiy til birligi bartaraf qiladi (Xorazm, Namangan shevasi va hokazo).

Og‘zaki nutq o‘zining jarangdorligi, ta’sirchanligi, axborotlarni qabul qilishdagi qulayligi, uzatilishdagi ixchamligi, toliqishning oldini olish imkoniyati mavjudligi uning keng qirrali ekanligini bildiradi.

Og‘zaki nutqning dastlabki turidan biri – bu monologik nutqdir. YAkka shaxsning ichki kechinmalarini til mexanizmlariga asoslangan holda aks ettiruvchi, uning o‘ziga qaratilgan (egotsentrik), ta’sirlanishini ifodalashga va axborot uzatishga mo‘ljallangan nutq turi monologik nutq debataladi. Unda shaxsiy his-tuyg‘ularning ichki va tashqi shakllari uyg‘unlashadi, shuningdek, o‘zgalar fikrini ifodali o‘qishda ham o‘z aksini topadi. Odatda monologik nutqda fikrlar qisqartirilmaydi, mabodo bu qoida buzilsa, axborot ma’nosini tushunish qiyinlashadi. His-hayajonning tashqi va ichki kechinmalari hamda ularning mexanizmlari aniq, ravon, izchil aks ettiriladi.

Diada shaklidagi munosabatlar negizada quriluvchi, ikki shaxs o‘rtasida namoyon bo‘luvchi, axborot uzatishga va qabul qilishga mo‘ljallangan nutq turi

dialogik nutq deb ataladi. Uning monologik turidan farqli tomoni fikr mohiyati nutq faoliyati qatnashchilarida anglangandan keyin u yoki bu shaklda qisqartirish imkoniyatiga ega. Uning interaktiv tomoni ko‘pincha ustuvorlik qiladi, axborotlar qabul qilish va uzatish o‘zaro tushuncha asosiga quriladi, aks holda muomala maromi buziladi, o‘zaro fikr almashuv muddatdan oldin yakunlanadi.

Bir nechta kishilar bilan amalga oshirish mo‘ljallangan, triada va poliada negiziga quriluvchi, axborot uzatish va qabul qilishga yo‘naltirilgan, bahs tarkiblari ishtirok etuvchi og‘zaki nutqturiga polilogik nutq deyiladi. Muomalada muammo mohiyati har qaysi qatnashchi tomonidan anglashilgandan so‘ng uning tarkiblari qisqarishi mumkin, bu esa o‘zaro tushunuvni osonlashtiradi. Mazkur nutq turida ham dialogik nutqqa xos bo‘lgan mexanizmlar, ta’sir o‘tkazuvchi vositalar ishtirok etib, uning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi, shaxslararo munosabat ko‘lамини kengaytiradi.

Artikulyasion apparat orqali vujudga keluvchi, verbal holatlarda aks etuvchi, o‘zgalarga yo‘naltirilgan, har xil xususiyatlari vaziyatlarda namoyon bo‘luvchi nutq turiga tashqi nutq deyiladi. Tilning barcha qoidalari va qonuniyatlari unda mujassamlashgan bo‘lib, uzati va qabul qilish, idrok etish va tushunishdan iborat muomala quroli, vositasi vazifasini ijro etadi. Nutq tempi, tembri, ritmikasi va chastotasi mavjudligi uchun axborotlarni tinglash va idrok qilish engilroq kechadi.

Muayyan axborotlarni tartibga keltirish, g‘oyalarni yaratish, fikriy dasturni ishlab chiqishga mo‘ljallangan, lekin latent davridagi ma’lumotlar majmuasidan tuziluvchi nutq turi ichki nutq deyiladi. Ichki nutqning muhim xususiyatlaridan biri – bu ko‘lam jihatdan tashqi nutqdan kengroq ekanligidir. Ikkinchisi bir xususiyati esa tafakkurning mexanizmi funksiyasini bajarishdir.

Axborotlar ichki mohiyatini tashqi his-hayajon tarkiblari bilan kuchaytiruvchi, shaxslararo munosabatlarning yaqqol ifodalanishini aks ettiruvchi, ovozli, til vositalariga asoslanuvchi nutq turiga ekspressiv nutq

deyiladi. O‘zining tezkorligi va vaziyatbopligi bilan boshqa nutq turlaridan ajralib turadi.

Ichki kechinmalar shaxsiy fikrlash bilan uyg‘unlashishi tufayli fikriy bog‘lanishni vujudga keltiruvchi holatlar, hodisalar mohiyatini ichki va tashqi omillarga asoslanib aks ettiruvchi nutq turiga impressiv nutq deyiladi. Mulohazalar mohiyati shaxs kechinmalari bilan munosabatga kirishishi natijasida o‘ziga xos voqelikni namoyish qiladi.

Insoniyat tarixining sivilizatsiyalik bosqichiga o‘sib o‘tishi davridagi e’tiborga yozma nutq paydo bo‘la boshlagan va hozirgacha u o‘z rivojlanishida davom etmoqda. Tilning barcha qoidalariga (grafik, morfologik, sintaksistik, leksik, orfoepik, lingvistik, fonemetik, fleksiv va hokazo), qonuniyatlariga, mexanizmlariga (jonli ifodalarni mujassamlashtirgan holda) asoslangan tarzda, muayyan shartli alomatlar (grafiklar) yordamida shakl, tuzilishi, ma’no, mazmun va mohiyatni uzlucksiz, tadrijiy ravishda axborotlarga aylantirib beruvchi nutqturi yozma nutq deyiladi.

Har bir tilning to‘la mohiyati yozma nutq orqali ifodalanadi, uzoq va yaqin masofalar uchun axborot (kommunikatsiya) vositasi (quroli) vazifasini bajaradi. Millat madaniyati, ma’naviyati, fan va texnikasi, san’ati va adabiyoti yozma nutq orqali uzatilib, millatlararo aloqa kanali funksiyasini ado etadi.

YOzma nutq o‘z navbatida quyidagi tarkiblardan tashkil topadi: a) monologik (drama), b) dialogik (badiiy asar janrlarida), v) ichki, g) lakonik (yig‘iq, qatra), d) epik (yoqiq, yirik roman, qissa va boshqalar).

YOzma nutqning monologik va dialogik turlari badiiy asarlarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, og‘zaki nutqdagadan farqli o‘laroq til boyliklariga bevosita asoslanadi. YAngiliklar yaratish, ijod qilish so‘zlar orqali mohiyat kasb etadi, u yoki bu shakldagi tartibga keltiriladi. Lakonik (yig‘iq, qatra) nutq ham og‘zaki nutqdagiday ma’no kasb etadi. Epik (yoqiq) nutq yirik asarlar, monografiyalar mohiyatini to‘laqonli aks ettirish bilan boshqa nutq turlaridan farqlanadi. Til mexanizmlaridan tashqari badiiy vositalar orqali inson ruhiyati tavsiflanadi.

Bizningcha, his-hayajonlar orqali ifodalanuvchi, muayyan axborotlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi nutq turlarini quyidagi tiplarga shartli ravishda ajratish mumkin: ekspressiv, impressiv, affektiv, daktiologik va boshqalar.

Ularning psixologik mazmuni, mohiyati, xususiyatlari to‘g‘risida yuqorida mulohazalar bildirilganligi uchun qaytatdan tahlil qilish, tavsiflashga hech qanday hojat yo‘qdir. Lekin mazkur nutq turlari boshqa turkumlardan ham joy olishi mumkin. biroq ilmiy jihatdan hech qanday qarama-qarshiliklar vujudga kelmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldirishda xizmat qiladi, xolos.

Nutq va nutq faoliyati yuzasidan bildirilgan mulohazalar, ilgari surilgan ayrim g‘oyalar mutlaqlikka davo emas, albatta, chunki ularning ko‘pgina jihatlari, qirralari, mexanizmlari, qonuniyatlari, tavsiflari chuqurroq izlanishni talab qiladi, ayrim o‘rinlarda ularning har birini eksperimental tadqiq etishni taqozo qiladi, yangi metodikalar, testlar, treninglar ishlab chiqishni izlanish predmetiga olib kiradi, amaliy va nazariy muammolar echimini tezroq hal qilishga safarbar etadi, nutqning muomala jarayonidan kelib chiqib yondashash evaziga qiymatli materiallar to‘plash mumkin hamda uning negizida har qaysi psixolog mutaxassisni notiqlik san’atiga o‘rgatish kadrlar tayyorla sifatini oshirishga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Kasbiy-pedagogik muloqot uslubi va uning turlari.

Biz ko‘z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o‘sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo‘lgan damlarimiz esda qolsa, iz qolsa, demak , bu muloqot uslubiga bog‘liq. Pedagog kommunikativ muloqotini mahsuldor bo‘lishi uchun u pedagogik ta’sir kuchining tizimlarini, uning har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida o‘qituvchi qaysi usulni qo‘llayotganini doimo eslab turishi kerak. Buning uchun pedagog ikkita muhim muammoni hisobga olishi:

- o‘zining hatti-harakatini to‘g‘ri tashkillashtirishi;
- kommunikativ ta’sir samaradorligini ta’minlashi zarur.

Pedagogik faoliyat jarayonidagi muloqotning quyidagicha tavsiflash

mumkin:

- 1) o‘quvchi va pedagog muloqoti tizimining umumiyligi tuzilishi(muloqotning aniq usuli);
- 2) pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo‘lgan muloqot tizimi;
- 3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni echishda namoyon bo‘ladigan muloqotning vaziyatli tizimi.

Pedagog va ta’lim oluvchilarining ijtimoiy-psixologik ta’sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin:

- a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari ;
- b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlar tabiat;
- v) pedagogning ijodiy individualligi;
- g) o‘quvchilar jamoasining xususiyatlari. (Kan-Kalik.Uchitelyu o pedagogicheskom obhenii. 97-bet).

Muloqot uslublariga quyidagilar kiradi:

1. Hamqorlikdagi ijodiy faoliyatga qiziqish asosidagi muloqot.
2. Do‘stona munosabatlar asosidagi muloqot.
3. Masofadan turib muloqotga kirishish.
4. qo‘rqtish(qo‘rquv) asosidagi muloqot.
5. YOlg‘on obro‘-e’tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot.

Birinchi uslub asosini pedagogning yuqori kasb etikasi tashkil etadi.Bu uslub haqida M.O.Knebel, I.P.Volkov, V.F. SHatalov kabilar o‘z fikrlarini bildirganlar. Ularning fikricha, bolalar bilan bo‘ladigan munosabat va pedagogik hissiyotlar mana shu uslub asosida shakllanadi.

Ikkinci uslub asosan do‘stona munosabatlar, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatda shakllanadi. Do‘stona munosabatlar muloqotning boshqarilishini ta’minlaydi.Maroqliliq bilan do‘stona munosabat birgalikda rivojlanadi.Pedagog bir tomonidan bolalar uchun yaqin o‘rtoq, ikkinchi tomonidan birgalikdagi faoliyat qatnashchisi bo‘lishi lozim.

Uchinchi uslub, ya’ni masofadan turib muloqotga kirishish muhim ahamiyatga ega. Pedagog bilan o‘quvchi o‘rtasida ma’lum bir masofa bo‘lishi

kerak. Masofa juda uzoq bo‘lmasligi lozim. Aks holda rasmiyatchiliq ko‘chayib, ijodiylik muhiti shakllanmaydi. Pedagog masofani saqlasa obro‘-e’tibori ortadi.

To‘rtinchi uslub-qo‘rqtish asosidagi muloqot bo‘lib, bu uslub muloqotning negativ shaklidir. Ba’zi pedagoglar o‘quvchilarni qo‘rqtish orqali muloqotda bo‘ladilar. CHunki ularda pedagogik mahorat yaxshi shakllanmagan bo‘ladi. Ayniqsa katta auditoriyada ma’ruza o‘qiydigan ma’ruzachilar auditoriyani shu uslub asosida boshqaradilar. Juda qattiq turib, tinglovchilarni qo‘rqtib pedagogik muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshiraman deb hisoblovchilar yanglishadi. Bu o‘zaro tushunishga to‘sinqinlik qiladi.

Beshinchchi uslub-yolg‘on obro‘-e’tibor qozonish uchun tashkil qilinadigan muloqot bo‘lib, yosh o‘qituvchilar malakasi etarli bo‘limgani uchun yolg‘on ishlatadilar. Bu bilan o‘qituvchi o‘quvchi bilan tezroq muloqotda bo‘lib olishga harakat qiladi. Bunday usulni qo‘llaydigan pedagogda umumiy pedagogik va kommunikativ madaniyat etishmaydi. Demak, pedagoglarning fikricha, birinchi va ikkinchi uslub asosida muloqotga kirishishi yaxshi natijalarga olib keladi.

Kasbiy-pedagogik muloqot texnikasi va treningi

Kasbiy-pedagogik muloqotning 5 ta bosqichi bor. Bo‘lar quyidagilardir:

1. Muloqot jarayonida orientirovka(mo‘ljal olish) qilish. Bu bosqichda pedagog muloqotining anglanganligi yuzaga chiqadi. SHuningdek, muloqot uslubini yangi kommunikativ faoliyat sharoitida aniqlash ham yuzaga chiqadi.

Taniqli psixolog SH.A.Amonashvili bolalarni maktabga kelmasidan avval ularga hat yozgan. Masalan, “salom, qadrli.... Men sening o‘qituvchingman. Mening ismim SHalva Aleksandrovich. Maktabga kirayotganing bilan tabriklayman. Umid qilamanki, sen bilan do‘sit bo‘lib ketamiz. Seni 35 ta o‘rtog‘ing bo‘ladi. Seni sinfda kutaman. ”Demak, bu erda o‘quvchiga orientatsiya (mo‘ljalga olish), ustakovka(ko‘rsatma) berilyapti.

O‘z ustida ishslashda pedagogik muloqotning quyidagi bosqichlariga e’tiborni qaratish lozim:

— bolada yaxshi taassurot qoldirish uchun tashqi ko‘rinishingiz haqida

o‘ylang;

- bugo‘ngi kun talablaridan kelib chiqqan holda muloqotning bu bosqichini e’tibordan chetda qoldirmang;
- boshqalar bilan muloqotda keskin burilishga yo‘l ko‘ymang;
- bugo‘ngi muloqot ko‘ngildagidek bo‘lmasa uni tuzatishga harakat qiling;
- darsda qaror qabul qilishda improvizatsiya(vaziyatni yaratish, real hayotda bor narsani ko‘rsatib vaziyatdan chiqish) ga harakat qiling;
- auditoriya bilan ish boshlashdan avval faqat o‘zingizning pedagogik masalalaringiz haqida emas, balki bolaning holati, faoliyatga tayyorligi haqida o‘ylang.

2. Pedagogik faoliyatning muhim jihatni e’tiborni o‘ziga tortish bo‘lib, bola bilan samarali muloqotni amalga oshirish uchun dars jarayonida bolaning diqqati barqaror bo‘lishi kerak. O‘ziga jalb qilishning quyidagi usullari mavjud:

- verbal muloqotda bo‘lish(nutqiy);
- tanaffus qilish ;
- harakatli(doskaga yozish, ko‘rgazmani osish) ;
- aralash usul (yuqoridagilarni birgalikda qo‘llash).

Darsda ko‘pincha aralash variant usulidan foydalilanadi. Olimlarning fikricha, 40% (yuz ifodasi) va imo-ishoralar orqali ma’ruzada axborot beriladi.

3. Ob’ektning (kishi) kalbini zabit etish bosqichi pedagogik muloqotni tashkillashtirishda katta ahamiyatga ega. Mohiyati jihatidan bu bosqich kommunikatsiyani o‘ziga xos izlash bosqichidir. Masalan, yangi materialni bayon etishda pedagog bolalarni muloqotga tayyorlab oladi. O‘qituvchining o‘quvchini tushunishi kasbiy-pedagogik muloqotning kaliti hisoblanadi.

4. Pedagogik muloqotning yana bir bosqichi bu verbal muloqot, ya’ni o‘qituvchining yangi materialni o‘quvchilarga og‘zaki bayon qilib berishidir. Pedagog uchun nutq muloqoti juda muhim. Pedagogik muloqot tizimida pedagogning so‘zi obrazlar qo‘zg‘atuvchisi bo‘lib hisoblanadi.

5. Pedagog bilan tinglovchi o‘rtasidagi o‘zaro harakatda hayajonlanishni

o‘zatishning kommunikativ vositalari muhim rol o‘ynaydi. Jumladan, pedagogning nutqi jonli, ohanglarga boy, tushunarli, aniq, sodda tilda bo‘lishi kerak. SHunda tinglovchilarning idroki to‘liq, obrazli bo‘ladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Nutq va kasb deganda nimani tushunasiz?
2. Nutq faoliyatining fiziologik mexanizmlarini izohlang?
3. Nutq vujudga kelishining nazariyalarini izohlang?
4. Nutq turlarining psixologik tavsifini gapiring?
5. Noverbal nutq turini tasvirlang?
6. Verbal nutq turkumini aks ettiring?
7. Kasbiy-pedagogik muloqot uslubi va uning turlarini gapiring?.
8. Kasbiy-pedagogik muloqot texnikasi va treningini tushuntiring?

TEMPERAMENT VA KASBNI EGALLASH MASALALARI

Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari

SHaxsnинг individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug‘ma, biologik xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi. CHunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mayjudot bo‘lsa, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug‘ma sifatlarni o‘zichiga olgan substrat - individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik - o‘zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta’minlovchi sifatlarini o‘zichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo‘ladi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emotsiyal holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta’minlaydi va shu nuqtai nazardan **temperament - shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o‘zgaruvchan) va emotsiyal - hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.** karaganda

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ularning namoyon bo‘lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o‘zini turlichcha tutadi: oliv o‘quv yurtida talabalar safiga qabul qilganligi to‘g‘risidagi axborotni eshitgan bolaning o‘zini tutishi, yoki hayotning ogir sinovlari (yaqin kishining ulimi, ishdan haydalish, do‘sning xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. SHuning uchun ham ikkala vaziyatni ham kimdir og‘ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o‘zini yo‘qotgudek darajada his-hayajon bilan boshidan kechiradi. SHuning uchun ham temperamentning shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o‘ziga xos mavqeni egallashidagi ahamiyati juda katta. O‘zini bosib olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr-bardosh bilan ko‘taradigan insonning odamlar orasidagi obro‘sni ham baland bo‘ladi. Bu uning o‘z-o‘ziga nisbatan hurmatini ham oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishiga imkon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihat shundaki, u hayotiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarni «yaxshi - yomon», «ahamiyatli - ahamiyatsiz» mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. YA’ni, temprament odamning ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan «sezgirligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi.

Temperamental xususiyatlar aslida tug‘ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo‘lgani uchun ham ma’lum ma’noda o‘zgarib boradi. SHuning uchun ham tug‘ilgan chog‘ida sangvinikka o‘xhash harakatlar namoyon qilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo‘lmaydi. Demak, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Akademik I. Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliv nerv tizimi xossalari ajratgan edi:

■ **k u ch**, ya’ni nerv tizimining kuchli ko‘zgatuvchilar ta’siriga bardoshi, shunga ko‘ra odamlardagi mehnatga yaroklilik, chidam kabi

sifatlarning namoyon bo‘lishi:

■ **m u v o z a n a t l a s h g a n l i k**, ya’ni asabdagi tormozlanish va ko‘zgalish jarayonlarining o‘zaro mutonosibligi, shunga ko‘ra, o‘zini tuta olish, bosiqlik kabi sifatlar va ularga teskari sifatlarning namoyon bo‘lishi;

■ **x a r a k a t c h a n l i k**, ya’ni ko‘zgalish va tormozlanish jarayonlaridagi o‘zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi ma’nosida. Quyidagi rasmda nerv jarayonlari bilan temperament tiplari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik asosida temperament tiplari aks ettirilgan.

SHunday qilib, asab tizimi bilan bog‘liq individual sifatlarni bilish shart, chunki ular bevosita mehnat va o‘qish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Asabga bog‘liq bo‘lgan tabiiy xususiyatlarmizni ham umuman o‘zgarmas deb aytolmaymiz, chunki tabiatda o‘zgarmaydigan narsaning o‘zi yo‘q. SHuning uchun ham oxirgi yillarda o‘tkazilayotgan tadqiqotlarda shaxs tizimida shunday ma’kul, «hayotiy ko‘rsatgichli» xususiyatlar tizimini o‘rganilmoqda va unda temperamentga aloqador sifatlar ham nazarda tutilmoqda. Masalan, V.S. Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo‘lishini boshqarish masalasida ko‘p ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud bo‘lgan faollik, bosiklik, emotsiyal tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo‘lishi va o‘zgaruvchanligi, qayfiyatning turgunligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo‘lishi kabi qator sifatlar asosida shaxsdagi o‘sha ekstroversiya va introversiya xossalari yotadi va ularni ham o‘zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin.

SHulardan kelib chiqqan xolda shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni ustirishda ayni shularga e’tibor berish kerak. Masalan, ba’zilar xoleriklarga o‘xshash qiziqkon, tezkor bo‘lishadi. Uning mehnat jarayonidagi ishini kuzatadigan bo‘lsak, faollik, ishni tez bajarishga layoqt ijobiy bo‘lsa, uning sifati, chala tashlab ketish havfi, ba’zi tomonlariga yuzaki qarashi kishini uylantiradi. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, hayotda sof

temperament ham bo‘lmaydi va u yoki bu temperament tipi juda yaxshi ham emas. har bir tipning o‘ziga xos nozik, kuchsiz tomonlari va shu bilan birga kuchli, ijobiy tomonlari ham bo‘ladi.

Xarakter va shaxs

Kundalik hayotimizda tilimizda «xarakter» so‘zi eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlardan. Uni biz doimo birovlarga baho bermoqchi bo‘lsak, ishlatamiz. Bu so‘zning ma’nosini olimlar «bosilgan tamg‘a» deb ham izoxlashadi. Tamg‘alik alomatlari nimada ifodalanadi o‘zi?

Xarakter - shaxsdagi shunday psixologik, sub'ektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borlikka, odamlarga, predmetli faoliyatga hamda o‘z-o‘ziga munosabatini ifodalaydi. Demak, «munosabat» kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F. Lomovning ta’biricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o‘rganish katta ahamiyatga ega. Munosabatlarning xarakterdagи o‘rni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki komponentni ajaratadi:

a) **emotsional - kognitiv** - borlik muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o‘zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;

b) **motivatsion - irodaviy** - ma’lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma’lum ma’no va mazmun kasb etgan munosabatlar bo‘lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo‘ladi.

Mashxur rus olimi , psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L. Rubinshteyn shaxsning o‘ziga xosligi va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi;

Munosabatlar va yo‘nalish shaxdagi asosiy ko‘rinishlar sifatida - bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xoxlashi.

Qobiliyatlar ana shu tilak-istiklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida - bu odamning nimalarga qodir ekanligi.

Xarakter imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg‘un, barqaror tendensiyalar, ya’ni bu odamning k i m ekanligi.

Bundan tashqari ilm olamida juda ko‘plab urinishlar bo‘lgan. Ularda odamning turli tabiiy, tug‘ma xususiyatlariga xarakterni bog‘lashga urinishlar bo‘lgan. Masalan, *fizionomika* odam yuz qirralari va ularning bir-biriga nisbati orqali, *xiromantiya* - qo‘l barmoqlari va kaftdagи chiziqlar orqali, ko‘z rangi va qarashlar, soch va uning xususiyatlari orqali o‘rganishga harakat qilingan. Juda katta shov-shuvga ega bo‘lgan CH. Lombrozo, E. Krechmer, U. SHeldonlarning *konstitutsion nazariyaları* shaxs xarakterini uning tashqi ko‘rinishi, tana tuzilishi bilan bog‘lab tushuntirishga o‘ringan. Bu nazariyalar juda qattiq tanqidga ham uchragan, lekin keltirilgan material, korrelyasion tahlillar ma’lum jihatdan individual xususiyatlardagi tug‘ma, mavjud sifatlar bilan xarakterologik sifatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik borligini isbot qilolgani uchun ham bu nazariyalar shu vaqtgacha o‘rganiladi.

SHaxsning individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasiga qobiliyat, temperament, xarakter kiradi. Qobiliyat maxsus va umumiy turlarga, layoqat, iqtidor, iste’dod kabi psixologik tuzilmadan iboratdir. Temperamentlarni chuqr bilish va ularning amaliyot uchun ahamiyati bayon etilgan. Talaba-yoshlardagi qiziqishlarni diagnostika qilish yo‘llari ko‘rsatilgan. Individual psixologik xususiyatlarning kasb mahorati va shaxs barkamolligi bilan bog‘liqligi ochib berilgan. YOshlarni mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiyalash va milliy g‘oyani shakllantirishning barkamol avlod tarbiyasidagi o‘rni keltirilgan.

Psixologiya fanida bu sohada muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, o‘ziga xos yondashishlar amalga oshirilgan. B.V.Kulaginning fikricha, **KASBNI EGALLASH** deganda odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yo‘naltirish, nomzodlarni (da’vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini echish tushuniladi.

Individuallikning mohiyatini tushunishga umumiy yondashish kasbga saralash muammosini hal qilishda bevosita ahamiyatga ega. Ma’lumki, kasbga

layoqatlilikni tashxis (diagnoz) qilish insonning kasbiy xislatlarini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur jarayonda qiyosiy tahlil orqali shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining mustaqil mezoni darajalari aniqlanadi. Hozirgi zamon psixologiyasining ma'lumotlariga qaraganda, tashxis (diagnoz) qilish modeli muayyan matematik algoritmga asoslanadi. Guruh uchun o'rtamiyona shaxs imkoniyati tanlanganligi faqat statistik samaraga ega, xolos. Bunday model tashxis (diagnoz) qilishda cheklanganlikka ega bo'lib, tashxisning mutlaq aniqlik darajasidan quyiroqdir.

Kasbiy faoliyatni tahlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilish mumkin emas, ya'ni professiografiya mohiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur. qaqat shundagina faoliyatli yondashuv amalga oshirilib, uning harakatlari va operatsiyalari testlar yordamida baholanishi mumkin. Chunki harakatlar, operatsiyalar mazkur faoliyatning tarkibini tashkil qiladi, ularning qiyosiy tavsifini egallash jarayonini osonlashtiradi, unga layoqatli odamlarni tanlashga negiz yaratadi. qo'liyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun testlarni saralash, asoslash uning muvaffaqiyati o'lchovi, mezonini aniqlashga imkon beradi. Professiografiya, (professiogramma) natijalarini umumlashtirish natijasida kasblarni tasniflash (klassifikatsiyalash) imkonи vujudga keladi.

Kasbiy faoliyatning tahlili maqsadga yo'naltirilgan va tashkiliy jarayon hisoblanib, u uch bosqichdan tashkil topgan bo'ladi: a) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar to'plash; b) olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish hamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish; v) amaliy va nazariy masalalarni echish uchun professiogrammadan foydalanish (kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baholash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash va boshqalar).

Kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar (axborotlar) turli manbalardan olinishi mumkin:

1. Muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish katta ahamiyat kasb etadi.

2. Kasbiy faoliyat to‘g‘risida ma’lumotlar to‘plashning asosiy metodlaridan biri bo‘lib suhbat – intervyyu hisoblanadi. Mutaxassislar bilan standart yoki nostandard tarzda intervyyu uyushtirish samarali natija beradi.

3. Ba’zan kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabhalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar yoki varaqlardan ham foydalaniladi.

4. Kasb – hunar to‘g‘risidagi ma’lumotlar (axborotlar) umumlashtiriladi va har xil shakllarda mutaxassislar hukmiga havola qilinadi.

Kasbiy faoliyat shaxsning munosabat va motivlaridan iborat bo‘lib, harakatlar va operatsiyalarni nazorat qilish hamda boshqarishni qamrab oladi. Ҷаoliyatning dinamik xususiyatlarini o‘rganish uchun unga ko‘pyoqlama yondashishni amalga oshirish zarur. Ҷаqat motivatsion va regulyativ jahbalarini hisobga olish bilan kasbiy faoliyat mohiyatini tavsiflab bo‘lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jihatlar bilan bog‘liq tomonlarini ham tadqiqot predmetiga kiritish lozim.

Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta’minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishuvini tavsiflovchi har xil ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan uquvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko‘rsatkichlari uning hamkorlik faoliyatiga qo‘sghan hissasi qo’llaniladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- 1) Samaradorlikning to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatkichlari: sifat, ishlab chiqarish salmog‘i;
- 2) Kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar;
- 3) Kasbiy layoqatini ifodalovchi ma’muriy tadbir va choralar: intizomga taalluqli choralar, mukofotlash, xizmat lavozimidan ko‘tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stendga joylashtirish;
- 4) Kadrlar qo‘nimsizligi;
- 5) Noxush holatlar (kechinmalar) va shikastlar (halokatlar);
- 6) Faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o‘zini o‘zi baholash kabilar.

YUqorida bayon qilingan mezonlar ma'lum talablarga javob berishi shart. Mezonlarning relevantlikligi (adekvatligi, validligi) deganda samaradorlik ko'rsatkichi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi.

Tanlab olingan mezonlar kasbiy faoliyatning barcha nufuzli tomonlarini aks ettirish lozimligi, ya'ni mezonlar to'laqonligi. Ular mutaxassislarning kasbiy layoqatining yuksakligi va quyidagi darajalarini farqlashga xizmat qilishi joiz (mezonlar diskriminativligi). Mezonlar xislatini ochishga yordam beruvchi uning omilkorligi, ya'ni amaliy jihatdan qulayligi muhim o'rin egallaydi va u o'zining soddaligi, kam mehnat talab qilishligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kasbiy layoqatni (yarog'lilikni) aniqlashda odatda nazorat, sinash natijalari qo'llaniladi (masalan, duradgorning ish sifati, tezkorligi, vaziyatni payqashligi va boshqalar). Ko'pincha mutaxassisning layoqati ma'muriy hujjatlarda o'z ifodasini topadi (muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi qayd qilinadi). Ba'zan kasbiy layoqatni o'rganishda baxtsiz hodisalar (haydovchi, uchuvchi, mashinist, operator va boshqa kasb egalarida) hisobga olinadi va shaxsning individual xususiyatlari baholanadi.

Kasbiy layoqatni aniqlashda uquvchanlik kategoriyasidan (bilim olishga nisbatan zehnlilik) foydalaniladi va o'zlashtirish tezligi, kasbiy tayyorgarligi, erishgan natijasi mezon rolini o'ynaydi.

Psixologiya fanida kasbiy muvaffaqiyat, mahoratning qirralari ekspert baholash metodi yordami bilan o'lchanadi. Buning uchun balli shkala, juft (qo'sh) taqqoslash, tartibga keltirish (ranjirovka qilish) metodlari qo'llaniladi.

SHkalaning sodda ko'rinishi ball bilan baholashga mo'ljallangan. SHkalani baholash o'ziga 5 tadan 7 tagacha gradatsiyani qamrab oladi. Miqdorning kamligi uning differensiatsiyasini yanada kuchaytiradi, farqlar aniqligini ta'minlaydi.

Ba'zi hollarda balli baholash grafik shkala tarzida ham uchraydi (kesma, shakl, parametrik ko'rinishi va hokazo). Lekin balli shkala kasbiy muvaffaqiyatni baholashda ayrim nuqsonlarga ham ega. Ayniqsa, chet el psixologiyasida qo'llanilib kelinayotgan «galo-effekt» metodikasi bunga yaqqol

misoldir. Baholanuvchi bilan baholovchi munosabati bir nechta mustaqil shkalalar negizida umumiylikka bog‘liq tarzda baholanadi. Natijada shaxsning xilma-xil xususiyatlarini differensiyalash imkonи yo‘qoladi, yuzaki baholanish jarayoni yuzaga keladi. Buning oqibatida orttirilgan va pasaytirilgan baholash tiplari, ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi.

Ammo, balli shkala baholash tizimini takomillashtirish uchun uning barcha bosqichlardan, tarkiblardan tuzish ma’qul. Ҷаqат shundagina yaqqol misollar, namunalar negizida kasbiy faoliyatning turlicha samaradorligi namoyon bo‘ladi.

Jahon psixologiyasida keng qo‘llanilib kelinayotgan metodlardan biri – bu kritik insidentdir. Muayyan o‘lchamlarga asoslangan holda ajratilgan insidentlar tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi), ya’ni tahlil qilish orqali insident xususiyati aniqlanadi. Ikkinci bosqichda (u «pretranslyasiya» deb ataladi) birinchi bosqichdagi mezonlarga asoslanib yangitdan tasnif qilinadi.

Kasbiy layoqatni o‘rganishning yana bir metodi tartibga keltirish (ranjirovka qilish) deyiladi. Har xil vaziyatlarda kuzatilgan shaxslar kasbiy layoqati darajasiga qarab muayyan tartibga solish, jihozlash mumkin. Birinchi rang darajasiga kiritish uchun kasb sub’ekti kasbiy mahoratning maksimal ko‘rsatkichini namoyish qilishi lozim. Kamroq muvaffaqiyatga erishsa, u navbatdagi rangga o‘tkaziladi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlarini gapiring?
2. Akademik I. Pavlovning oliv nerv tizimi xossalari ajratib bering?
3. Xarakter va shaxs deganda nimni tushunasiz?
4. Fizionomika nima?
5. Xiromantiya nima?
6. Grafiologiya nima?
7. Kasbni egallash deganda nimani tushunasiz?
8. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlariga nimalar kiradi?

SHAXSNI KASBIY KAMOLOTI

O‘qituvchilik kasbining umumiylar

Mehnat insonning mavjudligi va taraqqiyoti uchun xizmat qiluvchi muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mehnat ijtimoiy muhitni, sub’ektning faoliyatda shakllanishi va uning ehtiyoji, maqsadi, qadriyatlari tizimi hamda hayot mazmunini anglash vositasidir. Mehnat faoliyati jarayonida inson psixikasi namoyon bo’ladi va rivojlanadi, shu bilan bir qatorda inson shaxs sifatida shakllanib, uning yangi qirralari ochilib boradi. Shaxs va faoliyatning murakkab hamda ko’p qirrali aloqalari shaxsning psixik boshqaruvi, shaxs xarakterini determinasiyalovchi funksiyalar va tuzilishlarning o’ziga xos xususiyatlari, shuningdek, faoliyatning vaqt va makon kabi boshqa maxsus tavsiflari bilan shartlangan.

Bu shaxs - faoliyat tizimi munosabatlar dinamikligini ta’minlaydi, ya’ni o’zaro ko’nikish, shaxs komponentlari va faoliyatga adaptasiyasida namoyon bo’ladi. Bu jarayon nafaqat shaxsning psixik komponentlarini faollashishi, faoliyat maqsadi, vazifalari va mazmunini adekvat ta’minlash tizimini shakllanishi bilan cheklanib qolmasdan, shu bilan bir qatorda shaxsning alohida sifat va o’ziga xos jihatlarining shakllanishi bilan muvofiq ravishda kechadi. Shaxsning faoliyat xarakteri bilan bog’liq ravishda rivojlanish jarayoni qator shaxsiy va faoliyat omillarini o’ziga xosligidan kelib chiqadi. Bu taraqqiyot shaxsning aniq, tipik hayotiy va kasbiy sharoitlarda adekvat hamda ishonchli harakatlarini ta’minlashga, faoliyatni jadallashtirish uchun zarur bo’lgan shaxs tuzilishi va barqaror sifatlarning shakllanishiga yo’naltirilgan bo’ladi. O‘quvchilarни kasbga yo’llashni shakllantirish masalalarini hal qilishda pedagoglar o‘quvchilarning o‘zlariga kasb tanlashda aktivlashtirish zarurligiga ishonch hosil qilmoqdalar. O‘zbekiston olimlari shunday qarorga keldilar: kasb tanlash, shu vaqtda ilmiy asoslangan bo‘ladiki, qachonki shaxsning erkinligi, aktivligi rivojlantirilsa, shaxs bilan mehnat o‘zaro munosabati shu narsaga olib keladiki, shaxsning qobiliyatiga axloqiy kuchi muvaffaqiyat bilan rivojlansa.

O‘quvchining aktiv ishtirokisiz kasbga yo‘llash ishida muvaffaqiyatga erishish qiyin. Kasb tanlashga tayyorlash ishlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi: o‘quvchi shaxsini faolligini oshirish, o‘qituvchi va tarbiyachini kasbga yo‘llash mahoratiga bog‘liq. SHu sababli sistemali, maqsad sari yo‘naltirilgan o‘quvchilarini, ayniqsa yuqori sinf o‘quvchilarini kasbga tanlashga tayyorlash ishlarini olib borish zarur, ularni kasb-mahoratni o‘zlari tanlashini aktivlashtirish kerak. Ushbu muammoni hal qilish o‘quvchini kelajak hayotga tayyorlash ishiga ham anchagina bog‘liq.

Kasbga yo‘naltirish ishlarini yaxshi yo‘lga qo‘yishda kasb-hunar kollejlarining imkoniyatlari anchagina. Mehnat va kasb ta’limining o‘ziga xos sharoitlari /kasb ta’limini tanlash, aniq bir faoliyatda o‘z kuchini sinab ko‘rish, kasb ta’limi ustalari bilan, kasb ishlab chiqarish xodimlari bilan bevosita muloqotda bo‘lib va h.k. yigit va qizlarni kelajak kasbni o‘zi tanlashiga imkoniyatini oshiradi. Bu imkoniyatning samaradorligini mehnat va kasb ta’limi jarayonida o‘qituvchilar, masterlar tomonidan maqsad sari yo‘naltirilgan kasbga yo‘llash ishlari, o‘quvchining faolligini shakllantirish asosida yanada oshirish mumkin.

Kasbga yo‘llashdek murakkab va mashaqqatli, ammo sharafli ishda o‘quvchilarga ilmiy asoslangan maslahatlar berish, ularning shaxsiy qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlarini aniqlashda ushbu shaxsiy –individual yo‘llanmalar (ko‘rsatkichlar) tanlagan kasbiga mos kelish-kelmasligini taqqoslab ko‘rib, to‘g‘ri maslahatlar berishda ishlab chiqarish masterlariga, kasbga yo‘llash bo‘yicha ruhshunos (psixolog) kasb-korga oid konsultantga yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan ishlariga baholi qudrat yordam berish maqsadida ushbu metodik qo‘llanma yaratildi.

Taklif etilayotgan metodik qo‘llanmaning nisbatan ko‘pqirraligi shaxsni psixofiziologik, mediko-biologik diagnostika qilish (aniqlash) va kasb-hunarga oid konsultatsiyalar o‘tkazish, shaxsni individual qiziqish, layoqat va qobiliyatlarini o‘rganish, aniqlash, testli metodikalarni natijalarini

umumlashtirib shu natijalarga qarab o'quvchini kasb tanlashda ilmiy asoslangan maslahat va yo'l-yo'riqlar berish imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda ko'pchilik umumiyl o'rta ta'lim maktablari o'zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay direktor va o'qituvchilar ko'pincha psixologning qo'lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o'zgarmaganini ko'rishgach, ularda «Maktab psixologining o'zi nima keragi bor?» degan tipdagi savollar tug'iladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar etmay qoladi. Maktabga kelib qolgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan domdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik maslahatning umumiyl maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiyl o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har-bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish;
2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik- pedagogik o'rganilishini taminlash;
3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas.

Psixolog maktabda engib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq - bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu, psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi dargumondir.

Psixolog adaptastion davrining qiyin kechishiga bir necha omil sabab bo'ladi. Ko'pincha o'qituvchilar psixologni bolalarni qanday qilib tarbiyalashni, qanday yashashni o'rgatuvchi inson sifatida ko'rib, dastlabki kezlardayoq unga nisbatan salbiy ustanovkani shakllantirib oladilar. O'z- o'ziga ishonchi sust bo'lgan o'qituvchilar psixologni go'yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida idrok etib, uni qandaydir inspektor sifatida qabul qiladilar. Bular esa psixologning maktab sharoitiga tez ko'nikib, maktab hayotiga chuqur singib ketishga halaqit beradi.

Buning oldini olish uchun psixolog o'qituvchilar bilan o'zaro teng munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o'zini bilag'on qilib ko'rsatmasligi, eng muhimi bir-birini raqib deb hisoblamasligi zarur. Shunga erishish kerak-ki, o'qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan boshqa mutaxassis sifatida qabul qilsinlar.

Maktabdagi ilk qadamlardanoq psixolog ma'muriyatga ularning faoliyat doirasiga nimalar kirmas-ligini, mo'jizalar ko'rsatish uning qo'lidan kelmasligini tushuntirishi lozim.

O'qituvchi bilan bo'lgan suhbatda u yoki bu bolaning muammosi psixologik muammo bo'limgani uchun u bo'yicha hech narsa qila olmasligini tan olishdan qo'rmaslik kerak. Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota-onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

1. O'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi.
2. O'z ishining asosiy maqsadi - bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi.

3. O'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lган diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi (axir kasalni tuzatgandan uning oldini olgan ma'qulroq- da) lozim bo'ladi.

SHunday bir kasb borki, jamiyat uchun zarur bo'lган biror mutaxassis uning ishtiroki va mehnatisiz o'z kasbini mukammal egallab chika olmaydi. Bu - o'qituvchilik kasbidir. O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır. CHunki xar kanday odam ham bu murakkab kasbni egallab ololmaydi. O'zbekiston Respublikasi Xalk Ta'lim to'g'risidagi konunda hozirgi zamon o'qituvchisi kaysi sifatlarga ega bo'lishi keraqligi shunday sanab utiladi:- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;

milliy madaniyat va umum insoniy kadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma'naviy barkamol;

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to'g'ri anglagan, e'tikodli fukoro;

ixtisosga doir bilimlarni, psixologik, pedagogik bilim va maxoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;

-O'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi odam bo'lishiga chin kungildanishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga kumaqlashadigan;

-erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan, adolatli, odoblibulmogi darkor.

Bundan tashkari hozirgi zamon madaniyatli kishisi ega bo'lishi kerak bo'lган barcha sifatlarga, jumladan yuksak ma'naviyatga ega bo'lish, fan- texnika taraqqiyoti va undan kundalik turmushda foydalanish yullari bilan qiziqish, o'z xatti-xarakatlari bilin xar jixatdan oilada, maxallada, jamoatchilik urtasida ijobiy namuna bula olish va b.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'qituvchilarga gamxurlik qilishning juda ko'p kirralari mavjud, bular «O'qituvchilar kuni» umumxalk bayrami sifatida nishonlanishi, turli faxriyunvonlar ta'sis etilganligi, maoshi, turli imtiyozlari va x.

zbek xalki kadimdan ustozni e'zozlab kelgan xalk bo'lishi bilan shuxrat kozongan. « Ustoz otangdan aziz », « Usta kanday-shogird shunday », « Ustoz bilimli- shogird ilmli » singari xalk makollarida ham o'z ifodasini topgan.

Texnika taraqqiyotini jadallashtirish va ishlab chikarish samaradorligini oshirish sharoitida odamlarning umum ta'lim va kasbiy tayyorgarligiga xarbir kishining mehnatga eng birinchi ijtimoiy burch sifatida ongli, ijodiy munosabatni shaqlantirishga nisbatan kuyiladigan talablar ham oshib bormokda.

Hozir mamlakatimizda amalga oshirilayotgan umum ta'lim va hunar ta'limini islox qilish tadbirlari, ta'lim to'g'risidagi konun, kadrlar tayyorlash milliy dastur va boshkalar mana shu talablarga javob beradi. Maktab isloxoitini amalga oshirishda o'qituvchi xal kiluvchi rol uynaydi.

SHuni aytish kerakki, milliy dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish sur'atlari ko'pixatdan umum ta'lim va kasb-hunar maktabi o'qituvchisining faolligiga, uning nazariy va amaliy tayyorligi sifatiga va darajasiga bog'liq. Hozirgi zamон ijtimoiy vokeligi zamonaviy ishlab chikarishning ilmiy yo'nalishlarining asoslarini, uni intensivlashtirishning etakchi yo'nalishlarini urganishni yanadapuxtarok yulga kuyishni talab etadi.

O'quvchilarining kompyuter savodxonligini ta'minlashesa, ayniksa zarurdir. Umuman ta'limni ishlab chikarish mehnati bilan kushib olib borish prinsipini yanada tularok ruyobga chikarishga, ta'lim berish samaradorligini oshirishga, yoshlarni mustaqil xayotga va mehnatga tayyorlashni tubdan yaxshilashga, zamonamizning ongli kuruvchilarini tarbiyalashga yanada kat'iyroktarzda erishmok kerak.

Ta'lim to'g'risidagi Konunda o'quv jarayonining asosi xisoblangan darsbilan bir katorda umum ta'lim maktabining yukori sinflarida, akademik litseyva kollejlarda ma'ro'zalar o'qish, seminar va fakultativ mashg'ulotlari utkazish, suxbatlar, praktikumlar, konsultatsiyalar uyushtirish, toki umum ta'lim maktabi, kollej va oliy o'quv yurti ish mazmuni va shaqli urtasida o'zluksizlikni ta'minlash zarurligi ta'kidlab utildi. Bu talablar fan o'qituvchilaridan xar bir

o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidama’lumotga va chukur bilimga ega bo‘lishni: pedagogik muam-molarni prognoz qilish va xal etishning metodik jixatdan asoslangan yullarini kidirib topish, o‘quvchi shaxsiga pedagogik ta’sir kursatishning strategik maxoratini tanlay bilishni takozo kiladi. Birok, o‘qituvchining funksiyasi u dars paytida kursatgan faoliyat bilangina cheklanib kolmaydi. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan darsdan tashkari vaktlarda bajariladigan sinfdan tashkari ishlarni tashkil etadi, sinf, gurux raxbari vazifasini bajara borib, bolalarning ota–onalari bilan ish olib boradi. Bunday sharoitlarda o‘quvchilarning o‘quv va o‘qishdan tashkari faoliyatini yagona ta’lim tarbiya jarayoni sifatida rejalashtirish va tashkil qilishga nisbatan kompleks va izchil yondoshishning o‘qituvchi faoliyatidagi roli ortib boradi. Bunday faoliyat o‘quvchilarni bilimlar bilan kurollantirishga hamda bilish, mulokot va mehnatning ongli sub’ektlari sifatida ular shaxsini shaqlantirib borishga karatilmogi kerak.

O‘qituvchi mehnatini pedagogik–psixologik tadkik etish shuni isbot etganki, o‘quvchilarning o‘quv faoliyati samaradorligiga goyat katta ta’sir kursatadi. O‘qituvchining ilmiy jixatdan bilimdon-ligi, uning shaxsiga xos ijobiy fazilatlar o‘quvchilarga tarbiya berishning, ularda ongli faollilikni hamda mustaqil ijodiy bilishga bo‘lgan intilish faolligini shaqlantirishda xal kiluvchi omil xisoblanadi.

O‘qituvchining dunyokarashi – undagi pedagogik madaniyatning hamda tarbiyachi sifatidagi maxoratning muxim komponenti xisoblanadi. Bugungi kunda o‘zini pedagoglik kasbiga bagishlagan talaba yoshlar shuni yaxshi bilishlari kerakki, hozirgi zamonning yoshlarda ilmiy dunyokarashni shaqlantirish, hozirgi zamonning goyat dolzarb va keskin muammolari yuzasidan baxs-munozaralar utkaza olish, odamlarni ishontira olish, mustaqil to‘g‘ri xulosa va umumlashmalar chikara olish maxoratini egallab olishlari goyat muxim ahamiyatga egadir.

O‘qituvchi kasb maxoratining ortib borishida o‘qituvchiga nisbatan maktab ma’muriyati, hamkasblari, o‘quvchilar, ota–onalardan kutiladigan sotsial

munosabatlar juda muximdir. O'qituvchining obrusi uning darsdagi faolligi, maktab jamoasida olib boradigan ishlari, ota-onalar bilan mulokoti – xullas, o'z axlokiy idealiga muvofik xatti-xarakatlari bilan belgilanadi. U o'z o'quvchilarida buyurilgan ish uchun yuksak darajadagi sotsial ma'suliyatni xis qilish odatini, oliyjanoblikni tarbiyalashi, uning intellektual kamolotiga erishib, ma'naviy jixatdan musaffo kishi bo'lib tarbiyanishiga erishmogi kerak.

O'qituvchi faoliyatida, uning o'quvchilar turli yosh bosqichlarida ular bilan kanday uslubda ish olib borishi katta rol uynaydi. Psixologik–pedagogik adabiyotlarda o'quvchilarga raxbarlik qilishda tez-tez uchrab turadigan kuyidagi besh xil ish uslubi aloxida ajratib kursatiladi: 1) Avtokrat (o'zini ustun kuyish, «balanddimog»), 2) Avtoritar (ma'muriy buyrukboz), 3) Demokratik (jamoaga suyanib ish olib boruvchi), 4) Liberal – lokayd (amalda raxbarlikdan chetda, o'z vazifasini nomigagina bajaradi), 5) Noizchil (o'quvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarda vaziyatga karab ish tutadi, «uning kim tarafdori ekanini bilib bulmaydi!»), Real xayotda o'qituvchi faoliyatida uning raxbarlik usuli xar turli sub'ektiv va ob'ektiv omillarning ta'siri ostida shaqlanib boradi. Bunday omillar – pedagogik faoliyatning bir sub'ekti sifatida o'qituvchining yuksak darajadagi pedagogik madaniyati karor topishi uchun shartlardandir.

O'qituvchi bilan o'quvchi urtasidagi turli xil vaziyatlardagi o'zaro munosabatlarni taxlil qilish natijasida bolalar jamoasidagi psixologik muxit va kommunikativ madaniyat o'qituvchining o'quvchilar bilan kiladigan muomala stili (tarzi) va uning pedagogik takti (nazokati) ga ko'p jixatdan bog'liq bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Xullas, pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo soglom bo'lishi, ya'ni tashki kurinishida birdan ko'zga tashlanadigan nuksoni yuk (bukri, oksok, gilay bulmasligi), so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffo'z kila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. SHuningdek yukorida sanab utilgan sifatlarga ega bo'lishi zarur.

pedagogik faoliyat yosh avlodni xayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalk oldida, davlat oldida javob bera oladigan, bolalarga ta'lim tarbiya berishga

maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. O'qituvchilik ixtisosining bu xususiyatlari uning professiogrammasida ifodalanadi.

Proressiogramma kuyidagilarni o'z ichiga oladi: 1) O'qituvchi shaxsining xususiyatlari; 2) O'qituvchining ruxiy-pedagogik tayyorgarligiga kuyilgan talablar; 3) Maxsus tayyorgarlik xajmi va mazmuni; 4) Ixtisosga oid usuliy tayyorgarlikning mazmuni.

qituvchi shaxsining xususiyatlari goyaviy soxada: ilmiy dunyokarash va e'tikod, ijtimoiy extiyoj va axlokiy zaruratni chukur tushunish, ijtiomiy va fukarolik burchni anglash, ijtimoiy-siyosiy faollik. Pedagoglik kasbi soxasida: bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagoglik ishini sevish, ruxiy-pedagogik ziyraqlik va ko'zatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik, xakkoniylit, dilkashlik, talabchanlik, kat'iylik va maksadga intilish, vazminlik, o'zini tuta bilish. Keng ilmiy saviya, ma'naviy extiyoj va qiziqish, intellektual qiziqish, yangilikni xis kila olish, o'z ma'lumotini oshirishga intilish va xokazo.

Yo'qoridagi shaxs sifatlariga ega bo'lish bilan bir qatorda muvaffakiyatli ishslash uchun xar bir o'qituvchi pedagogik maxorat va pedagogik qobiliyatga ham ega bo'lishi shart. Ijodkorlik uning hamisha hamroxi bo'lishi kerak. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik maxorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan fark kiladi. Malaka va udaburonlik mashk, o'qish natijasi xisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste'dod, layokat va zexn, ya'ni inson nerv tizimida anatomo-fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataladigan ruxiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning kuyidagi turlari mavjud bulmogi va tarbiyalab etishtirilmogi lozim (Bular aloxida pedagogik qobiliyat deb ham aytildi):

Akademik qobiliyat yoki bilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi xajmidagina emas, balki ancha keng va chukur

biladi, o‘z fani soxasidagi kashfiyotlarni hamisha ko‘zatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga qiziqadi, oddiy tadkikotlar olib boradi.

Didaktik qobiliyat – tushuntira olish qobiliyat – o‘quv materialni o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uygotish qobiliyatidir. O‘quvchilarning yosh va ruxiy xususiyatlarini xisobga olish, o‘quvchilarning bilimi va dastur talabi urtasida tafovut doimo diqqat-markazida turadi va uni bartaraf etish choralar kurib boriladi. Ba’zi o‘qituvchilarga o‘quv materiali oddiy, tushunarli va kandaydir aloxida izoxni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o‘qituvchilar o‘quvchilarni emas balki o‘zlarini nazarda tutadilar.

Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining urniga kuya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli narsalarning o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavxum bir narsa bo‘lishi mumkinligiga asoslanib ish tutadi.

Qobiliyatli o‘qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida o‘quvchilarning kanday o‘zlashtirayotganliklaridan kator belgilar asosida paykab oladi va zarur xollarda bayon qilish usulini o‘zgartiradi. SHuningdek, qobiliyatli o‘qituvchi o‘quvchilarning sabokni o‘zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlaydi, choralar kuradi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga kadar ish boshlamaydi.

Kuzatuvchanlik qobiliyatı – perceptiv qobiliyat, o‘quvchining tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyatı, o‘qituvchi shaxsini va uning ruxiy xolatlarini yaxshi tushuna bilish bog‘liq psixologik ko‘zatuvchanlikdir. (Bunday o‘qituvchi xakida bolalar: «karamayotgangan uxshaydi-yu, hamma narsani kuradi!», «O‘quvchining xafa bo‘lganini yoki dars tayyoramaganini ko‘zidan biladi», «Bu o‘qituvchini xech aldab bulmaydi!» va xokazo fikrlar bildiradilar).

Nutq qobiliyatı – nutq yordamida, shuningdek, imo-ishora vositasida o‘z fikr va tuygularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyatı. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muximdir. O‘qituvchining bayoni o‘quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga karatiladi («Mana bu erga aloxida e’tibor

bering!», «O‘ylab ko‘ring!», «Siz nima deysiz?» vax.) SHuningdek, Urinli kochirik, xazil, engilgina istexzo nutqni jonlantirib yuboradi va uni o‘quvchilar tez o‘zlashtiradilar. O‘qituvchi nutqi ravon, begubor, begaraz bo‘lishi kerak. Xaddan tashkari past so‘zlangan nutq lanjlik va zerikishga, xaddan tashkari keskin va bakirok nutq o‘quvchining asabiylashuviga va charchashiga sabab bo‘ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati – birinchidan, ukuchilar jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muxim vazifalarni xal etishga ruxlantirishni, ikkinchidan, o‘z ishini to‘g‘ri uyushtirishni nazarda tutadi.

6. Avtoritar yoki so‘zini utkaza olish qobiliyati – o‘quvchilarga bevosita emotсional – irodaviy ta’sir kursatish va shu asosda obru kozona olishdir. O‘qituvchining bilimi, tadbirkorligi, xushyorligi, nutqi va imo-ishora, piching va xokazolarni o‘z urnida foydalana olishi («Men» bu yoqqa kel! Degan so‘zni 20 xil oxangda ayta olganimdan keyin yaxshi o‘qituvchi buldim – deb xisoblaganman, degan edi A. Makarenko).

To‘g‘ri muomala qila olish qobiliyati – bolalarga yakinlasha olish, ular bilan pedagogik nuktai-nazardan juda samarali munosabatlar urnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligini bildiradi.

Prognolash yoki keljakni kura bilish qobiliyati – o‘z xarakat-larini va o‘quvchi xarakatining okibatini kura bilish, o‘quvchining kelgusida kanday odam bo‘lishini tasavvur kila olishida, tarbiyala-nuvchida kanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning kudratiga bog‘liq.

Diqqatni taksimlay olish qobiliyati – o‘qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari – xajmi, kuchi, kuchuvchanligi, idora kilina olishi, safarbarligi kabilarning taraqqiy etishi bilan izoxlanadi.

Iqqatni ayni bir vaktda taksimlash qobiliyati o‘qituvchilik uchun aloxida ahamiyat kasb etadi. Bir vaktning o‘zida dars mazmuniga, uni kanday tushuntirishga, kaysi usul va vositalarni kullashga, o‘quvchilarning o‘zlarini kanday tutayotganliklariga, kanday o‘zlashtirib borayotganliklariga e’tibor berib

borish ko‘pincha yosh va tajribasiz o‘qituvchining kulidan kelmaydi. SHuning uchun gox dars mazmuniga berilib ketib, vakt va bolalar chetda koladi, gox dars kolib boshka ish bilan uralashib kolish xollari uchrab turadi.

’tikod, odob, fukarolik burchini anglash—o‘qituvchining asosiy sifatlaridandir. Maktab o‘qituvchisi o‘zi targib kilayotgan idealning fazilatlarini o‘z shaxsiy namunasida ham kursatish kerak. Bu sifatlar o‘qituvchining kasbiy sifatlari deb aytiladi. O‘qituvchilik kasbiy sifatlari yoki fazilatları kuyidagilardir:

– Bolalarga mexr-muxabbatli va kechirimli bo‘lish, talabchan-lik va kattikkullik, adolat mujassamlashuvi;

Ijtimoiy faollik va fukarolik burchini anglash o‘qituvchi shaxsiga xos sifat, zero haqiqiy pedagog tula ma’nodagi jamoatchi bo‘lib, bolalarga xayotda ijtimoiy faol xolatda turishning amaliy namunasini kursatadi.

Odamlar bilan tez el bo‘lib keta olish, ko‘pchilikka aralasha bilish, ulfatijonlik, dilkashlik, odamlar bilan aloka qilishga, ular bilan ishlashga to‘g‘ri kelganda ayniksa askotadi.

Har qanday vaziyatda erkin fikrlay olish, ijodkorlik. Munosabatdaadolatl bo‘lish uning obrusi oshib borishiga imkon beradi. Uki-tuvchining odobi, madaniyati yuksak bo‘lsagina, odamlarga nisbatan mexribon, saxovatli bula oladi, uni hamma xurmat kiladi. Buning uchun ochikkungil, kat’iy bo‘lishi, o‘zini tuta bilishi, bardoshli bo‘lishi kerak.

qituvchi pedagogik etikaning me’yorlarini o‘zlashtirib olishi, tajribada kullashi, o‘zining dunyokarashi va axlokiy tajribasi bilan takkoslashi lozim.

O‘qituvchi har qanday vaziyatda o‘zining shaxsiy namunasi bilan ta’sir o‘tkaza olishi, munosabat urnata olishi kerak. Pedagogik takt o‘qituvchi ahloqining amaliy ko‘rinishlaridan biridir. Pedagogik takt yoki pedagogik nazokat o‘qituvchi faoliyatining hamma soxalarida zarur.

qituvchi deyarli xar kuni o‘quvchilar bilan uchrashadi, savol-javob kiladi, ularning yaxshi ishlarini ma’kullaydi, bilimlarini baxolaydi, nojuya xattixarakatlari uchun tanbex beradi, ammo xar doim xolis bo‘lishi, sinfda «yaxshi kuradigan» va «yomon kuradigan» o‘quvchisi bulmasligi kerak.

Pedagogik faoliyat o‘z moxiyatiga kura ijodiy xarakterga ega. Pedagogik ijodkorlik manbai–bu pedagogik tajribadir. Pedagogik tajriba–muammoli vaziyatlarga juda boydir.

Bundan tashqari, sobiq sovet psixologiyasida kasb – hunarga oid ma’lumotnomalar xaritasi ishlab chiqilgan. Bu sohada G. Pavlyukning o‘qituvchilik ixtisosligiga taalluqli munosiblik va nomunosiblik ma’lumotnomalar xaritasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagogik ixtisos – ixtisoslikka munosiblikning modifikatsiyasi xaritasi quyidagilarni aks ettiradi:

- 1) jamiyat ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak darajadagi qarashlar, e’tiqodlar, ideallar shakllanganligi (jamoaviy) yo‘nalganlikni ifodalovchi shaxsning ijtimoiy – siyosiy faolligi;
- 2) bolalarga nisbatan mehr – muhabbat, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini tushunish ko‘nikmasining mavjudligi;
- 3) pedagogik kuzatuvchanlik (perseptiv qobiliyat);
- 4) hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlar xatti – harakatlarining xususiyatlarini oqilona tushunish va izohlashga qobillik;
- 5) o‘zgaruvchan shart – sharoitlarda omilkorlik bilan mo‘ljal olish qobiliyat;
- 6) tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarga egaligi;
- 7) umumiyligini va bilishga oid qiziqishlarning ko‘pqirraliligi;
- 8) maqsadga erishish yo‘lida irodaviy zo‘r berishga tayyorlik va sobitqadamlilik kabilari.

O‘qituvchilik kasbiga nomunosiblik xaritasida quyidagi omillar o‘z aksini topadi

- 1) qarashlar, e’tiqod (maslak), ideallar ko‘rsatkichining pastligi;
- 2) o‘zgalar hisobiga o‘z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga tayyorlik, shaxsiyatparast, g‘arazgo‘y yo‘nalishga egalik, o‘z qiziqishlarini umumiyatdan ustun ko‘rish;
- 3) bolalar (o‘quvchilar)ga loqayd, befarq munosabat;
- 4) aqliy taraqqiyot (intellektual) darajasining quyiligi (pastligi);

- 5) chidamlilik, topqirlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, sobitqadamlilikning mavjud emasligi, irodasizlik;
- 6) ayrim ruhiy kasalliklar alomatlarining mavjudligi;
- 7) nutq faoliyatida harakat tizimlarida sezilarli nuqsonlarga egalik, eshitish, ko‘rish sevgisi va qabul qilish, payqash hissining etishmasligi va boshqalar.

Professiogrammaning psixologik jihatlari to‘g‘risida mulohazalar yuritilganda mana bu tomonlarga e’tibor berish maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz:

I. O‘qishga munosabat va intellektual sifatlar: bilimlarning chuqurligi, turli o‘quv fanlarini o‘zlashtirishning intellektual (aqliy) imkoniyatlari, salohiyatlilik va qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga qobillik, ma’naviy qiziqishlarning ko‘lami, fikrni bayon qila olish uquvi, o‘qiganlilik, ma’lumotlilik.

II. Axloqiy – irodaviy fazilatlar: serharakatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, hissiy faollik, irodaviy qat’iyaililik, odoblilik, ezgulik, bolalarga mehr – muhabbat, dilkashlik, rostgo‘ylik, haqgo‘ylik, kamtarlik, xushmuomalalilik, vazminlik (bosiqlik).

III. Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so‘ziga sodiqlik, o‘ziga tanqidiylik, prinsipiallik, qiyinchilikni engish uquvi, tashabbuskorlik, amaliyotchilik, do‘stlar orasida nufuzga egalik.

I. Pedagogika institutiga kiruvchilar uchun tavsiya motivlari: maktabdagi fan to‘garaklari mashg‘ulotlariga turg‘un (barqaror) qiziqish; maxsus sinflar – (maktablar) mashg‘uloti bilan ta’lim jarayonini muvofiqlashtirish; havas va ota – onaga munosabat: jismoniy mehnatga munosabat; o‘qituvchilik kasbiga moyillik va barqaror qiziqish: institutga kirish uchun tavsiya qilingan ixtisos va fakultet; abiturientni o‘ziga tortuvchi (jalb qiluvchi) sevimli o‘qituvchi va uning shaxs fazilatlari; sevimli fan va uni o‘zlashtirishdagi yutuqlar; maktab va maktabdan tashqari o‘qituvchining ijtimoiy va kasbiy faoliyati: ijtimoiy faoliyatda tashabbuskorlik va faollik

darajasi; qaysidir masala bo‘yicha o‘quvchilar davrasida ma’ruza va chiqishlar qilish; qo‘sishimcha adabiyotlardan foydalanish; kasb va ixtisoslik tanlashda mustaqillik va tashqi omillarning unga ta’siri; hukm va xulosa chiqarishda mustaqillik: o‘qituvchi mehnatining hajmi bo‘yicha tasavvur hosil qilish.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar

1. Shaxsni kasbiy kamoloti deganda nimani tushunasiz?
2. O‘qituvchilik kasbining umumiy masalalarini aytib bering?
3. O‘qituvchining aktyorlik xislatlarini sanang?
4. Pedagogik takt nima?
5. O‘qituvchining pedagogik qobiliyatiga nimalar kiradi?
6. O‘qituvchining kommunikativ xislatlariga nimalar kiradi?
7. O‘qituvchining tashkilotchilik qibiliyatlarini tushuntiring?

REORIENTATSIYA PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA.

Psixologiya fanida kasb tanlashga yo‘llash (proforientatsiya) atamasi qadim zamondan qo‘llanib kelinadi. Lekin ijtimoiy hayotning keyingi davrlarida boshqa bir atama fanimizga kirib keldi, u reorientatsiya (qayta yo‘llash) deb atalib, insonni yangi bir moslashmaga (ko‘nikmaga) kasbga yo‘naltirishni bildirib keladi.

Qayta kasbga yo‘llash (reorientatsiya) o‘ta insonparvarlik (gumanistik) g‘oyani kasbini o‘zgartiruvchi yoki ishsiz qolgan shaxs ruhiyatiga singdirishni angaltadi. Ishlab chiqarishga avtomat qurilmalarning (elektron moslamalarning, robotlarning) kirib kelishi ish o‘rinlarining qisqarishiga olib keladi. Muassasa, tashkilot, korxona rentabelligining pasayishi ham xodimlarga nisbatan ehtiyojning kamayishini keltirib chiqaradi. Ma’lumki, bozor iqtisodiyoti raqobatga asoslanadi, shuning uchun testlarga bardosh beruvchi, yuqori malakali, mahoratli, bilimdon, komil insongina sinovlardan muvaffaqiyatli o‘ta oladi, xolos. O‘rtamiyona darajadagi mutaxassislar esa ish o‘rnini yo‘qotib, vaqtincha ishsizlar ro‘yhatiga kiradi.

Ishsizlik, ish o‘rnini yo‘qotish ayollarda o‘kinchili (ayanchli) his – tuyg‘ular qobig‘ida o‘ta murakkab kechadi, go‘yoki tragediya, h0alokat, judolik vujudga kelganda ham ekstravertlik, ham introvertlik xususiyatlari uyg‘unlashganday yuz beradi. Erkaklar esa bunday vaziyatlarga matonat bilan, iloji boricha hissiyotlarga berilmasdan, aql – zakovat maromlariga tortilganlik tuyg‘usi ustuvorligida namoyon bo‘ladi. Erkaklarda achinish, xafaxonlik kechinmalari tarzida hukm surishi, asta – sekin uning ta’sir kuchi pasayishi kuzatiladi. Bunda insonning ruhiy kechinmalari keskin o‘zgarishning asosiy omillari sifatida uning ish davri va yoshi ijtimoiy muammo maydoniga chiqadi. YOshning ulg‘ayishi yangi muhit, o‘zgacha sharoit, notanish jamoa va uning nufuzi kabi masalalar echimiga salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Mazkur ob’ektga uzoq davr mehnat faoliyatini bag‘ishlash ham frustratsiya holatini harakatlantiruvchi safida asosiy rol o‘ynashi mumkin. Xullas, har ikkala omil ham frustratsiyaning manbai vazifasini o‘taydi (bajaradi), noxush muvaqqat kechinmalar vujudga kelishi, kechishi, rivojlanishi jarayonlarini uzluksiz ravishda bajarib turadi.

Hozirgi zamon mehnat birjalarida reorientatsiya (qayta kasbga yo‘llash) ishlari olib borilishi markazlashtirilgan. Maxsus xodilar kompyuter xotirasiga joylashtirilgan shahar, tuman bo‘yicha ixtisoslar bo‘yicha yoki ixtisoslararo mutaxassislar ro‘yhati (zaruriyati, ehtiyoji, talabi) bilan ish izlab kelgan muhtoj shaxs tanishtiriladi. Aksariyat mehnat birjalarida psixologlar etishmaganligi tufayli ish bilan ta’minalash, bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirish bilan shug‘ullaniladi, xolos. Aslida esa bu xizmat qator omillarni tekshirish, o‘rganishni taqozo etadi, ilmiy psixologik qonuniyatlar asosida ish yuritishni talab qiladi, chunonchi:

1. SHaxsnинг fazilatlari, xarakterologik xislatlari.
2. Xissiy jabhalari va irodaviy sifatlari.
3. Insonning kognitiv va regulyativ imkoniyatlari.
4. Ehtiyoji, motivi, motivatsiyasi, motivirovkasi.
5. Kasbiy mayli, qiziqishi, layoqati.
6. Professiogramma talablariga mosligi, kasbiy yarog‘ligi.

7. Iqtidori (iste'dodi), qobiliyati, salohiyati.
8. Kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari, mahorati.
9. Umumiy saviyasi, dunyoqarashi, maslagi (e'tiqodi).
10. Salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi.
11. Izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati.
12. Ijtimoiy etukligi, tashkilotchilik qobiliyati.
13. Ekstrovertligi va introvertligi.
14. YUksak insoniy tuyg'ularga (axloqiy, aqliy, nafosat, praksik) egaligi.
15. Fidoiylik, altristik, vatanparvarlik fazilatlari usutvorligi va boshqalar.

YUqorida sanab o'tilgan mezonlar bo'yicha tekshirish ishlari bir nechta metodlar, metodikalar orqali ko'p seriyali tajribalar negizida amalga oshiriladi. Buning uchun testlardan qobiliyatga, shaxsga, ijodiyotga, xotiraga shaxslararo munosabatga (oid), maxsus ishlab chiqilgan materiallardan, maqsadli vaziyatlardan qiyinlashtirilgan topshiriqlardan, muammolardan psixologik treninglardan, psixodramalardan va boshqalardan foydalaniladi.

Olingan natijalar sifat va miqdor jihatdan tahlil qilingandan keyin muayyan xulosalar chiqariladi. Xulosalar asosida reorientatsiya sub'ekti roziligidagi ishga muhtoj shaxs taklif qilingan kasbga yo'naltiriladi. Ish joyining masofasi, uning ekologiyasi, sangigienasi, maoshi, istiqboli, muammoli jihatlari yuzasidan mukammal fikr almashiniladi, toki shartnomaga qonuniy hujjat ekanligi (qiymatiga) zarar keltirmasini (ba'zan kelishuvdan voz kechish holatlari ham yuz berib turadi). Psixologik kuzatishlarning ko'rsatishiga qaraganda, reorientatsiya (kasb tanlashga yo'llash) kabi bosqichlardan tashkil topgan bo'lib, ular qisqa fursatda (muddatda) o'tishi bilan o'zaro muayyan darajada tafovutlanadi. Jumladan, kasbiy maorif, kasbga yo'llash, kasbga saralash, kasbiy moslashish tezkorlikda, mukammal o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, ksbiy moslashish davri o'ziga xos tarzda kechadi, bir bosqich ikkinchisi bilan

silliq uzviy bog‘lanib ketadi. Kasbning moddiy (iqtisodiy) tomoni, ijtimoiy faollik (nufuzga egalik), ma’naviy ta’minlanganlik (ruhiy ko’tarinkilik hissiyotining ustuvorligi) insonning qaytatdan ijtimoiy hayotdan o‘z o‘rnini topish imkonini yaratadi, uning umrini uzaytiradi, ruhiy imkoniyatlari, zahiralari, potensiyasi, rezervi ishga tushishiga puxta negiz hozirlaydi.

Reorientatsiya (qayta kasbga yo’llash) gumanistik psixologiya tamoyillarini turmushga tatbiq etishga zarur shart – sharoit yaratadi. inson omilini qadrlashga, butun imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga, ezgu niyat, orzu havas, istak – xohish ushalishga negiz vujudga keltiradi. Ko‘p profilli kasb – hunar egalari safini kengaytirishga xizmat qiladi, komillikka intilish tuyg‘usini jonlantiradi, zarur bilimlar, malakalar bilan qurollantirishga turtki beradi.

Reorientatsiya inson imkoniyatini qaytatdan sinashning manbai hisoblanib, o‘zini o‘zi kashf qilishi, o‘zini – o‘zi boshqarishi, o‘zini o‘zi tashkillashtirish, o‘zini–o‘zi baholash, o‘zini–o‘zi refleksiyalash, o‘zini–o‘zi identifikatsiyalash kabi shaxs fazilatlarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Maktab o‘quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu-niyatlari xususan kasbkorga bo‘lgan qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlari tug‘ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog‘liqidir. SHaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashga yo’llash demakdir. O‘quvchilarning idividual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo’llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘quvchilarni (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali) mustaqil kasb tanlashga o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta’kidlanadi. SHunga ko‘ra psixolog olimlar, metodistlar, tashxis Markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo‘l-yo‘riqlar va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shaxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim. Bu borada Respublika tashxis Markazining 2003 yil

ma'lumotlari juda qiziqarli va ba'zan munozaralidir. Bularni quyidagi raqamlarda ham ko'rish mumkin: Respublika bo'yicha 9-sinflarni bitirgan o'quvchilarning 8,00 %ga sanoat yo'nalishlariga yo'llanma berilgan bo'lsa, ularning atigi 3% o'qishga joylashgan. Sog'liqni saqlash sohalariga esa 12,60% yo'llanma berilgan bo'lsa, amalda ularning 4,80 % o'qishga kirgan. Maorif sohalariga esa 9,60 % yo'llanma berilgan bo'lib, ularning 4,00%gina o'qishga joylashganlar («Maktab va hayot» jurnaliga ilova 2003 yil, №1-2, 24-39 betlar).

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliliginini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak.

Hozirgi davrda xalq ta'limi bo'limlarida, ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta'minlash muassasalarida, kollejlar va Oliy O'quv Yurtlarida yoshlarga kasb tanlash yo'lini ko'rsatadigan maxsus kasb – hunar kabinetlari tashkil etilgan. Bu borada Respublika tashxis Markazining, hamda joylardagi uning bo'limlarining faoliyati ibratlidir. Bundan tashqari, malakali psixologlar va pedagoglar (shu jumladan mahalla tarbiyachisi), murabbiylar, muhandislar va texniklar har bir kasb-hunarning o'ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi.

Lekin yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra o'quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi, jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi. Psixologlar, bundan tashqari, o'quvchilarning aql idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, shakllari, mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari, shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, psixologiya fani o'quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam beradigan, yo'l-yo'riqlar va tavsiyalar,

mukammal qo'llanmalar, aksariyat kasb-hunarning professiogrammasini hali to'liq ishlab chiqqan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar etarli miqdorda yaratilgan. SHaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya'ni shaxsning bilish qobiliyatlari, aql-idroki, aql-zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo'li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqliligi to'g'risida aniq fikr bildirish va muayyan tavsiyalar berish mumkin.

Keyingi yillarda o'tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo'llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Buni biz viloyatlar kesimida hamda Respublika bo'yicha 9 sinf bitiruvchilariga sohalar bo'yicha tavsiyanomalar berishda ko'rdik.

Darhaqiqat, mактабда о'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar boshlandi. O'ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug'ullanadigan mакtab amaliyotchi psixologi shtatlarini tashkil etishdan iborat bo'lishi lozim. CHunki, bu mutaxassislarsiz mакtabda mazkur ishlar haqida gapirish ham mumkin emas. Mакtabda olib borilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samarasi bevosa shu ikki mutaxassisning olib borayotgan ishlarining ko'lami, ularning saviyasi va malaka ko'rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lishligi barchamizga ayondir.

Ommaviy kasblarga bag'ishlangan o'quv-uslubiy adabiyotlar va kasb-hunar to'g'risidagi kinofilmlar, spravochniklar kamligi, psixologik-diagnostik tadqiqotlar o'tkazishga yordam beradigan zamonaviy apparat va asboblar bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, shaxsning muayyan kasbga yaroqliligini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlari etarlicha olib borilmayotganligi shunday kamchiliklar jumlasiga kiradi.

O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va qo‘sishimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarada kasb-hunar to‘g‘risida ma’ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko‘rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

Ilk o‘spirinlar va katta o‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavisyalarini hisobga olgan holda qat’iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

SHuni ham aytib o‘tish o‘rinlikni, maktab o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘philigi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar.

Maktabdagagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarali bo‘lishini maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasiziz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi «O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi to‘g‘risidagi Nizom» asosida tashkil etiladi va jihozlanadi. Mazkur nizomda maktab kasb-hunarga yo‘naltirish xonasining vazifalari, unda o‘tkaziladigan tadbirlar, devoriy ko‘rgazmalar va unda qanday ma’lumotlar bo‘lishligi haqida aytib o‘tilgan. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisini mazkur xonaning mudiri hisoblanadi.

Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni ta’minlovchi barcha ma’lumotlar bankini yaratishdan iborat. Bu maqsadda kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan kasbiy axborotlar, kasblar ro‘yxati, tasnifi, hududiy kasblar ro‘yxati, kasblarga bo‘lgan ehtiyoj va boshqa kasbiy tashxis metodikalari, tavsiya va yo‘riqnomalardan foydalaniladi. Maktab

kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi tomonidan o‘quvchilarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma’lumotlarni to‘liqroq anglab etishi shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida mактабда ilg‘or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma’ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining shu kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada qat’iy lashishini vujudga keltiradi.

Talabalar bilimini nazorat qilish uchun savollar:

1. Kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, mahoratni izohlang?.
2. Qayta kasbga yo‘llashning psixologik mohiyatini ajrating?
3. Xodimning salomatligi, jinsiy xususiyatlari, yoshi inobatga olgan holda izohlang?.
4. Reorientatorning izlanuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari, innovatsiyaga nisbatan munosabati shakllantiring?.
5. Reorientatorning ijtimoiy etukligi, tashkilotchilik qobiliyatlarini gapiring?.

**KASBIY PSIXOLOGIYAGA OID MUSTAQIL ISHLARNI YO‘LGA
QO‘YISH, UNING TURLARI VA MAZMUNI**

Oliy o‘quv yurtlarining 1-kurs talabalari bilan ko‘p yillar mobaynida olib borilgan ish tajribalari shuni taqozo qiladiki, 1-kurs talabalariga mustaqil ishslash usullarini jiddiy o‘rgatish zarurdir. Talabalarning ko‘pchiligi mustaqil mehnat qilishga odatlanmagan, kitob, darslik va boshqa ilmiy adabiyotlar bilan mustaqil ishslashda zarur bo‘ladigan tegishli ko‘nikma va malakalarni egallamagan bo‘ladi. Talabalarning materialni yozib olish, o‘qish va o‘zlashtirish metodlarini bilmasligi dastlabki darslardayoq ma’lum bo‘lib qoladi.

Bunga oddiygina diagnostik tajriba o‘tkazib, ishonch hosil qilish oson: o‘quv yilining boshlarida talabalarga darslikning darslikning birinchi bobidan konспект yoki biror maqolaga tezis tuzib kelish topshiriladigan bo‘lsa, birinchi kurs talabalarining kitob o‘qish madaniyatini va kitob ustida ishslash

metodikasini ravshan tasavvur qilmasliklari ularning yozib kelgan ishlarini analiz qilishda ma'lum bo'lib qoladi.

Diagnostik tajribaning ikkinchi varianti shundan iboratki, talabalarga quyidagi savollarga yozma javob qaytarish topshiriladi: referat nima? Konspektning tezisdan farqi nima? Kitobga anotatsiya yoki retsenziya qanday tuziladi? Sitata olish qoidalari nima?

Ishonchimiz komilki, birinchi kurs talabalarining ko'pchiligi yuqorida berilgan yozib olish turlarining spetsifikasi va ahamiyatini tushunmaydi.

Tajribaning uchinchi turi- belgilangan mavzuda bibliografiya tuzish vazifasi topshirilganda ham natija ko'ngildagidek bo'lmaydi. Talabalarning ko'pchiligi "bibliografiya" so'zini birinchi marta eshitayotgan bo'ladi, kitobni bibliografik tasvirlash qoidalarini bilmaydi, bibliografik nashrlardan foydalana olmaydi. Talabalarning tuzgan adabiyot ro'yxatlarida metodika nuqtai nazaridan qo'pol xatolar ko'plab uchraydi.

YUqoridagi holatlarni e'tiborga olib, birinchi kurs talabalarining mustaqil ishlashini yo'lga qo'yish va bu ish metodikasiga ta'luqli masalalarga jiddiy e'tibor berish zarur.

Talabalarga kasbiy psixologik bilim o'rganish metodikasini o'rgatar ekanmiz, aynan fan predmetining spetsifikasiga yarasha mustaqil ravishda ma'lumot olish va o'z-o'zini tarbiyalash metodlarini hamda vositalarini o'rgatishi, ya'ni talabalarni o'qib o'rganishga o'rgatishimiz kerak degan fikrga asoslanamiz.

SHu maqsadga erishish uchun fanlarni o'qitishning interfaol usullaridan foydalanishni jadallashtirishimiz, ma'ruzada talabalar aqliy faoliyatining cheklanganligiga barham berish, mustaqil ishslashning bir talay turlarini joriy qilish, amaliy mashg'ulotlar formasi va mazmunini qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi.

Fanni o'rgatish o'z oldiga birinchidan, talabalarga kitob ustida ishslash madaniyati va metodikasini o'rgatish, kitoblardan mustaqil bilim olish maqsadida ularda annotatsiyalar, retsenziyalar, murakkab rejalar, tezislar va

referatlar tuzish mahoratini shakllantirish, ikkinchidan, shu mahoratlarni egallash tufayli kasbiy psixologik bilimlar sifati yaxshilanishini, talabalarning umumiyligi saviyasi ko‘tarilishini, ularning kelajak kasbiga yaxshiroq tayyorlanishini, ijtimoiy hayotda faol qatnashuvi uchun ko‘proq sharoit tug‘ilishini isbot etish vazifasini qo‘ydi.

Talabalarning o‘quv va ijtimoiy faoliyat samaralarini o‘rganish usuli g‘oyat diqqatga sazovor katta ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy psixologiyadan mustaqil ishlashning turlari va naiq mazmunini ta’riflab beraylik.

1. Talabalar avvalo birinchi manbalar, darslik, ilmiy adabiyotustida to‘g‘ri, madaniy ishlashga o‘rganadilar: o‘qishning turli metodlari, kitobdan yozib olish turlari va formalari bilan mukammal tanishadilar. Bu bilimlarni birinchi kurs talabalari mustaqil aqliy ishni yo‘lga qo‘yish va bu ishning metodikasiga bag‘ishlangan maxsus amaliy ishlash jarayonida oladilar. Talabalar auditoriyadan tashqarida kitobni qanday o‘qish kerak, vaqtli matbuotdan qanday foydalanish kerak, darslik ustida qanday ishlash kerak, spravichnik adabiyotlaridan qanday foydalanish kerak degan masalalar bo‘yicha tushunchalarga ega bo‘lishiga yordam beriladi.

2. Talabalar kasbiy psixologiyaning ayrim mavzularini darslik, monografiya va maqolalarni o‘qib ishlab chiqadilar va ayrim holda eng rotsional yozib olish usulidan foydalanadilar. Bu usul orqali talabalarning mustaqil o‘rganish mas’uliyatini va aqliy aktivligini oshiradi, ularning bo‘sh vaqtini band qiladi.

3. Talabalarning mustaqil ishlashini muntazam nazorat qilish, har xil mavzular asosida kollokviumlarni muvaffaqiyat bilan o‘tkazishga yordam beradi. Kollokviumda masalalar favqulodda qilib qo‘yilishi tufayli talabalar o‘quv materiali kursining turli bo‘limlaridan sinchiklab o‘ylab topib oladilar, o‘quv materialidagi qo‘yilgan masalaga yarasha o‘zgartirishga o‘rganadilar, qo‘shimcha manbalarning bir nechtasini ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladilar.

Masalaning bibliografiyasi har bir talabada borligi uchun ularning kolokvium yoki seminarlarga tayyorlanishi osonlashadi.

4. Muayyan mavzulardagi bilografiya ro‘yxatlari referatlar ustida ishlab turib tuziladi. Masalaning bibliografiyasini tuzish albatta bajariladigan topshiriq bo‘lib, talabalarni katologlardan, bilografik nashrlardan bemalol foydalanishga o‘rgatadi, “kitobdan qidirib topishga”, faqat yaxshi kitoblarni o‘qishga odatlantiradi.

5. Birinchi kurs talabalari kasbiy psixologiyadan ko‘rsatma qo‘llanmalar (rasm, jadval, organayzerlar), mavzu yuzasidan ko‘rgazmali uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashadi.

6. Tanlangan mavzu bo‘yicha kasbiy psixologiyaga doir muntazam o‘qishlar talabalardan katta nazariy uslubiy tayyorgarlikni talab qiladi.

7. Birinchi kursda barcha fanlar bo‘yicha eng ma’suliyatli va ko‘p mehnat talab qiladigan ish referat yoki mustaqil ish yozishdir. Tanlangan mavzu bo‘yicha referat yozish talabaning og‘izda emas, balki amalda mustaqil ishlashi demakdir. Referat ustida ishlash o‘qituvchining muntazam nazoratini, malakali yordam ko‘rsatishini va talabalarining jon-jahdi bilan ishlashini talab qiladi. Ammo, talabalar referat yozib, juda katta manfaat oladilar: aqliy mehnat madaniyatini bir qadar egallaydilar, fan yuzasidan olgan bilimlarini chuqurlashtiradilar, saviyalarini ancha kengaytiradilar, pedagogik faoliyatga ilmiy tadqiqot nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lib qoladilar.

8. Kafedralarning ilmiy tadqiqot ishlarida talabalarining aktiv ishtirok etishi oliy ta’limning ajralmas qismidir, degan fikrga asoslanib, birinchi kurs talabalarini kafedra pedagog va psixologlari bajarayotgan mavzularda material to‘plashadi, fanga doir jonli faktlarni umumlashtirishga o‘rganishadi.

9. Talabalar o‘zлари qiziqqan mavzularda (Masalan: Pedagoglik kasbiga qiziqish hamda mehrning kelib chiqishi va rivojlanishi) insho yozishga o‘rganadilar.

Bunday ish talabalarining kasbni to‘g‘ri (ota-onaning va talabaning istagini hisobga olish bilan birga talabalar shaxsining xossalarni ham hisobga olib)

tanlashiga, qaysi o‘qishga kirish motivlarini, kasbga chinakkam havasi boryo‘qligini aniqlashga, o‘z ustida doimo ishlashi zarurligini tushunishiga yordam beradi.

SHunday qilib, o‘qishning birinchi yilida talabalar majburiy va qo‘srimcha adabiyotni o‘rganishdan tashqari psixologiyaga doir uchta yozma ishni mustaqil bajarishadi: referat yozishadi, ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha ikki haftalik kuzatishlar natijasida hisobot tuzishadi, berilgan mavzuda insho yozishadi. SHu tariqa ular kuzatish, material to‘plash, psixologiya nuqtai-nazaridan analiz qilish va yakunlash hamda uni yozma bayon qilib berish mahoratini egallashda yordam beradi.

Birinchi kurs talabalari fanni o‘rgana turib, aqliy mehnat usullari va texnikasini bir qadar bilib oladi, mustaqil ravishda ma’lumot olish va o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida odam psixik faoliyatining qonuniyatlarini tatbiq etishni o‘rganadi.

O‘qish jarayonida talabalarning keng ma’nodagi o‘z-o‘zini tarbiyalashaga yordam berish- bu faqat bilim berish bo‘libgina qolmay, balki bilim olishga intilishni rag‘batlantirish, bilimdan zavqlantirish, aqliy ish usullarini o‘rgatish, mustaqil mehnat qilishga odatlantirish ham demakdir.

O‘z-o‘zini tarbiyalashda mustaqil ishslashning roli juda katta. Darhaqiqat, mustaqil ishslash, uni keng va muntazam qo‘llanish talabani intizomli bo‘lishga o‘rgatadi, unga bir qancha foydali malakalar beradi, ishchanlikka va muntazamlikka o‘rgatadi, hammadan muhimi, mustaqil ishslashni shaxsning belgisi sifatida shakllantiradi, busiz o‘z-o‘zini tarbiyalash mumkin emas. Hech narsa-yiliga ikki marta sessiya baholarida olinadigan baholar ham, dekanat va kafedralarning ma’muriy nazorati ham, ota-onalarning g‘amxo‘rligi ham mustaqil ijodiy ish bajarishdek tarbiyaviy ta’sir ko‘rsata olmaydi, chunki o‘z mehnatining samaralarini ko‘rish talabaning juda katta ma’naviy qanoat hosil qilib o‘zi ustida ishslashga intilishini kuchaytiradi.

Kasbiy psixologiyadan mustaqil ish bajarish, jumladan referat yozish va shu referat asosida ko‘pchillik oldidi muvaffaqiyat bilan so‘zlash birinchi

kursning ko‘p talabalari uchun o‘z-o‘zini tarbiyalashda birinchi turtki bo‘ladi, o‘qituvchilik kasbiga qarashda burilish yasadi. Mas’uliyat his qilish kishini qaytadan dunyoga keltiradi. Kishilarga kerakli ekanligingni va foyda keltirishingni anglash bir kuchga o‘n kuch qo‘sadi- odam o‘zini tarbiyalay boshlaydi, o‘zini qaytadan dunyoga keltira boshlaydi.

Odam mustaqil yo‘l tutgach, shaxs hayotdagi o‘z o‘rnini belgilab olgach, ezgu maqsadiga etish yo‘lini tanlagach, o‘z manfaat va qrbiliyatlarini tushunib olgach o‘z-o‘zini tarbiyalash ehtiyoj sifatida vujudga keladi va namoyon bo‘ladi.

Mustaqil ishlay bilish va o‘ziga baho berish o‘z-o‘zini tarbiyalashda asosiy ichki shart-sharoitlar bo‘lib, tarbiyada, hayotning moddiy va madaniy sharoitida jamoa talabi bilan vujudga keladi.

Talabalarning o‘zini-o‘zi tarbiyalashi ularning o‘zini kelgusi faoliyatga tayyorlash vazifasi bilan belgilanadi. Bu faoliyatning o‘ziga xos tomoni shundaki, boshqalarni tarbiyalash, boshqalarni mustaqil ravishda ma’lumot olish va o‘z-o‘zini tarbiyalashga o‘rgatish kerak.

Kasbiy psixologiyani o‘rganish natijasida va hammadan muhimi psixologiyaga doir bilimlarni egallash yo‘lida talabalar mustaqil ishlash tufayli quyidagi xulosaga kelishadi: tashqi va ichki to‘siqlarni mustaqil bartaraf qilishgina, aktiv tashqi faoliyat tufayligina o‘z-o‘zini tarbiyalashda muvaffaqiyat qozonish mumkin. O‘z-o‘zini tarbiyalashning asosiy negizi mustaqil ravishda ma’lumot olishdir, shuning uchun birinchi kurs talabalarining kuch g‘ayrati avvalo o‘z saviyasini kengaytirishga, mustaqil fikrlay olish uchun intellektni har tomonlama rivojlantirishga qaratilishi zarur.

Kasbiy psixologiyaga doir ilmiy bilimlar talabalarning o‘zini-o‘zi bilib olishiga yordam beradi, o‘z-o‘zini bilib olish esa o‘z-o‘zini tarbiyalashga turtki beradi. Psixik bilish jarayonlarining qonuniyatlarini bilish har bir talabaning o‘z aqliy mehnatini to‘g‘ri tashkil etishiga yordam beradi. Iroda, aql, idrok va hischlarni o‘stirish aqliy ish qiyinchiliklari oldida hangu mang bo‘lib qolishga yo‘l

qo‘ymaydi. Odam bo‘lib etishish, chinakkam mualli bo‘lib etishish kabi tushunib olingan maqsad boshqa hamma niyatlarni o‘ziga bo‘ysundiradi.

Mustaqil ishslash metodlari va usullarini talabalarga muntazam o‘rgatish o‘qitishning birinchi yilidayoq juda yaxshi natija beradi. Bu ishni keyingi kurslarda ham davom ettirish, mustaqil ishga qo‘yiladigan talablarni va bu ishning mazmunini shunga yarasha oshirish muhimdir.

Mustaqil ravishda ma’lumot olishning negizi eng yaxshi kitoblarni o‘qishdir.

Kitob o‘qiy bilish san’atini o‘rganib olish zarur. Kitobni turlicha o‘qish mumkin. S.I.Povarnin kitob o‘qish usullarini uch grupaga bo‘ladi:

1-gruppa.A. “Kitoblarni varaqlab chiqish”.

B. Kitobni “ko‘zdan kechirish”, unga “ko‘z yogurtirib chiqish”.

V. Sekin-asta tanlab chala-chulpa o‘qib chiqish.

G. Kitobning biron joyini ham tushurib qoldirmasdan to‘la o‘qib chiqish, ammo material ustida aytarlik ishlamaslik.

D. Kitobni o‘qiganda mazmunini “chaqish”. S.I.Povarinning fikricha, bu usul kitob o‘qishning eng yaxshi yo‘lidir.

2-gruppa. A.Passiv o‘qish.

B. Aktiv o‘qish

3-gruppa. A. YUzaki o‘qish.

B. Berilib o‘qish.

Kitobni o‘qishdan oldin u bilan tanishish kerak: titul varag‘ini va mundarijasini ko‘zdan kechirish, kirish qismi, so‘z boshi yoki so‘ngi so‘zni, ayrim joylarini, xulosalarini o‘qib ko‘rish; qo‘sishimcha material: izohlar, ilovalar, Bibliografik ko‘rsatkich, nomlar ko‘rsatkichi, xronologik jadvallar, karta sxema va shu kabilarni ko‘rib chiqish kerak.

Spravochnik adabiyot: ensiklopediyalar, lug‘atlar, spravichniklar, asarlarning ko‘rsatkichlari, darsliklar, atlaslar, albomlar, kutubxonalarining byulletenlari, yillik to‘plamlar kitobni puxta tanlab olishga imkon beradi.

Kitob tanlab olindi. Nima qilmoq kerak?

Kitobni o‘qishdan oldin u bilan tanishish kerak: titul varag‘i va mundarijasini ko‘zdan kechirish, kirish qismi, so‘z boshi yoki so‘ngi so‘zni, ayrim joylarini, xulosalarini o‘qib ko‘rish; qo‘sishimcha material: izohlar, ilovalar, predmet ko‘rsatkichi: bibliografik ko‘rsatkich, nomlar ko‘rsatkichi, xronologik jadvallar, karta, sxema va shu kabilarni ko‘rib chiqish kerak.

YOzib olish haqida pedagoglarimiz qator fikrlarni bildirganlar. Jumladan, L.N.Tolstoy “boshqalarning donishmandligini idrok etmoq uchun.... avvalo mustaqil ishlash kerak”-deydi.

YOzib olishning ahamiyatini V.CHornolutskiy juda yaxshi aytib bergan: “O‘qilgan kitob haqida har kimning o‘zi uchun yozib olgani kitobxonni intizomga soladi, ishga ko‘proq e’tibor bilanqarashga majbur etadi, har bir kitobning e’tibordan chetda qoladigan tomonlarini bilib olishga yordam beradi. O‘qilgan joyni yozib oliga kirishgan har kim his qiladigan asosiy natija shuki, fikr sergak bo‘lib, har bir sahifadan masalaning mohiyatini bilib olishga yordam beradi. O‘qilgan joyni yozib olishga kirishgan har kim his qiladigan asosiy natija shuki, fikr sergak bo‘lib, har bir sahifadan masalaning mohiyatini bilib olishga tayyor turadi.”¹

YUqoridagilardan kelib chiqib shunday xulosa qilish mumkinki, kitoblardan yozib olish asl maqsad emas, balki o‘rganilayotgan narsani o‘zlashtirishning ishonchli vositasi, aqliy mehnatni yo‘lga qo‘yishning eng zarur formalaridan biridir.

YOzib olish o‘qish natijalarini mustahkamlashning asosiy usulidir. YOzib olishning asosiy turlari: reja, tezislar, konspekt, ko‘chirma va sitatalar, annotatsiyalar, referat, retsenziyalardir. Har kimning o‘z fikrini va keyin, masalan, retsenziya yoki referatlarda foydalanishi mumkin bo‘lgan masalalarni yozib olish alohida o‘rin egallaydi.

Sitata olish (latincha “sito”- “guvohlikka chaqiraman” so‘zidan olingan). Sitatalarni bir xil formadagi ayrim varaqlarga yoki alog‘ida kartochkalarga ko‘chirib olish qulayroq. Sitatalar munozarada ajoyib guvoh, ma’lumot olish

¹ В.Чорнолуцкий. Техника записи чтения, 1927.М.

uchun mo‘tabar manba. Ammo bu ma'lumotlarni quyidagi umumiylar qoidalarga rioya qilib yozib olish kerak: a) eng muhim, yakun ma'lumotlarni yozib olish, shu bilan birga kontekstda olib ko'rsatish kerak; b) butun-butun jumlalarni yoki abzatslarni yozib olish; v) sitatalarni qo'shtirnoqqa olish, yoniga chizma qo'yish; g) ularning manbalarini ko'rsatish (umumiylar avval boshda ko'rsatilgan bo'lsa, faqat sahifasi yoziladi). Sitatada avtorning uslubi, punktuatsiyasi va shrift ajratmalari saqlanadi.

Tezis tuzish (grekcha “tezo”-“tasdiqlayman” so‘zidan olingan). Murakkab tezislarda nimaning tasdiqlanishigina emas, uning nima bilantasdiqlanishi hamisbot etiladi. Tezislар da’vo yoki inkorning mavhum qat’iy ifodalarida ta’riflab beriladi. Tezislар munozara uchun asos sifatida ilgari suriladi. Har bir tezisda bitta asossiy fikr bo‘ladi.

Reja tuzish. Asarning oddiy yoki murakkab rejasi shundan iboratki, matn mantiqiy jihatdan bo‘lgan ayrim qismlarga – sarlovhalarga bo‘linadi, matnning har bir qismi nimadan bahs etishini sarlovhalar qisqacha va aniq ta’riflab beradi. Kitobning b, bo‘limning mundarijasi va shu kabilar rejaga asos bo‘lib xizmat qila oladi. Rejada sarlavhalar savol shaklida ko'rsatilishi yoki nima to‘g‘risida gap ketayotgani ko'rsatiladi. Rejaning tuzilishi- asarning tuzilishi; predmet rejasi yoki mantiqiy reja- masalalarning tematik yoki yig‘indi reja (bir necha asarni o‘rganish asosida tuziladi), konspekt reja farqlanadi. Allaqachon o‘qilgan manbaning rejasini ko‘zdan kechirish esdan chiqib qolganday ko‘rinadigan narsani xotiraga keltirishga yordam beradi.

Konspekt tuzish (latincha “konspektus”- “obzor” so‘zidan olingan). O‘rgаниlayotgan manbaning rejasiga qarab uning ideyasi va asoslash jarayoni yozib olinadi, ya’ni sarlavhalar, sarlavha ostidagi sarlavhachalar, tezislар, sitatalar, qo’shimcha ma'lumot va belgilar, xulosalardan foydalanib, o‘qilgan narsaning mohiyatini bir-biriga bog‘lab, ammo bo‘lib-bo‘lib bayon qilish zarur. Konspektida faktlar ham, sxemalar ham, chizmalar ham, ro‘yxatlar ham, boshqa materiallar ham bo‘lishi mumkin. Konspektning titul varag‘ida manbaning

oxirgi qismidagi ma'lumotlar, konspekt tuzishning boshlangan va tamomlangan sanalari yozilishi kerak.

Annotatsiya tuzish. Kitob yoki maqolaning asosiyfikrlari annotatsiyada qisqacha bayon qilib beriladi, ulardan foydalanish mumkinligi ko'rsatib qo'yiladi. Kichkina maqola shaklidagi asarga qisqacha baho beriladi. Annotatsiya –xarakteristika kitobining mukammal mazmuninibayon qiladi va avtor to'g'risida ma'lumot beradi. Annotatsiyalar odatda "O'qilgan va ko'zdan kechirilganadabiyot daftarlari" degan maxsus daftarlarga yozib olinadi.

Taqriz yozish (retsensiya) o'qilgan narsaga baho berish va mazmunini qisqacha ko'rsatib qo'yishdan iborat. Taqriz-o'qilgan narsadan xulosa chiqarish, yakunlash demakdir.

Referat (latincha "refe"-“ma'ruza qilaman, ma'lum qilaman” so‘zlaridan olingan) biror masalaning bir yoki bir necha asar ideyasining mohiyatini yozma bayonqilib berish yoki og'zaki ma'ruza qilish demakdir. Referatning kirish qismi, asosiy mazmuni va xulosasi tafovut qilinadi. Hajmi 15-20 sahifadan iborat bo'ladi. Referat tuzishga vaqt ham, bir talay mehnat ham ketadi. Referat yozishuchun hamma kitoblarni ko'rib o'tirmasdan, eng zarur kitoblarni tanlab olish kerak.

Ko'chirma va naqlar kitoblardan yozib olishning eng ko‘p tarqalgan turidir. Ko'chirma va naqlar so‘zma-so‘z bo‘lishi (sitatalar) yoki o‘z so‘zlari bilan bayon qilinishi mumkin. Bunda xayolni band qilgan, ko‘ngilni maftun etgan fikrni uyg‘otgan, muayyan harakatga undagan narsalar ko‘proq yozib olinadi. Ko'chirmalar odatda kartochkalarga yozib olinishi maqsadga muvofiq.

FAN BO'YICHA IZOHLI LUG'AT

Aqliy ish qobiliyati - aqliy mehnatning biror turini bajarish uchun zarur bo'lган jismoniy va psixik funksional imkoniyatlar yig'indisi.

Aqliy charchash - nerv tizimining potensial energiyasining haddan tashqari ko'п sarflanishi natijasida aqliy ish qobiliyatini pasayishi.

Amaliy faoliyat - insoniyatning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida tabiatni va ijtimoiy munosabatlarni o'zgartirishga qaratilgan maqsadga muvofiq faoliyati.

Bilish ehtiyojlari - bilimlarni yoki fan asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qondirilmagan muhtojlikni sezishdan iborat faoliyat motivi.

Bilishga qiziqish - shaxsning voqelikdagi narsa va hujdasalarni, ularning sifat hamda xususiyatlarini, o'zaro munosabatlari mohiyatini, shuningdek, turli qonuniyatlarni bilib olishga nisbatan doimiy barqaror yo'nalishidan iborat individual xususiyati.

Diqqatsizlik - diqqatni muayyan ob'ektga yo'naltira va to'play olmaslik.

Zehni o'tkirlilik - yangi yoki murakkab nazariy hamda amaliy masalalarni hal qilishning to'g'ri yo'llarini tez topa olishdan iborat aql sifati.

Ijtimoiy malakalar - ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish va jamoa orasida o'zini tuta bilish malakalari.

Individual tajriba - har bir shaxsning o'z hayoti davomida orttirgan tajribasi.

Industrial psixologiyasi - mehnat psixologiyasining psixologik omillarning sanoatdagi rolini o'r ganuvchi, psixologiyaning qonuniyatlariga asoslanib, mehnat unum dorligini oshirish masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi.

Inertlik - faoliyatda sustkashlik ko'rsatishdan iborat salbiy xarakter xislati.

Intizomlilik - muayyan jamoaning barcha a'zolari uchun majbur bo'lgan qat'iy tartib va xulq-atvor qoidalariga tizimli ravishda riosa qilishdan iborat bo'lgan ijobiy xarakter xislati.

Intizomsizlik - jamoat joylari, mehnat, o'qish yoki oila jamoasining tartib qoidalariga tizimli ravishda riosa qilmaslik yoki ularni buzishdan iborat salbiy xarakter xislati.

Introversiya - shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalari va qistuyg'ulariga tayanish.

Iroda kuchi - shaxsning o'z oldiga qo'ygan maqsadining aniqligi, uni amalga oishirish uchun intilishi, maqsad yo'lida ma'lum bir qaror qabul qilish tezligi va uni o'z vaqtida ijro etishi bilan belgilanadigan iroda sifati.

Irodaviy zo'r berish - maqsadni amalga oishirish uchun ob'ektiv va sub'ektiv qiyinchiliklarni bartaraf qilishda namoyon bo'ladigan nerv hamda iroda kuchi.

Irodasi bo'shlik - shaxsning biror faoliyat turini bajarish uchun o'zini majbur qila olmaslik yoki o'z harakatlarini o'z maqsadlariga bo'ysundira olmaslikdan iborat salbiy xarakter xislati.

Ixtisoslashgan mehnat - muayyan kasbga doir maxsus bilimlar, ko'nikmalar, malaka va madaniy odatlarning tarkib topishi hamda rivojlanishini talab qiladigan mehnat.

Ish qobiliyati - shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli amalgaga oishirish uchun zarur bo'lgan jismoniy hamda psixik funksiyalari yig'indisi.

Ish usullarini tasvirlash - mehnat psixologiyasi sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarida alohida ish usullari yoki malakalarni ularning bajarilish tartibi bo'yicha tasvirlashdan iborat tekshirish metodi.

Kasb kasalligi - muayyan kasb sohasidagi psixik yoki shu kasbning ko'pchilik vakillariga xos bo'lgan kasallik.

Kasb psixologiyasi - mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan

psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'lim.

Kasb tanlashga yo'llash - pedagoglar, psixologlar, vrachlar va boshqa mutaxassislarning yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdagi maslahati, tushuntirishlari kabi tadbirlar tizimi.

Kasbga qiziqishlar - shaxsning ma'lum bir kasbga nisbatan doimiy va barqaror motivlashtirilgan qiziqishidan iborat individual xususiyati.

Kasbga layoqatlilik - shaxsning muayyan kasbga yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi jismoniy va psixik sifatlar yig'indisi.

Kasbga tayyorgarlik - muayyan kasb bo'yicha muvaffaqiyatli ishslash imkoniyatini ta'minlovchi maxsus bilim, ko'nikma, malaka, odat, sifat, xususiyatlar, mehnat tajribasi va xulq normalariga ega bo'lishlik.

Kasbga tegishli ma'lumot - mehnat faoliyatining ma'lum bir sohasi uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, amaliy ko'nikma, malaka va odatlar tizimi.

Kasbga xos diqqat – ma'lum bir kasbda ko'p yil ishslash natijasida shu kasbning talablari va ob'ektiv xususiyatlariga mos ravishda tarkib topgan diqqat turi.

Kasbga xos zararliklar - mehnat va ishlab chiqarish sharoitlarining odam organizmi hamda ish qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar yig'indisi.

Kasbga xos odatlar – ma'lum bir kasb vakillari uchun tipik hisoblangan odatlar.

Kasbda ishslashga to'g'ri tanlash- shaxsni muayyan kasbda ishslash uchun qabul qilishda uning shu kasbning ob'ektiv xususiyatlariga to'g'ri keladigan jismoniy va psixik sifatlarini hisobga olish.

Kasbiy malakalar - ishlab chiqarish faoliyatining ko'p takrorlanishi natijasida avtomatlashgan xatti-harakatlar yig'indisi.

Kasbiy xotira - bevosita o'z kasbiga doir narsa va hodisalarni, fikr, hissiyot, harakatlarni esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.

Kasbni tasvirlash - mehnat psixologiyasi sohasidagi ilmiy tekshirish ishlarida muayyan kasbni texnologik va psixologik jihatidan tasvirlashdan iborat tekshirish metodi.

Malakalarning ko'chishi - muayyan faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatishdan iborat qonuniyat.

Malakalarning regressi – ma'lum bir faoliyat sohasida hosil qilingan malakalarning biror sababga ko'ra, ko'p vaqt amalda ishlatilmaganligi natijasida asta-sekin so'nishidan iborat qonun.

Malakalarning rivojlanishi - muayyan faoliyat sohasiga doir malakalarning kundalik amaliyotda ko'p qo'llanilishi natijasida tobora o'sib, mukammalashib borishdan iborat qonuniyat.

Matonatlilik - shaxsning muayyan maqsadni amalga oshirish yo'lida uchraydigan har qanday ob'ektiv hamda sub'ektiv qiyinchiliklarga bardosh berib, ularni yengib chiqishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

Mehnat - tarixan tarkib topgan, maqsadga muvofiq yo'naltirilgan, boylik yaratishga qaratilgan ongli faoliyat turi.

Mehnat qobiliyati - shaxsning muayyan mehnat turini muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan jismoniy hamda psixik funksional imkoniyatlari yig'indisi.

Mehnat madaniyati - mehnatni to'g'ri tashkil qilishga doir bilimlar, malakalar va odatlar tizimidан iborat individual xislat.

Mehnat malakalari - mehnat faoliyatining ma'lum bir sohasiga doir avtomatlashgan, mustahkamlangan harakatlar.

Mehnat psixologiyasi - psixologiyaning mehnat faoliyatining psixologik muammolarini o'rjanuvchi sohasi.

Mehnat terapiyasi - mehnat jarayonlaridan davolash maqsadlarida foydalanadigan fan tarmog'i.

Mehnatsevarlik - mehnatni xurmatlash uning har qanday turini bajarishga doim tayyor turishdan iborat xarakter xislati.

Motiv - odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab.

Motivasiya - shaxsning nima uchun ma'lum vaqtida boshqa fikr va harakatlarni emas, faqat shu fikr va harakatni bajarishga qaror qilganligini asoslab berishi, tushuntirib berishdan iborat mantiqiy operasiya.

Motivlar kurashi - shaxsning oldida bir emas bir qancha maqsadlar mavjud bo'lgan taqdirda ulardan eng muhimini tanlab olish jarayonida ro'y beradigan ikkilanishdan iborat holat.

Mustaqillik - shaxsning muayyan aqliy, axloqiy yoki amaliy masalalarni hal qilishida, ayniqsa, murakkab vaziyatni baholash va maqsadga muvofiq yo'lni tanlashda o'zining mustaqil fikrlari, tamoyillari hamda e'tiqodiga ega bo'lishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

Mutaxassis - shaxsning muayyan kasbga nisbatan yaroqlilik darajasi, tayyorgarlik saviyasi, muayyan faoliyat sohasida muvaffaqiyatli ishlay olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi.

Mutaxassislik imtixonlari - mutaxassis sinovlarining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish ta'limi natijasida o'quvchilarning olgan maxsus nazariy bilimlarini tekshirish uchun o'tkaziladi.

Mutaxassislik sinovlari - o'quvchilar ishlab chiqarish ta'limining to'liq nazariy va amaliy kursini tamomlagandan keyin, ularning kasb bo'yicha olgan bilim va malakalarini tekshirish, ularga ta'rif, ixtisos darajasini berish uchun o'tkaziladigan tadbir.

Mutaxassislik tavsifnomasi - muayyan kasb yoki mutaxassis ishchilari mehnatining mazmuniga nisbatan qo'yiladigan ishlab chiqarish talablarining bayoni.

Muhandislik psixologiyasi - psixologiyaning texnika moslamalari bilan uni boshqaruvchi kishilar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish hamda o'zaro ta'sirini tekshirish bilan shug'ullanuvchi maxsus sohasi.

Odamovilik - odamlarga qo'shilmay, ko'pchilikni yog'tirmay, yakka holda yashashni afzal ko'rishdan iborat salbiy xarakter xislati.

Osoyishta tip - nerv tizimining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari teng hamda o'rtacha kuchga ega bo'lgan tipi.

Passivlik - atrofdagi narsa va hodisalarga, kishilarga nisbatan befarq munosabatda bo'lishdan va jismoniy yoki psixik faoliyatsizlikdan iborat holat.

Prinsipiallik - haqqoniylig va jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan o'z qarash hamda e'tiqodlarini qat'iy turib himoya qilishdan yoki so'z bilan ishning birligidan iborat ijobjiy xarakter xislati.

Professiogramma - muayyan kasbdagi faoliyat uchun zarur bo'lgan psixologik xususiyatlar to'plami.

Professiogrammani tajribada tekshirish - mehnat psixologiyasida muayyan kasbga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni eksperimental ravishda tekshirib ko'rish.

Psixik charchash - psixik funksiyalarning haddan tashqari kuchli yoki mutassil ishlashi natijasida ular ish qbiliyatining vaqincha qsman yo'g'ishidir.

Psixogramma - muayyan kasb yoki ixtisos sohsiga xos bo'lgan eng muhm shaxsiy sifat va xususiyatlarning yozma yoki jadval tarzda ifodalanishi.

Psixolog - psixologiya mutaxassis, psixologiya sohsida ilmiy tekshirish ishlari olib boruvchi yoki o'qtuvchilik qiluvchi shaxs.

Psixologik tavsifnama – ma'lum bir kishining aqliy, axloqiy irodaviy sifatlarning, qiziqishlar, dunyoqarashi, e'tiqodi, shuningdek, individual psixologik xususiyatlari xarakteri, temperamenti, qobiliyati va iste'dodlari ob'ektiv ravishda tasvirlab yozilgan shaxsiy hujjat.

Psixotexnika - psixologiyaning asosan mehnat psixologiyasi amaliy masalalarini o'rganuvchi sohasi.

Samimiylit - atrofdagi kishilar bilan munosabatda sofkillik vijdonlilik tariqasida ifodalanadigan shaxsiy sifat.

Sangvinik-shaxsning tez, kuchli, lekin beqaror emosional qo'zg'aluvchanligi va psixik jarayonlari bilan sifatlanadigan individual xususiyati.

Simpatiya - biror narsaga yoki shaxsga nisbatan ichki moyillik, ishonchdan iborat emosional holat.

Talabchanlik - shaxsning o'z-o'zining va o'zgalarning xulqini muayyan ob'ektiv tamoyillarga bo'y sundira olishdan iborat irodaviy xarakter xislati.

Tantiqlik - arzimagan narsalarga ham injiqlik qilaverishdan iborat salbiy xarakter xislati.

Temperament - shaxsning emosional qo'zg'aluvchanligi va harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig'indisi.

Toliqish - organizmning jismoniy va aqliy zo'riqish, salbiy emosiyalar ta'siri natijasida hosil bo'ladigan hamda ish qobiliyatining pasayishi bilan sifatlanadigan holati.

Unumli mehnat - bevosita moddiy boylik ishlab chiqarishga qaratilgan mehnat.

Uyatchanlik - asossiz tortinchoqlikda ifodalanadigan xarakter xislati.

Faoliyatni optimallashtirish - mehnat qilish, o'qish uchun eng qulay sharoitlar, psixologik imkoniyatlar yaratish yo'li bilan muayyan faoliyatning samaradorligini orttirish.

Flegmatik temperament - sekin kuchsiz va barqaror emosional qo'zg'aluvchanlik bilan tavsiflanadigan individual xususiyat.

Xayrixohlik - shaxs kechirayotgan muayyan ruhiy holatining ifodali harakatlar orqali boshqa kishilarga ham o'tib, ularda shunga mos emosional kechinmalarini hosil qilishdan iborat ruhiy hodisa.

Halollik - shaxsning o'z burchi va e'tiqodlariga nisbatan sadoqatida, atrofdagi borliqqa hamda kishilarga vijdonan munosabatda bo'lishida ifodalanadigan axloqiy sifati.

Xarakter xislati - ijtimoiy muhit ta'sirida tarkib topgan shaxsning xattiharakatlarida muntazam uchraydigan doimiy xususiyat va sifatlar yig'indisi.

Xarakterning ijobiy xislatlari- shaxsning jamiyat axloq normalari doirasidagi doimiy ijobiy xususiyatlari.

Hasadgo'ylik - o'zga shaxslarning mavqeい, qobiliyati, iste'dodi, faoliyatidagi yantuqlari, mulki kabilarga nisbatan g'arazgo'ylik munosabatida ifodalanadigan salbiy xarakter xislati.

Shaxsiy tajriba - har bir individning yoki shaxsning turmush jarayonida hosil qilgan tajribasi.

Shuhratparastlik - arzon obro'-e'tibor qozonishga jon jahdi bilan intilishdan iborat juda past xarakter xislati.

Egoizm - o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat, jamoa manfaatlaridan yuqori qo'yishga kuchli intilishda ifodalanadigan salbiy xarakter xislati.

Qat'iylik - xarakterning o'z vaqtida asosli va qat'iy qarorlar qabul qila olish va ularni ikkilanmasdan ijro etishga kirishishdan iborat irodaviy xislati.

Qiziqish - shaxsning muayyan narsa va hodisaga ega bo'lishga, bilishga faol va barqaror yo'nalishidan iborat individual xislati yoki faoliyat motivi.

Qobiliyat - shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlari yig'indisi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000. - 245 b.
2. Asomova R.Z. Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi. Psix.f.n.....dis.-T., 2002. -137 b.
3. Davletshina M.G., G.B.Shoumarov "Psixolog - pedagogicheskie aspekti proferentasii i
4. Ismogilova F.S. Professionalniy opit spesialistov i upravlenie im v usloviyakh formirovaniya rinochnoy ekonomiki. Avtoref. dis. ...doktor. psixol. nauk. - Moskva, 2000.-41 s.
5. Qadirov B.R.Sposobnosti i sklonnosti: psixofiziologicheskoe issledovanie. Tashkent:
6. Klimov Ye.A. "Kak vibrat professiyu" Moskva, 1990.
7. Klimov Ye.A. Psixologo-pedagogicheskie problemi professionalnoy konsultasii. M.: Znanie, 1983-96s.
8. Kondakov I.M. "Individualno - psixologicheskie osobennosti podrostkov v vibore professii" Moskva, 1989.
9. Ishmuhammedov R.Abduqodirov A.Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar.Toshkent -2008.
10. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya. T. 2010.
11. Davletshin M.G., S.To'ychieva "Umumiy psixologiya". O'quv qo'llanma. T. 2002.
12. F.I.Haydarov,N.I Xalilova.Umumiy psixologiya.T.2010
13. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.T.: Nizomiy, 2003.
14. Shadmonov SH.SH., Baubekova G.D. Pedagogicheskoe masterstvo i innovatsii v prepodavanii ekonomiceskoy teorii: Metodicheskoe posobie. - T.: TSentr "Yangi asr avlodi", 2004.
15. Faberman B.L,Musina R.G, Jumaboeva F.A.Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.T-2002.